

90 *gil*
TDIU

BIZNES HUQUUQI

TOSHKENT

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

BIZNES HUQUQI

O‘QUV QO‘LLANMA

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan noyuridik oliy ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT – 2021

UO‘K: 334.722.02(075.8)
KBK 65.9(5O‘)09ya73
R 56

A.N.Rahmonov, N.M.Umurzakova, D.R.Rustamova, M.Tadjibayeva. Biznes huquqi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021, 264 bet.

ISBN 978-9943-7629-7-8

Ushbu o‘quv qo‘llanmada biznes huquqi sohasidagi huquqiy islohotlar, ularni talabalarga yetkazib berishning yangi uslublari va barcha mavzular bo‘yicha namunaviy ssenariylar bayon qilingan. Mavzular bo‘yicha nazorat savollari, glossariylar, normativ-huquqiy hujjatlar, mavzu mazmuniga oid chizmalar mazkur qo‘llanmaning tavsifli xususiyatidir.

O‘quv qo‘llanma noyuridik oliy ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga biznes sohasining huquqiy asoslarini yaxshi bilishi va amalda qo‘llay olishlari uchun tayyorlangan.

В данном учебном пособии излагаются правовые реформы в области предпринимательского права, использованы новые методы при подаче материала для студентов и составлены примерные сценарии (разработки) по всем темам. Характерной особенностью данного учебного пособия являются последовательное составление контрольных вопросов по темам, глоссария, использование нормативно-правовых документов, а также представлены таблицы по содержанию предлагаемых тем.

Учебное пособие предназначено для студентов, обучающихся по всем направлениям неюридического профиля, в целях запоминания правовой базы бизнеса и применения ее на практике.

This study guide outlines legal reforms in the field of business law, uses new methods for presenting material to students, and compiles sample scenarios (developments) on all topics. A characteristic feature of this tutorial is the sequential compilation of control questions on topics, a glossary, the use of regulatory documents, as well as tables on the content of the proposed topics. The manual is intended for students studying in the all directions in order to memorize the legal framework of the studied industry and apply it in practice.

UO‘K: 334.722.02(075.8)
KBK 65.9(5O‘)09ya73

Ma’sul muharrir:

A.Muxtorov – f.f.d., prof., Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri.

Taqrizchilar:

M.Utemuratov – Arxitektura va qurilish instituti Falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasini professor v.b., yuridik fanlari nomzodi;

B.A.Aliyev – TDIU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini professori.

ISBN 978-9943-7629-7-8

© «INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021.

KIRISH

Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab, tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.
Amir Temur (Temur tuzuklari)

Barchamizga ma'lumki davlatning kuch qudrati – avvalo, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur imkoniyatlarni tashkil etib berish qobiliyati bilan o'lchanadi.

Ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan bog'liq tartib-taomillarning turlari va sonini qisqartirish, soddalashtirish va ochiq-oydinlik darajasini oshirish, biznesni yuritish shart-sharoitlarini baholash mezonlarining jahon amaliyotida mavjud qabul qilingan tizimini joriy etish va shu asosda mamlakatimiz ishbilarmonlik va investitsiya muhiti darajasining xalqaro reytingini yanada oshirish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi tadbirkorlar faoliyatini erkinlashtirishda, ularga keng yo'l ochib bergan holda nazorat qiluvchi organlarning vakolatlarini aniq-ravshan belgilab olishda va albatta, tadbirkorlik subyektlari huquqlarining himoyasini amalda ta'minlashda ko'rinmoqda.

Darhaqiqat, bugun har birimiz tadbirkorlikning rivojlanishi jamiyatimiz ravnaqi, aholi farovonligini ta'minlash hamda barqaror iqtisodiy hayotni barpo etishning muhim omili ekanligini chuqur his etmoqdamiz.

Hozirgi kunda ushbu yo'nalish bo'yicha talabalarni yangi avlod darsliklari bilan ta'minlash maqsadida, tadbirkorlik huquqi fanlari bo'yicha mukammal ravishda o'z bilimlarini boyitib, kelajakda ushbu sohada yetuk malakali kadrlar bo'lishda yordam tarzida ushbu darslik kafedra tomonidan ishlab chiqildi. Xulosa o'rnida shuni aytish

mumkinki, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati erkinligining davlat tomonidan to'liq kafolatlanganligi iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda.

O'quv qo'llanmada biznes subyektlari, ularning tashkiliy-huquqiy shakllari, biznes subyektlarini tashkil etish, faoliyatini amalga oshirish, qayta tashkil etish, tugatishning huquqiy asoslari va tartibi, biznes huquqi subyektlarining mulkka nisbatan huquqlari, tadbirkorlik (xo'jalik) shartnomalari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalash va kreditlash, ularni soliqqa tortish, tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy himoya tizimi va javobgarlik asoslari kabi mavzular yoritilgan.

1-mavzu. Biznes huquqi tushunchasi va manbalari

Reja:

1. Biznes huquqi tushunchasi, predmeti va uning boshqa huquqiy fanlardan farqi.
2. Bozor iqtisodiyoti shakllanishi sharoitida biznes huquqining roli.
3. Biznes huquqi manbalari.

1. Biznes huquqi tushunchasi, predmeti va uning boshqa huquqiy fanlardan farqi

Har qanday fanni o'rganishda uning tushunchasi va predmetini to'g'ri anglab olish zarur. O'z-o'zidan tushunarliki, biznes huquqini o'rganish ham uning tushunchasini tushunib olishdan boshlanadi. Ma'lumki, huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Huquq ma'lum tarmoqlarga bo'linadi. Masalan, oila huquqi, jinoyat huquqi va sh.k. Biznes huquqi ana shunday huquq tarmoqlaridan biridir.



Huquq tarmoqlari bir-biridan, avvalo, huquqiy boshqaruv predmeti va usuli bilan farq qiladi. Har bir huquq tarmog'i ma'lum ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ijtimoiy munosabatlar rang-barangdir: oiladagi munosabatlar, mehnat sohasidagi munosabatlar va boshqalar. Bular ijtimoiy munosabatlarning qirralaridir. Har bir qirra bitta ijtimoiy munosabatni ifodalaydi. Bunday qirralar ko'p va biri ikkinchisiga o'xshamaydi. O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoyat va boshqa mustaqil tarmoqlaridan biri sifatida biznes huquqi ham ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Lekin qanday ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi? Biznes huquqi tushunchasi mazkur huquq sohasiga doir huquqiy normalar orqali tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardan tashkil topgan. Biznes huquqi korxonalar, birlashmalar, tashkilot

va muassasalar o‘rtasida va ularning bo‘limlari bilan bo‘ladigan biznes faoliyatini amalga oshirish jarayoniga rahbarlik qilishda tashkil topadigan munosabatlarni tartibga soladigan huquqning alohida tarmog‘idir¹

“Biznes huquqi” tushunchasining mazmunini anglab olishdan avval “biznes” tushunchasining mazmunini bilib olish kerak. Xo‘sh, BIZNESning o‘zi nima? Buni bilish uchun qonun hujjatlariga murojaat qilish kerak. O‘zRning “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (2000.25.05.) bu savolga quyidagicha javob beradi (3-modda):

“TADBIRKORLIK FAOLIYATI (TADBIRKORLIK) — tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat”

uchraydigan asosiy elementlar quyidagilar:

- biznes ro‘yxatga olingan subyektlar tomonidan amalga oshiriladi;
- biznes qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi;
- biznes tavakkal qilib yuritiladigan faoliyat;
- biznes mulkiy javobgarlik ostida amalga oshiriladi;
- biznes daromad olishga qaratilgan faoliyatdir;
- biznes shaxsning o‘z tashabbusi asosida yuritiladigan faoliyat;
- “tadbirkorlik” va “tadbirkorlik faoliyati” tushunchalari bir ma’noni bildiradi.

Biznes huquqi huquq tarmog‘i sifatida biznes va iqtisodiyot sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi normalar yig‘indisidan iborat. “Iqtisod” so‘zining o‘zi ham aslida grekcha “ekonomos” so‘zidan olingan bo‘lib, “xo‘jalik” degan ma’noni anglatadi.

¹ Yuridik ensiklopediya. Yuridik fanlari doktori, professor U.Tadjixanovning umumiy tahriri ostida. – T: Sharq, 2001, 529-bet.

Xo‘jalik yuritish bilan bog‘liq faoliyat 3 asosiy bosqichni qamrab oladi:

1. Ishlab chiqarishgacha (ekspluatatsiyagacha) bo‘lgan bosqich. Bunda asosan ro‘yxatdan o‘tkazish, litsenziyalash, ruxsatnoma olish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.

2. Ishlab chiqarish (ekspluatatsiya) bosqichi. Bu bosqichda tovarlarni ishlab chiqarish, ularni topshirish, ishlarni bajarish, xizmat ko‘rsatish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.

3. Ishlab chiqarishdan (ekspluatatsiyadan) keyingi bosqich. Bu soliq xizmati, statistika organlari oldidagi majburiyatlarning vujudga kelishi hamda bajarilishi va shu kabilardan iborat.

Ko‘rinib turibdiki, xo‘jalik faoliyati faqat tovar ishlab chiqarish bilan bog‘liq munosabatlarnigina emas, balki ishlab chiqarishni boshlash uchun tegishli xatti-harakatlarni amalga oshirish (bino sotib olish yoki uni qurish, joy hozirlash, yoqilg‘i, xom ashyo, asbob-uskunalarga ega bo‘lish va shu kabilar) va shu bilan bog‘liq munosabatlarni ham qamrab oladi. Ana shularning barchasi biznes huquqining predmetini tashkil etuvchi munosabatlardir. Bular bevosita daromad (foyda) olishga qaratilmagan boshqa maqsadlar bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Daromad (foyda) olishga qaratilmagan maqsadlar jumlasiga mulkni boshqarish, idora qilish, korxonani tashkil etish yoki uni tugatish bo‘yicha tashkiliy xarakterdagi faoliyatlarni kiritishimiz mumkin. Demak, biznes munosabatlari bevosita foyda olish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda ham yuzaga keladi. Ana shu munosabatlar ham bevosita biznes huquqi qoidalari bilan tartibga solinadi. Biznes munosabatlarining asosiy qismini xo‘jalik subyektlarining o‘zaro vertikal va gorizontal munosabatlari tashkil etadi. Biznes huquqi fanida xo‘jalik munosabatlari asosan uch guruhga bo‘linadi:

1. Xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar. Xo‘jalik munosabatlarining mazkur guruhi bevosita mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq xo‘jalik faoliyatidir. Ma‘lumki, sobiq Ittifoq davrida, ya‘ni rejali iqtisodiyot hukmron bo‘lgan sharoitda xo‘jalik munosabatlari faqat korxonalar hamda ularning bo‘limlari o‘rtasida vujudga kelar edi. Xo‘jalik faoliyatini alohida fuqaro emas, balki fuqarolarning jamoasi olib borar edi. Fuqaro esa xo‘jalik faoliyatini yuritish jarayonida tashkilot jamoasi tarkibida ishtirok etar edi. Uning bu munosabatlari

esa mehnat huquqi bilan tartibga solinar edi. Hozirgi paytda, ya'ni bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tilib, demokratik huquqiy davlat qurilayotgan vaqtda yakka shaxs – tadbirkorning xo'jalik faoliyati biznes huquqining predmetini tashkil etadi. Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish mulkning davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiy mulkning shakllantirilishidan boshlandi. Alohida fuqaroning xususiy mulk egasi sifatida e'tirof etilishi uning biznes faoliyati bilan shug'ullanishi uchun imkoniyat yaratdi. Fuqaroning bu faoliyati uchun yetarli huquqiy asoslar yaratildi. Endilikda alohida fuqaro daromad (foyda) olish maqsadida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan vaqtdan e'tiboran tadbirkor maqomiga ega bo'lgach, xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ldi. Bunda uning xo'jalik yurituvchi boshqa subyektlar bilan huquqining tengligi kafolatlangan. Respublikamizning bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib borishi jarayonida biznes faoliyati ishtirokchilarining ham ahamiyati tobora oshib bormoqda. Bu faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari ishlab chiqarishni tashkil etish, biznesni ro'yxatga olish, hisob-kitob olib borish, soliq to'lash, bozorga tovar, ish va xizmat bilan chiqish tartib-qoidalarini belgilash, boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlar va shu kabilarni huquqiy boshqarishda namoyon bo'ladi.

Demak, korxonalar va tadbirkorlarning ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlari bir butun holda biznes huquqiga oid qonun-qoidalar bilan tartibga solinadigan xo'jalik munosabatlarining birinchi guruhini tashkil etadi.

2. Xo'jalikka rahbarlik qilishdan kelib chiqadigan munosabatlar. Xo'jalik munosabatlarining ikkinchi guruhi xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qilish, ya'ni xo'jalikni boshqarish bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Xo'jalik subyektlari mahalliy hokimiyat organlari bilan tegishli xo'jalik faoliyatini tashkil etish va mulkni boshqarishda ishtirok etadi. Bunday xo'jalik munosabatlari, garchi foyda olish bilan bog'liq bo'lsa-da, xo'jalik boshqaruvini o'z ichiga oladi. Davlat byudjetidagi muassasalar, xayriya jamg'armalari va xo'jalik munosabatlariga kirishadigan boshqa muassasalar faoliyati foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat jumlasiga kiradi. Bu munosabatlar biznes faoliyati bilan juda yaqin bo'lib, shakli jihatdan uni amalga oshirishdan deyarli farqlanmaydi va shu tufayli biznes huquqi bilan

bog‘liq bo‘ladi. Bu xo‘jalik munosabatlarining ikkinchi guruhini tashkil etadi.

3. Ichki xo‘jalik munosabatlari. Bu har bir korxonaning, birlashmaning ishlab chiqarish tuzilmalari o‘rtasidagi ichki munosabatlari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xo‘jalik munosabatlarining uch asosiy guruhi bozor iqtisodiyotiga oid bo‘lgan va davlat tomonidan tartibga solinadigan xo‘jalik subyektlarining ko‘p qirrali faoliyatini o‘zida mujassamlashtiradi. Davlat jamiyat manfaatini hisobga olgan holda xo‘jalik yurituvchi subyektlarga iqtisodiy ta’sir etadi, uning faoliyatini nazorat qiladi.

Xo‘jalik (biznes) huquqining o‘ziga xos xususiyatlari uning subyektlari bilan ham bog‘liqdir.

Biznes huquqi huquqning mustaqil tarmog‘i sifatida boshqa huquqiy fanlardan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Biznes huquqini huquqning bir tarmog‘i deb hisoblashga uning fuqarolik huquqi va boshqa huquqlardan farqi asos bo‘ladi. Uning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat.

Ma’lumki, biznes huquqi huquqning alohida tarmog‘i bo‘lgan fuqarolik huquqiga juda yaqin bo‘lsa-da, u eng avvalo tushunchasi, predmeti, subyektlari bilan undan farq qiladi. Bu ikki fanning tushunchasidagi farqni olib ko‘raylik. Fuqarolik huquqining predmeti tarafdarning teng huquqliligiga asoslangan mulkiy munosabatlardan iborat. Biznes huquqida ham mulk bilan bog‘liq munosabatlar salmoqli o‘rin tutadi. Lekin biznes huquqida mulkiy munosabatlar shu munosabat ishtirokchilarining teng huquqliligi bilan bir qatorda biri ikkinchisiga itoat etishi, davlatning iqtisodga rahbarlik qilishi orqali ham kelib chiqadi. Fuqarolik huquqining subyektlari bo‘lib barcha fuqarolar hisoblanadi. Fuqarolar biznes huquqining ham subyekt bo‘la oladi, lekin bunda faqat tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan fuqarolargina subyekt sifatida qaraladi. Yuridik shaxslar ikkala huquq sohasining ham subyekt hisoblanadi. Ammo yuridik shaxsning tashkil etilishi, ular tomonidan biznes faoliyatining amalga oshirilishi va ularga rahbarlik qilish jarayonlari farq qiladi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarda davlat ikkinchi taraf bilan teng huquqli bo‘lib qatnasha, biznes huquqida esa u iqtisodiyotga rahbarlikni amalga oshiruvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Fuqarolik huquqi bilan tartibga


solinuvchi shartnomaviy munosabatlar asosan iste'molchilarning moddiy ehtiyojini ta'minlashga qaratiladi. Agar shartnomaviy munosabatlar tovarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmasa, bunday munosabatlar biznes huquqining normalari bilan tartibga solinadi. Ana shu jihatlari bilan biznes huquqi mehnat huquqiga juda yaqin turadi. Ammo bu ikki huquq sohasi ham bir-biridan farqlanadi. Biznes huquqi subyektlar o'rtasidagi biznes munosabatlarini tartibga solsa, mehnat huquqi esa ish beruvchi bilan xodimlarning mehnat shartnomasi asosida ro'yobga chiqadigan munosabatlarini, mehnat jamoasidagi ichki tartib-qoidalarni, ish rejimini va shunga o'xshash mehnat shartnomasi bilan bog'liq boshqa munosabatlarni tartibga soladi. Biznes munosabatlarini amalga oshirishda tadbirkor yollanma mehnatdan foydalanishi ham mumkin. Lekin bu munosabatga mehnat qonunchiligi tadbiiq etiladi. Mehnat qonunlari, mehnat shartnomalari, jamoa shartnomalari, mehnat jamoasi faoliyatini, uning kengashi faoliyatini tartibga solishda tadbiiq etiladi.

Biznes huquqining ma'muriy huquq fani bilan aloqadorligini ko'rib chiqaylik. Ma'muriy huquqning predmetini ma'muriyatning buyruq hamda ijro faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Bunday munosabatlar itoat etuvchi organlarga va mansabdor shaxslarga o'z ko'rsatmalari orqali ta'sir etish, idora etish kabi hokimiyatni amalga oshirish bilan izohlanadi. Biznes munosabatlarida esa buyruqbozlik faoliyatlari deyarli yo'q. Mavjudlari ham bozor munosabatlariga tobora o'tib borilayotgan bir sharoitda barham topib bormoqda. Ma'muriy huquq biznes huquqidan deyarli butunlay farq qiladi. Chunki ma'muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar ijro farmoyishi bilan bog'liq bo'lib, biznesdan birmuncha uzoqroqda turadigan munosabatdir.

Biznes huquqi konstitutsiyaviy huquq, ekologiya huquqi va qishloq xo'jaligi huquqi bilan ham o'ziga xos xususiyatlari orqali farqlanadi. Biznes huquqi turdosh huquqlar — xo'jalik, fuqarolik, ma'muriy va boshqa huquqlardan o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Biznes huquqining mohiyati mulkchilik subyektlarining tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan foyda yoki daromad olishga qaratilgan faoliyatidan iborat. Xo'jalik huquqining mohiyati ham tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati bilan bog'liq,

ammo bu faoliyat doimo foyda olishga qaratilmaydi. Biznes sohasidagi faoliyat aksariyat mustaqil bo‘lib, tadbirkorning o‘z xohishi, istagi bilan aniqlanadi. Biznes huquqi bilan xo‘jalik huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar go‘yo bir xildek ko‘rinadi, ammo ular bir-biridan farqlanadi. Biznes qoidalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar xo‘jalik huquqi qoidalari bilan tartibga solinadigan munosabatlardan farq qiladi. Xo‘jalik huquqiga doir faoliyat davlat yoki jamoa tashkiloti tomonidan belgilangan faoliyat hisoblanadi, uning ishtirokchilari faqat o‘z vazifasini bajargan bo‘lsa bas, undan qancha foyda va daromad kelish-kelmasligi ularni qiziqitirmaydi.

2. Bozor iqtisodiyoti shakllanishi sharoitida biznes huquqining roli. Rejali iqtisodiyot vaqtida barcha munosabatlar, shu jumladan tovar ishlab chiqarish yuqoridan beriladigan buyruqlar, topshiriqlar va qarorlar asosida amalga oshirilar edi. Buning oqibatida respublikamizda xalq xo‘jaligining faqat bir sohasi, ya‘ni xom ashyo yetkazib berish tuzilmasigina rivojlangan edi. Ma‘muriy buyruqbozlikka asoslangan xo‘jalik huquqi tizimi mukaddam faqat davlatga tegishli bo‘lgan korxonalar, tashkilotlarga doir xo‘jalik munosabatlariga, shuningdek kooperativ va boshqa tashkilotlar bilan bog‘liq xo‘jalik munosabatlariga xizmat qilgan edi.



Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘z iqtisodiyotimiz asoslarini juda noqulay sharoitda boshlashga to‘g‘ri keldi. Bunda eng asosiy masala ichki iqtisodiy siyosatni inson manfaatlariga qarata, mehnatni rag‘batlantirish, aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini davlat yo‘li bilan himoya qilishga qaratilgan bozor iqtisodiyotini qurishdan iborat bo‘ldi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejaga asoslangan hamma uchun majburiy tartib o‘z kuchini yo‘qotdi. Ammo reja faqat alohida olingan holatlarga, ya‘ni davlat ehtiyojlarini ta‘minlashga qaratilgan topshiriqlarni bajarishga tadbiriq etiladigan

bo'ldi.

Biznes faoliyati – iqtisodiy faoliyatning tarkibiy qismidir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida bozor munosabatlarining tobora ildiz otib borishi biznes huquqining ham rivojlanishiga sabab bo'lmokda. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish xo'jalik munosabatlari to'g'risidagi va tegishli xo'jalik huquqi predmeti haqidagi tushunchaning ham o'zgarishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda xilma-xil shakldagi mulk, fuqaro mulklarining kichik korxonalar shaklida, dehqon xo'jaligi, xususiy biznes faoliyati shaklida ishlab chiqarishga jalb etilishi xo'jalik munosabatlarining shakli, hajmi, xarakteri va mazmunini o'zgartirmokda. Bozor munosabatlari korxonalarining² o'zaro shartnomaviy munosabatlari bilan o'zviy bog'liqdir. Bozor munosabatlari davrida tovar ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq jarayonlar respublikamizning bir qator qonunlari, jumladan, Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida", "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi kabi qonunlar bilan huquqiy tartibga solindi. Ana shu va shunga o'xshash boshqa qonunlar bozor munosabatlarini tartibga soluvchi muhim huquqiy hujjatlar bo'lib hisoblanadi. Biznes huquqi esa ushbu qonunlarga tayanib rivojlandi va rivojlanib bormoqda, bozor iqtisodiyotining shakllanish va rivojlanish jarayonida muhim huquqiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida xo'jalik munosabatlarini huquqiy tartibga solish bozor uchun tovar ishlab chiqarishga (ishlarni bajarishga, xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashgan faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli har qanday subyekt o'ziga tegishli mulk yuzasidan ishlab chiqarish faoliyatiga kirishadi va uni amalga oshirish jarayoni xo'jalik (biznes) huquqi bilan tartibga solinadi. Xo'jalik huquqi davlatning ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir etishi bo'yicha kelib chiqadigan munosabatlariga ham tadbiiq etiladi. Bu davlat bilan boshqa subyektlarning o'zaro vertikal bo'yicha xo'jalik yuritish munosabatlaridir. Yurtimizda tadbirkorlarga borgan sari keng

² Korxonalar muassasa, tashkilot, birlashma va shu kabilarni bir so'z bilan «korxonalar» deb atadik.

imkoniyatlar va imtiyozlar yaratilmoqda. Tadbirkorlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar borasida 2015-yilda qonunchiligimizda amalga oshirilgan o'zgartishlarga ham e'tiborni qaratish muhimdir. Bunda amalga oshirilgan o'zgartishlarning quyidagi o'rinlariga e'tibor beraylik:

Birinchi, nazorat organlarining rejali tekshirishlari masalasida. "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zR Prezidentining 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmoni asosida barcha nazorat organlari uchun rejali tekshirishlar davriyligi birxillashtirildi. Bu qoida bitta tadbirkorlik subyektida ketma-ket, ya'ni 1 yilda 2-3 bor tekshirishlar o'tkazishga chek qo'ydi. Nazorat organlarining rejali tekshirishlari bitta tadbirkorlik subyektida har yili yoki 2 yilda 1-marta o'tkaziladi. Bu hol korxonaga faoliyatiga salbiy ta'sir etmay qolmasdi. Mazkur farmon masalaga oydinlik kiritdi. 2015-yilning 1-iyulidan e'tiboran, mikrofirmaga, kichik korxonaga va fermer xo'jaliklari faoliyati bilan bog'liq barcha rejali tekshirishlar ko'pi bilan 4 yilda 1-marta, boshqa biznes subyektlari uchun esa 3 yilda 1-marta, xususiy banklar uchun 5 yilda 1-marta qilib belgilandi. Yana bir muhim jihat shundaki, endi nazorat qiluvchi organlar rejali tekshirishlar o'tkazish to'g'risida 30 kalendar kun avval tadbirkorlik subyektiga yozma xabar berish orqali ma'lum qiladi. Bunda tekshirish o'tkazish muddati 30 kalendar kundan ko'p bo'lishi mumkin emas. Moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish DSX organlari tomonidan o'tkaziladi. Agar tekshiruvda soliq va valyutaga oid jinoyatlar alomatlari aniqlansa, tekshiruv O'zR Bosh prokuraturasining maxsus departamenti tomonidan o'tkaziladi. Prezidentimiz farmonida belgilangan normalar 2000-yil 25-mayda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda ham o'z ifodasini topdi. Aytilganlarga ko'ra, davlatimiz rahbarining mazkur farmoni biznesni yanada keng taraqqiy etishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi, O'zRning Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga kiritilgan o'zgartishga ko'ra, birinchi marta huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs noqonuniy biznes faoliyatidan olingan daromadni davlatga ixtiyoriy ravishda to'lasa, shuningdek biznes subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan taqdirda, huquqbuzarlik

ashyolari musodara qilinmasdan tadbirkor javobgarlikdan ozod qilinadi. O‘zRning Jinoyat kodeksiga kiritilgan o‘zgartish(184-m.)ga ko‘ra, agar shaxs birinchi marta jinoyat sodir etgan bo‘lsa, DSX organining qarorini olgan kundan e‘tiboran 30 kun ichida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, penyalar, boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararining o‘rnini to‘liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

Uchinchidan, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilgan o‘zgartishga ko‘ra, biznes subyektiga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘yicha tekshiruvlarda advokatlar albatta ishtirok etadilar. Tadbirkorga advokatni ishga jalb etish huquqi berildi. Tadbirkor bu huquqni rad etishga haqli. Tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs tadbirkorga advokatni yollash yoki uni rad etish huquqi borligini yozma ravishda tushuntiradi. Agar tadbirkor advokatni rad etsa, bu uning advokatni istalgan vaqtda yollash huquqiga molelik qilmaydi.

To‘rtinchidan, xususiy tadbirkorlarga Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 31-iyuldagi 219-sonli qaroriga asosan 1 nafardan 3 nafargacha miqdorda xodimlarni yollash huquqi berildi. Tadbirkor va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlar mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Bunda yozma mehnat shartnomasi tuziladi. Mehnat shartnomasida xususiy tadbirkorning imzosi muhr bilan tasdiqlanishi shart emas. Ishga qabul qilish to‘g‘risida buyruq rasmiylashtirilmaydi. Mehnat daftarchasi yuritilmaydi. Xodimning mehnat stajini hisoblash to‘langan sug‘urta badallari asosida amalga oshiriladi. Bunda Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasining ma’lumoti asos hisoblanadi.

3. Biznes huquqi manbalari

“Manba” so‘zi arab tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib, ilmiy tadqiqot ishlari uchun asos bo‘lgan asar, hujjat va shu kabilarni anglatadi³. Huquq manbai deganda, huquqiy normalarning mustahkamlanish, ya’ni tashqi ifodalanish shakli tushuniladi.

O‘zRdagi huquq tizimining manbai – bu vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadigan qonunlar va

³ Qarang: O‘zbek tilining izoxli lug‘ati. Z.M.Ma’rufov tahriri ostida. – M.: “Russkiy yazik” nashriyoti, 1981. 1-jild, 445-bet.

chiqariladigan huquqiy hujjatlardir⁴. Har bir huquqiy fan uchun ana shu qonunlar va huquqiy hujjatlarning qaysi biri yoki uning qaysi huquqiy normasi manba ekanligini ajratib olish kerak bo‘ladi. Bu masala, ayniqsa, biznes huquqi uchun muhimdir. Chunki biznes huquqiy normalarini yagona tizimga soluvchi alohida huquqiy hujjat hozircha mavjud emas. Lekin shunday bo‘lsa-da, respublikaning vakolatli organlari tomonidan qabul qilingan qator qonunlar va huquqiy hujjatlar borki, ularning deyarli katta qismi bevosita biznes huquqining manbai bo‘la oladi. Ulardan tashqari, oldingi yillarda amalda bo‘lgan va xo‘jalik-protsessual harakatlarni huquqiy tartibga solishda katta rol o‘ynagan “O‘zRning Xo‘jalik protsessual kodeksi”ni ham ta’kidlab o‘tish lozim. Har bir huquqiy fan uchun ana shu qonunlar va huquqiy hujjatlarning qaysi biri yoki uning qaysi huquqiy normasi manba ekanligini ajratib olish kerak bo‘ladi. Bu masala, ayniqsa, biznes huquqi uchun muhimdir. Chunki biznes huquqiy normalarini yagona tizimga soluvchi alohida huquqiy hujjat hozircha mavjud emas. Lekin shunday bo‘lsa-da, respublikaning vakolatli organlari tomonidan qabul qilingan qator qonunlar va huquqiy hujjatlar borki, ularning deyarli katta qismi bevosita biznes huquqining manbai bo‘la oladi. Ulardan tashqari, oldingi yillarda amalda bo‘lgan va xo‘jalik-protsessual harakatlarni huquqiy tartibga solishda katta rol o‘ynagan “O‘zRning Xo‘jalik protsessual kodeksi”ni ham ta’kidlab o‘tish lozim⁵.

Biznes huquqi manbai deb, xo‘jalik subyektlari o‘rtasida kelib chiqadigan xo‘jalik faoliyatiga doir munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi qonun normalarining yig‘indisiga aytiladi.

O‘zR Konstitutsiyasi huquqning barcha sohalarida bo‘lgani kabi xo‘jalik huquqining ham asosiy manbaidir. Konstitutsiyaning 36-moddasida belgilanganidek, “har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli. Banka qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi”.

⁴ Normativ xujjatlarning turlari bo‘yicha qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Normativ huquqiy xujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni. – www.lex.uz.

⁵ Xo‘jalik protsessual kodeksi 1993-yilning 2-sentyabrida qabul qilingan edi. 1997-yilning 30-avgustida O‘zR Oliy Majlisi tomonidan yangi tahrirdagi “Xo‘jalik protsessual kodeksi” qabul qilindi va u 1998-yilning 1-yanvaridan e‘tiboran amalga kiritildi. Keyingi yillarda mazkur kodeksga bir qator tuzatish va qo‘shimchalar kiritildi. Biroq 2018-yil 24-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi tasdiqlanishi va 2018-yil 1-apreldan e‘tiboran kuchga kiritilishi munosabati bilan Xo‘jalik protsessual kodeksi o‘z kuchini yo‘qotdi.

O‘z ichiga uchta moddani (53, 54 va 55-moddalar) qamrab olgan Konstitutsiyaning XII bobi “Jamiyatning iqtisodiy negizlari” deb nomlangan. Bu bobda, xususan bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, davlat iste’molchilar huquqining ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, biznes va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlashi, mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi va shu kabilar belgilangan.

Konstitutsiyadan tashqari biznes huquqining manbai bo‘lib O‘zR Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, parlament palatalari tomonidan qabul qilingan qarorlar, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda tegishli vakolatga ega bo‘lgan mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Biznes huquqi tushunchasiga ta’rif bering.
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida biznes huquqi qanday ahamiyatga ega?
3. Biznes huquqining predmetini nima tashkil etadi?
4. Biznes huquqi boshqa huquqiy fanlardan nimasi bilan farq qiladi?
5. Biznes huquqining manbalari nimalardan iborat?
6. Biznes faoliyatini tartibga soluvchi qanday normativ-huquqiy hujjatlarni bilasiz?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi: Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: “Adolat”, 2018-y. – 376 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 29-dekabr, № 271-272 (7229-7230).

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumi qarorlari to‘plami. – T.: O‘zbekiston, 2012.

4. Azizov X.T., Shirinov J., Bakayev Sh. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Akademiya, 2013. – 114 b.

5. Ibratov B.I. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. – Toshkent: Moliya, 2001. – 218 b.

6. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // Mualliflar: M.Abdullayev, M.Abdullayeva, F.Abdullayeva, G.Abdurazzoqova va boshq.; R.Ro‘ziyev va Q.Xonazarov umumiy tahririda. To‘ldirilgan uchinchi nashri / - T.: “Sharq”, 2006.

7. Tadbirkorlik huquqi. Umumiy qism. Darslik. Tahrir hay‘ati: X.Rahmonqulov, Sh. M.Niyozov va boshq. Masul muharrir: Sh.Ro‘zinazarov. — T.: 2002.

2- Mavzu. Biznes huquqiy munosabatlar

Reja:

1. Biznes huquqiy munosabat tushunchasi va ishtirokchilari.
2. Biznes huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini vujudga kelish asoslari
3. Biznes huquqiy munosabatlar turlari.

Tayanch soʻz va iboralar: huquqiy munosabat, Biznes huquqiy munosabatlar, Subyektiv huquq, gorizontal, vertikal, yuridik faktlar.

Maʼlumki, ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari bilan tartibga solinadigan qismi huquqiy munosabatlarni tashkil qiladi. Oʻz navbatida huquqiy munosabat oʻzaro subyektiv huquq va majburiyatlar bilan bogʻliq boʻlgan shaxslar oʻrtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqa hisoblanadi.

Biznes huquqiy munosabatlar – bu tadbirkorlik subyektlarining tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va tugatish hamda uni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bilan bogʻliq boʻlgan, tadbirkorlik huquqiy normalari asosida tartibga solinadigan munosabatlardir.

Biznes huquqi fanida munosabatlar asosan uch guruhga ajratiladi.

* tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, uni amalga oshirish bilan bogʻliq

* tadbirkorlik subyektlarining boshqa subyektlar bilan bogʻliq va uni boshqarish munosabatlari

* tadbirkorlik subyektining ichki munosabatlari

*Biznes huquqiy munosabatlari ishtirokchilari faoliyati esa har doim ham foyda olishga qaratilgan boʻlmasligi mumkin va qolaversa, iqtisodiyotni davlat yoʻli bilan tartibga solish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni ham xoʻjalik huquqiy munosabatlar va bir vaqtning oʻzida tadbirkorlik huquqiy munosabatlar deyish mumkin.

* Har bir huquq sohasining huquqiy munosabatlari o'ziga xos subyektiga, obyektiga va munosabat mazmunini belgilovchi subyektiv huquq va majburiyatlariga ega.

* Biznes huquqiy munosabatlarning mazmunini munosabatda ishtirok etuvchilarning subyektiv huquqlari va burchlari tashkil etadi.

* Subyektiv huquq deganda, muayyan huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxsga tegishli bo'lgan huquq nor-malari tushuniladi. Davlat tomonidan o'rnatilgan tartib qoidalar asosida vujudga keladi va ularga muvofiq ra-vishda amalga oshiriladi.

* Biznes huquqiy munosabatlarning mazmunini huquqlar bilan bir qatorda majburiyatlar ham tashkil etadi.

* Biznes xuquqiy munosabat ishtirokchilari aksariyat hollarda o'zlariga tegishli mulkka egalik qilish, foyda-lanish, uni tasarruf etishda muayyan mustaqillikka ega bo'-lib, bir-birlariga nisbatan teng huquqli shaxslar hisoblanadilar.

* Biznes huquqiy munosabatlarning subyektlari bo'lib ana shu munosabatlarda qatnashuvchi shaxslar hisoblanadi. Bular yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan korxonalar va tashki-lotlar, shuningdek, ularning bo'linmalari hisoblanadi.

* Biznes xuquqiy munosabatlarda subyekt sifatida davlat, ma'muriy hududiy tuzilmalar, korxonalar va ular-ning bo'linmalari, yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkor fuqarolar ishti-rok etishlari mumkin.

Biznes huquqiy munosabatlar turlari:

* Obyektiga ko'ra: mulkiy va nomulkiy

* O'zaro aloqa xarakteriga ko'ra: mutlaq va nisbiy

*

Huquq egasi manfaatlarini qanoatlantirish usuliga ko'ra: ashyoviy va majburiyatli

* Nomulkiy huquqiy munosabatlar-xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z faoliyatlarida foydalanadigan nomoddiy nematlar, xususan, firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi, tovar ishlab chiqarilgan joy nomi, ti-jorat siridan foydalanishda, shuningdek ishchanlik obro'-sini himoya qilish kabi jarayonlarda vujudga keladigan munosabatlar hisoblanadi.

* Mutlaq ashyoviy huquqiy munosabat-obyekti ashyo hisoblanib, bu tarzda munosabatlar uchun xarakterli xu-susiyat shundan iboratki, subyekt qonun yo'l qo'ygan asos-larda o'zining mulkka bo'lgan huquqini, ya'ni egalik, foy-dalanish va tasarruf etish bo'yicha xulq-atvorini belgi-lovchi harakatni amalga oshiradi.

* Nisbiy huquqiy munosabatlar: bunda ikki yoki undan ortiq shaxslar o'zaro huquq va majburiyat sohiblari bo'ladi. Bu yerda biz kre-ditor va qarzdor o'rtasidagi majburiyatda nisbiy munosabatlarni ko'ramiz, ammo har doim ham nisbiy huquqiy munosabatlar majburiyat huquqiy munosabatlari shaklida bo'lmasligi mumkin.

* Masalan, bir necha shaxslar ishtirok-dagi birgalikda xo'jalik faoliyati yuritish to'g'risidagi kelishuv, chet el investori bilan qo'shma korxonalar tuzish va kapitalni sarflash to'g'risidagi bitimlarda kreditor va qarzdor ishtirok etmasligi mumkin yoki ishtirokchilarni majburiyat huquqiy munosabatlarga kirishgan deyish qiyin.

Xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda vujudga keladigan munosabatlar:

* gorizontal xo'jalik munosabatlari

* vertikal xo'jalik munosabatlariga ham taalluqli bo'ladi. Biznes huquqiy munosabatlarning vujudga kelish asosi sifatida yuridik faktlar muhim rol o'ynaydi

* Yuridik faktlar deb, fuqarolik huquqi va majburiyatlar-ning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishiga qaratilgan harakatlar tushuniladi.

* yuridik faktlar to'rt guruhga: ma'muriy hujjatlar, yuridik hatti-harakatlar, hodisalar va boshqa harakatlarga bo'linadi.

* Ma'muriy hujjat-xo'jalik huquqiy munosabatlarni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida davlat-ning boshqaruv organlari tomonidan chiqariladigan huquqiy hujjatlardir.

* Misol: davlat tasarrufidagi korxonalar xususiy mulkka aylantirishda kim oshdi savdosi orqali yutib chiqqan shaxsga shu mulkka egalik huquqini beradigan davlat dalolatnomasi (order), yoki ay-rim faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat berish to'g'risidagi litsenziyani ham ma'muriy hujjatlar qatoriga qo'shish mumkin.

* muayyan huquqiy oqibatni tug'dirishga qaratilgan hatti-harakatlar tushuniladi yoki oqibatlari qonun hujjatlarida nazarda

tu-tilgan ma'lum hatti-harakatlar ham yuridik ma'nodagi xatti-harakatlar hisoblanadi.

* xo'jalik huquqiy munosabat subyektlarining erklaridan tashqari sodir bo'ladigan faktlarga aytiladi. Hodisalar faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi.

* Masalan: tabiiy ofat yuz berib, yong'in bo'lgan taqdirda, sug'urta organi jabr ko'rgan shaxs zararini sug'urta haqidagi huquqiy qoidalarga binoan to'lashga majbur bo'ladi.

* Harakatlar- xo'jalik huquqiy munosabatlarida qatnashuvchi shaxslarning erk irodasi bo'yicha vujudga ke-ladigan yuridik faktlarga aytiladi. Bu tarzdagi faktlar o'z navbatida ikki turga:

* huquq yo'l qo'ygan va huquq yo'l qo'ymaydigan.

* Huquq yo'l qo'ygan harakatlarga misol: Tuzilishi qonun bilan taqiqlanmagan bitimlar. Bitimlar tashkilot va fuqarolarning xo'jalik huquqlarini yoki burchlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlar bo'lib, muayyan oqibatlarni tug'dirishga qaratiladi.

* Huquq yo'l qo'ymaydigan harakatlar: qonun bilan taqiqlangan harakatlar bo'lib, bular ikki ko'rinishda bo'lib:

* birinchisi, boshqa subyektlarga zarar yetkazishda

* ikkin-chisi, mulkni asossiz olish yoki asossiz tejash bilan bog'liq bo'lgan harakatlarda namoyon bo'ladi.

* Ma'lumki, xo'jalik faoliyati, sobiq tuzum sharoitida yagona mulkka va davlat rejasiga asoslangan xo'jalik mu-nosabatlaridan iborat bo'lib. u gorizontal xo'jalik munosabatlarini xuddi shunday ularga rahbarlikdan kelib chiqadigan vertikal munosabatlarini o'z ichiga qamrab olgan edi.

* Xo'jalik huquqi xo'jalik munosabatlarining subyektlari o'rtasi-dagi vertikal va gorizontal aloqalarni tartibga soladi.

Ammo hozirgi munosabatlar rejali taqsimotdan, ma'muriy buyruqbozlikdan mutlaqo xoli bo'ladigan iqtisodiy munosabtlardir. Bu munosabatda ishtirok etadigan subyektlar mutlaqo erkin bo'lib, faqat qonunga va tuzilgan shartnoma shartlariga qat'iy rioya etadilar.

* Bozor munosabatlarini tobora rivojlanib borishi, yangi-yangi mulkdorlar guruhini tadbirkorlarni keltirib chiqaradigan bu guruhlar xo'jalik munosabatlari-ning mustaqil subyekti bo'lib ishtirok etadi.

Ular oʻrtasidagi mulkiy munosabatlarning aksariyati xoʻjalik qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Tadbirkorlik huquqiy munosabatlar doirasi, bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi bilan birga borgan sari kengayib boradi, xususan tovar ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohasida korxonalar, tadbirkorlar, fermerlar, dehqon xoʻjaliklari, banklar, birjalar va shunga oʻxshash boshqa subyektlar oʻziga xos maxsus faoliyat koʻrsatadilar.

* Xoʻjalik faoliyati faqat tovar ishlab chiqarishga oid munosabat emas, balki ishlab chiqarishni boshlash uchun bino olish yoki qurish, joy olish, yoqilgʻi, xom ashyo, asbob-uskunalariga ega boʻlish bilan bogʻliq munosabatlarni ham qamrab oladi. Ana shular xoʻjalik huquqining predmetini tashkil etuvchi munosabatlar boʻlib, bevosita daromad (foyda) olishga qaratilmagan boshqa maqsadlar bilan ham bogʻliq boʻladi. Bular jumlasiga mulkni boshqarish, korxonani tuzish va tugatish boʻyicha tashkiliy mulkiy tuzdagi bogʻliq barcha faoliyatlarni kiritishimiz mumkin.

* Xoʻjalik munosabatlarining asosiy qismini xoʻjalik subyektlarining oʻzaro vertikal va gorizontal munosabatlari tashkil etadi. Xoʻjalik huquqi fanida xoʻjalik munosabatlari asosan uch guruhga: xoʻjalik faoliyatini amalga oshirish bilan bogʻliq munosabatlarga, xoʻjalikka rahbarlik qilishdan kelib chiqadigan (xoʻjalikni boshqarish) munosabatlarga hamda ichki munosabatlarga ajratiladi.

* Xoʻjalik munosabatlarining birinchi guruhi bevosita mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq xoʻjalik faoliyatidir.

* Xoʻjalik munosabatlarining ikkinchi guruhi xoʻjalik faoliyatiga rahbarlik qilishdan kelib chiqadi.

* Ichki xoʻjalik munosabatlari esa har bir korxonaning, birlashmaning ishlab chiqarish tuzilmalari oʻrtasidagi ichki munosabatlari shaklida namoyon boʻladi.

* Tadbirkorlik (biznes) huquqining oʻziga xos xususiyatlari uning subyektlari bilan ham bogʻliqdir.

* Maʼlumki, rejali iqtisodiyot sharoitida xoʻjalik munosabatlari faqat korxonalar va tashkilotlar hamda ularning boʻlimlari oʻrtasida vujudga kelar edi. Xoʻjalik faoliyatini alohida fuqaro emas, balki ularning jamoasi olib borar edi. Fuqaro xoʻjalik faoliyatida tashkilot jamoasi

tarkibida ishtirok etar edi. Ularning bu munosabatlari esa mehnat huquqi bilan tartibga solinar edi.

* Respublikamizda bozor munosabatlarning bosqichma bosqich shakllanib borishida tadbirkorlik faoliyatining, tadbirkorlik munosabatlari ishtirokchilarining ham roli, ta'siri tobora muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Jumladan, bu munosabatning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni ishlab chiqarishni tashkil etish, tadbirkorlikni ro'yxatga olish, uni korxonaga shaklida rasmiylashtirish, hisob kitob olib borish, soliq to'lash, bozorga tovar, ish va xizmat bilan chiqish tartibini va qoidasini belgilash, boshqa korxonaga va tashkilotlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni huquqiy boshqarishni taqozo etadi. Agar muqaddam fuqaro bozorga chiqishi bizning iqtisodimiz uchun tashqiriy bir hol bo'lib va ma'muriy huquq qoidalari bilan boshqarilgan bo'lsa, hozirgi bozor munosabatlari sharoitida bu munosabatlar bir butun bo'lib, tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatini tartibga soluvchi yagona qoidalar bilan tartibga solinadi. Demak, korxonaga, tashkilotlarning tadbirkorlarning moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlari bir butun holda xo'jalik huquqiga oid qonunlar orqali tartibga solinib turiladigan xo'jalik munosabatlarning birinchi guruhini tashkil etadi.

* Xo'jalik munosabatlari bevosita foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan holda ham mavjud bo'ladi. Bunday faoliyatga misol sifatida mulkni boshqarish, idora qilish, korxonaga tashkil etish, tugatish bilan bog'liq tashkiliy mulkiy xarakterdagi faoliyatlarni ko'rsatish mumkin. Ana shu munosabatlar ham bevosita xo'jalik huquqi qoidalari bilan tartibga solinib turiladi.

* Xo'jalik subyektlari viloyat, shahar, tuman, mahalliy hokimiyat idoralari bilan tegishli xo'jalik faoliyatini tashkil etish va mulkni boshqarishda ishtirok etadi. Bunday xo'jalik munosabatlari foyda olish bilan bog'liq bo'lsa ham, xo'jalik boshqarishini o'z ichiga oladi.

* Davlat byudjetidagi muassasalar, matlubot jamiyati, hayriya fondlari va vazifalarini hal etish uchun xo'jalik munosabatlariga kirishadigan boshqa muassasalar faoliyati foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat jumlasiga kiradi. Bu munosabat tadbirkorlik faoliyati bilan juda yaqin bo'lib, shakli jihatdan uni amalga oshirishdan deyarli farqlanmaydi va shu tufayli xo'jalik huquqi bilan

bogʻliq boʻladi. Bu xoʻjalik munosabatlarining ikkinchi guruhini tashkil etadi.

* Davlat jamiyat manfaatini hisobga olgan holda xoʻjalik faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlarga iqtisodiy taʼsir etadi, uning faoliyatini nazorat qiladi. Bu munosabat xoʻjalik huquqi predmetining uchinchi guruhini tashkil etadi.

* Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan munosabatlar guruhi bozor iqtisodiga oid boʻlgan va davlat tomonidan tartibga solinadigan xoʻjalik subyektlarini koʻp qirrali faoliyatini ifodalaydi.

Nazorat savollari:

- * 1. Biznes huquqiy munosabat nima?
- * 2. Biznes huquqiy munosabatlar necha turga boʻlinadi?
- * 3. Biznes huquqiy munosabat subyektlari kimlar?
- * 4. Biznes huquqiy munosabatlar nimalardan kelib chiqadi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi: Rasmiy nashr – Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: “Adolat”, 2018-y. – 376 b.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – “Xalq soʻzi” gazetasi, 2018-yil 29-dekabr, № 271-272 (7229-7230).

3. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy xoʻjalik sudi Plenumi qarorlari toʻplami. – T.: Oʻzbekiston, 2012.

4. Azizov X.T., Shirinov J., Bakayev Sh. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Akademiya, 2013. – 114 b.

5. Ibratov B.I. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. – Toshkent: Moliya, 2001. – 218 b.

6. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lugʻat // Mualliflar: M.Abdullayev, M.Abdullayeva, F.Abdullayeva, G.Abdurazzoqova va boshq.; R.Roʻziyev va Q.Xonazarov umumiy tahririda. Toʻldirilgan uchinchi nashri / - T.: “Sharq”, 2006.

7. Tadbirkorlik huquqi. Umumiy qism. Darslik. Tahrir hay'ati:
X.Rahmonqulov, Sh. M.Niyozov va boshq. Masul muharrir:
Sh.Ro'zinazarov. — T.: 2002.

3-mavzu. Biznes huquqi subyektlari

Reja:

1. Huquq subyekti tushunchasi va biznes huquqi subyektlari.
2. Biznes huquqi subyektlarining turlari va tasnifi.
3. Biznes huquqi subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish.
4. Biznes huquqi subyektlarining huquqiy holati.

1. Huquq subyekti tushunchasi va biznes huquqi subyektlari

Biznes huquqining subyektlari – bu biznes faoliyatini amalga oshirishga vakolatli bo'lgan shaxslardir. Biznes huquqining subyektiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Biznes huquqining subyekti – bu biznes faoliyatini amalga oshiruvchi, o'zining mulkiga, biznes huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan, o'z faoliyati yuzasidan mustaqil da'vogar va javobgar bo'la oladigan va o'zining huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qila oladigan (yuridik shaxs maqomini olgan) korxonalar va ularning tuzilmalari hamda yakka tadbirkor maqomiga ega bo'lgan fuqarolardir.

Biznes huquqining subyektlari tushunchasidagi o'ziga xos belgilar quyidagilar:

1. Biznes huquqi subyektining o'z mol-mulkiga ega bo'lishi. O'z mol-mulkiga ega bo'lishning huquqiy shakli – mulk huquqidir. Ba'zi xo'jalik yurituvchi subyektlar (masalan, unitar korxonalar, davlat korxonalari) o'z mol-mulkiga ega bo'lmasdan ashyoviy huquq asosida (xo'jalik yuritish, operativ boshqarish huquqi) o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka ega bo'lishlari mumkin.

2. Biznes huquqi subyektlarining davlat ro'yxatidan o'tishi hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanishlari uchun ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo'lishi.

3. Biznes huquqi subyektlarining xo'jalik huquq va majburiyatlariga ega bo'lishligi. Bunday huquq va majburiyatlarning doirasi O'zR qonunlari hamda ularga muvofiq qabul qilingan mazkur xo'jalik yurituvchi subyektlarning ta'xis hujjatlari bilan belgilanadi.


4. Biznes huquqi subyektlarining o‘z faoliyatlari uchun mustaqil javobgar hisoblanishi. Javobgarlik subyektning o‘z mol-mulki doirasida amalga oshiriladi.

5. Biznes huquqi subyektlarining o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilishining sud orqali tiklanish imkoniyatiga egaligi. Bu to‘g‘risidagi qoidalar qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan.

Biznes huquqi subyektlari barcha sohalaridagi o‘z xo‘jalik faoliyatlarini amalga oshirishda boshqa subyektlar bilan munosabatlarini shartnomaviy majburiyat asosida quradilar. Subyektning davlat ehtiyojlari uchun ishlarni bajarayotgan va mahsulotni yetkazib berayotgandagi munosabatlari ham shartnoma asosida belgilanadi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan o‘z vakolatlariga muvofiq tarzda korxonaga tegishli ko‘rsatmalar berishlari mumkin. Davlat idoralari o‘z vakolatlariga kirmaydigan yoki boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga xilof hujjatlarni qabul qilgan taqdirda korxonaga bunday hujjatni haqiqiy emas deb topishni talab qilib, sudga murojaat etishga haqlidir. Korxonaga huquqini buzgan davlat idorasi yoki ularning mansabdor shaxslarining ko‘rsatmalarini bajarish natijasida, bunday idoralar yoki ularning mansabdor shaxslari korxonaga nisbatan qonunda ko‘zda tutilgan majburiyatlarni tegishli amalga oshirmaganliklari oqibatida korxonaga yetkazilgan zararni tegishli davlat idorasi yoki mansabdor shaxs to‘laydi. Zararni to‘lash to‘g‘risidagi nizolarni sud yoki iqtisodiy sud o‘z vakolatlari doirasida hal qiladi.

2. Biznes huquqi subyektlarining turlari va tasnifi. Biznes huquqining subyektlari orasida korxonaga muhim o‘rin tutadi. U o‘z faoliyatini mustaqil tashkillashtiradi va xom ashyo resurslari hamda materiallarning mavjudligi hamda ishlab chiqarilayotgan tovarga (ishga, xizmatga) bo‘lgan talablarni hisobga olib, o‘z istiqbolini mustaqil belgilaydi. Shu bilan birga u davlat ehtiyojlari uchun shartnoma asosida tovar (ish, xizmat) yetkazib beradi. Yuqorida aytilganidek, ichki xo‘jalik majburiyatlari bevosita ishlab chiqarish doirasida vujudga keladi. Bunday munosabatlar korxonalar va boshqa xo‘jalik subyektlari ichida paydo bo‘ladi. Korxonaning ichki bo‘linmalari va tuzilmalari bunday munosabatlarning ishtirokchilari hisoblanadilar.

Ular o‘zaro va boshqa xo‘jalik subyekti bilan birgalikda xo‘jalik faoliyatini yuritish va uni boshqarish jarayonida ichki xo‘jalik munosabatlariga kirishadilar. Xo‘jalik faoliyatini yurituvchi subyekt ichida gorizontaal munosabatlar ham, vertikal munosabatlar ham vujudga keladi.



Ichki xo‘jalik majburiyatlari bevosita ishlab chiqarish doirasida vujudga keladi. Bunday munosabatlar korxonalar va boshqa xo‘jalik subyektlari ichida paydo bo‘ladi. Korxonaning ichki bo‘linmalari va tuzilmalari bunday munosabatlarning ishtirokchilari hisoblanadilar. Ular o‘zaro va boshqa xo‘jalik subyekti bilan birgalikda xo‘jalik faoliyatini yuritish va uni boshqarish jarayonida ichki xo‘jalik munosabatlariga kirishadilar. Xo‘jalik faoliyatini yurituvchi subyekt ichida gorizontaal munosabatlar ham, vertikal munosabatlar ham vujudga keladi.

Davlat xo‘jalik huquqi subyektlariga xos bo‘lgan xususiyatlarga ega. Bular:

1. Davlat o‘z mulkiga ega.
2. Davlat faoliyatini boshqaradi.
3. Davlat bosita xo‘jalik ega.

4. Davlat xo‘jalik munosabatlarida boshqa ishtirokchilar bilan shartnomaviy munosabatlarga.

Xo‘jalik huquqining subyekti sifatida davlat ayni vaqtda xo‘jalik huquqining boshqa subyektlaridan farq qiladi. Bu davlatning faoliyatida xo‘jalik faoliyati ustidan rahbarlikni amalga oshirish ancha ustunroq turishida ifodalanadi. Davlat iqtisodiy munosabatlarga kirishar ekan, boshqa subyektlar singari o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ruxsatnomaga ega bo‘lishi (ruxsatnoma olishi) talab etilmaydi. Shu bilan bir qatorda normativ hujjatlar asosida iqtisodiyotga rahbarlik qilishning amalga oshirilishi ham davlatga xos bo‘lgan xususiyatlardan biridir.

Davlatning o‘z mulkiga ega ekanligi to‘g‘risida shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgan yildan oldinroq O‘zbekiston o‘zining “Mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonunini qabul qildi (1990) va ushbu qonunga muvofiq O‘zbekiston davlati mulk egasi sifatida tan olindi. 1978-yilgi O‘zbekiston Konstitutsiyasida jamiyatning iqtisodiy negizini asosan sotsialistik mulkning ikki xil shakli, ya’ni davlat va kolxoz-kooperativ mulki tashkil etishi belgilangan edi. Endilikda mulk ommaviy mulk va xususiy mulk shakllarida mavjud bo‘lishligi qonuniy mustahkamlandi (O‘zR FK, 167-modda). Mulkning kimga tegishli bo‘lishidan qati nazar, bab-baravar huquqiy muhofaza qilinish qoidalari qonunlarda o‘z ifodasini topdi (O‘zRning Konstitutsiyasi, 53-modda). Davlat xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan o‘zining qonun chiqaruvchi organi orqali umumiy asoslarda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi⁶.

Bunda u davlat vazifalarining mohiyatidan kelib chiqib xo‘jalik munosabatlarida ishtirok etadi. Davlatning xo‘jalik subyekti sifatidagi faoliyati, ayniqsa uning o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib moddiy-texnika ta’minoti, investitsiyalash kabi masalalarni hal qilishda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Davlat tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini nazorat qilish turli yo‘llar bilan, xususan tekshirish, shu jumladan taftish, muqobil tekshirish, nazorat tartibida tekshirish, statistika

⁶ Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog‘liq munosabatlarni O‘zRning 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi Qonuni tartibga soladi. Qarang: O‘zbekistonning yangi qonunlari. 21-son. – T.: “Adolat”, 1999.

axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish, idora qaramogʻidagi organlarni tekshirishdan oʻtkazish tarzida amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan xoʻjalik faoliyatini tartibga solishning quyidagi shakllarini koʻrsatish mumkin:

- 1) normativ huquqiy hujjatlar chiqarish (bunday hujjatlar huquqni vujudga keltiradi, oʻzgartiradi yoki bekor qiladi);
- 2) davlat buyurtmalari;
- 3) davlat kontrakti;
- 4) davlat tomonidan tartibga solishni belgilovchi hujjatlar.

Yakka tartibdagi tadbirkor xoʻjalik huquqining subyekti sifatida. “Tadbirkor” va “tadbirkorlik” soʻzlarining lugʻaviy maʼnosi qanday? Buni bilish uchun “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ga murojaat qilaylik. Unda shunday deyiladi:

“Tadbirkor” - bu arab va fors-tojik tillaridan kirib kelgan yasama soʻz boʻlib, tadbir bilan, puxta oʻylab ish qiladigan kishidir⁷. “Tadbirkorlik” - bu puxta oʻylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar asosida ish tutmok demakdir⁸.

OʻzRning Oliy Majlisi tomonidan 2000-yilning 25-mayida qabul qilingan va matbuotda eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiritilgan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonunning 3-moddasida tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tushunchasiga quyidagicha taʼrif berilgan: “Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – biznes faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va oʻz mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat”. Tadbirkor – bu bozor iqtisodiyotida xoʻjalik yuritishning asosiy subyektidir. Biznesni rivojlantirish esa bozor iqtisodiyoti shakllanishining asosiy mezonlaridandir. Tadbirkor yakka shaxs sifatida ham, ishlab chiqarish omillarini birlashtiruvchi kishilar guruhi sifatida ham namoyon boʻlishi mumkinki, bu kishilar oʻzlari ixtiyorida boʻlgan ishlab chiqarish vositalarini ish kuchi bilan, bu ish kuchini sotib olish va xoʻjalik faoliyatida undan foydalanish yordamida birlashtiradilar⁹.

⁷ Qarang. Oʻzbek tilining izoxli lugʻati. 2-jild. – M.: “Rus tili”, 1981, 106-bet.

⁸ Oʻsha joyda.

⁹ Abdullayev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari: 100 savol va javob. – T.: “Mehnat”, 2000, 9-bet.

Iqtisodiyotga “tadbirkor” atamasi XVIII asrda kirib kelgan va dastlabki vaqtlarda u ko‘p ma’noga ega bo‘lgan¹⁰.

Kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari
(“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari
to‘g‘risida”gi qonun asosida)

Kichik biznes sub'yektlari		
Yakka tartibdagi tadbirkorlar		
Mikrofirmalar	Ishlab chiqarish tarmoqlari	Xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 10 kishi
	Savdo, xizmat ko‘rsatish va noishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlarida	Xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 5 kishi
Kichik korxonalar	Sanoat soxasida	Xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 40 kishi
	Qurilish, qishloq ho‘jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida	Xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 20 kishi
	Fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, chakana savdo va noishlab chiqarish soxasining boshqa tarmoqlarida	Xodimlarning o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 10 kishi
O‘rta tadbirkorlik sub'yektlari		
O‘rta korxonalar	Sanoatda	Xodimlarning o‘rtacha yillik soni kami bilan 41 kishi, ko‘pi bilan 100 kishi
	Qurilishda	Xodimlarning o‘rtacha yillik soni kami bilan 21 kishi, ko‘pi bilan 50 kishi
	Qishloq ho‘jaligi, boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari, ulgurji savdo, umumiy ovqatlanish tarmoqlarida	Xodimlarning o‘rtacha yillik soni kami bilan 21 kishi, ko‘pi bilan 30 kishi
	Chakana savdo, xizmat ko‘rsatish sozasi va noishlab chiqarish soxasining boshqa tarmoqlarida	Xodimlarning o‘rtacha yillik soni kami bilan 11 kishi, ko‘pi bilan 20 kishi

¹⁰ O‘sha joyda. 18-bet.

Endi “yakka tartibdagi tadbirkor” tushunchasiga to‘xtalaylik. Yakka tartibdagi biznesni amalga oshirish – bu biznes faoliyatini amalga oshirishning eng oddiy shaklidir. Uni tashkil etish tartibi O‘zR Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 14-fevraldagi qarori bilan tasdiqlangan “O‘zRda xususiy tadbirkorlik to‘g‘risida Nizom”da belgilab berilgan. Mazkur Nizomga muvofiq, yollanma mehnatdan foydalanmaydigan yakka tadbirkor o‘z faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmasdan turib amalga oshirishi mumkin. Bunday yakka tartibdagi faoliyatni amalga oshirishda faqat xususiy tadbirkorning mehnati qo‘llaniladi. Qonunda ko‘zda tutilgan hollardagina oila a‘zolarining mehnatini mazkur faoliyatga jalb etish mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik tushunchalari aynan bir narsa emas. Xususiy tadbirkorlik – bu alohida fuqaro yoki fuqarolar tomonidan ularning tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foйда) olish maqsadida qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo‘jalik faoliyatidir.

Xususiy tadbirkorlik faoliyatini yurituvchilar o‘z faoliyatini yollanma ishchi kuchi yordamida olib boradilar, yakka tartibdagi tadbirkorlar esa o‘z faoliyatlarini faqat o‘z mehnatlari bilan (keyingi o‘zgartishlar bo‘yicha yollanma mehnatdan foydalangan holda ham) amalga oshiradilar. Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxsni tashkil etgan holda va o‘z korxonasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazgan holda faoliyat yuritsalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan turib faoliyat yuritadilar.

Xususiy tadbirkorlar (yakka tartibdagi tadbirkorlar) yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari shartli ravishda 4 guruhga ajratiladi. Masalan, birinchisi – chakana savdo, ikkinchisi – hunarmandchilik, uchinchisi – maishiy xizmatlar (31 turdagi), to‘rtinchisi – faoliyatning boshqa turlari (39 turdagi) bilan yakka tartibdagi tadbirkorlar shug‘ullanishadi. Umuman, yakka tartibdagi tadbirkorlar 75 dan ortiq faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkin.

Xususiy korxonalar o‘zlarining mustaqil balanslariga, muhriga, hisob-kitob varag‘iga ega bo‘ladilar. Ular o‘zlari joylashgan joydagi tuman (shahar) hokimligida tegishli tarzda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan boshlab yuridik shaxs maqomini oladilar. Yuridik shaxs maqomini olmasdan turib yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun

tuman (shahar) hokimiyati tomonidan ruxsatnoma olinadi. Davlat soliq idoralari bunday shaxslarga ular ro'yxatdan o'tkazilganligi va yuridik shaxs maqomini olmasdan turib biznes faoliyati bilan shug'ullanish huquqi berilganligi to'g'risida O'zR Moliya vazirligi belgilagan shakldagi guvohnomani taqdim etadilar.

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi va yuridik shaxs tashkil etmasdan turib, masalan, avtomobillarga transport xizmati ko'rsatish, suratkashlik, qurilish, uylarni ta'mirlash va obodonlashtirish, to'ylar va turli tantanalar vaqtida san'atkorlik va musiqiy xizmat ko'rsatish, mulkni (binolar, uylar, xonalar va avtomobillardan tashqari) ijaraga berish va shu kabi biznes faoliyati bilan shug'ullanish huquqi borligi to'g'risidagi guvohnoma tegishli fuqaroning belgilangan miqdordagi soliqni to'laganidan so'ngina beriladi.

Xususiy tadbirkorlikning quyidagi turlari mavjud:

1. Yuridik shaxsni tashkil qilgan holda xususiy tadbirkorlik faoliyati;

2. Yuridik shaxsni tashkil qilmagan holdagi xususiy tadbirkorlik faoliyati.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning quyidagi turlari mavjud:


1. Shaxsiy biznes;

2. Birgalikdagi biznes.

O'zR Konstitutsiyasi jismoniy shaxslarga tadbirkor maqomiga ega bo'lishlik imkoniyatini berdi va shu tariqa ular ham biznes huquqining subyektlari doirasiga kiritildi.

O'zR Oliy sudi Plenumi va O'zR Oliy xo'jalik sudi Plenumining "Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq qonunchilikni qo'llash sud amaliyoti to'g'risida"gi 2000-yil 28-apreldagi qarorida¹¹ fuqarolarning biznes faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun shart-sharoit yaratish, ularning ishchanlik faolligini oshirish, biznes subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, bu sohada qonunchilikni to'g'ri tadbiriq etish va ularga qat'iy rioya qilishning ta'minlanishi lozimligi qayd etilgan.

¹¹ «Ho'jalik va huquq» – "Xozyaystvo I pravo". 2000. № 8, 14-bet.



“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda biznes faoliyati subyektlari doirasi kengaytirilib, yuridik shaxs tashkil etmasdan biznes bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar kichik va o‘rta tadbirkorlik subyekti sifatida mustahkamlandi.

Qonunga ko‘ra, har qanday fuqaro tadbirkor shaxs hisoblanmaydi, balki faqat belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tib, tadbirkor maqomini olgan fuqarogina tadbirkor deb e‘tirof etiladi.

Qonun ayrim toifadagi fuqarolarni tadbirkor maqomini olishlariga monelik qiladi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari xodimlari va ularning mansabdor shaxslari, sudyalari, prokuratura xodimlari, shuningdek biznes faoliyati bilan shug‘ullanishlari qonun hujjatlarida man etilgan boshqa shaxslar tadbirkor maqomini olishga haqli emaslar.

“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunda jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan holda birgalikdagi biznes faoliyati shakllari mustahkamlangan. Unga ko‘ra,

a) er-xotinning umumiy mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy biznes;

b) oddiy shirkat;

c) yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo'jaligi shaklida amalga oshiriladigan faoliyat.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan yakka tartibda amalga oshiriladigan biznesni biznes faoliyatini yuridik shaxs tashkil etib amalga oshiradigan subyektlardan farqlab olish lozim. Yuridik shaxs tashkil etmasdan biznes faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq orqali mustaqil ravishda (o'z faoliyatida xodimlarni yollash huquqi bilan) amalga oshiradi. Yuridik shaxs tashkil etmasdan biznes faoliyatini amalga oshirish (davlat ro'yxatidan o'tishi) uchun shaxs 18 yoshga to'lgan bo'lishi lozim.

Endi kichik va o'rta biznesning subyektlari xususida to'xtalamiz. Kichik va o'rta biznes subyektlari masalasi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda yoritilgan.

Faoliyatning bir necha turini amalga oshiruvchi (ko'p tarmoqli) yuridik va jismoniy shaxslar yillik oborot hajmida eng ko'p bo'lgan faoliyat turi mezonlari bo'yicha kichik va o'rta biznes subyektlari jumlasiga kiritiladi.


Qonunchilikda amalga oshirilgan eng so'nggi o'zgartish va qo'shimchalarga ko'ra, yakka tartibdagi tadbirkor o'z mehnat faoliyatining xususiyatiga qarab 3 nafargacha shaxsni ishga olishga haqli. Xususiyy tadbirkorlarga Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 31-iyuldagi 219-sonli qaroriga asosan 1 nafardan 3 nafargacha miqdorda xodimlarni yollash huquqi berildi. Tadbirkor va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Bunda yozma mehnat shartnomasi tuziladi. Mehnat shartnomasida xususiyy tadbirkorning imzosi muhr bilan tasdiqlanishi shart emas. Ishga qabul qilish to'g'risida buyruq rasmiylashtirilmaydi. Mehnat daftarchasi yuritilmaydi. Xodimning mehnat stajini hisoblash to'langan sug'urta badallari asosida amalga oshiriladi. Bunda Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining ma'lumoti asos hisoblanadi.

KICHIK KORXONALAR	Yengil sanoatda	$x \leq 100$	Band bo'gan xodimlarning o'rtacha yillik soni (kishi xisobida)
	Oziq-ovqat sanoatida		
	Metallga ishlov berish sanoatida		
	Asbobsozlik sanoatida		
	Yig'ochsozlik sanoatida		
	Mebel sanoatida		
	Qurilish materiallari sanoatida		
	Mashinasozlik sanoatida	$x \leq 50$	
	Metallurgiya sanoatida		
	Yoqilg'I energetika sanoatida		
	Kimyo sanoatida		
	Qishloq ho'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasida		
	Qurilish sohasida		
	Boshqa sanoat ishlab chiqarish sohasida	$x \leq 25$	
	Fan sohasida		
	Ilmiy xizmat ko'rsatish sohasida		
	Transport sohasida		
	Aloqa sohasida		
	Xizmat ko'rsatish sohasida (sug'urta kompaniyalaridan tashqari)		
	Savdo sohasida		
Umumiy ovqatlanish sohasida			
Boshqa noishlab chiqarish sohasida			

3. Biznes huquqi subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish

O'zbekistonda biznes subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartib-qoidalarini soddalashtirish, davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonida ma'muriy to'siqlarni kamaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Biznes subyektlarini "bir yo'la" prinsipi bo'yicha davlat ro'yxatidan

o‘tkazish va hisobga qo‘yish joriy etildi. 2003-yildan tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bilan bir paytda biznes faoliyati bilan shug‘ullanish uchun ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tizimi yo‘lga qo‘yildi. 2006-yilda ro‘yxatdan o‘tkazishning xabardor qilish tartibi joriy etildi.



2011-yil mamlakatimizda Birinchi Prezident Islom Karimovning tashabbusi bilan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb e‘lon qilindi. O‘zR Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi PQ-1474-son qarori bilan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi tasdiqlandi.

Biznes subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan maqsad nima?

Maqsad quyidagilardan iborat:

- xo‘jalik munosabatida alohida shaxs faoliyat ko‘rsatayotganligining qonuniyligini tasdiqlash;
- biznes subyektlarini hisobga olish;
- biznes subyektlari reyestrini yuritish;
- biznes subyektlarining huquqiy, mulkiy va tashkiliy holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni jamlash.

Fuqarolik kodeksining 44-moddasida yuridik shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish haqidagi ma‘lumotlar esa barchaning tanishib

chiqishi uchun ochiq bo'lgan yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritilishi belgilangan.

Yuridik shaxsni tashkil etishning qonunda belgilab qo'yilgan tartibini buzish yoki uning ta'sis hujjatlari qonunga mos kelmasligi yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazishning rad etilishiga sabab bo'ladi. Davlat ro'yxatidan o'tkazishning xabardor qilish tartibi belgilangan yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni rad etish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Yuridik shaxsni tashkil etish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan uni ro'yxatdan o'tkazishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi. Davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish, shuningdek ro'yxatdan o'tkazish muddatini buzish ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi. Yuridik shaxs qonunda belgilangan hollardagina qayta ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Shuningdek, biznes subyektlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, rasmiylashtirishning bosqichma-bosqich ro'yxatdan o'tkazish prinsipiga o'tish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi byurokratik to'siqlarni olib tashlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdagi "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 357-son qarori qabul qilinib shu qaror bilan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida Nizom" tasdiqlandi. Mazkur qaror asosida biznes faoliyati subyektlarini rasmiylashtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazishda birinchidan, rozilik beruvchi tashkilotlar soni keskin qisqartirilishi, ikkinchidan, barcha kelishib olish tartibotlari biznes subyektlarini amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilgan holda ro'yxatdan o'tkazadigan faqat bitta tashkilot doirasida amalga oshirilishi ta'minlanishi belgilandi. Tuman (shahar) hokimliklari huzurida Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari tashkil etildi. Bundan tashqari, biznes faoliyatini tashkil qilish uchun ma'muriy sarfxarajatlarni kamaytirish, biznes subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishdagi byurokratik to'siqlar va g'ovlarni bartaraf etish yo'li bilan yanada qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-maydagi "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga

qo'yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida"gi PQ-357-son qarori qabul qilinib "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning xabardor qilish tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlandi. Mazkur qarorda asosan 2006-yilning 1-sentyabridan boshlab biznes subyektlarini davlat ro'yxatiga olishning xabardor qilish tartibi o'rnatilib, biznes subyektlarini davlat ro'yxatiga olish, tegishli ravishda, yustitsiya organlari yoki tuman (shahar)lar hokimliklari huzuridagi Biznes subyektlarini ro'yxatga olish inspeksiyalari tomonidan bir vaqtning o'zida ularni soliq va statistika organlarida hisobga qo'ygan holda amalga oshirilishi, ariza — xabarnomani bergan paytdan boshlab biznes subyektini davlat ro'yxatiga olib, unga davlat ro'yxatiga olinganlik to'g'risidagi guvohnomani berishgacha o'tadigan muddat ko'pi bilan ikki ish kunini tashkil etishi belgilandi. Shu bilan birga, bu boradagi ishlar muntazam ravishda takomillashtirib borildi. Masalan, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturiga muvofiq hamda biznes faoliyatini keng rivojlantirish uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, biznes subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish va xarajatlarini kamaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 12-maydagi "Tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1529-son qarorini alohida qayd etib o'tish lozim. Bundan tashqari, qator qonun hujjatlarida ham biznes subyektlarini davlat ro'yxatiga olishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan. Masalan, "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi, "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi va boshqa qonunlar shular jumlasidandir.

Xususiy korxonalar o'zlarining mustaqil balanslariga, muhriga, hisob-kitob varag'iga ega bo'ladilar. Ular o'zlari joylashgan joydagi tuman (shahar) hokimligida tegishli tarzda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik shaxs maqomini oladilar. Yuridik shaxs maqomini olmasdan turib yakka tartibdagi biznes bilan shug'ullanish uchun tuman (shahar) hokimiyati tomonidan ruxsatnoma olinadi. Davlat soliq idoralari bunday shaxslarga ular ro'yxatdan o'tkazilganligi va yuridik shaxs maqomini olmasdan turib biznes faoliyati bilan

shugʻullanish huquqi berilganligi toʻgʻrisida OʻzR Moliya vazirligi belgilagan shakldagi guvohnomani taqdim etadilar.

Davlat roʻyxatidan oʻtkazilganligi va yuridik shaxs tashkil etmasdan turib, masalan, avtomobillarga transport xizmati koʻrsatish, suratkashlik, qurilish, uylarni taʼmirlash va obodonlashtirish, toʻylar va turli tantanalar vaqtida sanʼatkorlik va musiqiy xizmat koʻrsatish, mulkni (binolar, uylar, xonalar va avtomobillardan tashqari) ijaraga berish va shu kabi biznes faoliyati bilan shugʻullanish huquqi borligi toʻgʻrisidagi guvohnoma tegishli fuqaroning belgilangan miqdordagi soliqni toʻlaganidan soʻnggina beriladi.

Fuqarolik kodeksidan maʼlumki, yuridik shaxs davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi. Yuridik shaxsni davlat roʻyxatidan oʻtkazish uni tashkil etishdagi soʻnggi bosqichdir. Lekin bunga qadar xoʻjalik yurituvchi subyektlar tashkil etilishida bir qancha bosqichlar bosib oʻtilishi lozim.

Dastlab muassislar oʻzlarining umumiy yigʻilishlariga toʻplana-dilar. Ana shu yigʻilishda ular oʻzlarining mulklarini birlashtirish asosida aniq maqsadlarga erishish yoʻlidagi barcha harakatlar doirasini belgilab oladilar, taʼsis hujjatlarini ishlab chiqib, ularni imzolaydilar va qaror qabul qiladilar. Xoʻjalik huquqi subyektini tashkil etish – bu tashkilot va shartnomaviy birlashmalarga huquqiy maqom berish uchun yuridik ahamiyatga molik boʻlgan barcha hujjatlarni qabul qilishga qaratilgan harakatlar majmuidir.

Xoʻjalik huquqi subyektlarini tashkil qilish taʼsis-farmoyish, taʼsis va shartnomaviy-taʼsis usullariga boʻlinadi.

Taʼsis-farmoyish usul bilan asosan davlat mulkiga asoslangan korxonalar tashkil qilinadi.

Taʼsis etish usuli bilan bitta shaxs ishtirokidagi tashkilot tuzilishi mumkin. Uning faoliyati xususiy mulkka asoslangan boʻladi.

Shartnomaviy taʼsis usuli bilan ikki yoki undan ortiq taʼsischilar tomonidan oʻzlarining mulkiy ulushlarini birlashtirish asosida taʼsis shartnomasini tuzish yoʻli bilan xoʻjalik yurituvchi subyekt faoliyatining yoʻnalishlari belgilanadi va tuziladi. Xoʻjalik yurituvchi subyektlar davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan vaqtdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega boʻladi va bu yuridik fakt huquqiy munosabatni belgilovchi ahamiyatga egadir. Xoʻjalik yurituvchi subyektlarni

yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:

1. Ariza. Dastlab tegishli shaxs ariza taqdim etadi. Arizada tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar (xo'jalik yurituvchi subyektning nomi, yuridik manzili, rahbarning ismi, sharifi, nizom jamg'armasining miqdori, muassislar, ularning nizom jamg'armasidagi ulushlari, davlat ro'yxatidan o'tkazishni so'rab murojaat etgan shaxsning ismi-sharifi) keltiriladi. Ariza bilan ta'sischi o'zi murojaat etishi shart emas, balki uning nomidan notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida vakil qilingan shaxs ham murojaat qilishi mumkin.

2. Ta'sis hujjatlarining notarial tasdiqlangan ikki asl nusxasi. Davlat korxonolari negizida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun notarial tasdiqlangan ta'sis hujjatlari talab etilmaydi. Ta'sis hujjatlarining asl nusxalari davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi arizaga ilova qilinadi.

3. Xo'jalik yurituvchi subyektning pochta manzilini tasdiqlovchi hujjat. Fermer, dehqon xo'jaliklari, davlat korxonolari negizida tashkil etiladigan aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno.

4. Davlat bojining yoki ro'yxatdan o'tkazish yig'iminin belgilangan miqdori to'langanligi to'g'risidagi bank to'lov hujjati. Dehqon xo'jaliklari, davlat korxonolari negizida tashkil etiladigan aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno.

5. Belgilangan tartibda shaxsga hokimlikning vakolatli organlari tomonidan berilgan firma nomi to'g'risidagi guvohnoma, muhr va shtamp eskizlari (3 nusxada).

Yakka tartibdagi tadbirkorlik (YATT) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-martdagi PF-3588-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy-bezak san'ati buyumlari asosiy turlarining yangilangan ro'yxati" bo'yicha belgilangan faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin.

Yakka tadbirkor qat'iy belgilangan soliq va sug'urta badallarini to'laydi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 375-moddasiga

asosan, yakka tadbirkor kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, qat'iy belgilangan soliq biznes faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Demak, YATT uchun davlat xizmatlari agentligiga ariza (agentlik tomonidan beriladi), 3x4 hajmli 2 ta surat, davlat boji to'langanligi to'g'risida hujjat (davlat boji eng kam ish haqining bir barobari miqdorida), pasport nusxasini taqdim etish kerak.

Biznes faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tegishli davlat organi tomonidan "bir darcha" prinsipi bo'yicha va, qoida tariqasida, xabardor qilish asosida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi ("Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunning 13-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-maydagi "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida"gi PQ-357-son qaroriga muvofiq, biznes faoliyatini tashkil qilish uchun ma'muriy sarf-xarajatlarni kamaytirish, biznes subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishdagi byurokratik to'siqlar va g'ovlarni bartaraf etish yo'li bilan yanada qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2006-yilning 1-sentyabridan boshlab biznes subyektlarini davlat ro'yxatiga olishning xabardor qilish tartibi o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2012-yil 30-dekabrda 378-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risidagi nizom tasdiqlangan bo'lib, internet tarmog'ida <https://my.gov.uz> manzilida Yagona portal davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan, shu jumladan pulli asosda ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning yagona nuqtasi joriy etildi. Bugungi kunga kelib, ushbu Yagona portal orqali interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatish qatoriga yuridik shaxs, jismoniy shaxslar uchun biznes subyektlari tashkil etish uchun onlayn tarzda ariza yuborish orqali ro'yxatdan o'tish tartibi va xizmatlari keng yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash,

ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 15-maydagi PF-4725-sonli farmonining ijrosini ta‘minlash va biznes tuzilmalariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifati hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini tubdan oshirish va shaffofligini ta‘minlash maqsadida 2015-yil 28-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2412-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning asosiy maqsadi 2003-yildan buyon faoliyatini yuritib kelayotgan tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi biznes subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish inspeksiyalari negizida “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha biznes subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish yagona markazlari faoliyatini tashkil etish vazifasi qo‘yildi. “Yagona darcha” markazlari 16 ta davlat xizmatlarini ko‘rsatishi va arizachilarga informatsion yordam ko‘rsatish, shuningdek davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibi va muddatlari to‘g‘risida bepul konsultatsiya berish ko‘rsatib o‘tildi. Agarda xorij tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, bu kabi “yagona darcha” markazlari boshqa davlatlarda ham faoliyati yo‘lga qo‘yilganligiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, AQSHning Indiana, Delaver, Yuta kabi shtatlarida bu kabi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi “One stop centre” yoki “One stop business registration” kabi organlar mavjud. Lekin ular bizning “yagona darcha” markazlar kabi 16 ta emas, balki 5-6 ta davlat xizmatlarini ko‘rsatishadi. Masalan, Yuta shtatidagi “One stop business registration” 5 ta davlat xizmati, jumladan, soliq, mehnat, savdo, ishchi kuchi va atrof-muhit masalalari bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatiladi¹². Delaver shtatida esa soliq organi, ishsizlik sug‘urtasi va ishchilar kompensatsiyasi masalalari bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatiladi¹³. Mamlakatimizda Prezidentimizning 357-sonli 2006-yilgi qarori va Vazirlar Mahkamasining 2003-yildagi 357-sonli qarori asosida biznes subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik va hisobga qo‘yganlik uchun faqat eng kam oylik ish haqining 1 barobari miqdorida davlat boji undiriladi va firma nomlari Davlat statistika qo‘mitasidagi yagona login va parol bilan 60 kungacha bepul band

¹² <https://secure.utah.gov/account/login.html> - Utah's OneStop Business Registration System

¹³ <https://onestop.delaware.gov/osbrlpublic/>

bo‘lib turilishi ko‘zda tutilgan. AQSHning Indiana shatatida faoliyat yurituvchi “One stop centre” biznes subyektlarini ro‘yxatga olganligi uchun 90 AQSH dollari miqdorida to‘lov¹⁴ hamda firma nomi 120 kunga band qilib turishi uchun 20 dollar xizmat haqi olishadi¹⁵. Firma nomini 120 kunga band qilib turish Delaver shatatida 75 dollarni tashkil etadi¹⁶. Bundan tashqari, ushbu biznes subyektlari muayyan “One stop centre” yoki “One stop business registration” ma’lumotlar bazasida ro‘yxatda turganliklari uchun ma’lum miqdorda to‘lovlarni amalga oshirishlari lozim. Masalan, tijorat tashkilotlari har 2 yilda ushbu markazlar hisob raqamiga 30 dollar, notijorat tashkilotlar esa har yili 10 dollardan pul o‘tkazishlari belgilangan¹⁷.

“Korporatsiyalar uchun jannat” (Heaven for corporations) degan nomga sazovor bo‘lgan Delaver shtatida esa ushbu to‘lov miqdori tashkilot ustav fondi va pul aylanmalari miqdoridan kelib chiqib, 175 dollardan 180000 dollargacha tashkil etadi¹⁸. Shu bilan birgalikda, AQSHning turli shtatlarida ayollar va minoritar etnik shaxslar, agarda biznes faoliyati bilan shug‘ullanishni istasalar, ular uchun alohida imtiyozlar belgilangani va “One stop centre” yoki “One stop business registration” organlarida ma’lum chegirmalar va ayrim to‘lovlardan ozod etilishi ham ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu toifadagi tadbirkorlar bilan shug‘ullanuvchi alohida bo‘linmalar, ya’ni “Minority and Women’s Business Enterprises Division” (M/WBED) faoliyati mavjud bo‘lib, ular uchun alohida www.in.gov/idoa/2352.htm, www.irs.gov, www.sba.gov (Small Business Administration) va shu kabi saytlar tashkil etilgan¹⁹.

Shuni ta’kidlash joizki, tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi biznes subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish inspeksiyalari negizida “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha biznes subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish yagona markazlari faoliyatini tashkil etish va ularda tadbirkorlar uchun 16 ta davlat xizmatini ko‘rsatish, va qolgan mavjud davlat xizmatlari bepul konsultatsiyalar berish ko‘pchilik rivojlangan davlatlar tajribasida ham hali uchramaganligiga guvoh

¹⁴ <http://www.isbdc.org> (Indiana Small Business Development).

¹⁵ https://secure.in.gov/sos/online_corps/name_search.aspx.

¹⁶ <https://icis.corp.delaware.gov/Ecorp/EntitySearch/NameSearch.aspx>.

¹⁷ <https://onestop.delaware.gov/osbrlpublic/>

¹⁸ <https://corp.delaware.gov/howtoform.shtml>,

¹⁹ www.in.gov/idoa/2352.htm, www.irs.gov, www.sba.gov

bo‘lamiz. Shu sababdan bo‘lsa kerak, Jahon banki tomonidan har yili reyting tarzida e‘lon qilinadigan Doing Business (Biznesni yuritish) O‘zbekiston Respublikasi yanada yuqori pog‘onalarni egallab borayotgani bunga yaqqol misol bo‘ladi. Va birgina 2014-yil iyun oyidan 2015-yil iyun oyi oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasining tadbirkorlarga, investitsiya muhitiga yanada yengilliklar va qulayliklar berish bo‘yicha olib borgan islohotlari kuchli o‘nlik davlatlar qatorida Jahon banki tomonidan alohida e‘tirof etilgan²⁰.

4. Biznes huquqi subyektlarining huquqiy holati

Biznesni erkin taraqqiy ettirish va uning samarali rivojlanishini ta‘minlash uchun yaratiladigan huquqiy asoslarning debochasini **O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi**²¹ tashkil etadi. Chunki O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan va normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasida eng yuqorida turadigan birlamchi manbadir²². Asosiy qonunning²³ 53-moddasida quyidagi konstitutsiyaviy-huquqiy norma belgilab qo‘yilgan:

“53-modda. Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste‘molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, biznes va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin”.

²⁰ <http://russian.doingbusiness.org>, <http://go.worldbank.org/OS6V7NIUD0>

²¹ “Konstitutsiya” so‘zi lotincha (constitutio) so‘zidan olingan bo‘lib, “tuzilish”, “tuzuk”, “qurilish” degan lug‘aviy ma‘noga ega.

²² O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 16-moddasining 2-qismi mazmunida: “Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas”. Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. – T.: O‘zbekiston, 2018. O‘zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan oxirgi o‘zgartishlar bilan berilgan Konstitutsiyaning so‘nggi tahriri bo‘yicha qarang: <http://www.lex.uz>.

²³ Asosiy qonun deganda Konstitutsiya nazarda tutilmoqda. Biroq bu ibora huquqiy-normativ hujjatlarda uchramaydi. Shunday bo‘lsa-da, huquqiy-nazariy adabiyotlarda Konstitutsiya tushunchasining sinonimi sifatida keng qo‘llanadi.

Konstitutsiyaning 53-moddasida xilma-xil mulk shakllariga asoslangan bozor munosabatlarining rivojlanishida biznes faoliyatiga alohida e'tibor berilgan.

Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan normalar mamlakatimizda biznes faoliyatining rivojlanishi uchun huquqiy asoslar bo'lib xizmat qiladigan tegishli qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda keng va atroflicha yoritilgan. Biznes bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi ana shunday normativ-huquqiy hujjatlardan biri – bu O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksidir. Fuqarolik kodeksi tadbirkorlarning huquq layoqati²⁴ va muomala layoqati²⁵, tadbirkorlar huquq va majburiyatlarining vujudga kelish asoslari, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish usullari, biznes faoliyatining subyektlari va obyektlari, biznes faoliyati subyektlarining huquqiy vakolatlari, biznes faoliyati obyektlarining turlari va xususiyatlari, bitimlarning haqiqiyliigi va ularning haqiqiy emasligidan kelib chiquvchi yuridik oqibatlar masalalari, biznesning iqtisodiy manbai bo'lib xizmat qiladigan mulkning shakllari, tadbirkorlarning xususiy mulkka nisbatan bo'lgan huquqlari, shartnomalar va ularning turlari, majburiyatlar bo'yicha javobgarlik va boshqa masalalarni tartibga soladi.

Masalan, Fuqarolik kodeksi 2-moddasining 2 va 3-qismlarini ko'raylik. Ularda quyidagi huquqiy normalar belgilangan:

“Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchilari bo'ladilar” (2-qism).

“Agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, fuqarolik qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan qoidalar chet ellik fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda chet ellik yuridik shaxslar ishtirokidagi munosabatlarga qo'llaniladi” (3-qism).

²⁴ Fuqarolik kodeksining 17-moddasiga ko'ra, barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etiladi. Fuqaroning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

²⁵ Fuqarolik kodeksi 22-moddasining 1-qismiga ko'ra, fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni 18 yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi.

Demak, ayon bo‘lmoqdaki, nafaqat O‘zbekiston davlati, uning jismoniy shaxslari²⁶ va yuridik shaxslari²⁷, balki chet el fuqarolari va korxonalari (chet el jismoniy va yuridik shaxslari), fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar²⁸ ham biznes munosabatlarining ishtirokchilari bo‘lishlari mumkin.

O‘zbekiston davlat mustaqilligining dastlabki yillarida qabul qilingan qonunlar orasida “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonun ham bor edi. Mazkur Qonun 1991-yilning 15-fevralida qabul qilingan edi.

Biznes faoliyati subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tegishli davlat organi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi²⁹.

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar ariza beruvchiga biznes faoliyati subyekti tariqasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni uni tashkil etish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan rad etishga yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan qo‘shimcha talablarni belgilashga haqli emas.

Ariza beruvchini biznes faoliyati subyekti tariqasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etganlik, shuningdek ro‘yxatdan o‘tkazish muddatlarini buzganlik ustidan sudga shikoyat qilish mumkin. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning qarori, shuningdek mazkur organ mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) sud tomonidan qonunga xilof deb topilgan taqdirda ular ariza beruvchiga ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etganlik yoki ro‘yxatdan o‘tkazish muddatini buzganlik tufayli yetkazilgan zararining o‘rmini qoplaydilar va ma’naviy zarar uchun tovon to‘laydilar.

²⁶ Fuqarolik kodeksining 16-moddasida “fuqaro (jismoniy shaxs)” tushunchasi berilgan. Unga ko‘ra, fuqarolar, ya’ni jismoniy shaxslar deganda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi.

²⁷ Fuqarolik kodeksi 39-moddasining 1-qismida “yuridik shaxs”ning ta’rifi berilgan: “O‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi”.

²⁸ Fuqaroligi bo‘lmagan shaxs – odatda apatrid (vatani yo‘q shaxs) yoki apolidlar deb ataladi. Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar muayyan davlatda ma’lum huquqlarga ega bo‘ladilar. Ular davlat xizmatida (davlat xizmatchisi) bo‘la olmaydi, saylash va saylanish huquqiga, ya’ni aktiv va passiv saylov huquqiga ega bo‘lmaydilar.

²⁹ Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-maydagi PQ-357-sonli qarori bilan tasdiqlangan qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatiga olish va hisobga qo‘yishning xabardor qilish tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi nizom.

Litsenziyalanishi lozim boʻlgan biznes faoliyatining turlari qonunlar bilan belgilanadi³⁰. Biznes faoliyatining ayrim turlarini litsenziyalash tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

“Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 50-moddasiga muvofiq, banklar va kredit uyushmalarini roʻyxatga olish, shuningdek banklar, kredit uyushmalari va garovxonalariga litsenziyalar berish Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi “Notariat toʻgʻrisida”gi Qonunining 3-moddasiga muvofiq, notarial faoliyat bilan shugʻullanish huquqini beruvchi litsenziya berish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilab qoʻyiladi.

Biznes faoliyati biznes subyektlarining oʻz mol-mulki asosida va/yoki jalb etilgan mol-mulk asosida amalga oshirilishi mumkin.

Biznes subyektlari biznes faoliyatini amalga oshirishiga asos va vosita boʻlgan mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda huquqlarning belgilanishi, oʻzgartirilishi va bekor boʻlishi bilan bogʻliq oldi-sotdi, garov, ijara va boshqa bitimlar obyektini boʻlishi mumkin. Biznes faoliyati subyektlarini kreditlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Biznes faoliyati subyektiga kredit berilayotganda bank muassasalari, boshqa kredit yoki sugʻurta tashkilotlari kafil boʻlishlari mumkin. Toʻlovga qobiliyatli yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kafil boʻlishlari mumkin³¹.

Biznes faoliyati subyekti kredit shartnomalari boʻyicha majburiyatlarni taʼminlash tariqasida oʻz mol-mulkidan, shu jumladan ash-yolari va mulkiy huquqlaridan, shuningdek oʻzi olgan kreditni toʻlay olmaslik xavfi sugʻurtasi toʻgʻrisidagi sugʻurta polisidan foydalanishi mumkin.

Biznes subyektlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda imtiyozli kreditlanish huquqiga ega. Biznes faoliyati subyektlarini

³⁰ Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 12-maydagi 222-II-son “Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining roʻyxati toʻgʻrisida”gi qarori

³¹ Qoʻshimcha maʼlumot uchun qarang: Oʻzbekiston Respublikasi “Mikromoliyalash toʻgʻrisida”gi Qonunining 18-moddasi.

sugʻurta qilish sugʻurta tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Biznes faoliyati subyektlari quyidagilarga haqli:

- qonun hujjatlariga muvofiq oʻziga tegishli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish;

- mustaqil ravishda ishlab chiqarish dasturini shakllantirish, mahsulot yetkazib beruvchilarni va oʻz mahsulotining (ishlari, xizmatlarining) isteʼmolchilarini tanlash;

- biznesdan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish va uni oʻz ixtiyoriga koʻra tasarruf etish, tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorida ustun mavqeni egallab turgan biznes faoliyati subyektlari bundan mustasno;

- oʻz mahsulotini (ishlari, xizmatlarini), ishlab chiqarish chiqindilarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilanadigan narxlar va tariflar boʻyicha yoki shartnoma asosida realizatsiya qilish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

- binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa mol-mulkni olish va (yoki) ijaraga olish, shu jumladan lizing yoʻli bilan;

- belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish. Biznes faoliyati subyektlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega boʻlishi mumkin.

Biznes faoliyati subyektlari:

- oʻzlari tuzgan shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishlari;

- yollash asosida jalb etilgan xodimlar bilan oʻz vaqtida hisob-kitob qilishlari;

- xavfsizlik, ekologiya, sanitariya, gigiyena va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etishlari;

- realizatsiya qilinadigan tovarlar uchun qonun hujjatlariga muvofiq sertifikatlariga ega boʻlishlari;

- pochta manzili va boshqa rekvizitlari oʻzgarganligi toʻgʻrisida tegishli davlat organlarini oʻz vaqtida xabardor qilishlari³²;

³² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 24-maydagi PQ-357-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat roʻyxatiga olish va hisobga qoʻyishning xabardor qilish tartibini joriy etish toʻgʻrisida"gi Nizomning 36-bandiga muvofiq, tadbirkorlik subyektlari oʻz pochta manzili oʻzgargan taqdirda 10 kun muddatda bu haqda roʻyxatdan oʻtkazuvchi organlarni yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

- buxgalteriya, tezkor va statistika hisobini qonun hujjatlari talablariga muvofiq yuritishlari;
- o‘z faoliyatlari to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishli organlarga belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etishlari shart.

Biznes faoliyati subyektlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Biznes subyektlari o‘z huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish maqsadlarida qonunga muvofiq uyushmalar (ittifoqlar) va boshqa birlashmalarga birlashishlari mumkin.

Biznes faoliyati subyektlarining birlashmalarini tuzish, ularning faoliyat yuritishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog‘liq munosabatlar qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Biznes faoliyati subyektining huquqlari:

- O‘ziga tegishli:
 - mol-mulkka EGALIK QILISH,
 - mol-mulkdan FOYDALANISH,
 - mol-mulknı TASARRUF ETISH.
- Mustaqil ravishda:
 - ishlab chiqarish dasturini shakllantirish,
 - mahsulot yetkazib beruvchilarnı tanlash,
 - iste‘molchilarnı tanlash:
 - o‘z mahsulotining,
 - o‘z ishlarining,
 - o‘z xizmatlarining.
- Biznesdan cheklanmagan miqdorda DAROMAD (FOYDA) OLISH.
 - Yakka tartibdagi tadbirkor quyidagilarga haqli:
 - SHAXSIY ISH HUJJATLARI BLANKALARIDAN FOYDALANISH,
 - MUHRDAN FOYDALANISH,
 - SHTAMPLARDAN FOYDALANISH.

NOTA BENE:

Yuqoridalarning matnlari mazkur shaxs yakka tartibdagi tadbirkor ekanligidan dalolat berishi lozim!

• Daromad (foyda)ni o‘z ixtiyoriga ko‘ra **TASARRUF ETISH**.
Istisno:

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorida ustun mavqeni egallab turgan biznes faoliyati subyektlari.

• O‘z mahsulotini (ishlari, xizmatlarini), ishlab chiqarish chiqindilarini realizatsiya qilish:

- bozor konyunkturasidan kelib chiqib,
- mustaqil ravishda belgilanadigan narxlar bo‘yicha,
- mustaqil ravishda belgilanadigan tariflar bo‘yicha,
- (yoki) shartnoma asosida.

Istisno:

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar.

• Binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa mol-mulkni:

- sotib olish,
- ijaraga olish,
- lizingga olish.

• **UYUSHMALAR (ITTIFOQLAR) VA BOSHQA BIRLASHMALARGA BIRLASHISH.**

Maqsad:

O‘z huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish!

Quyidagilar qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi:

- birlashmani tuzish,
- birlashmaning faoliyat yuritishi,
- birlashmani qayta tashkil etish,
- birlashmaning tugatilishi.

• **TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT**ni amalga oshirish:

— Mustaqil tarzda amalga oshiradi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish (+ valyuta hisobvaraqlarini ochish) uchun **ASOS**:

- Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik!
- Tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilganlik (tovarlarni import qiluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun)!

• **BOSHQA HUQUQLAR** (qonun hujjatlariga muvofiq).

BIZNES SUBYEKTINING MAJBURIYATLARI:

• Shartnomalardan kelib chiqadigan **MAJBURIYATLARNI BAJARISH**;

- Xodimlar bilan o‘z vaqtida HISOB-KITOB QILISH;
 - Ushbular TALABLARIGA RIOYA ETISH:
 - xavfsizlik,
 - ekologiya,
 - sanitariya,
 - gigiyena,
 - mehnatni muhofaza qilish.
 - Realizatsiya qilinadigan tovarlar uchun SERTIFIKATlarga ega bo‘lish;
 - Pochta manzili va boshqa REKVIZITLARI O‘ZGARGANLIGI TO‘G‘RISIDA tegishli davlat organlarini o‘z vaqtida xabardor qilish;
 - Ushbu HISOBLARNI (qonun hujjatlariga muvofiq) YURITISH:
 - buxgalteriya hisobi,
 - tezkor hisob,
 - statistika hisobi.
 - HISOBOTlarni (belgilangan tartibda va muddatlarda) taqdim etish (hisobotni qonun hujjatlariga muvofiq yuritadi):
 - Belgilangan shaklda: DAVLAT STATISTIKA ORGANIGA!
 - Belgilangan shaklda: DAVLAT SOLIQ ORGANIGA!
- Qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan qo‘shimcha hisobot turlarini belgilash (davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan) man etiladi.
- Yakka tartibdagi tadbirkor majburiyatlarga ega bo‘ladi va ularni amalga oshiradi.
 - Boshqa majburiyatlar.
- YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLIK:**
- Jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan amalga oshiriladi.
 - Yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshiriladi.
 - Xodimlarni yollash huquqidan foydalanish mumkin.
 - Mulk huquqi asosida amalga oshiriladi.
 - O‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida amalga oshiriladi.
 - Mustaqil ravishda amalga oshiriladi.
 - Yakka tartibdagi tadbirkor o‘z nomidan biznes bilan shug‘ullanadi.

- Yakka tartibdagi tadbirkor huquqlarga ega bo‘ladi va ularni amalga oshiradi.

- Jismoniy shaxs o‘zining biznes bilan bog‘liq bitimlarni tuzayotganida yakka tartibdagi tadbirkor tariqasida harakat qilayotganligini ko‘rsatishi lozim (agar bitimning mazmunidan yakka tartibdagi tadbirkor ishtirok etayotganligi aniq bilinib tursa, shart emas).

Bunday eslatmaning bo‘lmasligi yakka tartibdagi tadbirkorni javobgarlikdan ozod etmaydi.

- Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan hollarda erning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Istisno:

— Agar qonunlarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lsa!

— Agar nikoh shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lsa!

— Agar er-xotin o‘rtasidagi o‘zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lsa!

Takrorlash uchun savollar

1. Biznes huquqining subyektini tushunchasiga ta’rif bering.

2. Xususiy tadbirkorlik deganda nimani tushunasiz?

3. Yuridik shaxs maqomini olmasdan turib yakka tadbirkorlik faoliyatini yuritish deganda nimani tushunasiz?

4. Yakka tadbirkorlikning xususiy tadbirkorlikdan farqi nimada?

5. Qanday shaxslar biznes faoliyati bilan shug‘ullanishga haqli emaslar?

6. Kichik va o‘rta biznes subyektlari haqida nimalarni bilasiz?

7. Biznes huquqi subyektlari kimlar bo‘lishlari mumkin va ular qanday belgilarga ega bo‘lishlari kerak?

8. Biznes subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning umumiy tartibi qaysi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi?

9. Yakka tartibdagi tadbirkorlik qaysi normativ-huquqiy hujjatlarga asosan va qanday tartibda amalga oshiriladi?

10. Fermer xo‘jaliklari biznes subyektini sifatida qanday maqomga ega?

11. Xususiy korxonani tashkil etish va faoliyat olib borish tartibining o'ziga xos xususiyati nimada?

12. Kichik biznes subyektlari va mikrofirmalarning huquqiy maqomi nimaga asosan belgilanadi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: “Adolat”, 2018-y. – 376 b.
2. Ibratov B.I. Tadbirkorlik huquqi. – Toshkent: Moliya, 2001. - 218 b.
3. Tadbirkorlik huquqi. Darslik. 1-2 tom. Sh.N. Ro'zinazarov va boshqalar. – Toshkent: Konsauditinform, 2002.
4. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi. Mualliflar jamoasi. Otaxonov F.X.ning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Adolat, 2007. – 466 b.
5. Xozyaystvennoye (predprinimatelskoye) pravo. Uchebnik. // pod red. Okyulova O. – T.: TGYUI, 2010. – 560 s.

4- mavzu. Biznes huquqi subyektlar faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish

1. Biznes huquqi subyektlarini qayta tashkil etish va tugatish tushunchalari.

2. Biznes huquqi subyektlarini qayta tashkil etish va tugatish asoslari.

3. Biznes huquqi subyektlarini qayta tashkil etish turlari.

4. Biznes huquqi subyektlari faoliyatini tugatishning usullari.

5. Biznes huquqi subyektini qayta tashkil etish va tugatish tartibi.

Yuridik shaxsning vujudga kelishining huquqiy ahamiyati muhim hodisa bo'lganligi tufayli, fuqarolik huquqida yuridik shaxs faoliyatining bekor bo'lishi ham muhim huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlardan hisoblanadi. Bu shunisi bilan muhimki, oqibatda bir qancha huquq va majburiyatlar yuzaga keladi.

Umumiy qoidaga ko'ra, yuridik shaxsning faoliyati qayta tashkil etish yoki tugatish natijasida bekor bo'ladi.

Qayta tashkil etish – ilgari mavjud bo'lgan korxonaning bekor qilinishi va yangi huquq subyekti sifatida tadbirkorlik faoliyatini davom ettirilishi demakdir. Korxonaga u yoki bu manoda boshqa huquq va majburiyatlar oluvchisi (yangi huquq subyekti), yangi yuridik shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Tugatishdan farqli o'laroq qayta tashkil etishda mulk saqlanadi, xo'jalik va mulkiy huquq va majburiyatlar ham mavjudligini yo'qotmaydi. Ishlab chiqarish bo'linmalari ham yo'qotqan, yoki yiriklashgan holda faoliyatini davom ettiradi. Qayta tashkil etish har doim huquqiy vorislik bilan bog'liq bo'lib, bunda mulkiy va boshqa huquq (majburiyat)lar bekor qilingan (turini o'zgartirgan) bir huquq subyektidan boshqasiga, qaytadan vujudga keltirilgan korxonaga o'tadi. Yuridik shaxs qayta tashkil etilgan taqdirda unga mulk huquqi asosida tegishli mol-mulk yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarga o'tadi. Yuridik shaxsni tugatishdan buning asosiy farqi ham shunda ifodalanadi.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorislari uning faoliyatini davom ettiradi. Shu bilan bog'liq ravishda oxir oqibatda barcha huquq va majburiyatlar to'liq o'tishi lozim. Ular qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning universal huquqiy vorisi, topshirish hujjati,

xuddi shuningdek, taqsimlash balansida qayd qilingan yoki qilinmagan bo'lsa ham, uning barcha huquq va majburiyatlarining vorisi bo'lib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49-moddasida qayta tashkil qilishning besh shakli belgilangan:

– qo'shib yuborish (o'z faoliyatini tugatgan ikki yoki undan ortiq korxonaning barcha huquqlari va majburiyatlarini unga berish yo'li bilan yangi korxonani vujudga keltirish);

– qo'shib olish (bir yoki bir nechta korxonaga faoliyatini to'xtatib, ularning huquqlari va majburiyatlarini boshqa korxonaga berish);

– bo'lish (yuridik shaxs o'z faoliyatini to'xtatib, ikki va undan ortiq yuridik shaxslarga bo'linadi);

– ajratib chiqarish (korxonalarining huquq va majburiyatlari bir qismini unga berish yo'li bilan yangi korxonani vujudga keltirish, yani bunda yuridik shaxs tarkibidan bir yoki bir necha yuridik shaxslar ajraladi, avvalgi yuridik shaxs ham mavjud bo'lib qolaveradi);

– o'zgartirish (yangi vujudga kelgan yuridik shaxsga qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning barcha huquqlari va majburiyatlarini berish yo'li bilan korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirish, yani bunda bir tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxs boshqa shakldagi yuridik shaxsga o'zgaradi).

Ushbu holatlar yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi jarayonida qatnashuvchi tomonlarga alohida etibor berishni taqozo etadi. Natijada qayta tashkil etilayotgan subyektlarning ikki, yani "ichki" – faqat qayta tashkil etilayotgan subyekt muassislari (tasischilari) doirasini qamrab oluvchi (bo'lish yoki ajratib chiqarish) va "tashqi" – qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning boshqa subyektlar bilan aloqasini belgilovchi (qo'shib olish, qo'shib yuborish va o'zgartirish) o'ziga xos huquqiy tartibga solish jarayoni vujudga keladi. Bunday huquqiy tartibga solish, yuridik shaxslarning qayta tashkil etilishida qatnashayotgan subyektlar yuridik holatini tuslovchi "huquq subyektlarning majburiy-huquqiy aloqalari" ko'rinishida ham ifodalanishi mumkin.

Fuqarolik qonunchiligida muhim o'rin egallagan qayta tashkil etishning yangi shaklining qonunchilikka, amaliyotga va qolaversa, iqtisodiyotga kirib kelishi mamlakatimizda ro'y berayotgan bozor

munosabatlariga o‘tish jarayoni bilan bog‘liq. Uning to‘la huquqiy va iqtisodiy yutuqlari va kamchiliklariga batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Yuridik shaxsni qayta tashkil etish umumiy qoidalarga asosan ixtiyoriy ravishda – uning tasischilarining (qatnashchilarining) yoki tasis etilgan hujjatlar bilan vakolatga ega bo‘lgan yuridik shaxs organi, masalan, azolarning umumiy yig‘ilish qarori asosida amalga oshirilishi mumkin. Qo‘shib olish, qo‘shib yuborish yoki o‘zgartirish shakllaridagi ixtiyoriy qayta tashkil etish qonunda belgilanganidek, davlat organlarining oldindan olingan roziligi asosida amalga oshiriladi.

Monopoliyaga qarshi organ xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qo‘shib yuborish va qo‘shib olish bo‘yicha bitimga oldindan rozilik beradi. Agar tegishli bitimda ishtirok etayotgan shaxslar aktivlarining jami balans qiymati yoki oxirgi kalendar yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan jami tushumi bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravari miqdoridan ortiq bo‘lsa yoxud ulardan biri tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘lsa, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qo‘shib yuborish va qo‘shib olish bo‘yicha bitimlar uchun monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligini olish zarur. Ushbu O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat” to‘g‘risidagi qonunning 16-moddasining talablari xo‘jalik yurituvchi subyektlarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko‘ra qo‘shib yuborilishi va qo‘shib olinishi hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qo‘shib yuborish va qo‘shib olishga oldindan rozilik berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektga nisbatan raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishini bartaraf etish yuzasidan ilgari qo‘llanilgan choralar samarasiz bo‘lgan taqdirda, monopoliyaga qarshi organ xo‘jalik yurituvchi subyektni majburiy tarzda bo‘lish yoki ajratib chiqarish haqidagi da’vo bilan sudga murojaat etadi, bo‘lish yoki ajratib chiqarish xo‘jalik yurituvchi subyekt negizida ikki yoxud bir nechta alohida xo‘jalik yurituvchi subyektni tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektni majburiy tarzda bo‘lish yoki ajratib chiqarish quyidagi shartlarning barchasi jam bo‘lganda amalga oshirilishi mumkin:

bo‘linayotgan yoki ajratib chiqarilayotgan tarkibiy bo‘linmalarning tashkiliy va hududiy jihatdan ajralib chiqish imkoniyati mavjud bo‘lganda;

uning tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida o‘zaro uzviy texnologik bog‘lanish mavjud bo‘lmaganda; bo‘lish yoki ajratib chiqarish natijasida tashkil topgan tarkibiy bo‘linmalarning tovar yoki moliya bozorida mustaqil faoliyat ko‘rsatish imkoniyati mavjud bo‘lganda³³.

Qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etish hollarini istisno qilganda, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs qayta tashkil etilgan hisoblanadi. Yuridik shaxs unga boshqa yuridik shaxsni qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etilganida qo‘shib olingan yuridik shaxsning faoliyati to‘xtatilgani haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritilgan paytdan boshlab yuridik shaxs qayta tashkil etilgan hisoblanadi.

Qayta tashkil qilishning barcha sanab o‘tilgan shakllarini ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga taqsimlash balansi bilan rasmiylashtiriluvchi bo‘lish va ajratib chiqarish shakli kiradi. Ikkinchi guruhga topshirish hujjati bilan rasmiylashtiriluvchi qo‘shib yuborish, qo‘shib olish va o‘zgarish shakllarini kiritish mumkin. Ushbu hujjatlar bilan yangi tashkil etilayotgan yuridik shaxsning huquq va majburiyatlarining hajmi aniqlanadi.

Yuridik shaxslarni qayta tashkil qilish jarayonida “taqsimlash balansi” va “topshirish hujjati”ning ahamiyati juda katta, chunki u qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning o‘zidan oldingisiga nisbatan bo‘lgan munosabatlarida, xususan, berilgan mol-mulkka egalik huquqining tarkibi va hajmiga huquqiy vorislikni tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Taqsimlash balansi va topshirish hujjati, kimga, ayni qaysi huquq va majburiyatlar o‘tishi kerakligini aniq belgilab berishi zarur. Bu hujjatlarda qayta tashkil qilingan yuridik shaxs majburiyatlarining butun majmuini, shu bilan bir qatorda bajarish muddati kelmagan,

³³ O‘zbekiston Respublikasining «Raqobat to‘g‘risida»gi Qonuni, 20-modda.

qayta tashkil qilingan shaxs bahslashayotgan majburiyatlarni ham kiritish, qayd etish kerak.

Taqsimlash balansi va topshirish hujjati qayta tashkil qilish haqida qaror qabul qilgan shaxslar tomonidan tasdiqlanib, tegishli hujjatlar bilan davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun havola qilinadi. Bular qayta tashkil qilingan shaxsning tasischilari yoki uni yaxshi biladigan (o'z xohishi bilan qayta tashkil qilishda) yoxud vakolatli davlat organi (qonunda ko'zda tutilgan, majburiy tashkil qilish hollarida) bo'lishi mumkin. Ushbu qoidalarga rioya qilinishi qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning huquqiy munosabatlariga to'la aniqlik kiritib, yuridik shaxsni qayta tashkil qilish jarayonida kreditorlarining manfaatlarini ko'zda tutib, ularning talablarni yo'qolib ketmasligi uchun o'rnatilgan.

Taqsimlash balansi bo'yicha mol-mulkka kelib qo'shilishi (aktiv) yoki undan chiqib ketishi (passiv) mumkin bo'lgan qismlari, shuningdek, joriy yilda yuridik shaxsdan topshirgunga qadar bo'lgan muddat davomida olingan daromadlar va ko'rilgan zararlar ham hisobga olingan holda topshiriladi. Asosiy va oborotdagi mablag'lar ularni topshirish haqida qaysi chorakda qaror qabul qilingan bo'lsa, o'sha chorakning moliyaviy rejasi ko'rsatilgan miqdorda topshiriladi. Topshirish haqida qaror qabul qilingandan keyin ularni o'zgartirish mumkin emas. Qaror qabul qilingandan keyin o'zlashtirilgan asosiy va oborotdagi mablag'lar ularni qabul qilib oluvchi tarafga qaytarib berilishi lozim.

Topshiriladigan mol-mulk inventarizatsiya qilinadi va bu topshirish hujjatida yoki taqsimlash balansida ko'rsatib qo'yiladi.

Qayta tashkil qilish vaqtida qayta tashkil qilinayotgan korxonada mavjud debitor va kreditorlik qarzlarning butun miqdori (shu jumladan, sotib oluvchi va taminotchilarning ish haqi bo'yicha qarzlari, hisob beruvchi shaxslardan, byudjet va byudjetdan tashqari fondlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha) taqsimlash balansi yoki topshirish hujjatiga muvofiq uning huquqiy vorislariga o'tadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mazmunini tashkil qiluvchi fuqarolik huquq va majburiyatlar yuridik faktlar asosida vujudga keladi. Ushbu huquq va majburiyatlarni nafaqat vujudga kelishi, shuningdek, ularning o'zgartirilishi va bekor bo'lishi ham qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosan yuridik faktlar bilan

bog‘liqdir. Fuqarolik Kodeksining 8-moddasida amaliyotda uchrab turadigan yuridik faktlar inobatga olingan holda, fuqarolik huquq va burchlarning vujudga keltirish asoslari berilgan.

Qayta tashkil etish jarayonida yuqorida sanab o‘tilgan huquq va majburiyatlarning yangidan vujudga kelgan yuridik shaxs(huquqiy voris)ga o‘tishi masalasi mukammal o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalardan hisoblanadi. Malumki, huquqiy munosabatlar ularning vujudga kelishidan boshlanib, uning bekor qilinishi bilan tugaydi. Mana shu chegara oralig‘ida huquqiy munosabatlar yuzaga keladi, harakatda bo‘ladi. Bu harakat davomida huquqiy munosabatlar mazmun jihatdan o‘zgarsa-da, o‘zining ayrim xususiyatlarini saqlab qolgan holda mavjud bo‘ladi va davom etadi.

Xuquqiy munosabatlarda majburiyatga ega bo‘lgan subyektlarning o‘zgarishi kreditor almashganda (huquq subyekti) hamda qarzdor almashinuvida (fuqarolik huquqiy majburiyatlar subyekti) ro‘y beradi, shuningdek, subyektning ikki yoqlama majburiyatlarda ishtirok etishi, yani bir vaqtning o‘zida ham kreditor ham karzdor bo‘lishi mumkin. Demak, huquqiy munosabat doirasida yuridik shaxslarning vujudga kelishi yoki bekor bo‘lishigina emas, balki mavjud davr oralig‘ida tarkib jihatdan yuzaga keladigan o‘zgarishlarni (qayta tashkil etish) ham hisobga olishga to‘g‘ri keladi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida asosiy etibor huquqiy munosabatlarning paydo bo‘lishi va bekor bo‘lishiga qaratilib, huquqiy munosabatlarning o‘zgarishi hamda qayta tashkil etish, ayniqsa, huquqiy vorislik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan masalalar kam tadqiq qilingan muammolardan bo‘lib hisoblanadi. Huquqiy vorislik bu - subyektiv huquqning bir shaxsdan ikkinchi bir shaxsga o‘tishidir. Huquq beruvchidan huquqiy voris (subyekt)ga subyektiv huquqning berilishi natijasida huquqiy munosabatlarda o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Takidlash lozimki, huquqning bir shaxsdan boshqa shaxsga o‘tishida, dastlabki huquq subyektning huquq va majburiyatlari hamda unga nisbatan qo‘yilgan talablar bilan birgalikda o‘tadi. Shuning uchun, huquqiy vorislik ko‘lamini qo‘llash keng va ko‘p qirralidir. Huquqiy munosabatlar subyekti tarkibini o‘zgartirishda har doim huquq bir shaxsdan ikkinchi bir shaxsga o‘tadi. Bunda eski va yangi huquqiy munosabatlar o‘rtasida aloqa o‘rnatiladi.

Huquqiy vorislik yuridik shaxsni qayta tashkil etishda kelib chiqadi, qayta tashkil etishda yuridik shaxs o'zining huquqiy vorislari timsolida mavjud bo'ladi va harakat qiladi. Bu qayta tashkil etilgan yuridik shaxs kreditorlari uchun birinchi darajali ahamiyatga ega.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilib, huquqiy vorislik kelib chiqqan holatda fuqarolik-huquqiy tartibga solishning vazifalari qo'yidagi zarurlardan kelib chiqadi:

1) Barcha huquq va majburiyatlarni to'liq yuklash, qayta tashkil etilgan yuridik shaxs faoliyatini uning huquqiy vorisiga o'tishi;

2) Bu majburiyatlarni va ular buzilganligi uchun javobgarlikni qayta tashkil etilgan yuridik shaxs huquqiy vorislariga, uning faoliyati qanday bo'lingan bo'lsa, shunday aniqlikda bo'lib berish;

3) Kreditorlarga qayta tashkil etilgan yuridik shaxs majburiyatlari oldida majburiyatli va javobgar bo'lgan uning huquqiy vorislarini topishni yengillashtirish. Bunday tadbirlar zoya ketgan taqdirda, barcha huquqiy vorislarga nisbatan solidar javobgarlikni qo'llash lozim.

Huquqning ijtimoiy ahamiyati ham shundan iborat, yani fuqarolik muomalasida barqarorlik bo'lishi zurur. Bunday sifatlarga faqat mustahkam qonunchilik tufayligina erishish mumkin bo'ladi. Bu esa tegishli ravishda huquqiy munosabatlar subyektlarining mustaqilligini, qayta tashkil etish holatida tomonlarning o'zgarishi, korxonaga huquq va majburiyatlarning o'tishi bilan ular faoliyatini davom ettirishi huquqiy vorislik bilan aniqlashtiriladi (O'zR FK 50-modda). Fuqarolik kodeksining 82-moddasiga ko'ra dastlabki xuquq subyektiga tegishli bo'lgan "fuqarolik huquqlarining obyektlari erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan bo'lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi mumkin".

Yuridik adabiyotlarda takidlanganidek, huquqiy vorislik umumiy (universal) va qisman (singulyar) turlarga ajratiladi. Universal huquqiy vorislikda malum huquq va majburiyatlarning jami o'tadi. Masalan, bir necha yuridik shaxslar qo'shib yuborilganda, yangi tashkil bo'lgan yuridik shaxsga universal vorislik tartibida oldingilarning barcha huquq va majburiyatlari o'tadi. Universal huquqiy vorislikning

predmetini huquqni qabul qilib oluvchi (yangi huquq subyekti)ga oʻtadigan huquq va majburiyatlar yigʻindisi tashkil qiladi.

Huquqiy vorislik oʻz ichiga muayyan huquq va majburiyatlarni qamrab oladi. Huquqiy vorisga malum huquq va majburiyatlar majmuasini berish bilan birga malum shaxsda mavjud boʻlgan huquq va majburiyatlar yigʻindisining oʻtishi, yani universal huquqiy vorislik muhim oʻrin egallaydi. U oʻzining tub mohiyatiga koʻra singulyar (qisman) huquqiy vorislik, yani huquq va majburiyatlar bir qismining huquqiy vorisligidan farq qiladi.

Universal huquqiy vorislikda shaxs huquq va majburiyatlari yigʻindisi sifatida, unga tegishli boʻlgan mol-mulk huquqiy vorisga yoki huquqiy vorislarga toʻliq ravishda oʻtadi. Yani, mol-mulk bir korxonadan ikkinchisiga oʻtganda mulk bilan birga qayta tashkil etilgan korxonada zimmasidagi huquq va majburiyatlar yuklanadi. Ayni shunday holatlar universal huquqiy vorislik holatlariga taalluqli boʻlib, bunda huquq subyektivligining toʻliq vorisligi muhim ahamiyatga ega boʻladi.

Topshirish dalolatnomasi va taqsimlash balansi qayta tashkil etilgan korxonaning barcha kreditorlari va qarzdorlariga nisbatan barcha majburiyatlari boʻyicha, shu jumladan taraflar nizolashayotgan majburiyatlar boʻyicha ham, huquqiy vorislik toʻgʻrisidagi qoidalarni oʻz ichiga olgan boʻlishi kerak.

Topshirish dalolatnomasi va taqsimlash balansi yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) tomonidan yoki yuridik shaxslarni qayta tashkil etish toʻgʻrisida qaror qabul qilgan organ tomonidan tasdiqlanadi hamda tasis hujjatlari bilan birga yangi vujudga kelgan korxonalarni davlat roʻyxatidan oʻtkazish yoki mavjud korxonalarining tasis hujjatlariga oʻzgartishlar kiritish uchun taqdim etiladi. Fuqarolik kodeksining 51-moddasini quyidagicha sharhlash mumkin: yani, yuridik shaxs qayta tashkil etilishi natijasida yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsning mulkka oid huquq va majburiyatlarini oʻtish vaqti uning muassislari yoki qayta tashkil etish toʻgʻrisida qaror qabul qilgan organ tomondan topshirish hujjati va taqsimlash balansida imzolangan va tasdiqlangan sana hisoblanadi.

Topshirish hujjati bilan taqsimlash balansini ular yuridik tabiati va mazmuniga koʻra korxonaning ustavi va nizomiga tenglashtirish mumkin. Shuning uchun qayta tashkil etishda topshirish hujjati yoki

taqsimlash balansi tuzilgunga qadar inventarizasiya dalolatnomasi, buxgalteriya balansi, mustaqil auditorning korxonalar tarkibi va mol-mulki to'g'risidagi xulosasini, shuningdek kreditorlar, ular qo'ya-yotgan talablar xususiyati, miqdori va muddatlari ko'rsatilgan holda korxonalar tarkibiga kiritilgan barcha qarzlarni (majburiyatlar) ro'yxatini tomonlar tuzgan va ko'rib chiqqan bo'lishi kerak.

Lekin taqsimlash balansi va topshirish hujjatini nizosiz hujjat deb bo'lmaydi. Bunday holatlar yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklar sud tartibida hal etiladi.

Ko'rib chiqilayotgan qayta tashkil etish va huquqiy vorislik to'g'risidagi normalar tushunchalari vaqtga va mazmuniga chambarchas bog'liqlikda tahlil qilinishi lozim. Birinchidan, hech kim topshirish hujjati va taqsimlash balansini tasdiqlovchi yuridik shaxs muassisi (ishtirokchisi)ning qayta tashkil etish haqidagi qarorini o'zgartirish yoki bekor qilish huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazish vaqtigacha cheklab qo'ya olmaydi. Muassisning bu huquqi qonunga zid bo'lmaydi va qayta tashkil etishning huquqiy tabiatiga to'liq to'g'ri keladi; ikkinchidan, agar topshirish hujjati va taqsimlash balansida yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorislik to'g'risidagi qoidalar bo'lmasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etilishi mumkin. Shunday qilib, Fuqarolik kodeksida huquqiy vorislik obyektini aniqlashda qonun chiqaruvchini yondashishiga etiborni qaratish kerak.

Qayta tashkil etilgan korxonalar huquqiy vorislari universal huquqiy voris bo'ladilar, bu haqda topshirish hujjati va taqsimlash balansida qayd etilgan yoki etilmagan bo'lsada, ular huquq va majburiyatlarni o'z zimmalariga oladilar. Demak, vorislik huquqining mazmunini mol-mulknini topshirish hujjati va uni taqsimlash balansi tashkil etadi.

Har bir huquqiy voris mulkdor yoki xo'jalik yuritish, operativ boshqarish tarzida o'tuvchi mol-mulk tarkibi (mulkiy huquq va majburiyatlar), mulkdor yoki ular tomonidan vakil etilgan organ tomonidan belgilanib, taqsimlash balansi va topshirish hujjati orqali aniqlashtiriladi. Xuddi shunday tartibda mulkiy huquqlarning o'tish payti belgilanadi. Berilayotgan mol-mulk tarkibiga kiruvchi alohida obyektlar yuzasidan kelib chiqqan nizolar, mulkdorlar tomonidan mazkur hujjatlar asosida hal etiladi.

Singulyar tartibda vorislarga huquqning belgilangan malum qismi o'tishi mumkin. Singulyar vorislik yuridik shaxsni qayta tashkil qilishda istisno sifatida qo'llanishi mumkin.

Huquqiy munosabatlarda ishtirokchilarning almashinishi, ayniqsa, majburiyatda shaxslarning o'zgarishi, protsessual huquqiy vorislikka yoki boshqa protsessual oqibatlarga olib kelishi mumkin. Agar sudda xo'jalik nizolarini hal qilishda bir tomonning o'rniga boshqa tomonning protsessda ishtirok etishi lozim bo'lsa, yani nizolashayotgan tarafni aniqlab javobgarlik choralari qo'llashda protsessual huquqiy vorislik muhim o'rin tutadi.

Amaldagi qonunchilikka, xususan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 46-moddasiga muvofiq, taraflardan biri nizoli yoki sud hujjati bilan aniqlangan huquqiy munosabatdan chiqib ketgan hollarda (yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi, talab qilish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish, qarzning boshqa shaxsga o'tkazilishi, fuqaroning o'limi va majburiyatlardagi shaxslar o'zgarishining boshqa hollarida) sud bu tarafni uning huquqiy vorisi bilan almashtiradi.

Huquqiy vorislik iqtisodiy sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida amalga oshirilishi mumkin.

Tarafni huquqiy voris bilan almashtirish to'g'risida sud ajrim chiqaradi.

Tarafni huquqiy voris bilan almashtirish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Taraf huquqiy voris bilan almashtirilganidan keyin iqtisodiy sud ishlarini yuritish almashtirish amalga oshirilgan bosqichning o'zidan davom ettiriladi.

Huquqiy voris ishga kirishguniga qadar sud protsessida amalga oshirilgan barcha harakatlar huquqiy vorisga o'rnini bo'shatib bergan shaxsga qay darajada majburiy bo'lgan bo'lsa, huquqiy voris uchun ham shu darajada majburiy bo'ladi.

Fuqarolik kodeksining 52-moddasida "yuridik shaxs qayta tashkil etilganida kreditorlar huquqlarining kafolatlari"ga alohida e'tibor berilgan. Chunki yuridik shaxs bo'lingach, yoki ajralib chiqqach, ular mulkiy jihatdan zaif bo'lgan vorisga tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin, qo'shib olish yoki qo'shib yuborish kreditorlar sonining ko'payishiga olib keladi. Bu esa kreditorlarga xavf soladi,

qarzdor mulki ko‘paymasligi, balki qarz ustiga qarz qo‘shilishi mumkin. Shu sababli ham qonun qayta tashkil qilish to‘g‘risida qaror qabul qilgan shaxslar va organlardan bu haqda barcha kreditorlarni yozma ravishda xabardor qilishlarini talab qiladi.

O‘zgartirish natijasida tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirilishi yuridik shaxs qatnashchilari (ishtirokchilari)ga o‘z kreditorlari oldidagi qo‘shimcha masuliyatining barham berilishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi davrda halq xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgarishlar jarayonida qayta tashkil etishning o‘zgartirish shaklini amaliyotda keng qo‘llanilayotgani fikrimizning asosli ekanligidan dalolatdir.

Alohida takidlab o‘tish kerakki, yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirishda, yuridik shaxslarni qayta tashkil etishning bo‘linish (ajralib chiqish) va qo‘shib olish (qo‘shib yuborish) kabi shakllarida uchragandek, yuridik shaxsning soni ortib yoki kamaymasada, ushbu yuridik shaxs huquqiy holati (tashkiliy-huquqiy shakli)da mavjud o‘zgartirishlar sodir bo‘ladi. Bunda mulk shakllari ham o‘zgartirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq korxonani tegishli tashkiliy-huquqiy shaklga o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish tartibi va shartlari muassislarning o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarori bilan belgilanadi.

O‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish natijasida tashkiliy-huquqiy shakl o‘zgargan taqdirda, mol-mulk va majburiyatlarni huquqiy vorisga o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar topshirish dalolatnomasida tartibga solinishi lozim. Muassislarning o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq, hujjatlarni qayta rasmiylashtirish bilan bog‘liq xarajatlar muassislar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilsa, qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning kreditorlarini bu haqda yozma ravishda xabardor qilishlari shart ekanligi Fuqarolik kodeksining 52-moddasi 1-bandida o‘z ifodasini topgan. Bu qoidalar qayta tashkil qilinayotgan yuridik shaxs kreditorlarining manfaatlarini huquqiy kafolatlaydi. Bundan malum bo‘ladiki, yuridik shaxs mustaqil tarzda mulk tarkibi mutanosibli va mexanizmini aniqlashtirishi, shuningdek, tegishli

malumotlarni topshirish hujjati yoki taqsimlash balansida aniq aks ettirishi lozim.

Qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning xabar berishi, o'z o'rnida kreditorga shu yuridik shaxsning qarzdor bo'lishiga olib kelgan majburiyatlarini bekor qilishni yoki muddatidan oldin bajarishni hamda zararni to'lashni talab qilishga imkon beradi. Lekin shunday holatlar ham uchray turadiki, bir yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, uning zimmasidagi majburiyatlari uchun masul bo'lgan shaxs topilmasligi mumkin. Bunda kreditor qayta tashkil etishning malum bir omillar bilan emas, tegishli talablarni aniq sabablar bilan asoslashi darkor. Shuningdek, qayta tashkil etish natijasida belgilangan faoliyat turi bilan shug'ullanish huquqiga ruxsat ololmasligi munosabati bilan qarzdor tomonidan majburiyat bajarish imkoniyati bo'lmaslik holatlari ham bo'lishi mumkin.

Kreditorlarning talablari xuddi shu yuridik shaxsning qayta tashkil etilishiga nisbatan qo'llanib, qayta tashkil etishni olib borish faktiga asoslanadi. Shunday ekan, qayta tashkil etishni tomonlarning talabini qondirish paytigacha amalga oshirilmasligi yoki uni rad etilishiga olib kelishi mumkin (xususan, sud tartibi).

Yuridik shaxs kreditorlari tegishli arizasining muddati haqida gapirar ekanmiz, aytib o'tilgan kreditor talablari taqsimlash balansi (topshirish hujjati) tasdiqlanishi vaqtigacha ko'rib chiqish uchun so'zsiz qabul qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik qonunchiligida bunday holatlar uchun quyidagicha qoida belgilangan. Agar taqsimlash balansi qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisini (huquq va majburiyatlar olgan yuridik shaxs)ni aniqlash imkonini bermasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar qaytadan tashkil etilgan yuridik shaxsning o'z kreditorlari oldidagi majburiyati bo'yicha solidar javobgar bo'ladilar.

Haqiqatdan ham, bazida yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, ayniqsa ketma-ket ikki-uchga bo'linishida, mazkur qarz universal huquqiy vorislarning qaysi biriga o'tganligini aniqlash qiyin kechadi. Mazkur holat bo'yicha Fuqarolik kodeksining 251-moddasida belgilangan qoida qo'llaniladi. Agar ulushli majburiyatda bir necha kreditor yoki bir necha qarzdor ishtirok etsa, basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib ko'zda tutilmasa, har bir kreditor

majburiyatni boshqalar bilan teng ulushlarda bajarishni talab qilishga haqli, har bir qarzdor esa bu talabni bajarishi shart.

Qayta tashkil etish jarayonida vujudga kelgan yuridik shaxsning o'z kreditorlari oldidagi majburiyatlari bo'yicha solidar javobgarligini belgilovchi qoidalar Fuqarolik kodeksining 252, 253, 254, 255-moddalarida ham o'z aksini topgan.

Agar kreditor bu qoidalardan foydalanmasa, qayta tashkil qilingan yuridik shaxs o'rniga boshqa, yani topshirish hujjati yoki taqsimlash balansiga ko'ra aniqlangan huquqiy voris yangi yuridik shaxsga o'tib qoladi. Shu sababli yuqoridagi hujjatlarning tegishli shaxs va organlar tomonidan tasdiqlanganidan keyin ular yangi paydo bo'lgan yuridik shaxsning tasis hujjatlariga qo'shib davlat ro'yxatidan o'tkazishga taqdim qilinadi. Bu hujjatlar taqdim etilmasa yoki hujjatlarda qayta tashkil etilgan yuridik shaxs huquq va majburiyatlariga nisbatan huquqiy vorislikka oid qoidalar aks etmagan bo'lsa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etiladi. Bu ham kreditorlar manfaatini himoya qiluvchi qoidalardan biri sanaladi.

Yuridik shaxsni qayta tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilgan tasischi yoki organ, bu haqda uning kreditorlarini yozma ravishda xabardor etishlari kerak. Bu bildirishnomani olgan har bir kreditor, qayta tashkil qilingan yuridik shaxs qarzdor bo'lgan majburiyatlarini bajarilishini talab qilishga, shuningdek, majburiyatlarni muddatidan ilgari bajarish tufayli yuzaga kelgan zararni undirish huquqiga egadir. Ayniqsa, yuridik shaxsni qayta tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilgan organning majburiyatini belgilash zarur. U soliq organlariga bu haqda xabar qilishi kerak.

Agarda soliq organi, bildirishga qaramasdan qayta tashkil qilish muddati tugaguncha va taqsimlash balansi (topshirish hujjati) tuzilguncha qayta tashkil qilinayotgan yuridik shaxsning to'lanmay qolgan qarzlarini aniqlamas ekan, keyinchalik yangi tashkil etilgan yuridik shaxsga qayta tashkil qilingan yuridik shaxs tomonidan yo'l qo'yilgan va yangi yuridik shaxs tashkil qilingandan keyin aniqlangan soliq qonunlarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilmaydi. Bunday hollarda yangi yuridik shaxsdan soliq qiymatigina undirib olinadi. Masalan, agar yuridik shaxsning mol-mulki, uning qayta tashkil etilishi natijasida boshqasiga o'tayotgan bo'lsa, topshirish hujjati va

taqsimlash balansida boshqa kreditorlar odidagi majburiyatlarni bajarilishi singari soliq to'lash majburiyati ham bayon qilinishi kerak. Bunda soliq to'lash majburiyatini - huquqiy vorislik obyekti deyish mumkin. U qonun kuchi bilan vujudga keladi va qayta tashkil etish paytida mavjud bo'ladi.

Korxonaga egasi almashganda, ya'ni korxonaga qayta tashkil etilganda xodimning roziligi bilan bo'lgan munosabat davom etadi. Ish beruvchi tomonidan mehnat shartnomasining to'xtatilishi ish o'rinlarining qisqarishi natijasida amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, korxonaga tarkibida bir yoki bir necha tarkibiy bo'linmalarning barpo etish yo'li bilan yangi korxonaga tashkil etilmaydi, chunki qayta tashkil etish jarayonining subyekti yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan korxonaga sanaladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor - jismoniy shaxs ham qayta tashkil etilmaydi. Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan holatlarda tadbirkorlik faoliyati tugatish yo'li bilan to'xtatiladi.

Korxonani qayta tashkil etishdan uning predmet va faoliyatini o'zgartirishni farqlash zarur. Bunda u korxonaga mulkdori (tasischisi) tomonidan mavjud bo'lgan yuridik shaxsi doirasida amalga oshiriladi. Aksiyadorlik jamiyati Ustav fondining o'zgarishi korxonaning qayta tashkil etilishini anglatmaydi.

Yuridik shaxslarni qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risida fikr yuritgan huquqshunos olimlar har qanday vaziyatda bo'lmasin, yuridik shaxs faoliyatini bekor qilishga olib keluvchi bu ikki tartib haqida so'z yuritadigan bo'lsalar, albatta ularning har birini alohida eslab o'tadilar. Demak, bu ikki yuridik fakt yuridik shaxsning faoliyat yuritishiga u yoki bu darajada ta'sir etishi tufayli bir-biri bilan bog'liq jihatlarga ega.

Qayta tashkil etish institutini xo'jalik yuritish amaliyotida qo'llash yordamida: birinchidan, fuqarolik muomalasining barqarorligi saqlanib qoladi; ikkinchidan barcha huquq va majburiyatlar majmuining huquqiy vorisligi taminlanadi; uchinchidan, shartnomaviy va xo'jalik aloqalari erkinligi tamin etiladi; to'rtinchidan, kreditorlar huquqlari maksimal darajada kafolatlanadi; beshinchidan, qo'shimcha soliq to'lash zarurati yo'qoladi; oltinchidan, vaqtinchalik xarajatlar qisqaradi; yettinchidan, ayniqsa, qayta tashkil etishning o'zgartirish shaklini qo'llash samarasining yuqoriligi shundaki, unda ishlab

chiqarish kapitali, moddiy vositalar, asosiy va oborotdagi fondlar to'liq saqlanib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik qonunchiligida yuridik shaxslarni ikki xil usulda tugatilishini ko'rishimiz mumkin.

Yuridik shaxsni tugatish uning huquq va burchlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o'tmasdan bekor qilinishiga olib keladi.

Yuridik shaxs quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

- uning muassislari (ishtirokchilari)ning yoki ta'sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq, shu jumladan yuridik shaxsning amal qilish muddati tugashi, uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga erishilganligi munosabati bilan yoki yuridik shaxsni tashkil qilish chog'ida qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo'lmasa, sud yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazishni haqiqiy emas deb topganida;

faoliyat ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) amalga oshirilgan yoki qonunda taqiqlangan faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek Fuqarolik Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaroriga ko'ra.

- moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilmaganligi sababli belgilangan tartibda harakatsiz rejimga o'tkazilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida faoliyat tiklanmagan taqdirda ro'yxatdan o'tkazuvchi organning qaroriga ko'ra, bundan nodavlat notijorat tashkilotlari mustasno.

Sudning yuridik shaxsni tugatish to'g'risidagi qarorida uning muassislari (ishtirokchilari) yoxud yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari bilan uni tugatishga vakil qilingan organ zimmasiga yuridik shaxsni tugatishni amalga oshirish vazifasi yuklatilishi mumkin.

Yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ bu haqda yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organga darhol yozma xabar berishlari kerak, davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ yuridik shaxs tugatish jarayonida ekanligi haqidagi ma'lumotlarni yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritib qo'yadi.

Yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ tugatuvchini — tugatish komissiyasini yoki jismoniy shaxsni tayinlaydilar hamda Fuqarolik Kodeksga muvofiq tugatish tartibi va muddatini belgilaydilar. Yuridik shaxsni tugatish to'g'risidagi qaror sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, tugatuvchi yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tayinlanadi.

Tugatuvchi tayinlangan paytdan boshlab yuridik shaxsning ishlarini boshqarish bo'yicha vakolatlar tugatuvchiga o'tadi. Tugatuvchi tugatilayotgan yuridik shaxs nomidan sudda ishtirok etadi.

Tugatuvchi yuridik shaxsning tugatilishi haqida ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi. Yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlik subyektini ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risidagi e'lon ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan uning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Yuridik shaxsning tugatilishi haqidagi e'londa uning kreditorlari talablarini bildirish tartibi va muddatlari ko'rsatiladi. Bu muddat tugatish to'g'risidagi e'lon chiqqan paytdan e'tiboran ikki oydan kam bo'lmasligi kerak.

Tugatuvchi kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzini olish choralarini ko'radi, shuningdek kreditorlarni yuridik shaxs tugatilishi haqida yozma ravishda xabardor qiladi.

Kreditorlar tomonidan talablarni qo'yish uchun belgilangan muddat tamom bo'lganidan keyin tugatuvchi oraliq tugatish balansini tuzadi, bu balans tugatilayotgan yuridik shaxs mol-mulking tarkibi, kreditorlar qo'ygan talablar ro'yxati, shuningdek ularni qarab chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Oraliq tugatish balansini yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ tomonidan tasdiqlanadi. Yuridik shaxsni tugatish to'g'risidagi qaror sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, oraliq tugatish balansini yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Agar tugatilayotgan yuridik shaxs (muassasalardan tashqari) ixtiyoridagi pul mablag'lari kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli bo'lmasa, tugatuvchi yuridik shaxsning mol-mulkini kimoshdi savdosi orqali sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda sotadi.

Tugatilayotgan yuridik shaxs kreditorlariga pul summalarini to‘lash tugatuvchi tomonidan Fuqarolik Kodeksning 56-moddasida belgilab qo‘yilgan navbat tartibida, oraliq tugatish balansiga muvofiq, u tasdiqlangan kundan boshlab amalga oshiriladi.

Kreditorlar bilan hisob-kitob qilish tugaganidan keyin tugatuvchi tugatish balansini tuzadi, uni yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ tasdiqlaydi. Yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risidagi qaror sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, tugatish balansini yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Tugatilayotgan davlat korxonasi mol-mulki, tugatilayotgan muassasaning esa — pul mablag‘lari kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli bo‘lmasa, kreditorlar o‘z talablarining qolgan qismini ushbu korxonaga yoki muassasa mulkdori hisobidan qondirish to‘g‘risida sudga da’vo bilan murojaat qilish huquqiga egadirlar.

Nazorat savollari.

1. Biznes huquqi subyektlarini qayta tashkil etish va tugatish tushunchalariga izoh bering?
2. Biznes subyektlarini qayta tashkil etish va tugatish asoslarini ayting?
3. Biznes subyektlarini qayta tashkil etish turlarini yoriting?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi: Rasmiy nashr — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. — T.: “Adolat”, 2018-y. — 376 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 29-dekabr, № 271-272 (7229-7230).
3. Azizov X.T., Shirinov J., Bakayev Sh. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish. O‘quv qo‘llanma. — T.: Akademiya, 2013. — 114 b.
4. Ibratov B.I. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. — Toshkent: Moliya, 2001. — 218 b.

5. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // Mualliflar: M.Abdullayev, M.Abdullayeva, F.Abdullayeva, G.Abdurazzoqova va boshq.; R.Ro‘ziyev va Q.Xonnazarov umumiy tahririda. To‘ldirilgan uchinchi nashri / - T.: “Sharq”, 2006.

6. Tadbirkorlik huquqi. Umumiy qism. Darslik. Tahrir hay’ati: X.Rahmonqulov, Sh. M.Niyozov va boshq. Masul muharrir: Sh.Ro‘zinazarov. — T.: 2002.

5- mavzu. Biznes huquqi subyektlarning bankrotligi

1. Bankrotlik tushunchasi va uning vazifalari.
2. Bankrotlik to‘g‘risida qonunchilik.
3. Sudgacha sanatsiya.
4. Bankrotlik to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rib chiqish tartibi.
5. Kuzatuv.
6. Sud sanatsiyasi.
7. Tashqi boshqaruv.
8. Kelishuv bitimi va uni tuzish tartibi.
9. Bankrot korxonani tugatish.

Bankrotlikning soddalashtirilgan taomillari.

Bankrotlik instituti – xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlar amaliyoti va huquqiy tartibga solish tizimida o‘ziga xos o‘rniga ega bo‘lgan institutdir. O‘zbekiston Respublikasida “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonun birinchi marta 1994-yil 5-mayda qabul qilingan. Ushbu qonunning yangi tahriri Oliy Majlis tomonidan 1998-yil 28-avgustda qabul qilingan va 1-noyabrdan kuchga kirgan. Bundan tashqari, 1999-yil 20-avgustda Oliy Majlisning navbatdagi sessiyasida ushbu qonunga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi. Hozirgi paytda Oliy Majlis tomonidan 2003-yil 24-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan mazkur qonun qo‘llanilmoqda.

Bankrotlik sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda bankrotlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat organi amalga oshiradi.

Bankrotlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat organining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, davlat boshqaruvi boshqa organlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) – iqtisodiy sud tomonidan e’tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini to‘la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini to‘la hajmda bajarishga qodir emasligidir.

Qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini qanoatlantirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi:

- agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lov majburiyatlari yuzaga kelgan kundan e'tiboran uch oy ichida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, qarzdor shaharni tashkil etuvchi korxonaga hamda unga tenglashtirilgan korxonalar tomonidan esa — olti oy ichida bajarilmagan bo'lsa;

- agar qarzdor yuridik shaxsga nisbatan jami talablar bazaviy hisoblash miqdorining kamida uch yuz baravarini tashkil etsa, qarzdor shaharni tashkil etuvchi korxonaga hamda unga tenglashtirilgan korxonaga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining kamida besh ming baravarini tashkil etsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxsga nisbatan esa bazaviy hisoblash miqdorining kamida yigirma baravarini tashkil etsa, qarzdorning bankrotlik alomatlari hisoblanadi. Ushbu "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunning 4-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan qoidalar bankrotlik to'g'risidagi ishlar soddalashtirilgan tartibda ko'rib chiqilayotganda qo'llanilmaydi.

Bankrotlik to'g'risidagi ish iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Pul majburiyatlarini bajarmaganligi munosabati bilan qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan iqtisodiy sudga murojaat etish huquqiga qarzdor, kreditor va prokuror ega.

Qarzdor va kreditor bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi arizada qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashga yoxud tugatishga doir taomillarni qo'llash zarurligini ko'rsatishi mumkin.

Qarzdorning arizasi bilan quyidagi hollarda qarzdorning rahbari, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxs iqtisodiy sudga murojaat etishi shart:

- bir yoki bir nechta kreditorlarning talablarini qondirish qarzdorning boshqa kreditorlar oldidagi pul majburiyatlarini va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini to'liq hajmda bajarishini imkonsiz qilib qo'yishga olib keladigan bo'lsa;

- qarzdorning ta'sis hujjatlariga muvofiq qarzdorni tugatish to'g'risida qaror qabul qilishga vakolatli bo'lgan qarzdor yuridik shaxs

organi tomonidan qarzdorning arizasi bilan iqtisodiy sudga murojaat etish haqida qaror qabul qilingan bo'lsa;

qarzdor unitar korxonada mol-mulking egasi vakolat bergan organ tomonidan qarzdorning arizasi bilan iqtisodiy sudga murojaat etish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa;

- undiruv qarzdorning mol-mulkiga qaratilganda, bunday undiruv qarzdorning xo'jalik faoliyatini imkonsiz qilib qo'yadi deb hisoblashga asoslar bo'lsa.

Tugatish komissiyasi (tugatuvchi), agar yuridik shaxs tugatila-yotganda kreditorlarning talablarini to'liq hajmda qondirish imkon-sizligi aniqlangan bo'lsa, qarzdorning arizasi bilan iqtisodiy sudga murojaat etishi shart.

Qarzdorning, tugatish komissiyasining yoki tugatuvchining ari-zasi ushbu "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunning 8- moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan holatlar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran bir oydan kechiktirmay iqtisodiy sudga yuborilishi kerak.

Kuzatuv, sud sanatsiyasi, kelishuv bitimi, tashqi boshqaruv va tugatishga doir ish yuritish yuridik shaxsning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda amalga oshiriladigan taomillar hisoblanadi. Yakka tartibdagi tadbirkorning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda esa faqatgina kelishuv bitimi va tugatishga doir ish yuritish kabi taomillar qo'llaniladi. Sudgacha sanatsiya qilish yoki qarzdorni ixtiyoriy ravishda tugatish suddan tashqari bajariladigan taomillar jumlasiga kiradi.

Sudgacha sanatsiya qilish qarzdorning bankrotligi to'g'risidagi ish yuritish qo'zg'atilgunga qadar amalga oshiriladi hamda qarzdorning to'lov qobiliyatini, iqtisodiy jihatdan qodirligini tiklash hamda kelgusida samarali faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratilib berilishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Bankrotlikning oldini olish maqsadida qarzdorning muassislari, boshqaruv organi yoki qarzdor mol-mulking egasi bankrot deb topish to'g'risidagi ariza iqtisodiy sudga taqdim etilgunga qadar qarzdorni moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'radi. qarzdorni moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qarzdor bilan tuzilgan keli-shuvga asosan kreditorlar yoki boshqa shaxslar tomonidan ham ko'rilishi mumkin. Bunday chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

-to'lov muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'la yoki qisman sotib olish;

-ishlab chiqarishni raqobatbardosh mahsulot chiqarishga moslab qayta ixtisoslashtirish;

-chetdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish;

-xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

-qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanishi hamda faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatilishi;

-qarzdorning faoliyatini davom ettirishi uchun qarzdor bilan kreditorlar o'rtasida kreditorlarga to'lanadigan to'lovlar muddatini kechiktirish va (yoki) uni bo'lib-bo'lib to'lash yoxud qarzlardan siylov berish to'g'risida ahdlashuvga erishishga qaratilgan bitim;

-majburiy to'lov majburiyatini bajarishni va kreditlarni qaytarishni sudgacha sanatsiya qilish muddatiga kechiktirish;

-qarzdor yuridik shaxsni qayta tashkil etish.

Sudgacha sanatsiya qilishni davlat tomonidan yordam ko'rsatgan holda o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan organning qarori asosida amalga oshiriladi va u o'n ikki oydan yigirma to'rt oygacha muddatga joriy etiladi.

"Bankrotlik to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunga kuzatuv va sud sanatsiyasi kabi yangi institutlar alohida boblarda kiritilgan.

Kuzatuv institutining joriy etilishidan ko'zlangan maqsad kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, qarzdor mol-mulkini talon-taroj qilinishini oldini olish va qonunda belgilangan vakolatlarni amalga oshirishdan iborat. Kuzatuv bankrotlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilganda iqtisodiy sudi qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani ish yuritishiga qabul qilingan sanadan e'tiboran joriy etiladi va bu haqda sud ajrimida ko'rsatiladi.

Kuzatuv joriy etilgan paytdan boshlab mulkiy un-diruvlar bo'yicha ijro hujjatlarini ijro etish qonunda belgilangan tartibda to'xtatib turiladi; qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) uning tarkibidan chiqib ketishi munosabati bilan qarzdorning mol-mulkidan ulushni (payni) ajratish haqidagi talablarini qondirish va emissiya qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividentlar va boshqa to'lovlar to'lash taqiqlanadi; muqobil bir xildagi talabni hisobga olish yo'li bilan qarzdorning pul majburiyatlarini tugatishga, basharti bunda

kredi-torlarning talablarini qondirish navbati buzilsa, yo‘l qo‘yilmaydi.

Kuzatuv joriy etilganda qarzdor boshqaruv organlarining qonunda belgilangan ayrim vakolatlari cheklanadi. Masalan, qarzdorning boshqaruv organlari ko‘chmas mol-mulkni ijaraga, garovga berish bilan yoki shu mol-mulkni boshqa usulda tasarruf etish va qarzdorning balans qiymati qarzdor aktivlari balans qiymatining o‘n foizdan ko‘prog‘ini tashkil etadigan mol-mulkini tasarruf etish bilan bog‘liq bitimlarni; zayomlar (kreditlar) olish va be-rish, kafolat xatlari va kafolatlar berish, talab qilish huquqlaridan o‘zga shaxs foydasiga voz kechish, qarzni boshqa shaxsga o‘tkazish, shuningdek qarzdorning mol-mulkini ishonchli boshqarish shartnomasini tuzish bilan bog‘liq bitimlarni faqat muvaqqat boshqaruvchining yozma rozi-ligiga binoan tuzishlari mumkin. Shuningdek, ular qarzdorni qayta tashkil etish va tugatish; yuridik shaxsni tuzish yoki boshqa yuridik shaxsning ishtiroki; vakolatxo-nalar ochish va filiallar tashkil etish; dividendlar to‘lash yoki qarzdorning daromadini (foydasini) uning muassis-lari (ishtirokchilari) o‘rtasida taqsimlash; qarzdor tomo-nidan obligatsiyalar va boshqa emissiya qog‘ozlarini (Aksiyalardan tashqari) joylashtirish; ilgari chiqarilgan aksiyalarni aksiyadorlardan sotish olish to‘g‘risidagi qarorlarni qabul qilishga haqli emas.

Kuzatuv joriy etilishi munosabati bilan iqtisodiy sudning ajrimi bilan muvaqqat boshqaruvchi tayinlanadi. Uning huquq va majbu-riyatlari qonunda aniq belgilab qo‘yilgan. Jumladan, muvaqqat bosh-qaruvchi qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta‘minlash chora-larini ko‘-rish; uning moliyaviy ahvolini tahlil qilishi; kredi-torlarni aniqlashi; kreditorlarning talablari reyest-rini yuritishi; qarzdorga nisbatan kuzatuv joriy etilgani haqida kreditorlarni xabardor qilishi; kreditorlarni birinchi yig‘ilishini chaqirishi va o‘tkazishi shart. Kreditorlarning birinchi yig‘ilishi vakolatiga quyidagi qarorlarni qabul qilish kiradi: sud sanatsiyasini yoki tashqi boshqaruvni joriy etish yoxud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan iqtisodiy sudiga murojaat qilish; kre-ditorlar qo‘mitasining miqdoriy tarkibi, uning azola-rini saylash; sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining, tashqi boshqaruvchining yoki tugatuvchi boshqaruvchining nom-zodlarini maqullash to‘g‘risidagi qarorlar.

Iqtisodiy sudi tomonidan qarzdor bankrot deb topilganda va tugatishga doir ish yuritish boshlangan yoki sud sanatsiyasi yoxud tashqi boshqaruv joriy etilgan yoki kelishuv bitimi tasdiqlangan paytdan e'tiboran kuzatuv tugatiladi.

Sud sanatsiyasi – iqtisodiy sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to'lov qobiliyatini tiklash hamda kreditorlar oldidagi qarzini uzish maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o'tkazmagan holda qo'llaniladigan bankrotlik taomilidir.

Kuzatuv jarayonida qarzdor, qarzdor muassislari (ishtirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkinging egasi, shuningdek uchinchi shaxs (shaxslar) sud sanatsiyasini joriy etish haqidagi iltimosnoma bilan kreditorlar yig'ilishiga yoxud bevosita iqtisodiy sudiga murojaat qilishga haqli.

Qarzdorning sud sanatsiyasini joriy etish haqidagi iltimosnomasiga sud sanatsiyasining taklif qilinayotgan muddati va qarzni uzish jadvali ko'rsatilgan holda qarzdorning sud sanatsiyasi rejasi ilova qilinmog'i lozim.

Iqtisodiy sud tomonidan sud sanatsiyasi joriy etish to'g'risida ajrim chiqariladi. Unda sud sanatsiyasining muddati, sud tomonidan tasdiqlangan qarzni uzish jadvali, majburiyatlarni bajarish ta'minotini bergan shaxslar haqidagi, bunday ta'minotning miqdori va shakllari, sanatsiya qiluvchi boshqaruvchini tayinlash va unga to'lanadigan haq miqdori haqidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim.

Mazkur ajrim ustidan shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Sud sanatsiyasi ko'pi bilan yigirma to'rt oylik muddatga joriy etiladi. Sud sanatsiyasi joriy etish qonunda belgilangan quyidagi oqibatlariga olib keladi:

kreditorlarning talablarini ta'minlash yuzasidan ilgari qabul qilingan choralar bekor qilinadi;

- qarzdorning mol-mulkini xatlash va qarzdorga nisbatan uning o'ziga tegishli mol-mulkni tasarruf etish borasidagi vakolatlarini boshqacha tarzda cheklovlar faqat bankrotlik taomili doirasida joriy etilishi mumkin;

-sud sanatsiyasi paytida yuzaga kelgan pul majburiyatlarini va majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim

darajada bajarmaganlik uchun neustoyka va boshqa iqtisodiy sanksiyalar, to'lanishi lozim bo'ladigan foizlar qo'llanilmaydi.

Sud sanatsiyasi joriy etilganda kuzatuvdagi singari qarzdor va uning boshqaruv organlari qonunda belgilangan ayrim bitimlarni tuzishga va boshqa harakatlarni qilishga haqli emas.

Sud sanatsiyasi joriy qilinganda iqtisodiy sud tomonidan sanatsiya qiluvchi boshqaruvchi tayinlanadi.

Sanatsiya qiluvchi boshqaruvchining huquqlari va majburiyatlari qonun hujjatlarida belgilangan.

Sud sanatsiyasi muddatidan ilgari tamomlanishi yoki tugatilishi mumkin. Ular bir-biridan farq qiladi. Kreditorlarning qarzni uzish jadvalida nazarda tutilgan barcha talablari sud sanatsiyasining belgilangan muddati o'tishidan oldin qarzdor tomonidan qanoatlantirilganda qarzdorning rahbari sud sanatsiyasi muddatidan ilgari tamomlanganligi haqida iqtisodiy sudga hisobot taqdim etadi. Iqtisodiy sud mazkur hisobotni va kreditorlarning shikoyatlarini ko'rib chiqib, - agar uzilmagan qarz qolmaganligi aniqlangan, kreditorlarning shikoyatlari esa asossiz deb topilgan bo'lsa, qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlaydi va bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni to'xtatadi; - agar uzilmagan qarz borligini aniqlagan va kreditorlarning shikoyatlari asosli deb topilgan bo'lsa, qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlashni rad etadi hamda bular haqida shikoyat (protest) qilinishi mumkin bo'lgan ajrim chiqaradi.

Sud sanatsiyasini muddatidan ilgari tugatish uchun esa quyidagilar asos bo'ladi: kreditorlar talablarini qanoatlantirishning qarzni uzish jadvalida belgilangan muddatlari sud sanatsiyasi jarayonida qarzdor tomonidan bir necha marta yoki bir marta jiddiy ravishda (bir oydan ortiq muddatga) buzilganligi; qarzdor qarzni uzish jadvalini bajarishga qodir emasligidan dalolat beruvchi holatlarning mavjudligi. Iqtisodiy sudga sud sanatsiyasini muddatidan ilgari tugatib, tashqi boshqaruvni joriy etish yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan kreditorlar yig'ilishi murojaat qilishi mumkin.

Sud sanatsiyasi, shuningdek belgilangan muddat tugashi munosabati bilan ham tamomlanadi. Sud sanatsiyasining tamomlanishi to'g'risidagi masala sud majlisida ko'rib chiqiladi va bu haqda iqtisodiy sudning tegishli sud hujjati qabul qilinadi.

Bankrotlik to'g'risidagi qonunda majburiyatlarning ta'minot bergan shaxslar tomonidan bajarilishi, ta'minotdan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish yakunlari to'g'risidagi hisobot hamda ta'minot bergan shaxslarning majburiyatlarni bajarmasligi oqibatlarini ham batafsil yoritilgan.

Tashqi boshqaruv- iqtisodiy sudi tomonidan yuridik shaxsga nisbatan uning to'lov qobiliyatini tiklash maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini tashqi boshqaruvchiga o'tkazgan holda qo'llaniladigan bankrotlik taomildir.

Kreditorlar yig'ilishining iltimosnomasi, mol-mulkida davlat ulushi bo'lgan korxonalar bo'yicha esa bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organining arizasi asosida qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashning haqiqiy imkoniyatlari aniqlangan hollarda iqtisodiy sudi tomonidan o'n ikki oydan yigirma to'rt oygacha bo'lgan muddatga joriy etildi.

Tashqi boshqaruv joriy etish taomilining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, shu paytdan boshlab qarzdorning rahbari o'z vazifalarini bajarishdan chetlashtiriladi, qarzdorning ishlarini boshqarish tashqi boshqaruvchining zimmasiga yuklatiladi, qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlari tugatiladi, kreditorlarning talablarini ta'minlash yuzasidan ilgari ko'rilgan chora-tadbirlar bekor qilinadi, qarzdorning mol-mulkini xatlash va qarzdorga nisbatan uning o'ziga tegishli mol-mulkni tasarruf etish borasidagi vakolatlarni boshqacha tarzda cheklovlar faqat bankrotlik taomili doirasida qo'llaniladi, qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to'lovlarni yuzasidan kreditorlar talablarining qondirilishiga nisbatan moratoriy joriy qilinadi.

Tashqi boshqaruvchi iqtisodiy sud tomonidan tashqi boshqaruvni joriy etish bilan bir paytda tayinlanadi va bu to'g'risida ajrim chiqariladi. Buning imkoni bo'lmasa, iqtisodiy sud tashqi boshqaruvchini tashqi boshqaruv joriy etilgan paytdan e'tiboran bir oylik muddat ichida tayinlaydi. Tashqi boshqaruvchi tayinlanganidan bir oylik muddat ichida tashqi boshqaruv rejasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun kreditorlar yig'ilishiga taqdim etadi.

Iqtisodiy sudi kreditorlar yig'ilishining tashqi boshqaruv rejasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori qabul qilinib, unda belgilangan tashqi boshqaruv muddati dastlabki muddatdan ortiq bo'lganda, agar tashqi

boshqaruv muddatini uzaytirish yoki tashqi boshqaruvning tasdiqlangan rejasini amalga oshirish qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklanishiga olib kelishiga yetarli asoslar bo'lgan taqdirda tashqi boshqaruv muddatini uzaytirish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash yuzasidan quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutiladi: ishlab chiqarishni qayta ixtisoslashtirish; norentabel ishlab chiqarishlarni yopish; debitorlik qarzlarni undirish; qarzdor mol-mulkini bir qismini sotish; qarzdorning talabidan o'zganing foydasiga voz kechish; uchinchi shaxslarning qarzdorning majburiyatlarini bajarishi; qarzdorning qo'shimcha aksiyalarini joylashtirish; qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish; qarzdorning aktivlari o'rnini almashtirish.

Tashqi boshqaruvchining kreditorlar yig'ilishi tomonidan ko'rib chiqilgan hisoboti va kreditorlar yig'ilishining bayonnomasi kreditorlar yig'ilishi o'tkazilgan sanadan keyin besh kundan kechiktirilmadan iqtisodiy sudga yuboriladi. Hisobot va bu yuzasidan kreditorlarning shikoyatlari iqtisodiy sud tomonidan majlisda ko'rib chiqiladi.

Iqtisodiy sud kreditorlar yig'ilishining qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risidagi iltimosnomasi bo'lganda, shuningdek, tashqi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlash rad etilganda yoki hisobot tashqi boshqaruvning belgilangan muddati tugagan paytdan e'tiboran bir oylik muddat ichida taqdim etilmaganda yoxud hisobotni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan sud tomonidan biror bir qaror qabul qilinmagan bo'lsa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu qarorda, shuningdek tashqi boshqaruvchini tayinlagan tartibda tugatish boshqaruvchisini tayinlaydi.

Qonunchilikka ko'ra bankrotlik to'g'risidagi ishlar iqtisodiy sudlar sudloviga taalluqlidir.

Iqtisodiy sud sud'yasi "Bankrotlik to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi bilan o'rnatilgan talablarga rioya etilgan holda berilgan qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani qabul qilishi shart.

Bunday talablarga quyidagilar kiradi:

-ariza iqtisodiy sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan berilgan bo'lsa;

-ish iqtisodiy sudga taalluqli bo'lsa yoki ariza berilgan iqtisodiy sud sudloviga tegishli bo'lsa;

-ariza uni imzolashga huquqi bo'lgan shaxs tomonidan imzolangan bo'lsa;

qonunda belgilangan hollarda ariza uchun davlat boji to'langanligi, uning miqdori va tartibi to'g'risida ma'lumot;

-ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ariza va unga ilova qilingan hujjatlarning nusxalari yuborilganligi to'g'risida ma'lumot.

Agar ariza vakil tomonidan imzolangan bo'lsa, imzolashga vakolat bergan shaxsning ishonchnomasini talab qilish zarur. Arizaning mazmuni qonunda o'ralgan ta'lablarga mos bo'lishi hamda "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunning tegishli moddalariga binoan to'plangan hujjatlardan tashkil topgan ilovaga ega bo'lishi kerak.

Sudya qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza kelib tushgan paytdan e'tiboran besh kundan kechiktirmasdan arizani qabul qilish va bankrotlik ishini qo'zg'atish yoki arizani qabul qilishni rad etish yoxud qaytarish to'g'risidagi masalani hal qiladi. Ariza ish yuritishga qabul qilingan taqdirda ariza kelib tushgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay kuzatuvni joriy etish haqidagi masalani hal qiladi. Arizani ish yuritishga qabul qilish va ko'rib chiqishga tayyorlash to'g'risidagi ajrimda kreditorlarning talablarini qondirishga doir chora-tadbirlar ham ko'rsatib o'tilishi mumkin. Sud amaliyotida bu ikki masalani bir ajrimda ko'rsatib o'tish odat tusiga kirgan.

"Bankrotlik to'g'risida"gi qonunning 46-moddasida kreditorlar talablarini ta'minlashga doir chora-tadbirlar belgilab berilgan. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga binoan sud kreditorlarning talablarini qondirish yuzasidan choralar ko'rishga haqli.

Kreditorlarning talablarini qondirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish haqidagi ariza, u kelib tushgan kunning ertasidan kechiktirmasdan ko'rib chiqilishi shart va uning natijalari yuzasidan shikoyat qilinishi mumkin bo'lgan ajrim chiqariladi. Ko'rilgan choralar tashqi boshqaruv joriy qilingunga yoki qarzdorning bankrot deb topilishiga yoxud tugatishga doir ish yuritishning yakunlanishiga

yoki kelishuv bitimining tasdiqlanishiga yoki qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to'g'risidagi hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar amalda bo'ladi.

qarzdor besh kunlik muddat ichida iqtisodiy sudga, arizachiga va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga mazkur ariza yuzasidan yozma fikrini yuborishga, shuningdek arizada ko'rsatilmagan barcha kreditorlarni o'ziga nisbatan bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilganligidan xabardor qilishga haqli, qarzdorning iqtisodiy sudga yuborayotgan yozma fikriga mazkur yozma fikrning nusxasi arizachiga hamda bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga yuborilganligini tasdiqlovchi dalillar ilova qilinishi kerak. qarzdorning yozma fikrining yo'qligi bankrotlik ishining sudda ko'rib chiqilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Shuningdek, qarzdorning e'tirozlari yo'q bo'lgan taqdirda kreditorning talablari asoslantirilgan deb hisoblanadi. Sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza IPKning va "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunning talablariga mos ravishda tuzilganligi tasdiqlanganidan keyin sudya ishni ko'rishga tayyorlashga doir harakatlarni amalga oshirish masalasini ko'rib chiqadi. Ushbu harakatlarning qo'llanilish tartibi bankrotlik to'g'risidagi ishning xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Sudya arizachi tomonidan qarzdorning to'lovlarni amalga oshira olmasligini tasdiqlovchi, asoslantirish uchun keltirgan dalillarini daxldorligini tekshiradi. Kreditor tomonidan keltirilgan talablarni asoslantiruvchi isbotlarning ham daxldorlik masalasi tekshiriladi. Sudya asosli qaror chiqarishi uchun materiallar yetarli emas deb hisoblasa, qo'shimcha dalillarni taqdim qilishni talab etishi mumkin. Masalan, arizachi Davlat soliq inspeksiyasi bo'lsa, sudya nafaqa fondi va mehnat birjasidan qarzdorning bu tashkilotlardan qarzi bor yo'qligi haqida malumot taqdim etishini so'raydi.

Ishni ko'rishga tayyorlash sudya tomonidan yakka tartibda va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga xabar bermasdan amalga oshiriladi. Ishni ko'rishga tayyorlashdan keyingi bosqich, bu arizachi yoki kreditorlarning talablariga nisbatan qarzdor tomonidan keltirilgan vajlarni tekshi-rishdir. Umumiy asoslarda ishni ko'rishga tayyorlashda vajlarning asoslantirilganligi sud tomonidan bevosita nizo ko'rila-yotgan paytda tekshirilsa, bankrotlik ishlarida vajlarning

asoslantirilganligi ishni mazmunan ko‘rib hal qilishdan oldin tekshiriladi. qarzdorning vajlarini tekshirish bo‘yicha alohida ajrim chiqarilish-chiqarilmasligi haqida qonunda alohida norma belgilanmagan, shuning uchun bu haqda qarzdor yoki kreditorlarni xabardor qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Qarzdor vajlarining asosliligini tekshirish natijalari tegishli kreditorlar yig‘ilishida ovozlar sonini aniqlashga asos bo‘lishi mumkinligi uchun, sud bu vajlarni mazkur majlisning birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tgunga qadar tekshirishi lozim, chunki “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq kreditorlarning birinchi yig‘ilishi ishni sudda mazmunan ko‘rib hal qilinishidan oldin o‘tkazilishi kerak. qarzdorning vajlarini tekshirish natijasida sud tomonidan bu haqda ajrim chiqariladi, uning ustidan shikoyat keltirilishi mumkin emas, chunki bu hakda IPK va “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonunda ko‘rsatib o‘tilmagan.

Bundan tashqari, qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash uchun va ishni ko‘rishga tayyorlashda, ishni ko‘rishda maxsus bilimlarni talab qiladigan savollarni tushuntirib berish uchun iqtisodiy sud ekspertiza tayinlaydi. Ekspertiza nafaqat ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ilti-mosiga ko‘ra, balki iqtisodiy sudning topshirig‘iga asosan ham tayinlanishi mumkin, chunki bu iqtisodiy protsessual huquqi normalariga zid emas.

Bankrotlik to‘g‘risidagi ish umumiy tartibda ko‘rilganda qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza ish yuritishga qabul qilinganligi haqida ajrim chiqarilgan kundan e‘tiboran uch oydan ortiq bo‘lmagan muddatda ko‘rib chiqiladi. Alohida hollardagina ishni ko‘rish ikki oydan oshmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Sudya qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizani o‘z ish yurituviga qabul qilayotgan vaqtda kuzatuvni joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin. Kuzatuv joriy etish to‘g‘risidagi masala sudya tomonidan ariza kelib tushgan kundan boshlab o‘n kun ichida hal etiladi.

Sudya bankrotlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qo‘yidagi sud hujjatlaridan birini qabul qiladi:

-qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash;

-qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to‘g‘risidagi qaror;

-sud sanatsiyasini, tashqi boshqaruvni joriy etish va uning muddatini uzaytirish;

-bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni tugatish;

-qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani ko'rmasdan qoldirish;

kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risidagi ajrim.

Mazkur sud hujjatlari, agar qonun bilan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lmasa, darhol ijro etiladi.

Tugatishga doir ish yuritish muddati bir yildan oshmagan muddatda amalga oshiriladi. Bu muddat zarurat bo'lganda sudning ajrimi bilan uzaytirilishi mumkin.

Tugatishga doir ish yuritish mobaynida qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanishiga yetarli asoslar, ya'ni moliya-viy tahlil ma'lumotlari bilan tasdiqlangan asoslar paydo bo'lsa va qarzdorga nisbatan sud sanatsiyasi va (yoki) tashqi boshqaruv taomili joriy etilmagan bo'lsa, tugatish bosh-qaruvchisi mazkur holatlar aniqlangan paytdan e'tiboran bir oylik muddat ichida tugatishga doir ish yuritishni tugatish va tashqi boshqaruvga o'tish haqidagi iltimos-noma bilan iqtisodiy sudga murojaat etish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish maqsadida kreditorlar yig'ilishini chaqirishga majburdir.

Tugatish boshqaruvchisi kreditorlar bilan hisob-kitoblar tamomlanganidan keyin tugatishga doir ish yuritishni o'tkazish natijalari haqidagi hisobotni iqtisodiy sudga taqdim etadi.

Iqtisodiy sud hisobotni ko'rib chiqib, tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi haqida ajrim chiqaradi va tugatish boshqaruvchisi zimmasiga bu ajrimni yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organga o'n kun ichida taqdim etish majburiyatini yuklaydi.

Yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga qarzdor tugatilganligi to'g'risidagi yozuv ajrim taqdim etilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay kiritiladi. Bu paytdan boshlab, tugatish boshqaruvchisining vakolatlari tugatilgan, tugatishga doir ish yuritish tamomlangan, qarzdor esa tugatilgan hisoblanadi.

Iqtisodiy sud tomonidan bankrotlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishning har qanday bosqichida qarzdor va kreditorlar kelishuv bitimi tuzishga haqlidirlar. Kelishuv bitimini tuzish to'g'risidagi qarorni qabul qilish, uni tuzish tartibi, shakli va mazmuni, o'ziga xos

xususiyatlari, haqiqiy emasligi va oqibatlari qonunda belgilangan tar-tibda amalga oshiriladi.

Kelishuv bitimi sud tomonidan tasdiqlanishi kerak, bu haqda bankrotlik to'g'risidagi ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrimda ko'rsatib o'tiladi.

Tashqi boshqaruv jarayonida sud tomonidan kelishuv bitimining tasdiqlanishi kreditorlar talablarining qondirilishiga joriy etilgan moratoriy hamda bankrotlik to'g'risida ish yuritishning tugatilishi uchun asos bo'ladi. Agar kelishuv bitimi iqtisodiy sud tomonidan tugatishga doir ish yuritish davrida tasdiqlangan bo'lsa, sudning qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risidagi qarori ijro etilmasligi kerak.

"Bankrotlik to'g'risida"gi qonunning alohida boblari shaharni tashkil etuvchi korxonalar hamda unga tenglashtirilgan korxonalarining bankrotligi, qishloq xo'jaligi korxonalarining bankrotligi, banklarning bankrotligi, sug'urtalovchining bankrotligi, qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining bankrotligi masalasini ko'zda tutadi. Bu toifalarga kiruvchi shaxslarning bankrotligi masalasi ko'rilganda ularning har birining o'ziga xos belgilari borligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shaharni tashkil etuvchi korxonalar hamda unga tenglashtirilgan korxonalar deganda xodimlari ularning oila azolarini ham qo'shib hisoblaganda tegishli aholi punkti aholisining kamida yarmini tashkil etuvchi yoki xodimlarining soni kamida uch ming kishi bo'lgan yoxud davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi saqlab turilishini ta'minlovchi yoki tabiiy monopoliyalar subyekti bo'lgan yuridik shaxs tushuniladi.

Bunday korxonalar bankrotligi to'g'risidagi ish, agar qarzdor kreditorlarning pul majburiyatlari bo'yicha talablarini qondirishga va majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lmasa, hamda bunday talab va majburiyatlar olti oy ichida bajarilmagan bo'lsa, basharti qarzdorga nisbatan bildirilayotgan talablar eng kam ish haqining besh ming karrasi miqdorini tashkil etsa, iqtisodiy sud tomonidan qo'zg'atilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi korxonalar hamda unga tenglashtirilgan korxonalar bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda tegishli davlat hokimiyati organi va tegishli vazirlik, davlat qo'mitasi, idora xo'jalik

boshqaruv organi ishda ishtirokchi shaxs sifatida e'tirof etiladi. Bunday korxonaga nisbatan iqtisodiy sud tomonidan tashqi boshqaruv kreditorlar yig'ilishining qarori asosida, bunday qaror bo'lmasa, mahalliy davlat hokimiyati organi ning yoki vazirlik, davlat qo'mitasi, idoraning va xo'jalik boshqaruvi organining iltimosnomasiga binoan, ular qarzdorning majburiyatlari yuzasidan ta'minot bergan taqdirda, joriy etilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi qarzdor korxonaga hamda unga tenglashtirilgan qarzdor korxonaga tashqi boshqaruv chog'ida kreditorlarning talablarini qondirish maqsadida mulkiy majmua sifatida sotilishi mumkin. Shaharni tashkil etuvchi korxonaga hamda unga tenglashtirilgan korxonani sotish tanlov yoki auksion o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Mazkur yuridik shaxslarning tugatish jarayonida uning mulki qiymati kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli bo'lmasa, tugatish komissiyasi (tugatuvchi) ushbu yuridik shaxsni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza bilan iqtisodiy sudga murojaat qilishi yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli choralarni ko'rish uchun davlat soliq xizmati organlariga murojaat etishi shart. Bankrotlikning soddalashtirilgan taomiliga hozir bo'lmagan qarzdorning bankrotligi ham kiradi.

Hozir bo'lmagan qarzdor deganda o'z faoliyatini tugatgan yoki tartibdagi tadbirkor yoki tugatilayotgan yuridik shaxsning rahbari hozir bo'lmagan va ularning turgan joyini (yashash joyini) aniqlashning imkoni bo'lmagan holat tushuniladi.

Bu holatda yuridik shaxs majburiy tarzda emas, balki ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan bo'ladi. Shuning uchun ham bankrotlik taomillarining hozir bo'lmagan qarzdorga nisbatan to'liq hajmda qo'llanilishi majburiy shart qilib belgilanmagan. Hozir bo'lmagan qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza kreditorlik qarzining miqdoridan qat'iy nazar kreditor, bankrotlik to'g'risidagi ishlar buyicha davlat organi, soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organ, shuningdek prokuror tomonidan berilishi mumkin.

Iqtisodiy sudi hozir bo'lmagan qarzdorni bankrot deb topish haqidagi arizani o'z ish yurituviga qabul qilib olgan kundan e'tiboran ikki haftalik muddat ichida qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Hozir bo‘lmagan qarzdorning bankrotligida kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv taomillari qo‘llanilmaydi. Iqtisodiy sudning qarori bankrotlik to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat organiga yuboriladi, bu organ mazkur qarorni olgan kundan e‘tiboran bir haftalik muddat ichida iqtisodiy sudga tugatish boshqaruvchiligiga nomzod taqdim etadi. Bunday nomzod bo‘lmagan taqdirda iqtisodiy sud tugatish boshqaruvchisini bankrotlik to‘g‘risidagi ishlari bo‘yicha davlat organi xodimlari ora-sidan tayinlashi mumkin.

Tugatish boshqaruvchisi o‘zi aniqlagan barcha kredi-torlarni hozir bo‘lmagan qarzdorning bankrotligi to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qiladi, ular bu xabarni olgan kundan e‘tiboran bir oylik muddat ichida tugatish boshqaruvchisiga o‘z talablarini taqdim etishlari mumkin. Tugatish boshqaruvchisi hozir bo‘lmagan qarzdorning mol-mulkini aniqlagan taqdirda, iqtisodiy sud uning iltimos-nomasiga binoan bankrotlikning soddalashtirilgan taomi-lini bekor qilish hamda ushbu qonunda nazarda tutilgan bankrotlikning umumiy taomiliga o‘tish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin.

Nazorat savollari.

1. Bankrotlik tushunchasi va uning vazifalariga ta’rif bering?
2. Bankrotlik to‘g‘risida qonunchilikka izoh bering?
3. Bankrotlikka qanday huquqiy institutlar bor?
4. Sudgacha sanatsiya tushunchasini yoriting?
5. Bankrotlik to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rib chiqish tartibini yoriting?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi: Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: “Adolat”, 2018-y. – 376 b.
 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 29-dekabr, № 271-272 (7229-7230).
-

3. Azizov X.T., Shirinov J., Bakayev Sh. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Akademiya, 2013. – 114 b.

4. Ibratov B.I. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. – Toshkent: Moliya, 2001. – 218 b.

5. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at // Mualliflar: M.Abdullayev, M.Abdullayeva, F.Abdullayeva, G.Abdurazzoqova va boshq.; R.Ro‘ziyev va Q.Xonazarov umumiy tahririda. To‘ldirilgan uchinchi nashri / - T.: “Sharq”, 2006.

6. Tadbirkorlik huquqi. Umumiy qism. Darslik. Tahrir hay‘ati: X.Rahmonqulov, Sh. M.Niyozov va boshq. Masul muharrir: Sh.Ro‘zinazarov. — T.: 2002.

6 -mavzu. Korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish.

1. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tushunchasi.
2. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning huquqiy asoslari.
3. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish subyektlari va obyektlari.
4. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish usullari.
5. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tartibi.

Mulkiy munosabatlarni takomillashtirish, mulkchilikni tarkibiy o'zgartirish bozor iqtisodiyoti sharoitidagi mamlakatlar uchun eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan, O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan boshlab mulkiy munosabatlarga, jumladan, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, xususiylashtirish — jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning ommaviy mulki obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir, davlat tasarrufidan chiqarish esa — davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga, ommaviy mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir..

Xususiylashtirish iqtisodiy tushuncha bo'lib, mulkka egalik huquqini davlatdan korxonalar va alohida shaxslarga berilishi, xususiy sektorga davlat xizmatlari ko'rsatilishini cheklashni yoki xususiy tashabbuskorlik uchun keng imkoniyatlar berish maqsadlarida davlatning faoliyat sohasini toraytirishni bildiradi. Bu jarayon yangi mulkdorlar sinfini vujudga kelishiga ko'maklashadi, zero usiz bozor iqtisodiyotini shakllantirish mumkin emas. Boshqacha aytganda, xususiylashtirish deyilganda fuqarolar va davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarni davlat mulki obyektlarini yoki davlat aksiyalarini davlatdan sotib olishi tushuniladi³⁴. O'z navbatida, xususiylashtirish

³⁴ Zokirov I. Fuqarolik huquqi: Darslik. — Toshkent: TDYUI, 2009. — B. 417

davlat huquqiy voqeiligi sifatida davlatda mavjud mulkiy munosabatlarni o'zgartirish hisoblanadi³⁵.

- Demak, xususiylashtirish bu mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va nodavlat mulk shakllarini rivojlantirishni bildirib, monopollashgan bozor iqtisodiyotidan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq hodisadir. Mazkur hodisa davlat mulki monopoliyasini tugatishga qaratilgan bo'lib, u antimonopol xarakterga ega, ya'ni mulkdorlar, mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarni ko'paytirib, sog'lom raqobat muhitiga yo'l ochadi.

- O'z navbatida, xususiylashtirishning asosiy maqsadi mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va ko'p ukladli mulk shakllarini tashkil etish evaziga mulkdor sinfini shakllantirish, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy qo'llab quvvatlash, aholi o'sishini hisobga olib, asta-sekin ijtimoiy kafolatlar tizimiga o'tish va aholini turmush tarzini oshirishdir.

- Davlat mulkini xususiylashtirish tushunchasi ham davlatning o'z ixtiyoridagi ishlab chiqarish vositalari, mol-mulk obyektlarini, korxonalar, uy-joy, transport vositalari, tabiat resurslari va boshqalarni davlat tasarrufidan chiqarishi va fuqarolar, jamoalar, shuningdek, davlatga tegishli bo'lmagan yuridik shaxslarga berishi yoki sotilishi, davlat mulki asosida turli (aksiyali, xususiy, oilaviy, qo'shma, aralash, korporativ) mulk shakllarini vujudga keltirishni anglatadi. Davlat mulkini xususiylashtirish davlat mulkini kelgusida shu mulk negizida xo'jalik faoliyati yurituvchi va uning natijalari bo'yicha to'liq mulkiy mas'uliyatni zimmasiga oluvchi iqtisodiy subyektlarga turli shartlarda berish yoki sotish orqali amalga oshiriladi va mulk egasini o'zgartirishni nazarda tutadi.

- Har bir soha faoliyatining o'ziga xos tamoyillari bo'lganidek, xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishning ham belgilangan tamoyillari mavjud. Quyidagilar davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning asosiy prinsiplari hisoblanadi:

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish shakllarini mehnat jamoasining manfaatlarini hisobga olgan holda aniqlash;

³⁵ Maripova S.A. Privatizatsiya jilya kak odin iz etapov formirovaniya chastnoy sobstvennosti v Respublike Uzbekistan. // Istoriya razvitiya prava na territorii Uzbekistana. Materialy nauchnogo seminara. – Tashkent: Adolat, 2007. – S. 234.

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish vaqtida mulkni pulli va pulsiz topshirishni qo‘shib olib borish;
- pulsiz va pulli xususiylashtiriladigan mulkdan ulush olishda fuqarolarning huquqlari tengligi;
- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish sharoitida barcha fuqarolar ijtimoiy himoya qilinishini ta’minlash;
- oshkoralik davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tadbirlarini amalga oshirish ustidan davlat va jamoat nazoratini yo‘lga qo‘yish;
- raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish.
 - Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni amalga oshirish chog‘ida quyidagilar ommaviy mulkni sotib oluvchi subyektlar bo‘lishi mumkin:
 - O‘zbekiston Respublikasining, boshqa davlatlarning fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;
 - davlatga taalluqli bo‘lmagan yuridik shaxslar;
 - ajnabiy yuridik shaxslar ommaviy mulkni sotib oluvchi subyektlar bo‘lishi mumkin.
 - Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi man etilgan shaxslar davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan obyektlarni sotib olishlari, tanlov va kim oshdi savdosida xaridor sifatida qatnashishlari, xususiylashtirilayotgan korxonalarining (aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno) aksiyalarini sotib olishlari mumkin emas.
 - O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi ommaviy mulki obyektlari to‘liq ravishda yoki qisman davlat tasarrufidan chiqariladi va xususiylashtiriladi.
- Shuningdek, quyidagi davlat mulki obyektlari davlat tasarrufidan chiqarilmaydi va xususiylashtirilmaydi:
 - 1) O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida yer (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), yer osti boyliklari, ichki suvlar, havo havzasi, o‘simlik va hayvonot dunyosi;
 - 2) moddiy madaniy meros obyektlari, shu jumladan davlat fondlarida, milliy fondlarda, axborot-kutubxona fondlarida va ilmiy-tadqiqot muassasalarining fondlarida saqlanayotgan moddiy madaniy meros obyektlari, shuningdek arxivlar, muzeylar va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar;

- 3) O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining, valyuta zaxirasining, davlat maqsadli jamg‘armalarining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mablag‘lari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining oltin zaxirasi;

- 4) pul muomalasi bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi davlat tashkilotlari, qimmatli qog‘ozlarni, ordenlarni, medallarni va pochta to‘lovi belgilarini ishlab chiqarishni ta‘minlovchi korxonalar va tashkilotlar;

- 5) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining, Davlat xavfsizlik xizmatining va Ichki ishlar vazirligining korxonalari, muassasalari va harbiy-texnikaviy mol-mulki (sanoatda qayta ishlov berilguniga qadar, shuningdek sanoatda qayta ishlov berilishi mumkin bo‘lmagan mol-mulk);

- 6) ionlovchi nurlanish manbalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini olib boruvchi, rentgen uskunalari, asbob-uskunalar va jihozlarni ishlab chiqish, tayyorlash va realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi korxonalar va obyektlar;

- 7) radioaktiv moddalarni kavlab olish, ishlab chiqarish, tashish, qayta ishlashni, radioaktiv chiqindilarni ko‘mish, uran va boshqa bo‘linuvchi materiallarni, shuningdek ulardan yasalgan buyumlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi korxonalar va obyektlar;

- 8) qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar, himoya vositalari, harbiy texnika, ehtiyot qismlar, butlovchi qismlar va ular uchun asbob-uskunalar, pirotexnika mahsulotlari, shuningdek ularni ishlab chiqarish uchun maxsus materiallar va uskunalar ishlab chiqish, tayyorlash, ta‘mirlash va realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi korxonalar;

- 9) ovchilik va sport sohasida foydalaniladigan o‘qotar qurollar va o‘q-dorilar, shuningdek tig‘ qurol (sovg‘a tarzidagi milliy pichoqlar bundan mustasno) ishlab chiqarish, ta‘mirlash va realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar;

- 10) kuchli ta‘sir etadigan zaharlar, giyohvandlik moddalari va zaharli moddalar ishlab chiqaruvchi, shuningdek tarkibida giyohvandlik moddalari va zaharli moddalar bo‘lgan ekinlar ekuvchi, yetishtiruvchi va ularga qayta ishlov beruvchi korxonalar;

- 11) O‘zbekiston Respublikasining davlat zaxiralari. Fuqaro muhofazasi va safarbarlik maqsadidagi obyektlar hamda mol-mulk;

- 12) atom energetikasi obyektlarini (uskunalari, tizimlari va apparatlarini oʻrnatish) va strategik ahamiyatdagi obyektlarni qurish va montaj qilish ishlarini olib borish, ulardan foydalanish hamda ularni taʼmirlashni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan korxonalar va tashkilotlar;

- 13) portlash xavfi boʻlgan va zaharli moddalarni tashishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan korxonalar;

- 14) umumiy foydalanishdagi avtomobil yoʻllari;

- 15) sanitariya-epidemiologiya stansiyalari. Sud-tibbiy ekspertizasi byurolari. Atrof muhit holatini nazorat qiluvchi hamda tabiatni muhofaza qiluvchi xizmatlar;

- 16) davolashishlab chiqarish ustaxonalari, jazoni ijro etish muassasalarining korxonalari;

- 17) maxsus vazifalarni bajaradigan korxonalar (Respublika maxsus aloqa uzeli, 15361 raqamli Harbiy qism, Elektromagnit moslik markazi);

- 18) qabristonlar.

- Davlat tasarrufidan chiqarilmaydigan va xususiylashtirilmaydigan davlat mulki obyektlari jumlasiga Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq boshqa obyektlar ham kiritilishi mumkin.

- 3. Quyidagi davlat mulki obyektlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan amalga oshiriladi:

- 1) asosiy fondlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravaridan ortiq boʻlgan korxonalar;

- 2) qimmatbaho, nodir metallar, qimmatbaho toshlarni kavlab olish hamda qayta ishlash korxonalari;

- 3) sanoatning tayanch tarmoqlari: yoqilgʻi-energetika, konchilik (shu jumladan portlovchi moddalarni, shuningdek ularni ishlab chiqarish uchun maxsus materiallar va asbob-uskunalarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilish bilan shugʻullandigan), mashinasozlik va paxtani qayta ishlash majmualarining korxonalari va tashkilotlari. Neft, gaz va koʻmir qazib chiqarish, quduqlar burgʻulash korxonalari va tashkilotlari. Magistral neft quvurlari va gaz quvurlari, neft mahsulotlarini oqizma holda yetkazib beradigan

quvurlar, elektr va issiqlik hosil qiluvchi stansiyalar va tizim hosil etadigan elektr tarmoqlari;

- 4) kimyo korxonalarini (gerbitsidlar, mineral o'g'itlar, sintetik tolalar, qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurashda ishlatiladigan zaharli kimyoviy dorilar va shu kabilarni ishlab chiqarish);

- 6) elektr aloqasi korxonalarini, televizion, radio qabul qilish va radio uzatish markazlari hamda ularning muhandislik inshootlari;

- 7) raketa-kosmik majmualari, aloqa tizimlari va ularni boshqarish vositalarini ishlab chiqish, tayyorlash, ta'mirlash va realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi korxonalar va obyektlar;

- 8) matbaa korxonalarini va nashriyotlar;

- 9) axborot va telegraf agentliklari;

- 10) shifrlashda ishlatiladigan texnikani ishlab chiqarish, ta'mirlash, realizatsiya qilish va undan foydalanishni amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar;

- 11) standartlashtirish va metrologiya korxonalarini hamda tashkilotlari;

- 12) tavakkalchilik xavfi yuqori bo'lgan obyektlar hamda ichki va tashqi xavf-xatari bor ishlab chiqarish obyektlari qurish hamda ulardan foydalanishni, ular uchun uskunalari, nazorat qilish va falokatlarning oldini olish tizimlarini tayyorlashni amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar;

- 15) muhandislik infratuzilmasi obyektlari: tuman markazlari va shaharlarning elektr, issiqlik, gaz ta'minoti, vodoprovod-kanalizatsiya xo'jaligi;

- 16) temir yo'l, havo va daryo transportida yo'lovchilar hamda yuklar tashishni amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar;

- 18) vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralarning oliy, o'rta maxsus va kasb-hunar o'quv yurtlari, shuningdek umumta'lim muassasalari;

- 19) O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining, O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazining tashkilotlari. Davlat ilmiy markazlari;

- 20) davlat naslchilik xo'jaliklari va fermalari, ot zavodlari, elita-urug'chilik xo'jaliklari, urug'chilik va seleksiya stansiyalari, davlat urug'chilik inspeksiyalari va qishloq xo'jalik ekinlarining

texnologik sifatini baholash laboratoriyalari, nav sinov stansiyalari va uchastkalari;

- 21) pochta aloqasi korxonalarini;
- 22) o'rmon xo'jaligining, geologiya, kartografiya-geodeziya, gidrometeorologiya xizmati korxonalarini va tashkilotlari hamda ularning axborot markazlari;

- 23) sanoatning qattiq chiqindilari va ro'zg'or chiqindilari ko'miladigan maydonlar, binolar, inshootlar va ko'mish uchun kerakli uskunalari, chorva mollar ko'miladigan joylar;

- 24) mashina sinash stansiyalari, elevatorlar;

- 25) O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan davlat sanatoriy-kurort xo'jaliklari;

- 26) kinolashtirish va konsert-tomosha ko'rsatish muassasalarining korxonalarini, shuningdek axborot-kutubxona muassasalari va o'quv zallari;

- 27) sog'liqni saqlash muassasalari;

- 28) davlat veterinariya xizmati, o'simliklarni himoya qilish xizmati korxonalarini va muassasalari;

- 29) nogironlar, qariyalar va fuqarolarning ijtimoiy jihatdan himoya etilmagan boshqa toifalari qarovda bo'ladigan uylar va internatlar;

- 30) bolalar, o'smirlar va yoshlarning sog'lomlashtirish muassasalari;

- Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish usullari. Bozor munosabatlari ko'p ukladli iqtisodiyot bo'lganligi uchun davlat mulkini xususiylashtirish ham bir nechta shakl va usullarda amalga oshiriladi. Jahonning turli mamlakatlarida xususiylashtirishning tahlili uning yettita asosiy usulini alohida ajratib olish imkonini beradi:

- 1. Davlat korxonalarini aksiyalarining ochiq sotuvini o'tkazish. Fond bozorlari yetarli rivojlanmagan mamlakatlarda aksiyalarni ochiq sotish qiyin bo'lib, qimmatga tushishi mumkin. Bu keng ko'lamli reklama kompaniyasiga zaruriyatdan kelib chiqadi. Lekin bu sa'y-harakatlar tamomila o'zini oqlaydi. Masalan, Yamaykada shunday kompaniya davlat bankini sotish bo'yicha kim oshdi savdosida muvafaqiyatli o'tkazilishiga yordam berdi.

- 2. Aksiyalarni kim oshdi savdosi yo'li orqali sotish. Xususiylashtirishning keng tarqalgan bu usuli kim oshdi savdosi orqali amalga

oshirilishi kerak. Bunda poraxo‘rlik va ayrim fuqarolarga ustunlik berilishi oldi olinadi. Chunonchi, Meksikada xususiylashtirishning dastlabki bosqichi korxonalar hukmron partiyaga yaqin turgan shaxslarga ancha-muncha arzon narxlarda sotilishida ayblash tufayli ko‘plab baxslar keltirib chiqargan edi.

- 3. Davlat korxonalarini xususiylashtirishga sotish. Bu usul yoxud obyektning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotib olish, yoxud aksiyalar paketini sotib olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Xususiylashtirishni yirik korxonalar uchun samarasiz hisoblaydilar, chunki davlat aksiyalarining nazorat paketini o‘z qo‘lida saqlab qoladi, bu esa kelgusi muvafaqiyatlar oldida mas‘uliyat kuchli bo‘lgan asholarda investitsiya to‘g‘risidagi qarorlarni qabul qilishda o‘z aksini ko‘rsatish mumkin. Yangi investitsiyalar yoxud aksiyalarni ochiq sotish, yoxud xususiylashtirish bilan jalb etish mumkin.

- 4. Korxonaning mulkini sotish va keyinchalik mavjud qarzlarni to‘lash yo‘li bilan davlat korxonasini tugatish. Bu uslubdan faqat ichki qayta qurishlar yo‘li bilan korxonani saqlab qolishga bo‘lgan jamiki umidlar yo‘qqa chiqqanida foydalaniladi. Polshada sanoat korxonalarini xususiylashtirish chog‘ida bu usul keng qo‘llanilgan.

- 5. Davlat korxonasini alohida bo‘linmalarga ajratish yoki bo‘lish va qayta qurish yuli bilan ularni qismlar bo‘yicha sotish. Iqtisodiyot markazlashtirilgan ko‘pgina mamlakatlarda yirik korxonalar turli turdagi ko‘pdan ko‘p korxonalarni o‘z ichiga oladi. Har qanday xususiylashtirish amalga oshirilishidan avval ularni ajratish va kichiklashtirish lozim bo‘ladi. Bunda korxonaning foyda keltiruvchi bo‘linmalari alohida korxonalar tariqasida sotiladi.

- 6. Korxonaning rahbarlar va mehnat jamoasi tomonidan sotib olinishi. Bu holda korxonani mehnat jamoasi tomonidan aksionerlash dasturi (USOP) eng muhim usul hisoblanadi. USOP shunday mexanizm hisoblanadiki, u korxonaga jamoasiga bo‘lg‘usi jamg‘armalar hisobidan qaytariladigan qarzlarni olish imkonini beradi. Qarzlarni qoplanishi bilan aksiyalar ularni sotib olishda ishtirok etgan har bir xodimning o‘z mulkiga aylanadi. Bunday mulk turini shakllantirish zahirida bir tomondan bozor va foydaga yo‘nalganlik, ikkinchi tomondan xodimning ijtimoiy muhofazalanganligi yotadiki, bu xodim o‘z korxonasi mulkiga egalik qilishi bilan uzviy bog‘liqdir. USOP

dasturidan bu holatda soliq imtiyozlari berilishi tufayli AQSHda tez-tez foydalaniladi.

- 7. Davlat korxonasining xususiy shaxs tomonidan ijaraga olinishi yoki davlat va xususiy korxonalar o'rtasida korxonani boshqarish to'g'risida bitim tuzish. Bunday yondashuv olis muddatdagi istiqbolda keskin cheklanadi.

- O'zbekiston Respublikasining "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- 1) davlat korxonasini xo'jalik shirkati yoki jamiyatiga aylantirish;

- 2) davlat mol-mulkini tanlov yo'li bilan va kim oshdi savdosida davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarga va jismoniy shaxslarga sotish shaklida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

- Davlat korxonasini xo'jalik shirkati yoki jamiyatiga aylantirish shakli hozirda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi ikki xil usulda amalga oshiriladi:

- 1) davlat korxonalari va davlat muassasalarini aksiyadorlik jamiyati shaklidagi xo'jalik jamiyatiga aylantirish;

- 2) davlat korxonalari va davlat muassasalarini mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi xo'jalik jamiyatiga aylantirish.

- Davlat mol-mulkini tanlov yo'li bilan va kim oshdi savdosida davlatga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarga va jismoniy shaxslarga sotish shakli hozirda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi besh xil usulda amalga oshiriladi:

- 1) davlatga tegishli aksiyalarni sotish;

- 2) mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning ustav fondlari (ustav kapitallari)dagi davlat ulushlarini sotish;

- 3) davlat ko'chmas mulk obyektlarini sotish;

- 4) davlat mulki obyektlarini xaridor tomonidan investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar qabul qilinishi sharti bilan "nul" xarid qiymati bo'yicha sotish;

- 5) davlat mulkini Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender savdolarini o'tkazish bo'yicha Davlat komissiyasi qarorlari bo'yicha sotish.

- Davlat korxonasini jamoa korxonasiga aylantirish, mehnat jamoasi azolari tomonidan davlat mulkini sotib olinishi yoki bu mulkni ularga tekin berilishi yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda jamoa korxonasining ustavida har bir xodimning mol-mulkdagi hamda foydadagi ulushi belgilab qo‘yiladi. Mazkur miqdor xodimlarning ish staji, maoshining miqdori va boshqa omillardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

- O‘zbekistonda xususiylashtirishning davlat korxonalarini xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlariga aylantirish usuli keng qo‘llanildi. Xususiylashtirishning mazkur usulini keng qo‘llashdan maqsad, bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarni mulkdor qilish orqali ularni ijtimoiy jihatdan himoyalash edi. Chunki, bozor munosabatlariga o‘tish davrida ishsiz fuqarolarning soni ortadi hamda ularni ijtimoiy jihatdan himoyalash dolzarb muammolardan biri bo‘lib qoladi. Aynan mana shunday vaziyatda fuqaro birorta korxonaning aksiyasiga ega bo‘lsa yoki uning nizom jamg‘armasida o‘z ulushiga ega bo‘lsa, u ijtimoiy jihatdan himoyalangan bo‘ladi, chunki ular vaqti-vaqti bilan dividend olib turishadi. Dastlab yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etilgan bo‘lsa, keyinchalik fuqarolarni xususiylashtirish jarayonida faol ishtirokini ta‘minlash uchun, ular ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirila boshlandi. Biroq, iqtisodiy tahlillar mazkur jamiyat va shirkatlarda davlat ulushining saqlanib qolishi maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatdi. Shuning uchun ham keyingi davrdagi iqtisodiy islohotlar xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlaridagi davlat ulushlarini mumkin qadar qisqartirishga yoki bo‘lmasa ularning barchasini xususiy sektorga o‘tkazib yuborishga qaratildi. Eng achinarlisi, mazkur korxonalarda aksiyadorlarning o‘z huquqlarini bilmasliklari yoki ularni amalga oshirmasliklari, mulkdor sifatida ularning manfaatlariga salbiy tasir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham, korxonalarining korporativ boshqaruvini tubdan isloh etish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

- Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tartibi. Turli mamlakatlarda davlat korxonalarini xususiylashtirishni rejalashtirish va amalga oshirish jarayoni koida tariqasida 3 asosiy bosqich ajratiladi:

- 1) maqsadga mavofiqlikni baholash;
- 2) tayyorgarlik tadbirlari;

3) amalda ruyobga chiqarish.

- Birinchi bosqichda xususiylashtiriladigan korxonalar tanlab olinadi va xususiylashtirish usullari belgilanadi. Tanlov ishbilarmonlik faoliyatining umumiy shart-sharoitlarini bozorning tegishli bugimlari xususiyatini potensial investorlarni manfaatdorlik darajasini, moliyaviy resurslarning mavjudligini, korxonalar ish olib borishniig asosiy xususiyatlarini baholash asosida amalga oshiriladi. Navbatdagi bosqichda xususiylashtirilayotgan korxonalarni tayyorlash amalga oshiriladi, me'yoriy asoslar ishlab chiqiladi, dastlabki baholash bajariladi va ayrim muxim qarorlar qilinadi.

- Ko'pincha korxonada ishlovchilarning manfaatlari bilan bog'liq turli ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish zaruriyati tugilishi mumkin. Qisqartirishlar mikdorini kamaytirish, ortikcha xodimlar bilan adolatli munosabat, yangi ish beruvchi korxonada koldirilgan xodimlarning xizmat muddatini hisobga olishi shu manfaatlarga taalluklidir.

- Tayyorgarlik bosqichida amalga oshiriladigan asosiy tadbirlarning sungisi kiymat baxosini dasglabki aniklashdan iboratdir.

- Bozorning potensial munosabatining yana bir jihati, konkret bozor shart-sharoitlari, tadbirkorlik faoliyatining umumiy sharoitlari zamirida xaridorlar kayfiyatini hisobga olishdan iboratdir. Xaridor manfaatdorligini solik imtiyozlari, past foiz stavkalari va shu kabilar belgilash yuli bilan ragbatlantirish zarur.

- O'zbekiston Respublikasining respublika mulki obyektlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida qaror qabul qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki vakolat bergan davlat boshqaruvi idoralariga beriladi. Munitsipal obyektlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi qaror qabul qilish huquqi mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralariga beriladi. Bunday qarorlarni qabul qilishga huquq berilgan idoralar matnda bundan keyin ommaviy mulk obyektlarini tasarruf etuvchilar deb yuritiladi. O'zbekiston Respublikasining ommaviy mulkini respublika mulkiga va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkiga (munitsipal mulkka) ajratishni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga binoan amalga oshiradi.

- Korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni o'tkazish tashabbusi bilan chiqish huquqiga fuqarolar, davlatga

taalluqli bo‘lmagan O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari va boshqa davlatlarning yuridik shaxslari, mehnat jamoalari, ommaviy mulk obyektlarini tasarruf etuvchilar egadirlar.

- Buyurtma ommaviy mulk obyektlarini tasarruf etuvchiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.

- Davlat tasarrufidan chiqarishni, xususiylashtirishni o‘tkazish yoki unday qilishni rad etish to‘g‘risidagi qarorni ommaviy mulk obyektlarini tasarruf etuvchi buyurtma tushgan paytdan boshlab o‘n kun ichida qabul qiladi, hamda uni buyurtma berganga va davlat tasarrufidan chiqarilayotgan yoki xususiylashtirilayotgan korxonaning mehnat jamoasiga yozma ravishda yetkazadi.

- Davlat korxonasini ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish to‘g‘risidagi qaror O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi yoki uning hududiy organi tomonidan qabul qilinadi.

- Davlat tasarrufidan chiqarish yoki xususiylashtirish:

- - basharti, korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilmaydigan va xususiylashtirilmaydigan korxonalar ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lsa;

- - basharti, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning korxonalarining mazkur turi uchun nazarda tutilgan xususiyatlari hisobga olinmayotgan bo‘lsa;

- - ommaviy mulk obyektlarini tasarruf etuvchi rad etishni asoslash bilan birga davlat tasarrufidan chiqarish yoki xususiylashtirishni amalga oshirish mumkin bo‘lgan shartlar va muddatlarni ko‘rsatmog‘i zarur.

- Korxonani davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga tayyorlash ishi davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan mol-mulk tarkibini aniqlashni, uning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlarini inventarizatsiyadan o‘tkazishni, korxonaning aktivlari va passivlarini baholashni, mehnat jamoasida tushuntirish ishlari olib borishni, boshqa masalalarni hal etishni, shu jumladan raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda hal etishni o‘z ichiga oladi.

- Davlat tasarrufidan chiqarish komissiyasi davlat tasarrufidan chiqarilayotgan yoki xususiylashtirilayotgan korxonalar mablag‘i hisobidan pul to‘lash sharti bilan ishning ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha

ekspertlar guruhlarini tuzishlari, maslahat beruvchi, auditor va boshqa tashkilotlarni bu ishga jalb qilishlari mumkin.

- Komissiya korxonani ma'muriyati bilan birgalikda davlat tasarrufidan chiqarilayotgan yoki xususiylashtirilayotgan korxonani to'g'risida davlat tasarrufidan chiqarish yoki xususiylashtirishda qatnashayotgan subyektlar uchun, shuningdek jamoatchilik uchun belgilangan nusxada zarur axborot tayyorlaydi.

- Davlat korxonasi ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilayotganda korxonani rahbari davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga doir hujjatlarni tayyorlash uchun ishchi komissiya tuzadi. Komissiya bir oylik muddatda zarur hujjatlarni tayyorlab, ommaviy mulk obyektni tasarruf etuvchiga taqdim etadi. Zarur hujjatlar ro'yxatini Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

- Komissiya korxonani davlat tasarrufidan chiqarish yoki xususiylashtirish tadbirlari rejasini ishlab chiqadi va ommaviy mulk obyektlarini tasarruf etuvchiga tasdiqlash uchun taqdim etadi, bu reja:

- - davlat tasarrufidan chiqarishni yoki xususiylashtirishni o'tkazish muddatlarini;

- - obyektning qiymatini;

- - korxonani qayta tashkil etishning zarurat bo'lganda ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastruktura obyektlaridan foydalanishning mavjud tartibi va shartlarini saqlab qolishni ham nazarda tutuvchi loyihasini;

- - hisob-kitoblarning tavsiya etiladigan shakl va muddatini;

- - imtiyozlar berish, shu jumladan davlat tasarrufidan chiqarish qismini bepul berish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

- Davlat tasarrufidan chiqarish yoki xususiylashtirish rejasiga boshqa masalalar ham kiritilishi mumkin.

- Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish obyektining sotuv narxini ommaviy mulk obyektlarini tasarruf etuvchi belgilaydi. Sotuv narxini belgilashda obyektning davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish vaqtidagi qiymatiga asoslaniladi hamda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish o'tkazilayotgan paytda qaror topgan haqiqiy bahosi hisobga olinishi lozim.

- Ommaviy mulk obyekti qiymatining dastlabki bahosi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aniqlanadi. Ijarachi ommaviy mulk

obyektlarini tasarruf etuvchining roziligi bilan o‘zi ijaraga olgan mol-mulkini (to‘liq yoki qisman) sotib olishi mumkin.

- Davlat korxonasini xo‘jalik jamiyat yoki shirkatiga aylantirish tartibi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari bilan belgilanadi. Quyidagilar xo‘jalik jamiyatlari yoki shirkatlarining muassislari yoki aksiyalar (ulush pay) bo‘lishlari mumkin:

- - mehnat jamoasining a‘zolari, O‘zbekiston Respublikasining boshqa fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;

- - O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning yuridik shaxslari;

- - respublika va mahalliy davlat boshqaruv organlari nomidan O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi yoki uning hududiy organlari.

- Ommaviy mulk obyektlari tanlov bo‘yicha sotilishi mumkin. Tanlovni o‘tkazish shartlari, tartibi va muddatini ommaviy mulk obyektlarini tegishli tasarruf etuvchi tayinlaydigan tanlov komissiyasi belgilaydi.

- Davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan korxonalarni kim oshdi savdosida sotishga qo‘yish to‘g‘risidagi qarorni ommaviy mulk obyektini tasarruf etuvchi qabul qiladi. Davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan obyektlarning kim oshdi savdosini o‘tkazish uchun ommaviy mulk obyektlarini tasarruf etuvchilar kim oshdi savdosi xizmatlarini tashkil etadilar, bu xizmatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq ish ko‘radi. Xaridor tomonidan sotib olinmagan obyekt respublika yoki munitsipal mulk bo‘lib turadi. Bunday hollarda mulk obyektlarini tasarruf etuvchi korxonani tugatib, uning mol-mulkini bo‘lak-bo‘lak qilib sotib borish to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin.

- Ommaviy mulk obyektlarini tasarruf etuvchi mol-mulkni yangi mulkdorga topshirayotganda unga mulkdorlik huquqini tasdiqlovchi order beradi. Orderning nusxasi, davlat bojining miqdori va uni to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

- Davlat korxonalari haqini bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotib olingan taqdirda mulkdorlik huquqini tasdiqlovchi order haqning birinchi badali to‘langach beriladi. Korxonaning qiymati butunlay

to‘lab bo‘lingunga qadar ommaviy mulk obyektini tasarruf etuvchi mol-mulkni tasarruf etish huquqini cheklab qo‘yishi, shu jumladan ommaviy mulk obyektlarini tasarruf etuvchining roziligisiz bu mulkni sotishni va tekinga berishni taqiqlab qo‘yishi mumkin.

- Jismoniy shaxslarning shaxsiy mablag‘lari, davlatga taalluqli bo‘lmagan yuridik shaxslarning o‘z mablag‘lari, kreditlar, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo‘lmagan usullar bilan olingan boshqa moliyaviy mablag‘lar mol-mulkni sotib olish uchun manba bo‘ladi.

- Davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan davlat korxonasi mehnat jamoasining a‘zolari korxonani quyidagi manbalar hisobiga sotib olishlari mumkin:

- - sof foydaning mehnat jamoasi a‘zolari mulki bo‘lgan qismi;
- - amortizatsiya ajratmalari hamda mehnat jamoasining mulki bo‘lgan va davlat korxonasida ishlatiladigan mol-mulkni sotishdan kelgan tushum;

- - bank kreditlari va o‘zga qarz mablag‘lari;
- - mehnat jamoasi a‘zolarining shaxsiy mablag‘lari;
- - davlat mulki bo‘lmagan boshqa mablag‘lar.
- Davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lardan davlat mulkini sotib olish manbai sifatida foydalanish mumkin emas.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktyabrdagi “Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 279-sonli qarori³⁶ davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tartibini belgilovchi asosiy normativ hujjatlardan biridir.

- Ushbu qaror bilan mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tartibini belgilovchi quyidagi nizomlar tasdiqlangan:

- 1) davlat korxonalari va davlat muassasalarini aksiyadorlik jamiyati yoki mas‘uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi xo‘jalik jamiyatiga aylantirish tartibotlari bo‘yicha Davlat korxonalari va muassasalarini xo‘jalik jamiyatlariga aylantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom;

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktyabrdagi “Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 279-sonli qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 41-son, 506-modda.

- 2) davlat mulkida bo‘lgan aksiyalarni nodavlat yuridik shaxslarga, shuningdek jismoniy shaxslarga xususiylashtirish tartibida sotish bo‘yicha Davlat aksiyalarini sotish tartibi to‘g‘risida nizom;
- 3) mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ustav fondlari (ustav kapitallari)dagi davlat ulushlarini xususiylashtirish tartibida nodavlat yuridik shaxslarga, shuningdek jismoniy shaxslarga sotish tartibi bo‘yicha Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ustav fondlari (ustav kapitallari)dagi davlat ulushlarini sotish tartibi to‘g‘risida nizom;
- 4) davlatga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mulkiy majmua (korxonalar), binolar va inshootlar, qurilishi tugallanmagan obyektlarni nodavlat yuridik shaxslarga, shuningdek jismoniy shaxslarga xususiylashtirish tartibida sotish tartibi bo‘yicha Davlat ko‘chmas mulk obyektlarini sotish tartibi to‘g‘risida nizom;
- 5) davlat mulki obyektlarini xaridor tomonidan investitsiyaviy va (yoki) ijtimoiy majburiyatlar qabul qilinishi sharti bilan “nol” xarid qiymati bo‘yicha xususiylashtirish tartibida nodavlat yuridik shaxslarga, shuningdek jismoniy shaxslarga sotish tartibi bo‘yicha Davlat mulki obyektlarini xaridor tomonidan investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar qabul qilinishi sharti bilan “nol” xarid qiymati bo‘yicha sotish tartibi to‘g‘risida nizom;
- 6) Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender savdolarini o‘tkazish bo‘yicha Davlat komissiyasi qarorlariga muvofiq xususiylashtirish tartibida nodavlat yuridik shaxslarga, shuningdek jismoniy shaxslarga investitsiyalarni jalb etgan holda davlat mulkini sotish bo‘yicha tanlovlarga tayyorgarlik ko‘rish, ularni tashkil etish hamda o‘tkazish shartlari va tartibi bo‘yicha Davlat mulkini Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender savdolarini o‘tkazish bo‘yicha Davlat komissiyasi qarorlari bo‘yicha sotish tartibi to‘g‘risida nizom.

Nazorat savollari

- *Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tushunchasiga izoh bering?*
- *Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning huquqiy asoslarini yoriting?*
- *Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish subyektlari va obyektlarini ayting?*

7-mavzu: Biznes faoliyatining mulkiy asoslari

Reja:

1. Mulk huquqi biznes faoliyatining asosi sifatida
2. Xususiy mulk asosida biznes faoliyatini yuritish
3. Biznes subyektlarining mol-mulki obyektlari.

Biznes yuritishning iqtisodiy manbalari xususiy mulk va ommaviy (davlat) mulk shakllaridan tashkil topadi.

Fuqarolik kodeksining 167-moddasiga binoan O‘zbekiston iqtisodiyoti negizini xususiy va ommaviy mulk shakllari tashkil etadi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin. (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi)

Mulk huquqi - shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. (O‘zR FKning 164-moddasi).

Mulk huquqi egalari har birining, ularga tegishli bo‘lgan umumiy mol-mulkdagi ulushlari (hissalari) aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, bunday mulk ulushli mol-mulk deyiladi. Ulushli mol-mulkda qonunga asosan yoki ishtirokchilarning kelishuvi bilan ularning ulushlari aniq belgilab qo‘yilmagan bo‘lsa, ulushlar teng deb hisoblanadi.

Umumiy qoidaga asosan birgalikdagi mulkka uning egalari birgalashib egalik qiladilar va foydalanadilar. Lekin ular o‘zaro kelishib, boshqacha tartib o‘rnatgan bo‘lishlari ham mumkin. Bunday mulkni tasarruf qilishda uning egalarining roziligi talab qilinadi.

Mulkiy huquq obyektlari esa O‘zbekiston Respublikasi hududidagi yer, yer osti boyliklari, ichki suvlar, havo havzasi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, imoratlar va inshootlar, mahsulotlar, turar joy va kvartiralar, mahsulot belgilari, sanoat namunalari, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, integral mikrosxemalarning topologiyasi, seleksiya yutuqlari, mahsulot belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilari, asbob-uskunalar, moddiy va ma’naviy madaniyat buyumlari, pullar,

qimmatli qogʻozlar va boshqa mol-mulklar; insonning mehnat qilish qobiliyati.

Tadbirkorlik faoliyati turli shakldagi mulk huquqi asosida va ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Agar tadbirkorlik umumiy mulk asosida amalga oshirilsa, har bir tadbirkorning tegishli ulushi belgilab qoʻyiladi, shunga muvofiq, tadbirkorlikni amalga oshirish natijasida qoʻlga kiritilgan daromadlar ham ulushlarning miqdoriga qarab, aʼzolar oʻrtasida taqsimlanadi.

Tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining taʼsiri ostida birgalikdagi mulk huquqi ishtirokchilarining har biriga ularning barchasining roziligi bilan ushbu mol-mulk yuzasidan bitimlar tuzish huquqi beriladi. Masalan, er-xotinga umumiy birgalikdagi mulk huquqida tegishli boʻlgan mol-mulk negizida oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganda, ish muomalalarida er-xotin nomidan erning yoki xotinning roziligi bilan ulardan biri ishtirok etadi, bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkor roʻyxatdan oʻtkazilayotganda tasdiqlangan boʻlishi lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari, jamoalar, ularning birlashmalari, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va oʻzga birlashmalari, mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish idoralari, xalq deputatlarining barcha boʻgʻindagi Kengashlari hamda ular vakolat bergan davlat boshqaruvi idoralari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, boshqa davlatlarning yuridik shaxslari va fuqarolari, fuqaroligi boʻlmagan shaxslar mulkiy huquq subyektlaridir. Bir necha yuridik shaxslar va fuqarolar aynan bitta mulkning subyektlari boʻlishi mumkin.

Agar meros olish, rekvizitsiya yoki musodara qilish natijasida yoki boshqa asoslarga koʻra, davlat bilan fuqaroning, yoxud kooperativ va boshqa jamoat tashkiloti bilan fuqaroning umumiy mulki tashkil boʻlib qolsa, u holda bunday umumiy mulk paydo boʻlgan kundan boshlab bir yil ichida qonunda koʻzda tutilgan usullarni qoʻllash yoʻli bilan bekor qilinishi lozim edi. Endilikda mol-mulklarni umumlashtirish asosida birgalikda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun keng imkoniyat yaratildi.

Tadbirkorlik ajnabiy fuqarolar hamda yuridik shaxslarning mol-mulklarini turli shakllarda jalb etish asosida ham amalga oshiriladi. Mol-mulkdan foydalanish, uni tasarruf etish, uning asosida

tadbirkorlik yuritish haqidagi O‘zbekiston fuqarolariga tegishli qoidalar ajnabiy fuqarolarga ham taalluqlidir.

Ushbu huquqdan foydalanib, zarur sarmoyaga ega bo‘lgan ajnabiy davlat fuqarolari o‘zaro manfaatdorlik asosida qo‘shma korxonalar yoki faqat o‘zlariga tegishli bo‘lgan korxonalarni imtiyozli ravishda tashkil etishlariga imkon beriladi. Bunda ularning mol-mulklari va mulkiy huquqlari, manfaatlari qonun bilan qo‘riqlanadi va daxlsizligi to‘la kafolatlanadi. Xorijiy fuqarolar respublika hududida tadbirkorlik natijasida orttirgan mol-mulknini o‘z xohishlari bilan meros qilib qoldirishlari, xayr-ehson qilishlari yoki o‘zlariga tegishli daromadlarni O‘zbekistondan erkin olib ketishlari qonun bilan kafolatlanadi.

Biznes faoliyati O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari va ajnabiy yuridik shaxslar ishtirokida, ularning mol-mulki asosida qo‘shma korxonalar, xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Chet el investitsiyalari asosida tadbirkorlikni amalga oshirish shakllari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

a) O‘zbekiston tadbirkorlarning ajnabiy davlat fuqarolari va yuridik shaxslari bilan birgalikda korxonalar, banklar, sug‘urta kompaniyalari barpo etish va boshqa tashkilotlarda ulush qo‘shib qatnashish;

b) butunlay ajnabiy davlat fuqarolari va yuridik shaxslariga qarashli bo‘lgan korxonalar, banklar, sug‘urta kompaniyalarini va boshqa tashkilotlarni barpo etish;

v) mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar sotib olish;

g) tadbirkorga mustaqil ravishda tegishli bo‘lgan yoki fuqarolar va yuridik shaxslar ishtirokidagi mulkiy huquqlarni, shu jumladan, yerdan va tabiiy resurslardan foydalanish, shuningdek ijara asosida foydalanish huquqlarini sotib olish yo‘li bilan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish mumkin.

Chet el investitsiyalari asosida tadbirkorlikni amalga oshirish shakllari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

Tadbirkor faqat o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk asosidagina emas, balki davlat va jamoat tashkilotlarining mol-mulki hamda pul mablag‘larini jalb etish asosida ham o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Bunday jalb etish asosan mol-mulkni ijaraga olish yoki pul mablag'larini qarzga olish usullarida amalga oshiriladi.

Chet el investitsiyalari asosida tadbirkorlikni amalga oshirish shakllari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

a) O'zbekiston tadbirkorlarning ajnabiy davlat fuqarolari va yuridik shaxslari bilan birgalikda korxonalar, banklar, sug'urta kompaniyalari barpo etish va boshqa tashkilotlarda ulush qo'shib qatnashish;

b) butunlay ajnabiy davlat fuqarolari va yuridik shaxslariga qarashli bo'lgan korxonalar, banklar, sug'urta kompaniyalarini va boshqa tashkilotlarni barpo etish;

v) mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar sotib olish;

Obyektlar yer uchastkalari, yer osti boyliklari joylashgan uchastkalar va boshqa alohida tabiiy obyektlar, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari va foydalanish jarayonida o'zining tabiiy


xususiyatlarini yo'qotmaydigan boshqa ashyolar (iste'mol qilinmaydigan ashyolar) mulk ijarasiga berilishi mumkin.

Ijaraga oluvchilar fuqarolardan, yuridik shaxslardan, jumladan, qo'shma korxonalar, xalqaro tashkilotlar va birlashmalar, O'zbekiston va chet el yuridik shaxslarining mulklari asosida tashkil topgan korxonalar va tashkilotlardan iborat bo'lishi mumkin. Shunday ekan, mol-mulkni ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchini tadbirkorlar, desa bo'ladi. Ular foyda olish maqsadida barcha iqtisodiy imkoniyatlarni jalb qiladilar, unumli natijalarga erishish uchun faol tashabbus ko'rsatib, harakat qiladilar.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari o'z a'zolarining ixtiyori bilan, ya'ni ular tomonidan tuzilgan shartnomaga asosan vujudga kelgan, umumiy huquq layoqatiga ega bo'lgan tijoratchi tashkilot hisoblanadi.

Xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning xususiyatlari

1. Xo'jalik yuritish huquqining tushunchasi va ushbu huquqqa ega bo'lgan yuridik shaxsning mulkiy huquq layoqati FKning 176, 177-moddalarida nazarda tutiladi



2. Mulk huquqi subyekti bo'lmagan, mol-mulkni operativ boshqarish huquqiga ega bo'lgan korxonalarining vakolatlari FKning 72, 178-moddalari bilan belgilanadi.

3. Xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqlarining vujudga kelishi va bekor bo'lishi mulkdorning qarori bilan unitar korxonaga yoki muassasaga biriktirib qo'yilgan mol-mulkni xo'jalik usulida yuritish huquqi yoki operativ boshqarish huquqi ushbu korxonaga yoki muassasada unga mol-mulk topshirilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Biznes subyektlarining mol-mulki obyektlari: asosiy vositalar, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, nomoddiy ne'matlar

- Mol-mulk turlari (O'zR FK 83-modda)
- ko'chmas mulk ko'char mulk
- O'zR FKning 85-moddasiga ko'ra butun korxonaga mulkiy kompleks sifatida ko'chmas mulk hisoblanadi. Butun korxonaga yoki uning qismi olish-sotish, garovga qo'yish, ijara hamda ashyoviy huquqlarni belgilash, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq boshqa bitimlarning obyekti bo'lishi mumkin.

- Pul mablag'lari ham tadbirkorlik faoliyatida obyekt sifatida muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, to'lovlarni amalga oshirish jarayonida pul mablag'lari asosiy vosita hisoblanadi. To'lovlar naqd pul bilan va naqd pulsiz hisob-kitoblar tarzida amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. Biznes yuritishning mulkiy asosiga nimalar kiradi?
2. Mol-mulk turlari haqida yozing

3. Mulkiy huquqlarga nimalar kiradi?

4. Ommaviy mulk qanday mulklarni o‘z ichiga oladi?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi:

Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: “Adolat”, 2018-y. – 376 b.

2. Davletov A. Protssual hujjatlarda yuridik atamalardan to‘g‘ri foydalanish. “Qonun himoyasida”, 06/2004, 10-12-betlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo‘lishi / Q.A.Ahmedovning umumiy tahriri ostida/. – T.: “O‘zbekiston”, 1992.

4. Yuridik ensiklopediya. Yuridik fanlari doktori, professor U.Tadjixanovning umumiy tahriri ostida. – T.: “Sharq”, 2001.

5. Tadbirkorlik sohasida ma‘muriy tartib-qoidalar bo‘yicha qo‘llanma. G‘.B.Hidoyatov va boshqa mualliflar jamoasi. – T.: NMAK BT “Sharq”, 2011.

6. Rahmonqulov X.R., Azizov X.T. Tadbirkorlik subyektlari xususiy mulk huquqining fuqarolik-huquqiy kafolatlari. – T.: 2013. – 181 b.

7. Do‘stov U.N. “Xo‘jalik (tadbirkorlik) huquqi” fanidan uslubiy qo‘llanma. – T.: TDYUI, 2003.

8. Babakulov S.B. Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish sohasidagi islohotlar.– T.: TDYUI, 2012. – 52 b.

8-mavzu. Biznes shartnomalari

Reja:

1. Biznes shartnomasi tushunchasi.
2. Biznes shartnomasi subyektlari.
3. Biznes shartnomalarini tuzish va bajarish.
4. Biznes shartnomalarini o'zgartirish va bekor qilish.

1. Biznes shartnomasi tushunchasi

Shartnoma nima? Shartnoma – bu fuqarolik huquqida ikki yoki undan ortiq (jismoniy yoki yuridik) shaxslarning huquq va burchlarini vujudga keltirish, belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi o'zaro kelishuvdir. Bunday kelishuvning mazmuni yozma tarzda aks ettirilgan hujjat ham “shartnoma” deb ataladi. Shartnoma bitimning bir turi (O‘zR FK, 102-modda) bo‘lib, uning ma’nodoshi (sinonimi) sifatida “kontrakt” so‘zi ham qo‘llaniladi³⁷. Shartnoma – bu xo‘jalik yurituvchi subyektlarning (mulk shaklidan qat’i nazar) o‘zaro iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishning huquqiy vositasidir.

Yuqorida keltirilgan ta’rifdan kelib chiqadiki, shartnomada tomonlar o‘zaro kelishuv asosida ma’lum bir maqsadga erishish uchun o‘z zimmalariga huquq va majburiyatlar oladilar.

Taraflardan biri shartlashilgan muddatda biznes faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish majburiyatlarini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to‘lash majburiyatini oladigan kelishuv biznes shartnomasi deyiladi³⁸. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi shartnomalar barcha mulk shaklidagi korxonalar va tadbirkorlarning o‘zaro iqtisodiy munosabatlarini o‘rnatuvchi asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan munosabatlarni “Xo‘jalik yurituvchi

³⁷ Yuridik ensiklopediya. Yuridik fanlari doktori, professor U.Tadjixanovning umumiy tahriri ostida. – T.: “Sharq”, 2001, 542-bet.

³⁸ «Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисида»ги Қонун, 3-модда. Қаранг: www.lex.uz.

subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘zRning 1998-yil 29-avgust Qonuni tartibga soladi. Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilishda yuzaga keladigan munosabatlar faqat yuqorida tilga olingan qonun bilangina emas, balki O‘zRning FK va boshqa qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Xo‘jalik shartnomasi fuqarolik-huquqiy shartnoma bo‘lib, unga nisbatan FKning bitimlar va shartnomalarga doir barcha normalari tadbiq etiladi.

“Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonun (4-modda) va O‘zRning FKga (1-modda) ko‘ra, xo‘jalik yurituvchi subyektlar (yuridik yoki jismoniy shaxs) shartnoma tuzishda erkindir. O‘zR FKning 1-moddasida fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining tengligi, fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar shartnoma asosida o‘z huquq va burchlarini belgilashda va qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkin ekanligi fuqarolik huquqining asosi sifatida ta’riflanadi. Darhaqiqat, fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkin ekanlar, ular nima to‘g‘risida va kim bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishni erkin tanlashlari, majburiyatlarning amaldagi qonunlarga zid bo‘lmagan har qanday shartlarini mustaqil belgilashlari mumkin. Shartnomaning shartlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha belgilanmagan bo‘lsa, taraflarning xohishi bo‘yicha belgilanadi. Shartnoma tuzishda fuqarolar va yuridik shaxslar erkinligining mohiyati FKning 354-moddasida yoritilgan. Shartnoma tuzishga majbur qilish taqiqlanadi. Albatta, bunda istisno holat bor. Agar shartnoma tuzish majburiyati qonun hujjatlarida yoki zimmaga olingan majburiyatlarda nazarda tutilgan bo‘lsa, shartnoma tuzish shartdir. Masalan, agar tegishli mahsulot turiga davlat buriyutmasi berilgan bo‘lsa, davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetkazib berish shartnomasini tuzish majburiydir. Xo‘jalik shartnomasi fuqarolik-huquqiy shartnomaning bir ko‘rinishi bo‘lganligi sababli shartnoma tuzish erkinligi prinsipi FKda belgilangan qoidalarga va tegishli qonun normalariga asoslanadi.

Xo‘jalik shartnomalarining rolini oshirishda 1998-yil 29-avgustda O‘zR Oliy Majlisi XII sessiyasida qabul qilingan “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi

to'g'risida"gi Qonun muhim rol o'ynadi. Mazkur qonun O'zR Oliy Majlisining qarori asosida 1998-yilning 1-noyabridan amalga kiritildi.

Mazkur qonunda xo'jalik shartnomasi tushunchasi (3-modda), subyektlari (5-modda), shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish (2-bob) jarayonlarida yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish, shartnomaviy munosabatlarning asosiy prinsiplari (4-modda), subyektlarning huquq (6-modda) va majburiyatlari (7-modda) va shartnomani buzganlik uchun javobgarlik (5-bob), talabnoma va da'vo arizalarini taqdim etish tartibi va muddatlari (3-bob), shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektlar yuridik xizmatining yoki ishga jalb etilgan advokatlarning shartnomani tuzish va bajarishdagi vazifalari (20-modda) belgilab berilgan.

Qonunda mahalliy davlat hokimiyati hamda davlat boshqaruv organlari, prokuratura va adliya organlarining shartnomaviy munosabatlarga oid va xo'jalik shartnomalari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish bo'yicha vakolatlari (8-9-moddalar) mustahkamlab qo'yilgan. Xo'jalik shartnomalari yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy, nomulkiy huquq va majburiyatlari vujudga kelishining asoslaridan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra, biznes faoliyatini tartibga solishda shartnomalar asosiy vosita sanaladi va ularning ahamiyati ham shu bilan belgilanadi. Shartnomalarsiz biznes faoliyatini amalga oshirishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Tadbirkor ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati jarayonida muayyan shartnomalar tuzadi.

Bozor munosabatlari subyektlarining o'zaro munosabatlari qonun hujjatlari va o'zaro kelishuv bo'yicha tuzilgan shartnoma shartlari bilan tartibga solinadi. Ularning tijorat yutuqlari, avvalo, bunday kelishuvlar qanday tuzilganligi va rasmiylashtirilganligi bilan bog'liq. Bular aynan shu shartnomada taraflarning huquq va majburiyatlari, ularning javobgarligi, bahosi, muddati, hisob-kitob qilish tartibi va boshqalarni belgilashdan iborat.

Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuvi sifatida quyidagi belgilariga ega:

- 1) tomonlar o'z erkini ixtiyoriy ifodalaydilar;
- 2) shartnoma mazmunini tashkil etuvchi barcha shartlar bo'yicha tomonlarning roziligi;

- 3) tomonlar o'z majburiyatlari yuzasidan harakatlarini, qoida tariqasida, haq evaziga bajaradilar;
- 4) shartnoma munosabatlarida tomonlar tengdir;
- 5) shartnomani ijro etishning yuridik kafolati mavjud;
- 6) shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilanadi.

Shunday qilib, shartnoma:

birinchidan – tomonlar o'rtasida majburiyatlar kelib chiqishining asosidir,

ikkinchidan – barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatini rejalashtirishning asosidir,

uchinchidan – tomonlar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni amalga oshirishning huquqiy shaklidir³⁹.

Taraflar qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan shartnomalarni, shuningdek turli shartnomalarning elementlarini o'z ichiga oladigan aralash shartnomalarni ham tuzishlari mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxlarning asosiy yo'nalishlaridan biri – bu xo'jalik shartnomalarining ahamiyatini oshirish va shartnomaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishdan iborat. Buning tasdig'i sifatida O'zRning FKga murojaat qilinganda shartnomalarni huquqiy tartibga solishga doir moddalarning keng ko'lamda kiritilganligiga amin bo'lish mumkin. Bundan tashqari yuqorida tilga olingan qonun ham shartnoma munosabatlarini muvofiqlashtirish maqsadlariga xizmat qilmoqda.

Xo'jalik shartnomasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bular quyidagilardir:

1) Shartnoma faqat biznes faoliyati sohasida (foyda olish maqsadida) tuziladi.

2) Shartnoma yuridik shaxslar va yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar o'rtasida tuziladi.

3) Shartnoma tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish to'g'risida tuziladi.

4) Shartnoma faqat yozma tarzda tuziladi.

2. Biznes shartnomasi subyektlari

³⁹ Xo'jalik shartnomalariga oid qonun hujjatlari va shartnomalar namunaviy shakllari to'plami. O'zR Adliya vaziri Sirojiddin Mirsafoyevning tahriri ostida. Tuzuvchilar: D.R.Matrasulov, X.M.Sodikov, F.K.Qilichev, T.Shoxnazarov, B.T.Qo'chqorov, B.Eshmatov. – T.: "Adolat", 1998, 4-bet.

“Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida xo‘jalik shartnomasining subyektlari ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, yuridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda biznes faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar xo‘jalik shartnomalarining subyektlari (taraglari) hisoblanadi.

Xo‘jalik shartnomasi tomonlari quyidagi huquqlarga ega (yuqoridagi qonunning 6-moddasi):

1) Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo‘lgan ma‘lumotnomalar va boshqa hujjatlarni surash va olish;

2) Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini so‘rash va olish, mutaxassislar bilan maslahatlashish;

3) Davlat organlari va boshqa organlarga, mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bilan murojaat etish hamda shikoyatlar berish va ulardan asoslantirilgan yozma javoblar olish;

4) Boshqa tarafning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlari xususidagi ma‘lumotlarni to‘plash;

5) Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari va usullarini qo‘llash.

Xo‘jalik shartnomasining taraglari qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan o‘zga huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

OLDI – SOTDI SHARTNOMASI

Namunaviy shartnoma
(umumiy variant)

_____ -son SHARTNOMA

«_____» _____ 20__ y.

(shahar, tuman va qishloq)

(yuk yuklovchi idora, korxonona, muassasa, tashkilot nomi, jismoniy

shaxsning F.I.O.)

Bundan buyon matnda «Sotuvchi» deb ataluvchi,
nomidan _____ asosan faoliyatini amalga oshiruvchi, bir
(mansabi, F.I.O.)

tomondan va

(yuklovchi idora,

korxonona, muassasa, tashkilotning nomi, jismoniy shaxsning F.I.O.)
bundan buyon matnda «Oluvchi» deb ataluvchi,
nomidan _____

(mansabi, F.I.O.)

asosan faoliyat ko`rsatuvchi, ikkinchi tomondan, quyidagilar to`g`risida
ushbu shartnomani tuzishdi.

1. Shartnoma predmeti

1.1. «Sotuvchi» o`ziga tegishli mol - mulkni «Oluvchi»ning mulki qilib
(doimiy xo`jalik yurituvchi yoki butunlay boshqaruvga) beradi, «Oluvchi»
esa mol - mulkning haqqi to`langandan keyin olish majburiyatini oladi.

1.2. Mol – mulk to`g`risida ma'lumot:

nomi, soni va butlash _____

(mezon ko`rsatuvchi va texnik

sharoitlari va boshqalar)

tayyorlovchi _____

(korxonona yoki tashkilotning to`liq nomi)

O`lchov birligi _____

summasi (har bir soniga) _____

son birligi _____

foydalanish kafolat muddati (saqlash, iste`mol qilish) _____

2. Shartnoma narxi, bahosi, summasi (qiymati)

2.1. Shartnoma bahosi _____ so`mni tashkil qiladi.

2.2. Shartnoma narxi o`z ichiga _____

3. To`lov shartlari

3.1. Ushbu shartnoma bo`yicha to`lov _____
(bir vaqtning o`zida yoki oldindan

_____ avans to`lash va boshqalar ko`rsatiladi)

3.2. To`lov turi _____
(to`lov talabnomasi, to`lov topshiriqnomasi, chek
akkreditiv va boshqalar)

4. Majburiyatlarning bajarilish muddati

4.1. Shartnomaning 1.2-bandida ko`rsatilgan mol-mulk «Oluvchi»ga
shartnoma imzolanganidan keyin _____ kunlik vaqt ichida berilishi shart.

4.2. «Oluvchi» quyidagi muddatlarda to`lovni amalga oshiradi:

4.3. Shartnomaning amal qilish muddati:

_____ da boshlanadi.

_____ da tugatiladi.

5. Taraflar majburiyatlari:

5.1. «Sotuvchi» majburiyatlari:

5.1.1. Shartnomada ko`rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o`z vaqtida
«Oluvchi»ga mol – mulkni berish;

5.1.2. Tegishli darajada sifatli mahsulot yuborilganligi to`g`risida bildirish
(xabarnoma) olgandan so`ng sifatli bo`lmagan mol – mulkni _____ kun
ichida almashtirib berish yoki ushbu shartnomaning 2-bandiga asosan
sifatli bo`lmagan mol – mulk bahosini qaytarib berish.

5.2. «Oluvchi» majburiyati:

5.2.1. Mahsulotni qabul qilish dalolatnomasini tuzgan holda ushbu
shartnomada va qonun hijjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga,
sifatiga qarab muddatida mahsulotni qabul qilib olish.

5.2.2. Tegishli darajada sifatli bo`lmagan mol – mulk kelib tushgani
aniqlangandan keyin, bu haqida dalolatnoma yozilib, _____ soat ichida
sotuvchini ogohlantirish.

5.2.3. Mol – mulkning bahosini ushbu shartnomada belgilangan miqdorda
va muddatda to`lash.

6. Taraflar javobgarligi:

6.1. Mol – mulk berish vaqtiga rioya qilmaganligi uchun ayibdor taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi va _____ miqdorda jarima to'laydi.

6.2. «Sotuvchi» mol – mulkni to'liq yetkazib bermaganligi uchun «Oluvchi»ga yetkazib berilmagan har kun uchun mol – mulk bahosidan _____ foiz jarima to'laydi.

6.3. Shartnoma talablarida ko'rsatilgan sifatlardagi hamda butlashdagi mol – mulk berilmagan bo'lsa, ayibdor taraf _____ miqdorida jarima to'laydi.

6.4. Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol – mulkni o'z vaqtida alamshtirishdan bosh tortsa, «Sotuvchi» _____ so'm (5.1.2. bandda ko'rsatilgan)

miqdorda jarima to'laydi.

6.5. Mol – mulk uchun sotib oluvchi o'z vaqtida yoki to'liq to'lovni mablag` miqdoridan ____ foiz ustama jarima to'laydi, lekin _____ miqdordan oshib ketmasligi kerak.

6.6. «Sotuvchi» omboridan o'z vaqtida mol – mulk olib chiqib ketilmasa, agar bu tomonlarning kelishuviga asosan ko'zda tutilgan bo'lsa, «Oluvchi» har bir o'tkazib yuborilgan kun uchun «Sotuvchi»ga omborda saqlanganligidan kelib chiqqan zararni va _____ miqdorida jarima to'laydi.

6.7. Neustoyka (jarima) to'lash taraflarni shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

7. Fors-major holatlari:

7.1. Hech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, fuqarolar tartibsizligi, epidemiya, embargo, yer qimirlashi, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar shular jumlasidandir.

7.2. Savdo palatasining yoki boshqa tegishli idoraning bergan guvoxnomasi ana shunday fors – major holatni tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi..

7.3. Taraflar ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogohlantirishi shart.

7.4. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch uch oy uzluksiz davom etsa, taraflar, bir – birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

8. Nizoni hal qilish tartibi:

8.1. Ushbu shartnomada yoki unga bogʻliq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi..

8.2. Taraflarning kelishuvi bilan hal qilib boʻlmaydigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xoʻjalik sudi orqali hal qilinadi.

9. Shartnomaga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish tartibi:

9.1. Ushbu shartnomga kiritilgan barcha oʻzgartirish va qoʻshimchalar faqat ikkala taraf tomonidan yozma ravishda tuzilib, imzo qoʻyilgandan keyingina yuridik kuchga ega boʻladi.

9.2. Shartnomani taraflarning oʻzaro kelishuviga asosan yoki Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni toʻlagan holda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

10. Boshqa holatlar:

10.1. Ushbu shartnoma ikkala taraf uchun bir xil kuchga ega boʻlib, ikki nusxada tuzilgan.

10.2. Taraflarning boshqa talablari: _____

10.3. Shartnomaga ilova: _____

Taraflarning yuridik manzili va toʻlov rekvizitlari (maʼlumotlari)

«Sotuvchi»

«Oluvchi»

(indeks manzili, hisob – kitob

indeks manzili, hisob – kitob

va valyuta hisob raqami,
valyuta hisob raqami,

va

lavozimi,
lavozimi, imzo, F.I.O.)

imzo,

F.I.O.)

M.O`.

M.O`.

3. Biznes shartnomalarini tuzish va bajarish

Xoʻjalik shartnomasini tuzish. Shartnoma tuzishda quyidagilarga alohida eʼtibor berilishi lozim:

- 1) shartnoma predmeti va uning oqibatini aniq tasavvur qila bilish;
- 2) yetkazib beriladigan tovarning (bajariladigan ishning, koʻrsatiladigan xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosini aks ettirish orqali, olingan tovarlarni qayta sotish va ishlab chiqishda zarar koʻrmaslik;

3) shartnomaning bajarilish muddati, hisob-kitob qilish tartibi, tomonlarning majburiyatlari;

4) shartnoma shartlari va majburiyatlari to'la yoki qisman bajarilmaganda tomonlarning javobgarligi, o'rtada yuzaga chiqqan nizolarni hal etish tartibi hamda taraflarning rekvizitlari (manzillari), shartnoma tuzilgan sana va joy, qonunlarga zid bo'lmagan boshqa shartlarni aks ettirish;

5) nizo chiqishining oldini olish maqsadida shartnomada uning shartlari aniq va ravshan ifodalanishi, shartlarning tomonlar imkoniyatiga mos kelishi;

6) shartnoma loyihasidagi qoidalar to'g'risida huquqiy maslahatchining fikrini bilish;

7) shartnomaning faqat vakolatli shaxs tomonidan imzolanishini ta'minlash.

Taraflar amaliyotda shartnomaviy munosabatlarda qo'llanma bo'lib xizmat qiladigan shartnomalarning namunaviy shakllaridan foydalanadilar. Bu, albatta muayyan shartnomani tuzish jarayonlarini qisqartiradi. Har qanday shartnoma qonun hujjatlari talablariga va tomonlarning maqsad va manfaatlariga mos ravishda tuzilishi kerak.


Xo'jalik shartnomasini tuzilish jihatidan shartli ravishda to'rt qismga ajratish mumkin:

1) kirish;

2) shartnoma predmeti, taraflarning huquq va majburiyatlari;

3) shartnomaning qo'shimcha shartlari;

4) shartnomaning boshqa shartlari.



Xo‘jalik shartnomasining kirish qismida quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

1. Shartnomaning nomi. Shartnoma, odatda, ma’lum bir predmet yuzasidan tuziladi. Shartnomani tuzishda shartnomaning aniq bir turini belgilash va bu shartnoma nomida ifodalanishi lozim. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi, mahsulot yetkazib berish to‘g‘risidagi shartnoma, xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma, ish bajarish yuzasidan shartnoma, ijara shartnomasi, kredit shartnomasi, transport vositalarining ijarasi shartnomasi, qurilish pudrati to‘g‘risidagi shartnoma va boshqalar.

2. Shartnomani imzolash sanasi va joyi. Har bir shartnomada tegishli shartnomaning tuzilgan sanasi ko‘rsatiladi, chunki shartnomaga qo‘yilgan sana, agar unda o‘zgacha qoida belgilangan bo‘lmasa, imzolangan paytdan kuchga kirishini bildiradi va bajarish muddatlari uchun muhim o‘rin tutadi. Shartnoma tuzilgan vaqt – belgilangan shakldagi kelishuvga erishilgan sana bo‘lib hisoblanadi. Shartnoma imzolangan joyning ko‘rsatilishi ham huquqiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

3. Shartnoma taraflarining to‘liq nomi, shartnoma bo‘yicha taraflarning atalishi. Shartnoma matnini tuzishda qulaylik bo‘lishi uchun tomonlar nomlanishi lozim. Masalan, mahsulot yetkazib berish shartnomasida – “mahsulot yetkazib beruvchi” va “sotib oluvchi”, ijara shartnomasida “ijaraga oluvchi” va “ijaraga beruvchi” va xokazo.

4. Shartnomani imzolayotgan shaxsning mansabi va to‘liq nasl-nasabi. Yuridik shaxs nomidan shartnoma tuzilayotganda uni imzolayotgan mansabdor shaxsning familiyasi, ismi-sharifi ko‘rsatilishi kerak.

5. Shartnomani imzolayotgan shaxsga shartnomani imzolash huquqini beruvchi hujjat (nizom yoki ishonchnoma). Yuridik shaxs nomidan shartnoma tuzilayotganda uni imzolayotgan mansabdor shaxsning vakolatini tasdiqlovchi hujjat ko‘rsatilishi kerak. Agar korxonra rahbari tomonidan ishonchnoma asosida shartnoma tuzishga vakolat berilgan bo‘lsa (korxonra bosh hisobchisidan va boshqalardan tashqari), ishonchnoma va boshqa tegishli ma’lumotlar ko‘rsatiladi. Amaldagi qonun hujjatlari va korxonra nizomiga binoan shartnomani to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ishonchnomasiz imzolashga faqat uning rahbariga huquq beriladi. Rahbar o‘rinbosarlaridan biriga va boshqa shaxslarga

bunday vakolat FKning 138-moddasiga muvofiq, yuridik shaxsning ishonchnomasi asosida yuklatiladi: «Yuridik shaxs nomidan beriladigan ishonchnoma rahbar tomonidan imzolanib, unga ushbu yuridik shaxsning muhri bosiladi» (O‘zR FK, 138-modda, 1-qism). Agar taraflardan biri (kontragent) korxonaning rahbari bo‘lsa, uning vakolatini tasdiqlash uchun guvohnomadan tashqari lavozimga tayinlanganligi to‘g‘risidagi buyruqdan nusxa bo‘lishi kerak. Buyruq nusxasi o‘rniga korxonada mulkdorlarining majlis bayonnomasini ham ko‘rsatish mumkin.

Xo‘jalik shartnomasining predmeti hamda taraflarning huquq va majburiyatlariga bag‘ishlangan ikkinchi qismida quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

1. Shartnoma predmeti.
2. Birinchi tarafning shartnoma bo‘yicha huquq va majburiyatlari.
3. Ikkinchi tarafning shartnoma bo‘yicha huquq va majburiyatlari.
4. Taraflarning o‘z majburiyatlarini bajarish muddatlari.
5. Taraflar majburiyatlarini bajarish joyi.
6. Taraflar majburiyatlarini bajarish usullari (harakatlar tartibi, ketma-ketligi va h.k.).

Ushbu shartlarning mazmuni shartnomaning turiga va uning qanday holatga nisbatan tuzilishiga bog‘liq bo‘ladi, FK va amaldagi normativ hujjatlar qoidalari asosida shakllanadi.

Xo‘jalik shartnomasining qo‘shimcha shartlariga quyidagilar kiradi:

1. Shartnomani amal qilish muddati. Taraflarning shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish muddatlari ko‘rsatilgan taqdirda ham xo‘jalik shartnomasi amal qilish muddatining ko‘rsatilishi maqsadga muvofiqdir. Bu holat shartnomaning amal qilish muddati kachon tugashini bilish va taraflar shartnomani bajarishdan bosh tortganlik uchun talabnoma va da’vo qilish muddati boshlanishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu shart ikkinchi tomon shartnomani bajarishni rad etgan taqdirda tegishli talabnoma (pretenziya) kiritish va jarima, penya undirish, keltirilgan zararni qoplatish uchun imkoniyat yaratadi. Shartnomani bajarish muddatlari O‘zR FKning 242-244-moddalarida belgilangan tartibda aniqlanadi.

2. Taraflarning javobgarligi. Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda taraflarning o'z majburiyatlarini bajarishlarini ta'minlash maqsadida shartnomada taraflarning javobgarligi ko'zda tutiladi. Odatda, har bir shartnomada javobgarlik kelishilgan shartlarning birini bajarmagan tarafga nisbatan neustoyka (jarima, penya) ko'rinishida jazo belgilanishi bilan ifodalanadi.

3. Majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullari. Xo'jalik shartnomasining qo'shimcha shartlaridan yana biri – bu majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usullaridir. Amaldagi qonunchilikka muvofiq xo'jalik shartnomasining bajarilishi neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ta'minlanishi mumkin.

4. Shartnomani bir taraflama bekor qilishning asoslari va oqibatlari. Odatda xo'jalik shartnomasi faqat taraflarning kelishuviga muvofiq bekor qilinishi mumkin, ammo taraflar shartnomada uni bir tarafning tashabbusi bilan ham bekor qilish to'g'risidagi shartlarni kiritishga haqli. Xo'jalik shartnomasini bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

5. Shartnoma bo'yicha ma'lumotlarni sir saqlash. Shartnomada uning qaysi shartlari sir saqlanishi va taraflar tomonidan oshkor qilinishi mumkin emasligi belgilab qo'yilishi mumkin.

6. Nizolarni hal qilish tartibi. Respublikamizda iqtisodiyot va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan nizolarni hal qilish xo'jalik sudlari sudloviga taalluqlidir. Fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan hamda iqtisodiy sudga taalluqli bo'lgan nizo taraflarning kelishuviga binoan hakamlar sudida qurish uchun topshirilishi mumkin. Qoida tariqasida, da'volar javobgar joylashgan joydagi iqtisodiy sudga taqdim etiladi. Ammo da'voni javobgar joylashgan joyda taqdim etish va da'vogarning tanlashi bo'yicha sudlovga tegishlilik taraflarning roziligi bilan o'zgartirilishi hamda nizoni hal qilishi lozim bo'lgan iqtisodiy sudning nomi shartnomada aniq belgilanishi ham mumkin.

Xo'jalik shartnomasining mazkur qismi shunday shartlarni o'z ichiga oladiki, ularni shartnomada ko'zda tutish majburiy emas. Ammo bunday shartlar mavjud bo'lgan taqdirda, ular taraflar huquq va

majburiyatlariga, shuningdek ularni bajarish tartibiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xo'jalik shartnomasining to'rtinchi qismi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Taraflar o'rtasidagi munosabatlar shartnomadan tashqari yana nimalar bilan tartibga solinishi. Taraflar shartnomada o'z zimmlariga olgan aniq majburiyatlarni belgilab olishi tabiiy bir xoldir. Unga shartnoma bo'yicha taraflar o'rtasidagi barcha munosabatlarni tartibga soluvchi qonun normalarini kiritishning hojati yo'q. Shuning uchun shartnomaning boshqa sharti sifatida odatda, unga quyidagi jumla kiritiladi: "Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan shartlar bo'yicha taraflar amaldagi qonunchilikka rioya qiladilar."

2. Taraflar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish tartibi. Taraflar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish haqidagi shartlarda axborot berish va shartnomaning bajarilishiga taalluqli bo'lgan masalalarni hal qilishga vakolatli shaxslar (ismlari yoki mansabi), shuningdek aloqa turlari (telefon, faks va h. k.) ko'rsatiladi.

3. Shartnoma tuzishdan oldin olib borilgan ishlar va ularning shartnoma imzolanganidan keyingi natijalari. Bular to'g'risidagi barcha taraflar shartnomani tuzish bo'yicha olib borilgan barcha muloqotlar, yozishmalar, oldindan kelishib olishlar va shu maqsaddagi bayonnomalar o'z kuchini yo'qotganligini belgilaydilar. Shartnomaning ana shu bandida, "Taraflar ushbu shartnomani imzolaganidan keyin u bo'yicha barcha dastlabki muzokaralar, yozishmalar, dastlabki kelishuvlar va shartnoma niyatlari to'g'risidagi bayonnomalar o'z kuchini yo'qotadi", - deb ko'rsatiladi.

4. Taraflarning rekvizitlari. Taraflarning rekvizitlariga pochta indeksi, turar yoki o'rnatilgan joyi (manzili), hisob-kitob raqami, bank muassasasining nomi, kodi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, yuklash rekvizitlari kiradi va ular xo'jalik shartnomasida aniq ko'rsatilishi lozim. Taraflar haqidagi ma'lumotlar o'zgargan taqdirda bir-birlarini tezda xabardor qilish to'g'risida zimmlariga majburiyat olishlari lozim.

5. Shartnoma nusxalari soni haqidagi ma'lumot. Shartnoma nusxalarining soni va uning haqiqiyliги shartnomada ko'rsatiladi. Bu band, odatda quyidagi shaklda bo'ladi: "Ushbu shartnoma taraflardan

har biri uchun haqiqiy, bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan __ nusxada (kerakli nusxasi ko‘rsatiladi) tuzildi”.

6. Shartnoma matniga o‘zgartirishlar kiritish tartibi. Shartnoma matniga o‘zgartirishlar kiritish tartibining belgilanishi shartnomani qalbakilashtirilishining oldini olishga xizmat qiladi.

7. Taraflar vakillarining imzolari. Har bir shartnomada ma’lum bir shaxsning xohish-istaklari bayon qilinishi munosabati bilan shartnoma o‘sha shaxs yoki uning to‘liq vakolatga ega bo‘lgan vakili tomonidan imzolanadi, shuningdek, shartnomada yuridik xizmat xodimi yoki advokatning imzosi bo‘lishi talab qilinadi. Shartnoma tuzilganligi to‘g‘risida undagi taraflarning imzosi guvohlik beradi. Tartibga ko‘ra, u korxonaning rahbari yoxud u vakolat bergan vakillarining shaxsan qo‘l qo‘yishi bilan tasdiqlanadi va muhri bosiladi. Muhr shartnomani imzolagan korxonaning rahbarining vakolatini tasdiqlaydi, aks holda shartnoma haqiqiy bo‘lmaydi. Amaldagi qonun hujjatlarida shartnomaning imzolanishiga hal qiluvchi ahamiyat beriladi. Shuningdek, shartnomaning vakolat berilmagan shaxs tomonidan imzolanib, korxonaning muhri bosilishi uni haqiqiy deb hisoblashga asos bo‘lmaydi. Shu bilan birga, shartnomaga muhr bosilmasdan ham vakolatli shaxs tomonidan imzolash shartnoma tuzilganligiga guvohlik beradi (tasdiqlaydi). Shartnomaning imzolanishi uning tuzilganligida taraflarning erki-ixtiyorini ifodalaydi va taraflarda huquq va majburiyatlar paydo qiladi.

O‘zR FKning 365, 367, 370-moddalariga asosan, korxonalar orasida oferta va aksept to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llaniladi. Bunda shartnomani bir kunda imzolash imkoniyati bo‘lmaydi. Ushbu hollarda shartnoma oxirgi tomon imzolagan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Xo‘jalik shartnomasi, qoida tariqasida taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo‘llashi va ikkinchi taraf uni akseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo‘li bilan tuziladi.

Agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari bo‘yicha kelishuvga erishilgan bo‘lsa, xo‘jalik shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

Xo‘jalik shartnomasida hisob-kitob qilish tartibi belgilanayotganda tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini qonun hujjatlarida belgilanganidan kam bo‘lmagan miqdorda oldindan to‘lab qo‘yish nazarda tutilgan bo‘lishi kerak. Xo‘jalik shartnomasini tuzishda taraflar tegishli

turdagi shartnomalar uchun ishlab chiqilgan hamda huquqiy ekspertizadan belgilangan tartibda o'tkazilgandan so'ng e'lon qilingan o'zlarining namunaviy yoki tipovoy shartlariga (shakllariga) amal qilishlari mumkin.

Xo'jalik shartnomasi yozma shaklda tuziladi. Qonunchilikda shartnoma yozma shaklining uch xil turi ko'rsatilgan. Amaliyotda shartnomaning oddiy yozma shakli keng tarqalgan bo'lib, u taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo'li bilan tuziladi.

Xo'jalik shartnomasi pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdin chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Agar qonun hujjatlariga yoki taraflardan birining talablariga zid bo'lmasa, bitim tuzish chog'ida imzodan faksimile usulida nusxa ko'chirish vositalaridan foydalanishiga yo'l qo'yiladi.

Xo'jalik shartnomasining oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib keladi. Xo'jalik shartnomasi qonunda ko'rsatilgan hollarda va taraflardan birining talabi bo'yicha notarial tasdiqlanishi shart. Shartnomani notarial tasdiqlash notarius yoki bunday notarial harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan shartnomani tasdiqlovchi ustxat yozib qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xo'jalik shartnomasi tuzilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'lib qoladi. Xo'jalik shartnomasining amal qilish muddatini uzaytirish yozma shaklda amalga oshiriladi. Taraflar o'zlari tuzgan xo'jalik shartnomasining shartlarini ularning shartnoma tuzilishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi, deb belgilab qo'yishga haqlidirlar. Xo'jalik shartnomasi shartnoma shartlariga hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq ravishda, bunday shartlar va talablar bo'lmagan hollarda esa ish muomalasi odatlariga muvofiq bajarilishi lozim.

O'zRning "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunida ichki xo'jalik shartnomalarini tuzish qoidalari ham belgilangan. Ichki xo'jalik shartnomasi, qoida tariqasida, xo'jalik yurituvchi subyekt va uning tarkibiy bo'linmalari o'rtasida yoki xo'jalik yurituvchi subyekt va uning xodimi (bir guruh xodimlari) o'rtasida tuziladi (16-modda, 1-qism).

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, xo‘jalik yurituvchi subyektlar mahsulot yetkazib berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish yuzasidan ichki xo‘jalik shartnomalarining o‘zlari boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan tuzgan xo‘jalik shartnomalaridagidan kam bo‘lmagan hajmda tuzilishini ta‘minlashlari shart (16-modda, 2-qism).

Ichki xo‘jalik shartnomalariga oilaviy pudrat, fermer xo‘jaligi bilan shirkat xo‘jaligi o‘rtasidagi shartnomalar yaqqol misol bo‘la oladi. Ichki xo‘jalik shartnomalari o‘z huquqiy tabiatiga ko‘ra fuqarolik-huquqiy va mehnat-huquqiy normalarining qorishmasidan iborat shartnoma hisoblanadi. Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ichki xo‘jalik shartnomalariga nisbatan O‘zR FKning 353-385-moddalarining normalari qo‘llaniladi (16-modda, 3-qism).

4. Biznes shartnomalarini o‘zgartirish va bekor qilish

Biznes shartnomasini o‘zgartirish. Biznes shartnomasi taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi mumkin. Biznes shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo‘lsa, taraflarning uni o‘zgartirish to‘g‘risidagi kelishuvi ham shunday shaklda amalga oshiriladi. Biznes shartnomasini bajarishni bir taraflama o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Taraflardan birining talabi bilan biznes shartnomasi iqtisodiy sudning qaroriga binoan faqat ikkinchi taraf biznes shartnomasini jiddiy ravishda buzgan yoxud qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda o‘zgartirilishi mumkin. Taraflardan birining biznes shartnomasini buzishi ikkinchi tarafga u biznes shartnomasi tuzishda umid qilishga xohish bo‘lgan narsadan ko‘p darajada mahrum bo‘ladigan qilib zarar yetkazishi biznes shartnomasini jiddiy buzish hisoblanadi. Bir taraf shartnomani o‘zgartirish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdin rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko‘rsatilgan yoxud qonunda yoki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo‘lmaganida esa – 30 kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, biznes shartnomasini o‘zgartirish to‘g‘risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

Biznes shartnomasini o'zgartirish haqidagi kelishuvda quyidagilarning ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Qaysi shartnoma o'zgartiriladi (shartnomaning raqami, sanasi, nomi).
2. Shartnomani o'zgartirish sabablari.
3. O'zgartirilayotgan yoki qo'shimchalar kiritilayotgan shartlar va ularning yangi tahriri.
4. O'zgartirish kiritilgandan keyin avvalgi shartlarning yuridik kuchini yo'qotishi haqidagi band.
5. O'zgartirish yoki qo'shimcha kiritilishidan oldin mazkur shartlar bo'yicha yuzaga kelgan masalalarni hal qilish tartibi.

Biznes shartnomasini bekor qilish. Biznes shartnomasi taraflarning kelishuviga muvofiq bekor qilinishi mumkin. Biznes shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, taraflarning uni bekor qilish to'g'risidagi kelishuvi ham shunday shaklda amalga oshiriladi. Taraflardan birining talabi bilan biznes shartnomasi iqtisodiy sudning qaroriga binoan faqat ikkinchi taraf xo'jalik shartnomasini jiddiy ravishda buzgan yoxud qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda bekor qilinishi mumkin. Xo'jalik shartnomasini bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Taraflardan birining xo'jalik shartnomasini buzishi ikkinchi tarafga u xo'jalik shartnomasi tuzishda umid qilishga xohish bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'ladigan qilib zarar yetkazishi xo'jalik shartnomasini jiddiy buzish hisoblanadi. Bir taraf shartnomani bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdin rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko'rsatilgan yoxud qonunda yoki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo'lmaganida esa – 30 kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, xo'jalik shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin. Demak, xo'jalik shartnomalari qonunchilik hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan hollarda bir taraflama yoki xo'jalik sudining hal qiluv qarori bilan bekor qilinishi mumkin.

Taraflarning shartnomani bekor qilish haqidagi kelishuviga esa quyidagi ma'lumotlar kiritilishi lozim:

1. Qanday shartnoma bekor qilinayotganligi.
2. Qaysi vaqtdan e'tiboran shartnoma bekor qilinayotganligi.

3. Shartnoma bekor qilinishidan oldin mazkur shartnoma yuzasidan vujudga kelgan masalalarni hal qilish tartibi.

4. Shartnoma bekor qilingandan keyin taraflarning mazkur shartnoma bo'yicha talab qilish huquqlari o'z kuchini yo'qotishi to'g'risidagi band.

Xo'jalik shartnomasi taraflarining majburiyatlari "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunda belgilab berilgan. Qonunning 7-moddasiga ko'ra, xo'jalik shartnomasi taraflari:

1) Xo'jalik shartnomalari to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishlari;

2) Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xo'jalik shartnomalarining o'z vaqtida tuzilishini ta'minlashlari;

3) Tuzilgan xo'jalik shartnomalari bo'yicha zimmalariga olgan majburiyatlarini o'z vaqtida va tegishli tartibda bajarishlari shart.

Xo'jalik shartnomasi taraflari qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladi.

Xo'jalik shartnomasi shartnoma shartlariga hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq ravishda, bunday shartlar va talablar bo'lmagan hollarda esa ish muomalasi odatlariga muvofiq bajarilishi lozim.

Xo'jalik shartnomasini bajarish jarayoni ma'lum harakatlar tizimidan iborat. Bu tizimni ikki bosqichga ajratish mumkin:

1. Xo'jalik shartnomasini bajarishning moddiy bosqichi.

2. Xo'jalik shartnomasini bajarishning huquqiy bosqichi.

Xo'jalik shartnomasini bajarishning moddiy bosqichi ikkita o'zaro bog'liq harakatlarni o'z ichiga oladi:

a) bir taraf tovarlarni yetkazib beradi, tegishli ishni bajaradi yoki xizmat ko'rsatadi;

b) ikkinchi taraf keltirilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilib oladi.

Shartnomani bajarish muddati, shartnomani bajarish joyi, shartnomaning bahosi, shartnomani bajarish usullari ana shunday talablar jumlasidandir. Xo'jalik shartnomasini bajarish usuli – bu unda belgilangan majburiyatlarni bajarish jarayonida taraflar amalga oshiradigan harakatlar tartibidir. Umumiy qoidaga ko'ra, agar majburiyatlarni qismlarga bo'lib bajarish nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnoma bir

martada to‘la bajarilishi kerak. Shartnoma bo‘yicha taraflarning o‘zaro majburiyatlari bir vaqtda bajarilishi lozim, agar shartnomada boshqa holatlar ko‘rsatilgan bo‘lmasa. Shuning uchun taraflar xo‘jalik shartnomasini tuzishda vujudga keladigan o‘z majburiyatlarini bajarish tartibini aniq va puxta, qonun talablariga muvofiq ravishda belgilashlari shart.

Xo‘jalik shartnomasini bajarishning huquqiy bosqichi. Bu bosqichda shartnoma bo‘yicha bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat yoki yetkazilgan tovar son va sifat jihatdan tekshiriladi, shuningdek, bajarish fakti hujjat bilan tasdiqlanadi. Shartnoma bo‘yicha bir tarafning ikkinchi taraf oldidagi o‘z majburiyatlarini moddiy jihatdan bajarishi uning o‘z majburiyatlarini yuridik jihatdan bajarganligini anglatmaydi. Birinchi taraf o‘z majburiyatlarini bajarganligini tasdiqlovchi hujjat rasmiylashtirgandan keyingina ikkinchi taraf oldidagi ana shu majburiyatlaridan xalos bo‘ladi. Demak, shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatni bajarilganligini tasdiqlash uni hujjat bilan rasmiylashtirilishini talab qiladi.

Xo‘jalik shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

a) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) topshirish – qabul qilib olish dalolatnomasi;

b) bank muassasasi tomonidan tasdiqlangan va tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqi to‘langanligi haqidagi to‘lov hujjati;

v) transport tashkiloti tomonidan berilgan va tovarning uni oluvchi manziliga jo‘natilganligi haqidagi yuk xati;

g) tovar sotuvchining omboriga topshirilgani – qabul qilib olingani haqidagi hujjat;

d) tegishli boshqa hujjatlar va guvohnomalar.

Tovarlar odatda, hisob-faktura, ro‘yxat, o‘rash yorliqlari, yuk xati va boshqa kuzatuv hujjatlari bo‘yicha soniga qarab qabul qilib olinadi. Tovarni qabul qilib oluvchi taraf yuk tashish paytida tovarni saqlash qanday ta‘minlanganligini (plomba va idishlar buzilmaganligini, marka belgisi mavjudligini va h.k.) tekshirib ko‘radi. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) sifatiga qarab qabul qilish yetkazib berilgan tovarning (bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlarning) sifatini tasdiqlovchi hujjatlar – texnik pasport, sertifikat, sifat haqida guvohnoma va boshqa hujjatlar bo‘yicha amalga oshiriladi.


Tovarni soni va sifati haqidagi qabul qilish hujjati tovar yetkazib beruvchiga nisbatan tegishli e'tirozlar bildirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tovarlarini soni va sifati bo'yicha qabul qilish qoidalarini buzilishi esa bildirilgan talabnoma va da'volarni rad qilinishiga olib keladi. Xo'jalik shartnomalari bo'yicha majburiyatlar bajarilganligini rasmiylashtirishning yana bir usuli – ayni bir taraflarning bir-biriga bog'lovchi ikki yoki undan ortiq majburiyatlarni bajarish shakli bo'lgan o'zaro talablarni hisobga o'tkazishdir. Bunda bir tarafning talablarini qanoatlantirish boshqa majburiyatdan kelib chiquvchi qarshi taraf talablarini bajarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Quyidagi shartlarga rioya qilinganda o'zaro talablarni hisobga o'tkazish mumkin bo'ladi:

- a) har ikki tarafning bir-biriga nisbatan talablari bo'lishi;
- b) talablar bir-biriga o'xshash bo'lishi;
- v) majburiyatlarni bajarish muddati kelgan bo'lishi lozim.

Hisobga o'tkazish taraflarning kelishuviga muvofiq bayonnoma yoki ikki taraf o'rtasida tuziladigan boshqa hujjat yoxud taraflardan birining arizasi shaklida rasmiylashtirilishi mumkin.

Har qanday shartnomada taraflarning javobgarligi to'g'risidagi shartlar taraflardan biri shartnoma shartlarini buzgan holda qo'llanilib, ular tarafidan o'z majburiyatlari bajarilishini ta'minlaydi. Odatda bunday javobgarlik mazmunida biron-bir kelishilgan shartlarga nisbatan o'z majburiyatlarini bajarmaganda taraflardan biri to'laydigan neustoykaning ma'lum turidagi sanksiya belgilanadi.



Fuqarolik-huquqiy javobgarlik vujudga kelish asoslariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: (a) shartnomaviy javobgarlik va (b) shartnomadan tashqari javobgarlik.

Shartnomaviy javobgarlik deganda shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlik tushuniladi. Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda bu taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'laydi, qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha tarzda javobgar bo'ladi.

Zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi (O'zR FK, 14-modda, 2-qism).

Ta'rifdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, zarar tushunchasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari. Mulkka shikast yetkazilganda uning qiymatining kamayish miqdori yoki yetkazilgan shikastni bartaraf etish xarajatlari aniqlanadi. Bunday zarar shartnomaning idish va o'rash haqidagi shartlari buzilishi, yetkazib berilayotgan uskunalarning sinishi, shuningdek, masalan, ijaraga oluvchi ijaraga olingan mulkdan tegishli tartibda foydalanmaganligi oqibatida uni zudlik bilan ta'mirlash talab qilinadigan holatga keltirib qo'yishi natijasida yetkazilishi mumkin.

2. Haqiqiy zarar – shaxsning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi.

3. Boy berilgan foyda – shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari. Bu – aybdor taraf shartnoma majburiyatlarini bajargan taqdirda huquqi buzilgan shaxs olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlar, ya'ni aybdor taraf zararni to'g'ridan-to'g'ri yetkazmagan bo'lsa-da, uning aybli harakatlari yoki harakatsizligi natijasida olinishi mumkin bo'lgan foydani boy berish natijasida ko'rilgan zarardir.

Amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra neustoyka (jarima, penya) to'langanligidan qati nazar, shartnoma majburiyatlarini buzgan taraf ikkinchi tarafga ana shu zarar oqibatida o'zi yetkazgan zarar qismini ham qoplaydi.

Yetkazilgan zararni undirish uchun zarar ko'rgan taraf quyidagilarni:

birinchidan, majburiyatning haqiqatdan bajarilmaganligini;

ikkinchidan, zararning mavjudligini;

uchinchidan, buzilgan majburiyat bilan yetkazilgan zarar o'rtasida sababiy bog'lanish borligini;

to'rtinchidan, yetkazilgan zarar qancha miqdorda ekanligini isbotlab berishi zarur.

Agar qonun yoki shartnomada zararni to'lashni cheklash, ya'ni kamroq miqdorda to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa, yetkazilgan zararni to'la hajmda qoplanishi zarurligi prinsipiga amal qilinadi.

Yetkazilgan zararning narxini aniqlash bo'yicha O'zR FKda (324-modda) yangi qoida belgilangan. Zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo'lgan joyda, qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirgan kunda, bordi-yu, talab ixtiyoriy qanoatlantirilgan bo'lmasa, - da'vo qo'zg'atilgan kunda mavjud bo'lgan narxlar e'tiborga olinadi. Bu masala bo'yicha nizo sudda ko'rilgan taqdirda sud vaziyatga qarab, zararni to'lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo'lgan narxlarni e'tiborga olgan holda qanoatlantirishi mumkin.

Olinmay qolgan daromadga (boy berilgan foydaga) majburiyat bajarilgan taqdirda jabr ko'rgan taraf olishi mumkin bo'lgan barcha daromadlar kiritiladi. Zararning mazkur shaklini o'ziga xos xususiyati shundaki, kreditor tomonidan daromad haqiqatda olinmagan bo'ladi, lekin qarzdor o'z majburiyatini tegishli tarzda bajargan taqdirda kreditor shu foydani olishi mumkinligi e'tiborga olinadi. Olinmay qolgan daromadni undirish haqida da'vo bildirilgan taqdirda, da'vogar ushbu foydani olishi mumkinligi va bunga imkoniyat mavjud bo'lganligini, faqat javobgar o'z majburiyatlarini buzganligi sababli foydani olishdan mahrum bo'lganligini isbotlashi shart.

Biroq tovarlarni sotishdan tushgan pul hisobidan foyda olish faqat shu tovar tayyorlangan va iste'molchiga yetkazib berilgan holdagina amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli da'vogar ushbu


tovarni sotish imkoniyati borligini va sotishdan tushgan mablag‘ hisobidan nazarda tutilgan foyda olishi mumkinligini isbotlab berishi shart.

O‘zR FKda majburiyatlarni ta‘minlash usullari ko‘rsatilgan bo‘lib, ularga neustoyka, garov, kafolat, zakalat kabilar kiradi.

Muddatini o‘tkazib yuborish yoki shartnoma majburiyatlarini o‘zgacha tarzda lozim darajada bajarmaslik hollari uchun belgilangan neustoykani (jarimani, penyani) to‘lash hamda shartnoma majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash taraflarni majburiyatlarni asl xolida bajarishdan ozod etmaydi, qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Neustoykani qo‘llash shartnomaviy javobgarlikning asosiy shakllaridan biridir. Neustoyka⁴⁰ faqat majburiyatning bajarilishini ta‘minlovchi vosita bo‘lib qolmay, balki u majburiyat bajarilmay qolganida yoki lozim darajada bajarilmaganida qarzdorga nisbatan qo‘llanishi lozim bo‘lgan yuridik chora hamdir.

Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo‘ladi. Jarima – qarzdor o‘z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda to‘laydigan va qoida tariqasida, qat’iy pul summasida hisoblanadigan neustoyka. Penya – qarzdor o‘z majburiyatlarining bajarilishini kechiktirib yuborganida to‘laydigan va o‘tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka.



Neustoykaning yetkazilgan zarardan farq qiladigan xususiyatlari quyidagilardan iborat:

⁴⁰ "Neustoyka" atamasi rus tilidan kirib kelgan bo‘lib, "ne ustoyal", ya‘ni "vzyl slovo, obyazatelstvo, no ne vypolnil" degan ma‘noni beradi va u o‘zbek tilida "bergan so‘zingning ustidan chiqmading", ya‘ni subutsizlik degan ma‘noni bildiradi.

a) Neustoyka – qonunda (yoki shartnomada) oldindan belgilanib, taraflarga ma'lum bo'lgan va majburiyat bajarilmay qolgan taqdirda qo'llanishi mumkin bo'lgan huquqiy chora (sanksiya). Yetkazilgan zararining hajmi esa avvaldan belgilanmaydi, u majburiyat buzilganidan keyin ma'lum bo'ladi va belgilanishi mumkin;

b) Neustoykani undirish uchun qarzdorning harakati qonunga (yoki shartnomaga) muvofiq bo'lmasligining o'zi kifoya, zararni to'latish uchun zarur bo'lgan talablarni aniqlash shart emas.

Shartnoma taraflarining javobgarligi shartnomada aks ettirilishi kerak, lekin ko'p hollarda amalda shartnomada javobgarlik choralari ko'rsatilmagan qoladi. Bunday holda qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, xo'jalik shartnomalarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zR "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 25-33-moddalarida nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo'llaniladi. Mazkur qonunda quyidagi holatlar bo'yicha javobgarlik belgilangan:

- tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik, to'liq yetkazib bermaganlik, ishlarni bajarmaganlik yoki xizmat ko'rsatmaganlik uchun (25-modda);

- sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berganlik uchun (26-modda);

- but bo'lmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun (27-modda);

- tovarlarni marka belgisisiz, shuningdek tovarni idishsiz yoki o'ralmagan holda yetkazib berganlik uchun (28-modda);

- akkreditivdan foydalanmaganlik uchun (29-modda);

- to'lov, tovar-transport hujjatlarini kechiktirganlik uchun (30-modda);

- tovarlarni tanlab olmaslik yoki uni rad etganlik uchun (31-modda);

- tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to'lamaganlik yoki o'z vaqtida to'lamaganlik uchun (32-modda);

- mablag'larni akseptsiz hisobdan chiqarganlik uchun (33-modda).

Takrorlash uchun savollar

1. Shartnoma deb nimaga aytiladi?
 2. Biznes shartnomasi nima?
 3. Biznes shartnomasining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
 4. Biznes shartnomasi taraflarining huquqlari nimalardan iborat?
 5. Biznes shartnomasining bozor munosabatlarida tutgan o‘rni qanday?
 6. Biznes shartnomalari qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi?
 7. Biznes shartnomalarini tuzishda nimalar e’tiborga olinishi lozim?
 8. Biznes shartnomalari tuzilishi jihatidan qanday qismlardan iborat?
 9. Biznes shartnomasini bajarish usuli nima?
 10. Biznes shartnomasini bajarish tizimi necha bosqichdan iborat va ular qaysilar?
 11. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik vujudga kelish asoslariga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
 12. “Jarima” va “penya” iboralariga ta’rif bering.
- Tavsiya etilayotgan adabiyotlar
9. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi: Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: “Adolat”, 2018-y. – 376 b.
 10. Davletov A. Protssual hujjatlarda yuridik atamalardan to‘g‘ri foydalanish. “Qonun himoyasida”, 06/2004, 10-12-betlar.
 11. O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod
-

9–mavzu: Tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy tartibga solinishi.

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchasi va uning huquqiy asoslari.
2. Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari va ularning turlari.
3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish usullari.

Ma'lumki, har bir mustaqil davlatning muhim faoliyatlaridan biri tashqi munosabatlarish aniq va to'g'ri belgilashdir. O'zbekiston Respublikasi ham davlat mustaqilligiga erishganidan boshlab, o'zining tashqi munosabatlarini mustaqil belgilab oldi, Chet el davlatlari bilan teng huquq asosida hamkorlik o'rnatish boshladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi to'g'risidagi bayon hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonun muxim huquqiy hujjat bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi yangi tahrirda 77-II-sonli 2000-yil 26-mayda qabul qilingan Qonuni tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishning zaminini yaratdi, shuningdek ushbu Qonunning asosiy vazifalari sifatida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, uning iqtisodiy suvereniteti va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, milliy iqtisodiyot rivojini rag'batlantirish, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratish deb belgilandi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining hududida doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasining davlat organlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishlari mumkin.

Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasida tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy prinsiplari o‘z aksini topgan:

tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;

tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining tengligi;

savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o‘zaro manfaatdorlik;

tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalarning ishtirokchilari sifatida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar, shuningdek, yakka tadbirkor sifatida ro‘yxatga olingan jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli. Binobarin, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini ro‘yxatga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqiy holatini yoritish va ularni turlarga bo‘lish muhim ahamiyatga ega. Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqiy holati va vakolatlari doirasiga qarab quyidagicha bo‘lish mumkin:

1. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslar,

2. O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari ma’lum bir mulkka ega bo‘lishi va shu asosda tadbirkorlik faolshpini yuritish uchun belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tishi yoki tashqi iqtisodiy faoliyatini qonuniy olib borishlari, shuningdek huquq va majburiyatlarga ega bulishlari va mustaqil mulkiy javobgarlikni amalga oshirishlari mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyekti bo‘lib korxonalar, tashkilotlar va turli xidsagi jamiyatlar hisoblanadi. Ammo aksionerlarning tashqi

iqtisodiy faoliyat subyekti bo'lishi masalasi bahslidir, chunki aksionerning qo'lidagi aksiya birinchidan aksionerlar jamiyatining boshqaruvida qatnashish va ikkinchidan aksionerga foyda (dividend) olish huquqini beradi Aksioner bevosiga tashqi iqtisodiy faoliyatni o'z nomidan olib bora olmaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning subyekti sifatida aksionerlik jamiyati qatnasha oladi. Xuddi shunday tartibda davlat tashkilotlari ham tashqi iqtisodiy faoliyatni olib borishlari uchun mulkdordan tadbirkorlik faoliyatini yuritishga rozilik olishlari kerak. Shundagina ular tashqi iqtisodiy faoliyat yuzasidan olinadigan daromadlarini belgilangan tartibda tasarruf qilishlari mumkin. Tadbirkorlik fuqarolar va korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatning subyektlari bo'lishi uchun tegishli tartibda ro'yxatdan o'tib o'z faoliyatini yuritish uchun ruxsat olgan bo'lishi lozim.

Oldi-sotdi yoki ayirboshlash obyekti bo'lgan tovarlar, ishlar (xizmatlar), har qanday mol-mulkka, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar, valyuta qimmatliklariga, elektr, issiqlik energiyasi va boshqa turdagi energiyaga, transport vositalariga, intellektual mulk obyektlariga nisbatan, tashqi iqtisodiy faoliyatda foydalanilishi qonun hujjatlari bilan taqiqlanganlarini istisno etganda, tashqi iqtisodiy faoliyat amalga oshirilishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat yuritadigan yuridik shaxslar o'z faoliyatlarini ustavi (Nizomi), "O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida", "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida", "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonunlari va boshqa huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hamda bitimlari asosida yuritadilar.

Tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi yuridik shaxs o'z faoliyatini olib borish uchun maxsus huquq layoqatiga ega bo'lishi kerak.

Yuridik shaxslarning huquqiy layoqati uning ustavi yoki nizomi tasdiqlangan vaqtdan e'tiboran, basharti u mazkur turdagi tashkilot haqidagi umumiy nizom asosida harakat qilish lozim bo'lsa, tashkil etilishi to'g'risida vakolatli organ tomonidan qaror chiqarilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlari O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 7-modsasida belgilab berilgan. Unda shunday deyiladi:

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari quyidagi huquqlarga ega:

- qonun hujjatlari doirasida tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashish shakllarini mustaqil belgilash, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun o‘z xohishiga ko‘ra boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni shartnoma asosida belgilangan tartibda jalb qilish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat natijalariga, shu jumladan milliy va chet el valyutasidagi daromadga qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning har bir subyekti amal qilib turgan qonunlar doirasida tashqi iqtisodiy aloqalardagi o‘z ishtirokining turlari, shakllari va yo‘nalishlarini mustaqil belgilashi, o‘z xohishiga ko‘ra tashqi iqtisodiyotni amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni belgilangan tartibda shartnoma asosida yoki boshqacha tarzda haq to‘lab yoxud to‘lamasdan jalb etish huquqiga ega. Tashqi iqtisodiy faoliyatning har bir subyekti O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatning natijalariga, shu jumladan chet el valyutasidagi daromadga egalik qilishga, ulardan foydalanishga va ularni gasarruf etishga haqlidir. O‘z qaroriga ko‘ra, iqtisodiy faoliyat natijalariga egalik qilish, jismoniy shaxslarga o‘tkazishi yoxud ularga ishonib topshirishi mumkin. Huquqlar ana shu tarzda o‘zgaga o‘tkazilgan taqdirda tomonlar o‘zaro munosabatlarini shartnoma (bitim) asosida tartibga soladilar. O‘zbekiston Respublikasining 11-dekabrya 2003-yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunida O‘zbekiston Respublikasi hududida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish asoslari belgilab berilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari ma’lum bir faoliyatni amalga oshiradigan bo‘lsa shu faoliyat albatta qonunga muvofiq bo‘lishi kerak. Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida qonunda tashqi iqtisodiy faoliyat obyektlari belgilab berilgan. Tashqi iqtisodiy faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarning faoliyati ana shu obyektlar

doirasida bo'lishi lozim. Bunday obyektlar oldi-sotdi yoki ayirboshlash obyekti hisoblangan tovarlar (ishlar, xizmatlar), har qanday mol-mulk, shu jumladan qimmatdor qogozyaar, valyutalar va valyuta qimmatliklari, elektr, issiklik energiyasi va energiyaning boshqa turlariga, transport vositalariga nisbatan bo'lgan iqqisodiy faoliyat hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda foydalanilishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan tovarlar bundan mustasno. Tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan tashqi iqtisodiy faoliyat xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik, tashqi iqtisodiy faoliyati, chet el investitsiyalarini jalb etish O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati shaklida olib boriladi.

Tashqi iqqisodiy faoliyat yo'nalishlaridan biri bu xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlikdir. Respublikamizning tadbirkorlari bu turdagi tadbirkorlikda xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan ishlab chiqarish, moliya, bank va sug'urta faoliyati, ta'lim va kadrlarni tayyorlash, turizm, sog'liqni saqlash, ilmiy -texnikaviy, madaniy, ekologiya, gumanitar va boshqa sohalarda o'zaro foydali aloqalarni o'rnatish va kengaytirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradilar. Bundan tashqari tadbirkorlar tomonidan tovarlarni eksport va import qilish yo'li bilan tashqi savdo faoliyati keng rivojlanmoqda.

Tovarlarning O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga, ularni qayta olib kirish majburiyatini olmasdan, olib chiqib ketilishi eksport, deb e'tirof etiladi.

Tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga, ularni qayta olib chiqib ketish majburiyatini olmasdan, olib kirish import deb ataladi. Tovarlarning ayrim turlarini eksport va import qilish faqat ularni olib kirish yoki olib chiqish uchun tegishli ruxsatnoma (litsenziya) olinganidan keyin amalga oshiriladi. Tovarlarning ayrim turlarining eksporti va importini amalga oshirish uchun litsenziyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ayrim tovarlar turlarini eksport va import qilishga nisbatan miqdoriy cheklovlar (kvotalar) belgilashi mumkin.

Eksport va import qilinishi litsenziyalanishi hamda kvotalanishi zarur bo'lgan tovarlar ayrim turlarining ro'yxati, shuningdek litsenziyalarni berish va kvotalarni taqsimlash tartibi O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Tovarlar eksportini amalga oshirayotganida nazorat hrnatilishi mumkin. Eksport nazoratini oʻrnatishdan maqsad Oʻzbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek xalqaro majburiyatlarga rioya etishni taʼminlashdir. Eksport nazoratiga tushadigan tashqi iqqisodiy faoliyat obyektlarining roʻyxati, shuningdek ularni olib chiqish yoki tranzit tarzida olib oʻtish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tegishli davlat idoralari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq eksport, import taqiqlanishi hamda cheklanishi mumkin. Eksport, importni taqiqlash hamda cheklanishning asosiy maqsadi fuqarolar hayoti va sogʻligʻni muhofaza qilish, hayvonot va oʻsimlik dunyosini hamda atrof-muhitni muhofaza qilish, milliy xavfsizlikni taʼminlash, ijtimoiy axloq-odobga va huquq-tartibotga rioya etish; Oʻzbekiston Respublikasi xalqining madaniy merosini saklash, madaniy boyliklarni qonunga zid tarzda olib chiqish, olib kirish va ularga boʻlgan mulk huquqlarini boshqacha oʻtkazishdan himoya qilish, respublikaningtoʻlov balansini saklab turish; Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish; tiklab boʻlmaydigan tabiiy resurslar tugatilishining oldini olish va Oʻzbekiston Respublikasining boshqa manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan tashqi iqtisodiy faoliyat belgilangan tartibda davlat tomonidan tartibga solib turiladi. Tashqi iqqisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish: tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish; valyuta bilan tartibga solish: soliq bilan tartibga solish; tarif va notarif bilan tartibga solish; Oʻzbekiston Respublikasining iqqisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarni qoʻllash; tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash; miqdoriy cheklovlar oʻrnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini oʻrnatish; qurol-yarogʻlar, harbiy texnika, ikki xil maqsadda ishlatilishi mumkin boʻlgan tovarlar va texnologiyaga nisbatan eksport nazoratini oʻrnatish; olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash; texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari va

gapablarini belgilash; tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun preferensiya va imtiyozlar berish kabilar bilan amalga oshiriladi.

Tashqi iqqisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish qonun hujjatlariga muvofiq boshqacha usullarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Davlat tomonidan tashqi iqqisodiy faoliyatning tartibga solinishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining Tashqi iqqisodiy aloqalar vazirligi ham o‘z vakolatlari doirasida ish olib boradilar. Shu bilan birgalikda tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquq va manfaatlari O‘zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlanadi.

Avvalo tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirayotgan faoliyatlariga davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarning aralashishiga haqli emasligidir. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining qonunda belgilangan huquqlarini buzuvchi hujjatlar qabul qilishi mumkin emas. Agar ana shunday hujjatlar qabul qilinib tashqi iqtisodiy faoliyat subyektiga zarar yetgan bo‘lsa, ushbu zarar qonun hujjatlariga muvofiq qoplanadi.

Tadbirkorlar tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri chet el investitsiyasini jalb etishdir. O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyasi deb chet ellik investorlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati obyektlariga hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning boshqa turlariga kiritilayotgan moddiy va nomoddiy ne‘matlarning barcha turlari hamda ularga bo‘lgan huquqpar, shu jumladan intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olinadigan har qanday daromad e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ham investitsiya faoliyati amalga oshirilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga moddiy va moddiy bo‘lmagan ne‘matlarni hamda ularga bo‘lgan huquqlarni qo‘yish bilan bog‘liq tashqi iqqisodiy faoliyat subyektlari harakatlarning yig‘indisi O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

birinchidan, yuridik shaxslar tashkil etish yoki ustav fondlarida ulushbay asosda, shu jumladan, mol-mulk va aksiyalar sotib olish yo‘li bilan qatnashish;

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida vakolatxonalar, firmalar va boshqa aloxida bo‘linmalar ta’sis etish;

uchinchidan, qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan xorijiy davlatlarning rezidentlari tomonidan tasdiqlangan qarz majburiyatlarini sotib olish;

to‘rtinchidan, konsessiyalarni, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, izlab topish, qazib olish yoxud ulardan foydalanishga mo‘ljallangan konsessiyalarni qo‘lga kiritish;

beshinchidan, mulk huquqini, shuningdek yerga hamda boshqa tabiiy reyeurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini qo‘lga kiritish;

oltinchidan, xorijiy davlatlarning qonun hujjatlarida va O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining hamda tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining iqtisodiy manfaatlari himoya qilinadi. Himoya qilish turli usullarda olib boriladi. Bular himoya choralari, kompensatsiya choralari, dempingga qarshi choralar.

Shulardan biri himoya chorasidir. Bunday himoya chorasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Agar biron-bir tovar xuddi shunday tovarni yoki unga bevosita raqobat qiluvchi tovarni O‘zbekiston Respublikasi ishlab chiqaruvchilariga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazishni yuzaga keltiradigan mikdorlarda yoki shunday shartlar asosida chet eldan olib kirilsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga muvofiq, shunday zarar yetkazilishi xavfining oldini olish yoki bunday zararni bartaraf etish uchun zarur bo‘ladigan muddatdagi ximoya choralarini ko‘rishga xaqlidir. Albatga himoya choralari qo‘llash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining hududiga bevosita subsidiyalangan tovarlar olib kirilgan taqdirda, agar bunday olib kirish O‘zbekiston Respublikasining xudsi shunday tovarlarni yoki unga bevosita raqobat qiluvchi tovarlarni ishlab chiqaruvchilariga zarar

yetkazsa yoki zarar yetkazish xavfini yuzaga keltirsa yohud O‘zbekiston Respublikasida xuddi shunday tovarlarni ishlab chiqarishni tashkil etish yoki kengaytirishga to‘siq bo‘luvchi shart-sharoitlarni yuzaga keltirsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan me’yorlari va tamoyillariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga bunday tovarlarni olib kirish orqali yetkazilgan zararni yoki zarar xavfini bartaraf etish uchun kompensatsiya choralari qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasining hududiga eksport qilgan mamlakatdagi real bahodan yoki eksport qilish paytidagi ishlab chiqarish bahosidan past narxda tovarlar olib kirilgan taqdirda, agar bunday olib kirishlar O‘zbekiston Respublikasining xuddi shunday tovarlarni ishlab chiqaruvchilariga zarar yetkazsa yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lsa yoxud O‘zbekiston Respublikasida xuddi shunday tovarlarni ishlab chiqarishni tashkyl etish yoki kengaytirishga to‘sqinlik qilsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xalqaro huquqning umume’tirof etilgan me’yorlari va tamoyillariga muvofiq dempinga qarshi choralarni qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqlidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyat shartnoma tuzish orqali olib boriladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi shartnomani amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan nizolar shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi. Shartnomada nizolarni hal qilishni tartibga soluvchi qoidalar bo‘lmagan taqdirda, qo‘llaniladigan huquq va hal qilindigan joy xalqaro xususiy huquqning umume’tirof etilgan me’yorlariga muvofiq belgilanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari bilan nizolari O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Nazorat savollari.

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat nima?

2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi va boshqaruvchi davlat boshqaruvchi organlari qaysilar?
3. Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi Qonun qachon qabul qilingan?
4. Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari kimlar?
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatda tomonlarning javobgarligi qanday?

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi: Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: “Adolat”, 2018-y. – 376 b.
2. Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi qonun. 2000-yil 26-may
3. Davletov A. Protssesual hujjatlarda yuridik atamalardan to‘g‘ri foydalanish. “Qonun himoyasida”, 06/2004, 10-12-betlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo‘lishi / Q.A.Ahmedovning umumiy tahriri ostida/. – T.: “O‘zbekiston”, 1992.
5. Yuridik ensiklopediya. Yuridik fanlari doktori, professor U.Tadjixanovning umumiy tahriri ostida. – T.: “Sharq”, 2001.
6. Tadbirkorlik sohasida ma‘muriy tartib-qoidalar bo‘yicha qo‘llanma. G‘.B.Hidoyatov va boshqa mualliflar jamoasi. – T.: NMAK BT “Sharq”, 2011.
7. Rahmonqulov X.R., Azizov X.T. Tadbirkorlik subyektlari xususiy mulk huquqining fuqarolik-huquqiy kafolatlari. – T.: 2013. – 181 b.
8. Do‘stov U.N. “Xo‘jalik (tadbirkorlik) huquqi” fanidan uslubiy qo‘llanma. – T.: TDYUI, 2003.
9. Babakulov S.B. Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish sohasidagi islohotlar.– T.: TDYUI, 2012. – 52 b.

10-mavzu. Biznes faoliyatiga soliqlar orqali ta'sir qilishning huquqiy asoslari

1. Biznes faoliyatiga soliqlar orqali ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Biznes faoliyatini tartibga solishga qaratilgan soliq qonunchiligi.
3. Biznes subyektlarining soliq majburiyatlari.
4. Biznes subyektlarining soliq majburiyatlari yuzasidan javobgarligi.

Davlatning harbiy-mudofaa, ijtimoiy-iqtisodiy, boshqaruv, madaniy-ma'naviy sohalaridagi faoliyatini moddiy-moliyaviy jihatdan ta'minlash, davlat organlari bir me'yorda ishlashiga erishishning asosiy manbai yuridik hamda jismoniy shaxslardan olinadigan turli-tuman soliqlar, majburiy to'lovlar hisoblanadi. Biznes faoliyati subyektlari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashga majbur.

Soliqlar - davlat byudjetining daromad qismiga o'tkaziladigan, yuqori qonunchilik hokimiyat organlarining hujjatlariga asosan yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan beg'araz, muayyan miqdorda va belgilangan muddatlarda umumdavlat va mahalliy ehtiyojlarini qondirish uchun to'lanadigan majburiy to'lovlardir.

Boshqa majburiy to'lovlar deganda Soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining yangi soliq Kodeksi 2019-yil 30-dekabrda qabul qilindi. 2020-yil 1-yanvardan amalga kiritildi. Kodeks 12 ta bo'lim 72- bob 483-moddadan tashkil topgan.

Avvalgi soliq Kodeksi 2007-yil 25-dekabrda qabul qilingan edi. U 21 ta bo'lim, 64 –bob, 392- ta moddadan iborat bo'lgan.

2020-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan, jismoniy va yuridik shaxslar kiritilgan o'zgarishlarga muvofiq soliq to'lovlarni amalga oshiradi. Yangi tahrirdagi

Soliq kodeksida soliqlarni ortiqcha undirganlik uchun davlat soliq xizmati organlarining javobgarligi kuchaytirildi, zamonaviy usullarni qoʻllagan holda xorijiy amaliyotda sinalgan soliq nazorati shakllari joriy etildi, shuningdek, soliqlarni hisoblash va toʻlash tartiblari soddalashtirildi.

Yagona ijtimoiy toʻlov oʻrniga ijtimoiy soliq, yagona soliq toʻlovi oʻrniga — aylanmadan soliq, qatʻiy belgilangan soliq oʻrniga — jismoniy shaxslarning daromadlariga, ularga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ilgari berilgan imtiyoz va soliqni hisoblash xususiyatlarini saqlab qolgan holda, qatʻiy belgilangan miqdorda soliq joriy etiladi.

Soliq kodeksining 145-moddasiga quyidagi oʻzgartirishlar kiritildi:

11-bandida ilgari vakillik xarajatlari uchun yalpi tushumning 1 % miqdorida chegirish huquqi boʻlsa, endilikda bu meʼyor olib tashlandi. 14,32,55-bandlarida xizmat safari, ixtiyoriy sugʻurta, mehnatda mayib boʻlganlik, kasb kasalligi yoki sogʻliqqa boshqacha shikast yetganlik bilan bogʻliq zararni oʻrni qoplashning meʼyorlari bekor qilindi.

Yuqoridagilardan tashqari, Soliq kodeksining 156-moddasida: Byudjetdan tashqari jamgʻarmalarning vaqtincha boʻsh mablagʻlarini moliya bozorlarida joylashtirishdan olinadigan foizlar tarzidagi daromadlari soliqqa tortilishi bekor qilindi. Respublikamizdagi yuridik shaxslarning xalqaro birjalarda joylashtirilgan qimmatli qogʻozlariga ega boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasi norezidentlarining olgan daromadlariga soliq solinmasligi belgilandi.

Soliqlarning yuridik mohiyatini tashkil etuvchi eng muhim xususiyatlar:

- Soliq toʻlovlarining begʻarazligi;
- Soliq toʻlovlarning majburiyligi;
- Soliqlarni joriy etish va undirib olish tartibiyligi;
- Soliqning aniq miqdoriyligi hamda uni amalga kiritishning aniq muddatilyigidan iborat.

Soliqlarning quyidagi funksiyalari bor: fiskal, tartibga solish, qayta taqsimlash.

- Soliqlarning Fiskal funktsiya vositasida soliqlarning bosh ijtimoiy vazifasi amalga oshiriladi.

- Byudjet tizimi va byudjetdan tashqari jamg'armalarda to'pladigan davlat moliyaviy resurslari shakllantiriladi hamda ulardan davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun foydalaniladi.


- Soliqlarning qayta taqsimlash funksiyasi
- Soliq tizimi yalpi milliy mahsulotni qayta taqsimlashni amalga oshiradi va bu bilan u iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta ko'rish, aholiga ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashda bevosita ishtirok etadi.

- Soliqlarning tartibga solish funksiyasi
- Ijtimoiy ishlab chiqarish, uning tuzilmasi va dinamikasiga, fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirishga iqtisodiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

- Biznes subyektlariga soliqlar orqali ta'sir etish
- Davlat soliqlar orqali iqtisodiyotga, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir o'tkazishni amalga oshirar ekan, bir necha muhim vazifalarni ko'zlagani holda harakat qiladi. Bunda bosh vazifa – byudjetni mablag' bilan to'ldirish – fiskal maqsaddir.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi

To'lovchilar	Soliq stavkalari	
	2018 yil	2019 yil
Yuridik shaxslar	14	12
Tijorat banklari	22	20
Mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar: Rentabillik darajasi		
20 foizgacha	14	20
20 foizdan yuqori	50	
Sement, polietelen granula ishlab chiqaruvchi korxonalar (qo'shimcha foyda solig'i to'lash tartibi bekor qilindi)	14	20



Biznes faoliyatini tartibga solishga qaratilgan soliq qonunchiligi.
 1. 2020-yil 20-iyulda Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini

kamaytirish uchun aholi, tadbirkorlik subyektlari, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6029-son Farmoni qabul qilindi. Bundan tashqari, kichik tadbirkorlik subyektlariga quyidagi summalarni hisobdan chiqarish ko'rinishida davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash taqdim etildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-martdagi PF-5969-son va 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-son Farmonlariga asosan foizsiz kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) berilgan, 2020-yil aprel va may oylari uchun to'lanishi lozim bo'lgan mol-mulk solig'i va yer solig'i summalari;

1. 2020-yil 15-may holatiga yer solig'i va mol-mulk solig'i bo'yicha 2020-yil 1-yanvardan boshlab hosil bo'lgan penya va jarimalar summalari.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlarni quyidagi tartibda to'laydi:

Kalendar yilida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi 100 mln. so'mdan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar daromad solig'ini ikki xil usulda:

- 1) har oyda qat'iy belgilangan miqdorlardagi soliqni to'lashi;
- 2) tadbirkorlik faoliyatidan olingan haqiqiy daromadi bo'yicha ushbu daromadlarni olish bilan bog'liq xarajatlar summasini chegirib tashlagan holda doimiy yashash joyidagi davlat soliq inspeksiyasiga deklaratsiya topshirish yo'li bilan daromad solig'ini to'lashi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish- Kalendar yilida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi 100 mln. so'mdan oshgan biroq 1 mlrd. so'mdan oshmaydigan yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni (avvalgi yagona soliq to'lovi) to'lashga o'tkaziladi.

Bunday tadbirkorlar ham ikki xil usulda soliqlarni to'lashni tanlashi mumkin:

Kalendar yilida realizatsiya tushumi 100 mln. so'mdan oshganda, oshgan summadan aylanmadan olinadigan soliqni to'lashi;

kalendar yilida realizatsiya tushumi 100 mln. so'mdan oshganda, aylanmadan olinadigan soliqni to'lash o'rniga ixtiyoriy tarzda qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashni tanlashi mumkin.

Ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

- To'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga soliq solish

- Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solish

- Mahsulot taqsimotiga oid bitim doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga soliq

- Advokatlar hay'ati, advokatlik firmalari va advokatlik byurolari tomonidan tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilganda (yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan) soliqlar

- Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga soliq solish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-iyuldagi PF-6029-son Farmoni bilan quyidagi tadbirkorlarga imtiyozlar berildi:

1. 2020-yil 1-iyuldan 2020-yil 31-dekabrqa qadar umumiy ovqatlanish korxonalari va binolarni ijaraga berishga ixtisoslashgan korxonalar aylanmadan olinadigan soliqni to'lashdan ozod etildi.

2. ovqatlanish korxonalari alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'imni to'lashdan ozod qilindi.

3. Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun kichik tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etilgan imtiyozlar va preferensiyalarni qo'llagan holda, ularni kichik korxonalar toifasiga kiritish maqsadida 2020-yil 1-iyuldan boshlab umumiy ovqatlanish korxonalari uchun belgilangan xodimlarning yillik o'rtacha soni 25 nafardan 50 nafarga oshirildi.

4. 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan hollarda, soliq to'lovchilarga soliq hisobotlarini taqdim etish muddatlarini besh kundan ko'p bo'lmagan muddatga kechiktirganlik uchun jarima solinmaydi.

5. Kichik tadbirkorlik subyektlari; bozorlar va savdo komplekslari, kinoteatrlar, umumiy ovqatlanish korxonalari, jamoat transporti korxonalari, sport-sog'lomlashtirish muassasalari, shuningdek, yo'lovchi tashish, maishiy xizmatlar ko'rsatish, binolarni, shu jumladan banketlar o'tkazish uchun ijaraga berish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'i va yer solig'ini to'lashdan ozod qilish bo'yicha berilgan imtiyozlarni amal qilish muddati 2020-yil 31-dekabrqa qadar uzaytirildi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi —Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-5755-sonli Farmoniga muvofiq 2019-yil 1-avgustdan boshlab yagona yer solig‘i to‘lovchisi hisoblangan qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilari ixtiyoriy ravishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tish imkoniyatiga ega bo‘ldi, 2019-yil 1-sentyabrdan boshlab esa 2019-yil yanvar oyidan sentyabr oyigacha 1 milliard so‘mdan ortiq pul aylanmasi (tushumi)ga ega bo‘lgan 50 gektardan ortiq qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlariga ega bo‘lgan yagona yer solig‘i to‘lovchilari qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari hisoblanishi belgilandi.

Kalendar yilida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi 1 mlrd.so‘mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini yuridik shaxslar uchun belgilangan tartibda to‘lashga o‘tadi.

Shuningdek, soliqlarni yuridik shaxslar uchun belgilangan tartibda to‘lashga o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga foyda solig‘ini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlashga huquqi berildi.

Bunda, foyda solig‘ining soddalashtirilgan tartibdagi soliq bazasi jami daromadning 25 foizi miqdorida belgilanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor foyda solig‘ini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini tanlaganda soliqni hisoblab chiqarish maqsadida xarajatlar hisobini yuritish majburiyatlaridan ozod qilinadi.

Ekspart salohiyatini qo‘llab quvvatlash borasida foyda solig‘i imtiyozlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-noyabrdagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5587-sonli Farmoniga muvofiq, 2019-yil 1-yanvardan boshlab tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksport ulushi umumiy tushumning 15 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalarining tovar (ish, xizmat)lar eksportidan olingan foydasi soliq solishdan ozod qilinadi.

Masalan, “Sharq” MCHJning mahsulot sotishdan umumiy tushumi 2 500,0 mln.so‘m, shundan eksportga sotilgan mahsulotlar hajmi 1 300,0 mln.so‘m, soliq solinadigan foydasi 500,0 mln.so‘mni tashkil qilgan. Bunda, eksport ulushi 52 % ($1\,300,0/2\,500,0 \times 100\%$) ni tashkil qilganligi sababli korxonalar yuqoridagi imtiyozdan foydalanish

huquqiga ega bo‘ladi va soliq solinadigan foyda 500,0 mln.so‘mning eksportga to‘g‘ri keladigan qismi, ya‘ni 260,0 (52 %) mln.so‘m foydasi soliq solishdan ozod etiladi. Natijada, 240,0 mln.so‘mdan (500-260) 12 % stavkada 28,8 mln.so‘m foyda solig‘i to‘laydi yoki imtiyoz natijasida korxonada ixtiyorida 31,2 mln.so‘m mablag‘ qoladi

To‘g‘ridan to‘g‘ri chet el xususiy investitsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lovchilarga soliq solish To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi va qonun hujjatlarida tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq kiritilgan investitsiya hajmidan kelib chiqqan holda quyidagi soliqlardan ozod qilinadi:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i

4. Yagona soliq to‘lovini

5. Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar

300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha — 3 yil muddatga;

3 milliondan ortiq AQSH dollaridan 10 million AQSH dollarigacha — 5 yil muddatga;

10 million AQSH dollaridan ortiq bo‘lganda — 7 yil muddatga. Soliq imtiyozlari quyidagi shartlar asosida qo‘llanilishi belgilangan: Mazkur korxonalarini Toshkent shahri va Toshkent viloyatini istisno qilgan holda, respublikaning barcha shaharlari va qishloq aholi punktlarida joylashtirish;

Xorijiy investorlar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni O‘zbekiston Respublikasining kafolati berilmagan holda amalga oshirish;

Korxonaning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 33 foizni tashkil etishi lozim;

Xorijiy investitsiyalarni erkin almashtiriladigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik uskuna tarzida qo‘yish;

Mmazkur imtiyozlarni qo‘llanish muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadning kamida 50 foizini korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo‘naltirish.

Tovar aylanmasi 1 mlrd.so‘mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun Tovar aylanmasi 1 mlrd.so‘mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun

1 mlrd.so‘mdan osh‘gan oyning keying oydan boshlab yagona soliq to‘lovi o‘rniga[^]

qo‘shilgan qiymat solig‘I,

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘I,

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq,

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i,

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq,

yagona ijtimoiy to‘lov,

dividentlar va foizlarga solinadigan soliq,

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlarini to‘laydi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning Tovar aylanmasi 1 mlrd.so‘mdan oshgan oyning keying oyidan boshlab, yashash joyidagi Davlat xizmatlari markazidan yuridik shaxs maqomida davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

Oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun

2019 yildan boshlab, belgilangan me‘yordan oshgan **1 mlrd.so‘mgacha tovar** aylanmasini amalga oshirgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, maqomini saqlab qolgan holda yagona soliq to‘lovini to‘lash tartibiga joriy etildi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning Tovar aylanmasi 1 mlrd.so‘mdan oshgan oyning oxirgi sanasiga qadar ro‘yhatdan o‘tgan Davlat xizmatlari markaziga faoliyatini tugatish to‘g‘risida ariza taqdim etadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor nomida kirim qilingan Tovar moddiy boyliklari qoldig‘i, qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ta‘sischi sifatida yuridik shaxs nomiga kirim qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-oktyabr-dagi 3978-son qaroriga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkorlarning meva-sabzavot mahsulotlari eksport tushumlariga yagona soliq to‘lovi to‘lanishini nazarda tutuvchi soliqqa tortish tartibi qo‘llaniladi

Tekshirish 3-bosqichda amalga oshiriladi

Soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar hamda hujjatlarni o‘rganish - tahlil qilish orqali tekshirib chiqiladi.

Avval to‘langan soliqlar, ular yuzasidan hisobotlar tekshiriladi. Bunda to‘langan soliqlar bilan hujjatlar o‘zaro solishtiriladi, tahlil etiladi. Soliq xizmati organlari xodimlari joyga (tegishli korxonalar, tashkilotga) chiqib, ahvolni o‘rganish, ko‘zdan kechirish, hujjatlarni o‘rganish ishlarini amalga oshiradi.

Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi belgilandi. Hukumat qarori (1-son, 07.01.2021-y.) bilan Soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

beginner: Nizomga muvofiq, soliq organlari quyidagi soliq tekshiruvlarini o‘tkazadi:

- kameral soliq tekshiruvi;
- sayyor soliq tekshiruvi;
- soliq auditi.

Kameral soliq tekshiruvi quyidagi hollarda o‘tkaziladi: soliqqa oid qonun hujjatlari buzilishi sodir etilganligi xavfi bo‘lganida;

:small_orange_diamond: taqdim qilingan soliq hisobotida tafovut yoki xatolar aniqlanganida.

:hourglass_flowing_sand: Mazkur tekshiruv soliq organi rahbarining buyrug‘i asosida, 60 kundan oshmagan muddatda o‘tkaziladi.

:mag_right: Sayyor soliq tekshiruvi 10 kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda o‘tkaziladi.

:memo: OAVda soliq va valyutaga oid huquqbuzarliklarga oid ma’lumotlar e’lon qilinsa, sayyor soliq tekshiruvi uchun asos bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, sayyor soliq tekshiruvini o‘tkazishning yana 5 ta asosi mavjud.

:x: Sayyor soliq tekshiruvida hujjatlar va buyumlarni tungi vaqtlarda (23.00 dan 06.00 ga qadar bo‘lgan vaqt oralig‘ida) olib qo‘yishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq auditi quyidagi soliq to‘lovchilarda o‘tkaziladi:

soliq tavakkalchiligining yuqori toifasiga mansub bo‘lgan;

:small_orange_diamond: kameral soliq tekshiruvi natijasi bo'yicha soliq to'lovchi aniqlashtirilgan hisobotni taqdim etmasa;

:small_orange_diamond: ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslarda;

:small_orange_diamond: soliq to'lovchilarning jinoiy ishlar bo'yicha moliya-xo'jalik faoliyati taftish qilinish doirasida;

:small_orange_diamond: faoliyatini to'xtatgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik:

→ Soliq to'lovchining Soliq Kodeksda javobgarlik belgilangan g'ayriqonuniy aybli qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) soliqqa oid huquqbuzarlik deb e'tirof etiladi.

→ Moliyaviy sanksiyalar soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik chorasi bo'lib, pul undirish (jarimalar va penya) tarzida qo'llaniladi.

→ Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga - soliq to'lovchilarga moliyaviy sanksiyalar sud tartibida qo'llaniladi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddati o'tkazib yuborilganligi uchun penya hisoblash, shuningdek soliq to'lovchi sodir etilgan huquqbuzarlikdagi aybini tan olgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to'lagan hollar bundan mustasno.

Jinoyat Kodeksi XII bob. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash:

a) takroran;

b) ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, — eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash juda ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, —eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

190-modda. Faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanish Litsenziya olinishi shart bo'lgan faoliyat bilan maxsus ruxsatnoma olmasdan shug'ullanish ko'p miqdorda daromad olish bilan bog'liq bo'lsa,

-(190-modda birinchi qismining dispozitsiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 29-dekabrda O‘RQ-418-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 1-son, 1-modda) eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha muddatga axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

11- mavzu: Qimmatli qog‘ozlar bozori va birjalar faoliyatining huquqiy tartibga solinishi

1. Qimmatli qog‘ozlar va qimmatli qog‘ozlar bozori tushunchasi, turlari
2. Qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi qonunchilik.
3. Qimmatli qog‘ozlar muomalasi ustidan nazorat.
4. Qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari.
5. Fond birjasining huquqiy maqomi va faoliyati.

Qimmatli qog‘ozlar tushunchasi, turlari. Qimmatli qog‘ozlar bozori tushunchasi.

2015-yil 15 - iyundagi “Qimmatli qog‘ozlar bozori” to‘g‘risida Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ko‘ra, qimmatli qog‘ozlar — hujjatlar bo‘lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadi. Ushbu qonun nuqtai nazaridan qimmatli qog‘ozlar – qimmatli qog‘ozni sotib olgan investorning ushbu qimmatli qog‘ozlar emitenti – ishlab chiqaruvchisi oldida mana shu qimmatli qog‘ozga nisbatan mulkiy huquqlarini (muayyan miqdordagi pulni to‘lashni, muayyan mol-mulkni o‘tkazib berishni talab etish huquqini) tasdiqlovchi, investorga o‘z huquqlarini boshqa shaxslarga o‘tkazish bilan ularni erkin sotish imkoniyati bilan tasdiqlangan belgilangan shakldagi hujjatlardir.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida esa qimmatli qog‘ozlarga nisbatan kengroq ta’rif berilgan bo‘lib, Mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar qimmatli qog‘ozlar hisoblanishi, ularni taqdim etgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin⁴¹. bo‘lishi ko‘rsatilgan. Ya’ni qimmatli qog‘ozlarda muayyan mulkiy huquqlar va mol- mulk subekti va majburiyatli shaxs to‘g‘irisidagi axborotlar yozilgan bo‘ladi⁴².

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/111189>

⁴² O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: “Vektor-Press”, 2010.–(Professional (malakali) sharhlar). 272-bet

Boshqacha qilib aytganda, qimmatli qogʻozlar — oʻz egasiga mulkka egalik huquqini va daromad koʻrinishida muayyan pul summasini olish huquqini beradigan huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Qimmatli qogʻozlarning paydo boʻlishi uzoq tarixga ega boʻlib, qadimda yarmarkalarda savdogarlar oʻrtasida bir valyutani boshqasiga almashtirish amaliyoti mavjud boʻlgan. Savdoning oʻsishi va tuzilgan bitimlarning koʻpayishi tufayli ilk klassik qimmatli qogʻoz - veksellar asta-sekin moliyaviy operatsiyalar obyektiga aylandi. Veksel Hindiston va Xitoy bilan faol savdo sotiq ishlarini amalga oshirgan Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda ommalashib bordi.

Sobiq sovet davrida esa davlat iqtisodiyotida zarurat yuzasidan qimmatli qogʻozlar muomalasi nihoyatda qashshoq boʻlib, asosan bitta turdagi qimmatli qogʻozlar – obligatsiyalardan, taqdim etiluvchi omonat daftarchalaridan va davlat mehnat omonat kassalarining akkreditivlaridan, yutuqli lotereya biletlaridan tashkil topgan, yuridik shaxslar oʻrtasidagi hisob-kitoblarda esa hisob-kitob chekidan foydalanish mumkin boʻlgan. Bozor iqtisodiyotiga oʻtilishi bilan qimmatli qogʻozlar muomalasi kengaydi, uning bozori shakllana boshladi. Biroq bunda asosiy eʼtibor “investitsion” deb nomlanuvchi qimmatli qogʻozlar – xususiy tijorat tuzilmalarining aksiyalari va obligatsiyalariga qaratildi⁴³.

Qimmatli qogʻozlar oʻzida uch xil xusuiyatni mujassamlagan:

- Aylanuvchanlik – bu qimmatli qogʻozning bozorda xarid qilinishiga va sotilishiga, shuningdek koʻpchilik hollarda boshqa tovarlar muomalasini osonlashtiruvchi mustaqil toʻlov vastasi sifatida qoʻllanilishi;
- Likvidlik – bu qimmatli qogʻozning uning egasi uchun deyarli zarar keltirmagan holda tez sotilish, pul mablagʻlariga aylanish qudratidir.
- Xatar – qimmatli qogʻozlar operatsiyalari bilan bogʻliq yoʻqotishlar va muqarrar ravishda ularga xos ehtimollardir⁴⁴.

Chiqarilish shakliga koʻra qimmatli qogʻozlar blankalar tarzida hujjatli va elektron shakldagi hisobga olish registrlaridagi yozuvlar tarzida hujjatsiz boʻlishi mumkin. Qimmatli qogʻozlarni chiqarish toʻgʻrisidagi emitent qarorida qimmatli qogʻozlarning shakli belgilanishi mumkin.

⁴³ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 1-жилд (биринчи қисм) Адлия вазирлиги. – Т.: «Вектор-Press», 2010.–(Профессионал (малакали) шарҳлар). 273-бет.

⁴⁴ Butikov I.L. Qimmatli qogʻozlar bozori. Darslik – Toshkent. Konsauditinform, 2001.-20-bet

Emitentlar tomonidan biznes faoliyatni amalga oshirish va rivojlantirish maqsadida mablagʻ jalb qilish uchun barcha qimmatli qogʻozlar uchun bir xil boʻlgan belgi va rekvizitlarga ega boʻlgan holda chiqariladigan qimmatli qogʻozlar emissiyaviy qimmatli qogʻozlar hisoblanadi. Emmissiyaviy qimmatli qogʻozlar mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladi va muomalada boʻladi. Emissiyaviy qimmatli qogʻozlar odatda katta seriyalarda, koʻp miqdorda chiqariladi va har bir seriyada barcha qimmatli qogʻozlar mutlaqo bir xil boʻladi.

Noemissiyaviy qimmatli qogʻozlar esa yakka tartibda yoki kichik seriyalarda chiqariladi. Noemissiyaviy qimmatli qogʻozlar ularga zarurat boʻlganda chiqariladi. Odatda bunday turdagi qimmatli qogʻozlar yaxshi rentabellikka ega boʻlgani uchun ham portfel investitsiyalar yoʻnaltiriladi. Noemissiyaviy qimmatli qogʻozlar asosini bitta bitimlar tashkil etadi. Emissiyaviy qimmatli qogʻozlarni roʻyxatdan oʻtkazish shart emas.

Rivojlangan qimmatli qogʻozlar bozorlarida qimmatli qogʻozlarning oʻndan ziyod turlari mavjud. Mamalakatimiz qonunchiligida esa qimmatli qogʻozlarning obligatsiya, veksel, chek, depozit va jamgʻarma sertifikatlari, konosament, aksiya, gʻazna majburiyatlari, qimmatli qogʻozlarning hosilalari kabi turlari nazarda tutilgan.

Quyida qimmatli qogʻozlarning turlari bilan batafsil tanishib chiqamiz:

Qimmatli qogʻozlarning eng keng tarqalgan turi aksiyalardir. “Qimmatli qogʻozlar bozori” toʻgʻrisida Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga koʻra, Aksiya – oʻz egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga boʻlgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qogʻozdir.

Aksiya (frans. aksion — farmoyish; ruxsatnoma, faoliyat) – aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qogʻoz boʻlib, u oʻz egasining aksiyadorlik jamiyati kapitalida hissasi borligini va shunga muvofiq, topilgan foydaning bir qismini dividend shaklida olish va aksiyadorlik jamiyati boshqaruvida ishtirok etish huquqini tasdiqlaydi.

Aksiyalar egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qogʻozlar boʻlib, ular turiga koʻra oddiy va imtiyozli boʻlishi mumkin.


Oddiy aksiyalar ovoz beruvchi aksiyalar boʻlib, ular oʻz egasiga dividendlar olish, jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

Oʻz egalariga dividendlarni, shuningdek jamiyat tugatilayotganda aksiyalarga qoʻyilgan mablagʻlarni birinchi navbatda olish huquqini beradigan aksiyalar imtiyozli aksiyalardir. Imtiyozli aksiyalar oʻz egalariga jamiyat foyda koʻrish-koʻrmasligidan qatʼi nazar, muayyan dividendlar olish huquqini beradi. Imtiyozli aksiyalar korxonada boshqaruvida qatnashish yoki aksiyadorlarning umumiy yigʻilishida ovoz berish huquqini bermaydi. Ushbu aksiya oʻz egasiga aksiyadorlik jamiyati tugatilgan paytda aksiyalar qiymatini birinchi navbatda olish huquqini beradi.

“Qimmatli qogʻozlar bozori” toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga koʻra, Obligatsiyalar – emissiyaviy qimmatli qogʻoz boʻlib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qatʼiy belgilangan foizni olishga boʻlgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi; Obligatsiya (lotincha obligatio soʻzidan, majburiyat) – bu uning egasi qarz berganligi (sarmoyadorning emitentga mablagʻlarni vaqtinchalik foydalanish uchun berganligi) haqida guvohlik beruvchi va unga ushbu qimmatli qogʻozning nominal qiymatini unda koʻrsatilgan muddatda belgilangan (qatʼiy) foiz toʻlangan holda qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qogʻozdir.

Aksiyadan farqli ravishda obligatsiya emitentning mol-mulkiga nisbatan mulk unvoni hisoblanmaydi. U ovoz berish va boshqarish huquqini bermaydi. Obligatsiyalar maʼlum muddatga chiqariladi va soʻndirishi shart. Egarda emitentning faoliyati tugatilsa, obligatsiyaning egalari qimmatli qogʻozlar boshqa turlarining egalariga qaraganda anʼanaviy tarzda ustunlikka ega boʻladi⁴⁵.

⁴⁵ Butikov I.L. Qimmatli qogʻozlar bozori. Darslik – Toshkent. Konsauditinform, 2001.-20-bet



O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilida emitentning xususiyatiga ko‘ra obligatsiyalar 2 turga: infratuzilma obligatsiyalari, korporativ obligatsiyalar bo‘linadi.

Davlat obligatsiyalari – o‘zida kredit munosabatlarini aks ettiradi, bunda davlat qarzdor, aholi yoki korxon va tashkilotlar kreditor sifatida ishtirok etadi⁴⁶.

Davlat obligatsiyalari O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining tasarrufida bo‘lgan barcha aktivlar bilan ta’minlangan, hujjatsiz shaklda chiqariladigan va qonunchilikka muvofiq O‘zbekiston Respublikasining qimmatli qog‘ozlar bozorlarida muomalada bo‘ladigan obligatsilardir. Obligatsilarni joylashtirishdan tushgan mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga o‘tkaziladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti taqchilligini qoplashga va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining tasdiqlangan parametrlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan belgilanadigan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishga yo‘naltirilishi mumkin. Amaliyotda davlat obligatsiyalarining chiqarilishlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya

⁴⁶ Butikov I.L. Qimmatli qog‘ozlar bozori. Darslik – Toshkent. Konsauditinform, 2001.-27-bet

vazirligi nomidan va hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan (odatda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilishi lozim.) “O‘zbekiston Respublika valyuta birjasi” AJning savdo maydonchasi orqali joylashtiriladi va so‘ndirilish holatlari kuzatiladi. Infratuzilma obligatsiyalari- ishlab chiqarish infratuzilmasini va boshqa infratuzilmani barpo etish yoki rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish uchun pul mablag‘larini jalb etish maqsadida xo‘jalik jamiyatlari va davlat korxonalarini tomonidan chiqariladigan obligatsiyalardir.

Bunday obligatsiyalar temir yo‘llar, aeroportlar, avtomobil yo‘llari kabi infratuzilmalarni qurish yoki rekonstruksiya qilish uchun yirik xususiy kompaniyalar yoki davlat tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin. Bunday infratuzilmalar qurilishi ko‘p vaqt talab qilgani tufayli ham infratuzilma obligatsiyalari uzoq muomalada bo‘ladi.

Korxonalar obligatsiyalari esa aksiyadorlik jamiyatlari, mas‘uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatlar tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar hisoblanadi. Mohiyatan bu turdagi obligatsiyalar korxonalar tomonidan chiqarilib boshqa korxonalar yoki jismoniy shaxslarning kreditor sifatida qarz mablag‘larini ajratishlarini ta‘minlaydi.

G‘azna majburiyatlari - emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, ular emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar egalari davlat byudjetiga pul mablag‘lari kiritganligini tasdiqlaydi va bu qimmatli qog‘ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat‘iy belgilangan daromad olish huquqini beradigan qimmatli qog‘oz turidir.

Ushbu qimmatli qog‘ozlar davlat tomonidan ishlab chiqariladi. U ma‘lum bir muddat davomida asosan korxonalar va tashkilotlardan, shuningdek jismoniy shaxslardan qarz oladi. G‘aznachilik majburiyatlari inflyatsiyaga bardosh beruvchi qimmatli qog‘oz turi emas, shu tufayli ham uning kam muddatli (asosan 1 yilgacha) turi kreditorlar tomonidan afzal ko‘riladi.

O‘zbekistonda G‘azna majburiyatlari muddatlari bo‘yicha quyidagi uch turga ajratiladi:

1. Uzoq muddatli – bunday turdagi g‘azna majburiyatlari 5 yil va undan ortiq yil muddatga chiqarilishi mumkin. G‘azna majburiyatlarining bu turi qimmatli qog‘ozlarning xalqaro amaliyotida “bond” deb ataladi.

2. O‘rta muddatli – 1 yildan 5 yilgacha bo‘lgan muddatga chiqariladi. Bu kabi g‘azna majburiyatlari xalqaro amaliyotda “note” deb nomlanadi.

3. Qisqa muddatli – 1 yilgacha muddatga chiqarilgan g‘azna majburiyatlari bo‘lib, qimmatli qog‘ozlarning xalqaro amaliyotida “bill” deb ataladi.

O‘z tabiatiga ko‘ra g‘azna majburiyatlari davlat obligatsiyalariga juda yaqin. Amalda g‘azna majburiyatlari jismoniy shaxslar uchun chiqariladigan davlat obligatsiyalaridan boshqa narsa emas, ular bo‘yicha daromadlarni qimmatli qog‘ozlarga egalik qilishning butun muddati davomida olish mumkin⁴⁷.

Depozit sertifikatini — bankka qo‘yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz.

Depozit sertifikatini (inglizcha- certificate of deposit) depozit sertifikatini qimmatli qog‘ozini sotib olish uchun ajratilgan pul mablag‘larini bankka omonatga qo‘yilganligi to‘g‘risida omonatchiga - depozit sertifikatini qimmatli qog‘ozini sotib oluvchiga sertifikatda belgilangan muddat tugagach, depozit summasi va unga tegishli foizlarni olish huquqini beruvchi kredit muassasining guvohnomasidir. Bank sertifikatni muddatidan oldin to‘lovga taqdim etilishi ehtimolini nazarda tutishi mumkin. Bunday hollarda bank tomonidan oldindan, sertifikatni berish vaqtida belgilangan sertifikatning unda yozib qo‘yilgan qiymati va pasaytirilgan stavka bo‘yicha foizlar to‘lanadi. Sertifikat egasiga sertifikatning muomalada bo‘lish muddati tugashi bilan uning egasiga tegishli bo‘lgan dastlab chiqarish va muomalada bo‘lish shartlarida belgilangan stavka bo‘yicha foizlar emitent bank tomonidan, ushbu sertifikat xarid qilingan vaqtdan qat’iy nazar to‘lanishi lozim. Sertifikatlar bir martalik qilib ham, seriyali, egasining nomi yozilgan yoki ko‘rsatuvchi egalik qiladigan turlarda ham chiqarilishi mumkin. Depozit sertifikatlarini chiqarish qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki

⁴⁷ Butikov I.L. Qimmatli qog‘ozlar bozori. Darslik – Toshkent. Konsauditinform, 2001.-37-6et.

tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Veksel — veksel beruvchining yoxud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz. Veksellarni chiqarish qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarning hosilalari - o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan opsionlar, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar, depozitar tilxatlar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlardir.

Qimmatli qog'ozlar hosilalari shartnomalar bo'lib ular bo'yicha bir tomon qimmatli qog'ozlarning ma'lum bir miqdorini ma'lum muddatda kelishilgan narxda sotib olish yoki sotish huquqi yohud majburiyatini oladi.

O'zbekistonda QQH ni chiqarish va ular muomalada bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish va muomalada bo'lishi tartibiga ko'ra respublika hududida faqat ularning negizida aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari yotadigan QQH chiqarilishi mumkin. Mazkur QQHning emissiya prospekti davlat ro'yxatidan o'tishi va belgilangan tartibda ro'yxatga olish raqamiga ega bo'lishi lozim.

QQH hujjatli yoki hujjatsiz shaklda (hujjatsiz shakldagi chiqarilishlar global sertifikatlar bilan rasmiylashtiriladi) egasining nomi yozilgan shaklda, sinflar va seriyalarga bo'lingan holda chiqarilishi mumkin.

Suquq Bugungi kunda mamalakatimizda moliyalashtirishning muqobil shakllarini yaratish hamda aholi va tadbirkorlarning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish, taklif etilayotgan moliyaviy xizmatlar turini kengaytirish, islom moliyalashtirish tamoyillari asosida ichki va tashqi kapital bozorlaridan resurslarni safarbar etish uchun katta ehtiyoj mavjud. Shu tufayli ham islom moliyaviy tamoyillariga asoslangan suquq qimmatli qog'ozlarini ishlab chiqarishga zarurat tug'ilmoqda.

Suquq – (arab tilida aktlar, hujjatlar, cheklar) investitsion faoliyat yoki uning aktiviga nisbatan egalik huquqidagi ulushini ko‘rsatuvchi shariat tamoyillariga aslangan emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, turiga ko‘ra foyda va zararga sherikchilikni ifodalaydi, so‘ndirilishi va foyda darajasi riskka asoslanadi⁴⁸.

Suquq bir vaqtning o‘zida oddiy aksiya va obligatsiyalarning ayrim xususiyatlarini o‘zida jamlaydi, lekin unda SPV (Special Purpose Vehicle) – (maxsus maqsadli korxonalar yoki ixtisoslashgan loyiha kompaniyasi bo‘lib, ma‘lum loyiha yoki biznes rejani amalga oshirish va boshqarish uchun tashkil etiladi) va shariat kengashi⁴⁹ institutlarining ishtirok etishi barcha bosqichlardagi murakkabliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Suquq operatsiyalarini amalga oshirishda yuqori aniqlik talab qilinganligi uchun ham odatda emitent uchun SPV tashkil etiladi. Bu esa biznes loyiha va moliyaviy operatsiyalarni samarali boshqarish imkonini beradi.

Suquqning huquqiy mohiyatiga ko‘ra quyidagi xususiyatlari bilan boshqa qimmatli qog‘ozlardan farqlanadi:

- Suquq Islom qonunlariga muvofiq chiqarilishi kerak, bu shariat tamoyillariga ishora qiladi;

- Suquq qimmatli qog‘ozlari boshqa turdagi qimmatli qog‘ozlardan farqli o‘laroq, haqiqiy aktivlarga bog‘langan bo‘lishi kerak, ya’ni ular aktivga egalik huquqini anglatadi;

- suquqning egalari, boshqa qarz qimmatli qog‘ozlaridan farqli o‘laroq, nafaqat foyda olish, balki ko‘rilgan zararni olish huquqiga ega;

- emissiya risolasi shariat qoidalariga muvofiq bo‘lishi kerak, shariat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi talab qilinishi ham mumkin⁵⁰.

⁴⁸ Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi. Abrorov Sirojiddin zuxriddin o‘g‘li. O‘zbekistonda suquq - islomiy qimmatli qog‘ozlarni joriy etish istiqbollari 08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit Iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi. AVTOREFERAT. Toshkent- 2020-y.

⁴⁹ Shariat kengashi – mustaqil o‘zini o‘zi boshqaruvchi organ bo‘lib, chiqarilayotgan, muomalada bo‘lgan islomiy qimmatli qog‘ozlar va investitsiya yo‘naltirilgan loyihaning islom tamoyillariga muvofiqligini nazorat qiladi hamda xulosalarini berib boradi. Shariat kengashi tomonidan ma‘qullangan suquqlar emissiyaga ruxsat etiladi.

⁵⁰ Batirova K. Pravoviye osobennosti islamskix sennix bumag (SUQUQ) //Review of law sciences. – 2020. – T. 2. – №. Spesvipusk.

Shartnomaning asosiy tarkibi	Nomlanishi	Qisqacha tavsifi
Lizing bitimlari	Suquq ijara qimmatli qog'ozlari (suquqal ijara)	muomala muddati avvaldan belgilanib, maxsus moliya kompaniyasi tomonidan islom moliyalashtirish tamoyillariga asosan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'lib, ularning egalari ijara shartnomasi (moliyaviy lizing) bo'yicha daromad olish huquqiga ega bo'lishadi;
Oldi sotdi bitimlari	To'lovi uzaytirilgan qayta sotib olish qimmatli qog'ozlari (suquqal murobaha)	muomala muddati avvaldan belgilanib maxsus moliya kompaniyasi tomonidan islom moliyalashtirish tamoyillariga asosan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'lib, bunda originatorga to'lovi uzaytirilgan mol-mulk beriladi;
Oldi sotdi bitimlari	Suquq istisno	kelajakda taqdim etiladigan tovarlarni va xizmatlarni ishlab chiqarish va yetkazib berish to'g'risidagi bitim, ammo uning to'lovi bunday shartnoma tuzilgandan so'ng darhol amalga oshiriladi. Suquq-istisna - bu teng ulushga ega bo'lgan va loyihani amalga oshirish yoki mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mablag'ni jalb qilish uchun beriladigan sertifikatlaridir.
Oldi sotdi bitimlari	Suquq - salam	Ushbu turdagi qimmatli qog'ozlar ma'lum tovarlarni sotib olish va sotishni kelajakda amalga oshirishni anglatadi, ammo ushbu savdo uchun to'lov hozirgi vaqtda qilinishi lozim bo'ladi. Bunday turdagi qimmatli qog'ozlar Suquq-


		murabaxning xususiyatlarini o'zida aks ettiradi, faqatgina bu yerda to'lov kechiktirilishi kerak.
Agentlik bitimlari	Suquq vakala	Suquq vakala - bu sukuk tuzilishining bir shakli bo'lib, u "vakala" - vakil tushunchasidan kelib chiqadi, ya'ni bir tomon ikkinchi tomonga uning nomidan harakat qilishni ishonib topshiradigan tartibni anglatadi. Suquq vakala agentlik shartnomasiga juda o'xshaydi, unda Prinsipial (investor) va agent (menejer) mavjud. Prinsipial (investor) kapitalning nomidan mablag'larni investitsiyalar yoki aktivlar jamg'armasiga investitsiya qilish uchun agentni (vakalani) tayinlaydi va vakala o'z tajribasini beradi va foyda olish uchun ma'lum vaqt davomida ushbu investitsiyalarni boshqaradi.
Sheriklik bitimlari	Suquq ishtirok etish qimmatli qog'ozlar (suquq al mudoraba/musharaka)	muomala muddati avvaldan belgilanib, maxsus moliya kompaniyasi tomonidan islom moliyalashtirish tamoyillariga asosan jalb etilgan mablag'lardan yangi investitsiyaviy loyihani tashkil etish uchun foydalanish, oddiy sherikchilik shartnomasi yoxud aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan sherikchilik tashkiliy-huquqiy shaklidagi yuridik shaxsni tashkil etgan holda mavjud investitsiyaviy loyihani rivojlantirish yoki tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida chiqarilgan qimmatli qog'ozlar;

Qimmatli qog‘ozlar bozori

Har qanday bozor makonini ikki qutubga ajratish mumkin: ulardan birida kapital yetkazib beruvchilar - bo‘sh pul mablag‘lariga ega bo‘lgan va ularni saqlash hamda ko‘paytirishni istovchi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, davlat turadi. Ikkinchisida esa – yangi ishlab chiqarishni boshlash, ishlar, xizmatlar, ko‘rsatish yoki ishlab turgan quvvatlarni zamonaviylashtirish, kengaytirish, qayta ta‘mirlash uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich yoki qo‘shimcha kapitalga muxtoj bo‘lgan bozor subyektlari turadi. Kapital iste‘molchilari sifatida esa korxonalar, tashkilotlar, aholi, shuningdek, davlat ham ishtirok etishi mumkin. Mablag‘larni jalb etish maqsadida kapital iste‘molchilari qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqaradi va ularni sotish natijasida ishlab chiqarish (savdo-sotiq, moliyaviy faoliyat va h.k.) jarayonini amalga oshirish uchun mablag‘ oladi. “Qimmatli qog‘ozlar bozori” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ko‘ra, Qimmatli qog‘ozlar bozori - yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog‘liq munosabatlari tizimidir.

Qimmatli qog‘ozlar bozori uning ishtirokchilarining qimmatli qog‘ozlarni chiqarishi, sotishi va muomalasiga oid iqtisodiy munosabatlar majmui sifatida belgilanishi mumkin. Qimmatli qog‘ozlar bozori har qanday boshqa mahsulot bozoriga o‘xshaydi, lekin u ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular mahsulotning o‘ziga xos jihatlari, shakllanish usuli va muomalasi xususiyati bilan belgilanadi. Qimmatli qog‘ozlar bozori moliya bozorining bir qismidir. Qimmatli qog‘ozlar bozorining asosiy maqsadi ularni investitsiya qilish uchun vaqtincha bo‘sh mablag‘larni to‘plashdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun qimmatli qog‘ozlar bozori ma‘lum umumiy bozor va o‘ziga xos funksiyalarni bajaradi⁵¹.

⁵¹ Рынок ценных бумаг: Учебник / Под ред. V.A. Galanova, A.I. Basova. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: Finansy i statistika, 2006. - 205 s : il.



Qimmatli qog'ozlar bozorlari turlarining tasniflari qimmatli qog'ozlar turlarining tasniflari bilan ko'p o'xshashliklarga ega. Quyidagilarni ajratib ko'rsatiladi:

- xalqaro va milliy qimmatli qog'ozlar bozori;
- milliy va mintaqaviy (hududiy) bozorlar;
- muayyan turdagi qimmatli qog'ozlar bozorlari (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar);
- davlat va korporativ (nodavlat) qimmatli qog'ozlar bozorlari;
- qimmatli qog'ozlar va derivativlar bozorlari va boshqalar.

Qimmatli qog'ozlar bozorining u yoki bu tasnifining ma'nosi uning amaliy ahamiyati bilan belgilanadi. Pul va valyuta bozorlari bilan birgalikda qimmatli qog'ozlar bozori moliya bozori tushunchasiga kiritilgan. Qimmatli qog'ozlar bozori haqidagi adabiyotlarda ko'pincha fond bozori deb nomlanadi. Mamlakatimizda ushbu tushunchalar o'rtasida hali ham aniq farq yo'q. Qimmatli qog'ozlar bozori tushunchasining sinonimi sifatida fond bozori tushunchasi ishlatilganligi bilan bir qatorda, uning mazmunini torroq talqin qilish ham mavjud. Xususan, fond bozori faqat qimmatli qog'ozlar va

korporatsiyalarni qamrab oladi yoki bu odatda fond (kapital) qimmatliklari deb ataladigan qimmatli qog'ozlar bozoridir⁵².

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi qonunchilik. Qimmatli qog'ozlar bozorini huquqiy tartibga solishda eng avvalo O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi fundamental manbadir. Xususan, ushbu kodeksning 96- moddasi Qimmatli qog'ozlar tushunchasi va turlarini ochib beruvchi norma hisoblanadi. Shuningdek, Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi asosiy qonun hujjati sifatida 2015-yil 3-iyunda yangi tahrirda qabul qilingan "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni alohida ahamiyatga ega. Xususan, unda qimmatli qog'ozlarni chiqarish tartibi, qimmatli qog'ozlarni joylashtirish va ularning muomalasi, qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish, qimmatli qog'ozlar bozorida axborotni oshkor qilish, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi va boshqa masalalar o'z ifodasini topgan edi. U bilan tadbirkorlik subyektlarini professional tarzda qimmatli qog'ozlar bozorida shug'ullanish asoslari turli paragraflarda ifodalangan.

Yangi tahrirdagi Qonunga binoan, qimmatli qog'ozlar bozoriga qator yangiliklar joriy qilindi. Xususan, Qonunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-yanvardagi qarori bilan tasdiqlangan 2011–2015-yillar davrida O'zbekiston iqtisodiyotida islohotlar masshtabini kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda tadbirkorlik muhitini shakllantirish bo'yicha mezonlar va baholar tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir chora-tadbirlar dasturida belgilangan investitsiya loyihalariga kapitalni jalb qilish, ishlab chiqarish quvvatini modernizatsiyalash, infratuzilma loyihalarini ro'yobga chiqarish hamda sanoatga investitsiyani oshirish zaruratidan kelib chiqib, qimmatli qog'ozlarning yangi turini — infratuzilmaviy obligatsiyalarni chiqarish ko'zda tutildi. Bu o'z navbatida davlat korxonalari va xo'jalik jamiyatlariga ishlab chiqarish hamda boshqa infratuzilmalarni barpo etish va qayta tiklashni moliyalashtirish uchun pul mablag'larini jalb qilish uchun qulay shart-sharoit yaratishi shubhasiz edi.

⁵² Рынок ценных бумаг: Учебник / Под ред. В.А. Галанова, А.И. Басова. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: Finansy i statistika, 2006. - 205 s : il.

Shu bilan birga, mazkur huquqiy hujjatda investorga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash uchun kafolat fondi tuzilishi belgilangan. Bu yangilik investorlarni investitsiya vositachilari (brokerlar) aybi bilan yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlardan muhofaza etadi. Ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda brokerning aybi bilan yetkazilgan zararni qoplash maqsadida maxsus kafolat fondi tashkil qilingan. Shubhasiz, qonunchilikdagi ushbu yangi norma investorlar uchun qo'shimcha kafolatlar mexanizmini yaratib, investitsiya vositachilarining mas'uliyatini oshiradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi yana bir nechta normativ huquqiy hujjatlar mavjud bo'lib, ularga O'zbekiston Respublikasining, "Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonunlari kiradi. Shuningdek, Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni tartibga solish bo'yicha maxsus Nizomlar qabul qilingan bo'lib, ular jumlasiga Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish Qoidalari, Moliya bozorida reyting agentliklari faoliyatiga qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom, Depozitariy hisobi va hisobot berishning yagona Qoidalari (standarti), Depozitar faoliyat to'xtatilgan va tugatilgan taqdirdagi harakatlar tartibi to'g'risidagi Nizom, Qimmatli qog'ozlar bozorida hisob-kitob-kliring palatalari to'g'risidagi Nizom, Transfer-agent faoliyati to'g'risidagi Nizom, Uyushgan birjadan tashqari bozorda korporativ qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisiga doir bitishuvlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom, Qimmatli qog'ozlar bilan birjadan tashqari bitimlarning hisob registri to'g'risida"gi Nizom va boshqalarni kiritish mumkin.

Qimmatli qog'ozlarni davlat ro'yxatiga olish, muomalaga chiqarish. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi 7 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish va tasdiqlash;

2. qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi (emitent va u chiqaradigan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, investorning qimmatli qog'ozlar olish to'g'risidagi qaroriga ta'sir

ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa axborotni aks ettiruvchi hujjat) ni tasdiqlash (qimmatli qog'ozlar ommaviy joylashtirilgan taqdirda);

3. qimmatli qog'ozlar chiqarishni davlat ro'yxatidan o'tkazish;

4. qimmatli qog'ozlar chiqarishni Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida hisobga olish;

5. qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi axborotni qonun hujjatlari va mazkur Qoidalarda belgilangan tartibda oshkor qilish;

6. chiqarilishdagi qimmatli qog'ozlarni joylashtirish;

7. ro'yxatdan o'tkazuvchi organga qimmatli qog'ozlarni chiqarish natijalari to'g'risida bildirishnoma taqdim etish.

Qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazish jarayoni alohida ahamiyatga ega bo'lib, Qimmatli qog'ozlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgachgina ularni O'zbekiston Respublikasi hududida joylashtirish va muomalasiga ruxsat berilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bu O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi va uning hududiy boshqarmalari hisoblanadi. Xalqaro obligatsiyalardan tashqari barcha qimmatli qog'ozlar qiymati O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi.


Qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar yozma shaklda tuzilishi va ro'yxatdan o'tkazilgachgina haqiqiy sanalishi mumkin. Qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni tuzish va ro'yxatdan o'tkazish elektron shaklda amalga oshiriladi. Bunda ularni yozma ravishda (qog'ozda) rasmiylashtirish talab etilmaydi.

Emitentlar qimmatli qog'ozlarni mustaqil ravishda, shuningdek banklar va investitsiya vositachilari orqali joylashtirishlari mumkin.

Joylashtirilayotgan qimmatli qog'ozlarning soni emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan qimmatli qog'ozlar sonidan ortiq bo'lmasligi kerak.

Depozit sertifikatlarini joylashtirish va ularning muomalasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan, veksellarni joylashtirish va ularning muomalasi esa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari - qimmatli qog'ozlarning emitentlari, qimmatli qog'ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining

professional ishtirokchilari, shuningdek birjalar va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi hisoblanadi.



Qimmatli qog'ozlar emitentlari emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog'ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo'lgan yuridik shaxsdir. Ushbu emitentlarninig ichida eng ishonchli va yirik emitenti bu davlat hisoblanadi. U obligatsiyalar, g'azna majburiyatlarini muamalaga chiqarishi mumkin. davlat qimmatli qog'ozlar emissiyasini Markaziy bank, Moliya vazirligi kabi davlat hokimiyati va bosqaruvining turi idoralari amalga oshirgan vaqtda emitent sifatida qatnashadi.

O'z ahamiyatiga ko'ra aksiyadorlik jamiyatlari ham emitent sifatida aksiyalar, obligatsiyalar va veksellarni ishlab chiqarib muamolaga chiqarishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyatlari ushbu mablag'lardan bevosita o'zining rivojlanishi uchun foydalanish ikmoniga ega bo'ladilar.

Emitentlar ichida investitsiya muassasalari (qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari), jumladan xususiylashtirish investitsiya fondlari (obligatsiyalar va veksellar ishlab chiqaradilar), shuningdek, banklar (aksiya, obligatsiya, depozit va jamg'arma sertifikatlari, vekesellarni muomalaga chiqaradilar) alohida ahamiyat kasb etadilar.

Investor — qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxslardir. Investorlar o'zlarining bo'sh turgan pul mablag'larini dividendlar va foizlar ko'rinishida daromad

olish, qimmatli qogʻozlarni xarid qilish narxi va sotish narxi oʻrtasidagi farq koʻrinishida daromadlar olish, korxonani boshqarish, iqtisodiyotning pul - kredit sohasini tartibga solish maqsadida sarflaydilar.

Qimmatli qogʻozlar bozorining professional ishtirokchisi — qimmatli qogʻozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslardir. Qimmatli qogʻozlar bozorida professional ishtirokchilari Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga koʻra, quyidagi shakllarda professional faoliyatini olib borishi mumkin:

- } investitsiya vositachisi;
- } investitsiya maslahatchisi;
- } investitsiya fondi;
- } investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi;
- } transfer-agent;
- } qimmatli qogʻozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi.

Moliya va yurisprudensiya fanlari olimlarning bu borada fikr va yondashuvlari turli xil boʻlib, 1-guruh olimlarning fikricha professional ishtirokchilar sifatida depozitariy va qimmatli qogʻozlarga boʻlgan huquqlarni hisobga olish va reyestr yuritishni ham kiritishsa, 2-guruh olimlar esa professional faoliyat sifatida faqatgina qimmatli qogʻozlar bozoridagi moliyaviy resurslarni boshqarishda ishtirok etadigan tashkilotlarni tan olishadi va bunda qimmatli qogʻozlar bilan bogʻliq tashkiliy ishlarni amalga oshiruvchi subyektlar professional ishtirokchilar sifatida koʻrilmaydi.

Fond birjasining huquqiy maqomi va faoliyati

Fond birjasi - ommaviy va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan joyda va belgilangan vaqtda oʻrnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda oʻtkazish orqali faqat qimmatli qogʻozlar savdosi uchun sharoitlar yaratib beruvchi yuridik shaxsdir.

Klassik koʻrinishda fond birjasi bu professional ishtirokchilar tomonidan uyushtirilgan, eng yaxshi qimmatli qogʻozlarning doimiy ravishda amal qilib turuvchi ulgurji bozori boʻlib, u savdo sotiqning hamda qimmatli qogʻozlar va brokerlarga savdolarga ruxsat berishning alohida tartib, tamoyillariga egadir.

Klassik fond birjasining asosiy oʻziga xos xususiyati quyidagilardan iborat:

-birjaga faqat muayyan talablarga javob beradigan eng yaxshi qimmatli qog'ozlarga ruxsat etiladi;

- birja savdolariga fond birjasi a'zolarining maxsus muassasasiga aloqador bo'lgan shaxslarga ruxsat etiladi;

-qimmatli qog'ozlar bilan savdolar qilishning muvaqqat tartibi va andozalshtirilgan savdo- sotiq tadbirlarining mavjudligi;

-savdo – sotiqni muayyan joyda markazlashtirish;

-birjaning o'zini-o'zi tartibga solishi, ya'ni birjani boshqarishni birja savdolari ishtirokchilarining o'zlari amalga oshiradi⁵³.

Fond birjasi sarmoya yetkazib beruvchilarning bo'sh turgan pul mablag'larini safarbar qilish va uni qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi orqali investitsiya qilishning eng muhim iqtisodiy vositalaridan biri hisoblanadi. Har qanday taraqqiy etgan mamlakatda u nafaqat qimmatli qog'ozlar bozorida bajarilgan bitimlarning ro'yxatga olinishini, narxlarnig qayd etilishini, sarmoayning bir tarmoqdan boshqasiga qo'yilishini ta'minlovchi muassassa bo'lib, balki butun iqtisodiyot ahvolidning barometri bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida fond birjasi qimmatli qog'ozlar bilan birja faoliyatini yuritish uchun litsenziyaga ega bo'lishi lozim. Fond birjasining muassislari bo'lib qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin⁵⁴.

Fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar quyidagi asosiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

- birja savdolarini o'tkazishning oshkoraligi va ommaviyligi;

- birja savdolarida narxlar shakllanishining erkinligi;

- birja bitimlarini tuzishning ixtiyoriyligi;

- birjaning barcha a'zolari uchun birja savdolarida ishtirok etishda shart-sharoitlarning tengligi;

- tuzilgan birja bitimlari bajarilishining ta'minlanishi.

Fond birjalarining faoliyatini tartibga solish vakolatli organ tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda amalga oshiriladi.

Birja faoliyatini moliyalash o'z aksiyalarini, paylarini, brokerlik joylarini sotish, muntazam a'zolik badallari, birja bitimlarini ro'yxatga

⁵³ Butikov I.L. Qimmatli qog'ozlar bozori. Darslik – Toshkent. Konsauditinform, 2001.-37-bet.

⁵⁴ Butikov I.L. Qimmatli qog'ozlar bozori. Darslik – Toshkent. Konsauditinform, 2001.-37-bet.

olishdan tushgan yigʻimlar, qimmatli qogʻozlar bilan boʻgʻliq operatsiyalarda vositachilik qilganlik uchun vositachilik haqlari, shuningdek axborot va ayrim boshqa xizmatlardan olingan daromadlar xisobidan amalga oshirilishi mumkin⁵⁵.

Investitsiya fondlari. Xususiy investitsiya fondi.

Investitsiya fondi – bu investorlarning pul mablagʻlarini jalb etish va ushbu pul mablagʻlarni investitsiya aktivlariga qoʻyish maqsadida aksiyalar chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir. Investitsiya fondlarining tashkiliy huquqiy shakli aksiyadorlik jamiyati boʻlishi lozim.

Investitsiya fondi tijorat tashkiloti boʻlib, u oʻzining alohida hisobga olinadigan mol-mulkiga, shu jumladan ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega boʻladi. Investitsiya fondini tashkil etishda uning aksiyalari qiymatini toʻlash pul mablagʻlari, qimmatli qogʻozlar, ulushlar, shuningdek koʻchmas mulk va boshqa mol-mulk, mulkiy huquqlar bilan amalga oshiriladi. Bunda uning ustav kapitalining kamida 75 foizi pul shaklida toʻlanishi kerak.

Investitsiya fondi quyidagi turda boʻlishi mumkin:

- oʻzi chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olish majburiyatiga ega boʻlgan investitsiya fondi;
- oʻzi chiqargan aksiyalarni qaytarib sotib olish majburiyatiga ega boʻlmagan investitsiya fondi.

Investitsiya fondining turi uning taʼsis hujjatlarida koʻrsatiladi. Yuridik va jismoniy shaxslar investitsiya fondining muassislari (aksiyadorlari) sifatida ish yuritishi mumkin. Investitsiya fondini davlat roʻyxatidan oʻtkazish Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Investitsiya fondi:

- } faoliyatni litsenziya olmasdan amalga oshirishga;
- } korporativ obligatsiyalar va infratuzilma obligatsiyalari, shuningdek imtiyozli aksiyalar chiqarishga;

⁵⁵ Butikov I.L. Qimmatli qogʻozlar bozori. Darslik – Toshkent. Konsauditinform, 2001.-304-bet.

} investitsiya fondi sof aktivlarining 10 foizidan ortig'ini bir emitentning qimmatli qog'ozlariga yoki mas'uliyati cheklangan jamiyatning ulushiga investitsiya qilishga;

} to'lanishi lozim bo'lgan qarzlarning jami hajmi kredit va (yoki) qarz bitimi imzolangan sanadagi investitsiya fondi sof aktivlari qiymatining 15 foizidan oshib ketgan taqdirda, kredit va (yoki) qarz mablag'larini jalb etishga (bunda kredit va (yoki) qarz muddati uch oydan oshib ketmasligi kerak);

} kafil bo'lishga, mol-mulknini yoki mulkiy huquqlarni garovga qo'yishga;

} tashkiliy-huquqiy shakli o'z ishtirokchilarining qo'shimcha javobgarligini nazarda tutadigan xo'jalik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlariga va ulushlariga investitsiyalarni amalga oshirishga;

} ishonchli boshqaruvchi, auditorlik tashkilotlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni amalga oshirishga, shuningdek ularning ustav kapitalidagi ulushlarini olishga;

} boshqa investitsiya fondlarining aksiyalarini olishga va ularga ega bo'lishga;

} investitsiya faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan bitimlar tuzishga, opsiyonlar yoki fyucherslar olishga;

} umumiy summasi fond sof aktivlarining 10 foizidan ortiq investitsiyalarni amalga oshirishga (bundan qimmatli qog'ozlarga qo'yish mustasno) haqli emas.

Nazorat savollari

1. Qimmatli qog'oz xususiyatlarini sanang
2. Qimmatli qog'ozlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Qimmatli qog'ozlar bozorining qanday xususiyatlari mavjud?
4. Fond birjasi nima? Investitsiya fondichi?
5. Qimmatli qog'ozlarni davlat ro'yxatiga olish, muomalaga chiqarish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibratov B.I. Tadbirkorlik huquqi . – Toshkent: Moliya, 2001. – 218 b.

2. Mualliflar jamoasi. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. Darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.n., dos. X. Azizov – T.: TDYU, 2018. – 316 bet.

3. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi (lotin alifbosida). Mualliflar jamoasi. Otaxonov F.X.ning umumiy tahriri ostida – Toshkent: Adolat, 2007. – 466 b.

4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida". // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 29-30-son, 278-modda; 2009-y., 39-son, 423-modda, 50-51-son, 531-modda.

12- Mavzu. Raqobatning huquqiy ta'minlanishi

1. Raqobat tushunchasi va uning biznesni rivojlantirishdagi roli. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida raqobatning ahamiyati.
2. Raqobatni himoya qilish huquqiy mexanizmi.
3. Insofsiz raqobat tushunchasi va uning huquqiy tartibga solinishi.
4. Insofsiz raqobat usullaridan biri sifatida diskreditatsiya va uning xususiyatlari

Raqobat haqida gap ketganda, monopoliyaning yo‘q bo‘lishi, xizmatlarning sifati va turining yaxshilanishi, iqtisodiyotning o‘shish sur‘atlari, moslashuvchanligi, noyob takliflar va boshqalar kabi tushunchalar namoyon bo‘ladi. Lekin bu kabi tushunchalar bozorda faqat raqobatchilarning mavjudligi bilan o‘z ahamiyatini mustahkamlaydi.

“Raqobat” so‘zi arab tilidan kelib chiquvchi so‘z hisoblanib, arab tilidan lug‘aviy tarjimasi “nazorat, kuzatish” ma’nolarini anglatadi. Umumiy ma’noda raqobat muayyan bir muhitda shaxslar, guruhlar, tashkilotlarning nisbatan axshiroq natijalarga erishish uchun o‘zaro musobaqalashuvini anglatadi⁵⁶.

Raqobat bozor iqtisodiyotining asosiy mexanizmi bo‘lib, u kompaniyalarning o‘z tovarlari va xizmatlarini iste’molchilarga eng qulay arxlarda taklif qilishlarini rag‘batlantiradi⁵⁷.

Iqtisodchi olimlar K.Xoliqov va R.Do‘sanovlarning fikricha, raqobat – iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o‘z ehtiyoj va manfaatlarini maksimal qondirish, yaxshi daromad olish, bozorda o‘z mavqe’ini mustahkamlash, imkoniyatlarini namoyon etish hamda imidjga ega bo‘lish uchun kurashdan iborat jarayondir⁵⁸.

N.Beknozovning ta’kidlashicha, raqobat – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashishidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi

⁵⁶ Azizov X.T., Mualliflar jamoasi. Raqobat huquqi. Darslik. – T.: TDYUU nashriyoti, 2016. 236-bet.

⁵⁷ DG COMP website at http://ec.europa.eu/competition/antitrust/overview_en.html.

⁵⁸ Xoliqov K.O., Do‘sanov R.H. Raqobat: nazariyasi, shakllari va usullari. Ilmiy risola. TermDU. “Moliya” kafedresi, 2009.-6b.

yuqori foyda va ko‘proq naflikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi⁵⁹.

Raqobat tovar oldi-sotdisi, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishda bozor qatnashchilari o‘rtasidagi o‘zaro kurash demakdir. Raqobat tovarlar oldi-sotdisi bilan shug‘ullanuvchilar, ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi hamda ishlar bajaruvchilarni olg‘a intiltiruvchi kuch, bozordagi tovarlar, ishlar va xizmatlarning sifatiga hamda narxiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi mexanizm hisoblanadi.

Raqobat narxlarning pasayishini ta’minlaydi, iste’molchilar uchun tanlov doirasini kengaytiradi, shuningdek samaralilik va yangilikka intiluvchanlikni rag‘batlantiradi⁶⁰.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat quyidagi xususiyatlari bilan ahamiyatli bo‘ladi:

- Raqobat bozorda barqarorlik muhitini yaratadi.

Raqobat o‘zida moslashuvchanlikni, maxsulot turini kengaytirishni, mijozlar uchun kurashni aks ettiradi. Shu xususiyatlari bilan erkin raqobat bozorda barqarorlik muhitini yaratadi. Tasavvur qiling, birida monopoliya hukmronlik qiladigan, ikkinchisida esa erkin raqobat mavjud bo‘lgan ikki bozor mavjud. Monopol subyekt bozor talabiga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘zi faoliyat yuritayotgan sohani boshqasiga o‘zgartirdi, natijada bozorning ehtiyojlarini ta’minlayotgan xizmat yoki mahsulot ishlab chiqarish to‘xtaydi. Bu holatda bozor yagona ishlab chiqaruvchini yoki xizmat ko‘rsatuvchini yo‘qotish orqali tovar yoki xizmatlar bozorni yo‘q bo‘lishiga olib keladi. Erkin raqobat mavjud bo‘lgan joyda raqobatchi subyekt o‘z faoliyatini to‘xtatsa yoki faoliyat yo‘nilishini o‘zgartirsa ko‘pi bilan ishlab chiqarish pasayishi mumkin. Hatto har bir ishlab chiqaruvchi doimiy quvvat zaxirasiga ega bo‘lganligi uchun ham bozorda hech narsa o‘zgarmasligi ham mumkin.

- Raqobat bozorning ishlab chiqarish quvvati zaxiralarini ko‘paytiradi.

Bozor quvvati zaxirasi - bu ma’lum bir bozordagi mahsulotga kundalik talabdan farqli ravishda shu mahsulotga ertaga talab oshsa necha foiz qo‘shimcha maxsulot ishlab chiqara olishidir. Ya’ni, agar xaridor ertaga bugungidan tamomila farqlanuvchi mahsulotga ko‘proq

⁵⁹ Beknozov N. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Mas’ul muharrirlar: I.f.d.prof. J.T.Ro‘ziyev. - T., 2005.–170-b.

⁶⁰ Moritz Lorenz. An introduction to EU competition law. Cambridge University Press, 2013, page 1.

miqdorda talab bilan chiqsa, monopoliya mavjud bo'lgan bozorda bunga imkon bo'lmashligi tabiiy. Chunki, raqobatning mavjudligi mijoz talabining qat'iy barqarorligi yo'qligidan dalolat beradi. Bu degani bugun bozorda ikkita talab bo'lsa ertaga shu talab beshtaga oshishi mumkin. Shuning uchun har bir raqobatchi, agar kerak bo'lsa, imkon qadar ko'proq mijozlarning ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli miqdorda mahsulot zaxirasini saqlashi kerak.

Shuningdek, raqobatchilar hech qachon ishlab chiqarish quvvatining zaxirasini kamaytirmaydi. Hamma bir xil narsani bir xil miqdorda xohlaydigan monopoliya mavjud bo'lgan bozorda esa mahsulot zahirasi ehtiyoj bo'lmashligi aniq. Raqobat mavjud bo'lgan bozorda esa xaridorlarning yoki mijozlarning qat'iy taqsimoti mavjud bo'lmaganligi tufayli ham doimo ishlab chiqarish quvvati zaxirasini saqlashga harakat qilinadi.

- Raqobat bo'lmasa bozor ham bo'lmaydi.

Bozorda agar barcha mahsulotlar va ular bilan bog'liq bitimlar bitta ishlab chiqaruvchi bilan bog'liq bo'lsa, unda takliflar nuqtai nazaridan butun bozor ushbu ishlab chiqaruvchiga to'liq bog'liqdir. Lekin, bozor nafaqat taklif, balki talab bilan ham bog'liq, ya'ni bozorda mahsulotga qiziquvchilar bo'lmasa, u holda bozor ham bo'lmaydi.

Agar bitta ishlab chiqaruvchi uzoq muddatli muammolarga duch kelsa, bozor darhol qulab tusha boshlaydi, chunki odamlar o'z talablarini bajarish uchun shunchaki boshqa bozorni izlashlari lozim bo'ladi. Yoki mijoz yagona ishlab chiqaruvchining muammolari sabab o'z talabini o'zgartirishi ham mumkin.

Yuqoridagi nuqtai nazarlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, monopoliya sharoitida bozor butunlay ishlab chiqaruvchining ideal holatiga bog'liq bo'lib, har qanday muammolar bozorning to'liq yo'q qilinishigacha olib kelish mumkin.

Insafsiz raqobat tushunchasi va uning huquqiy tartibga solinishi. Bugungi kunda iqtisodiyot shu darajada rivojlanib bormoqdaki, iste'molchining har qanday talabi va ehtiyojiga javob berishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar soni kun sayin ortib bormoqda. Shu jihatdan, tovar bozorida o'z xaridoriga yetarlicha ega bo'lgan tadbirkorning mahsulot yoki xizmatining xaridorga ma'lum bo'lgan alohida belgilaridan foydalanib tovar bozorida o'z o'rnini topolmayotgan

raqobatchi tomonidan noqonuniy foydalanish orqali o'z mahsulotini o'tkazish va oqibatda iste'molchi tomonidan noto'g'ri tanlovni amalga oshirishi xolatlari ko'plab uchrab turadi. Bu esa o'z navbatida insofsiz raqobatning paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Raqobat to'g'risidagi qonuniga ko'ra insofsiz raqobat taqiqlanadi va u raqobatga salbiy ta'sir ko'rsatadigan hamda mahsulot bozorlaridagi raqobatni cheklashga qaratilgan faoliyat shakllaridan biri deb hisoblanadi.

Insofsiz raqobat deganda xo'jalik yurituvchi subyektlarning (shaxslar guruhining) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ustunliklarni olishga qaratilgan, qonun hujjatlari, ishbilarmonlik urf-odatlariga, halollik, oqilona va adolat talablariga zid bo'lgan yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga, ya'ni raqobatchilarga yoki ularning ishbilarmonlik obro'siga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday harakatlari tushuniladi.

2012-yil 6-yanvardagi "Raqobat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 2-bobida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektga zarar keltirishi yoki uning ishchanlik obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan noto'g'ri taqqoslashlar, chalkashliklarni keltirib chiqarish, obro'sizlantirish, tovarning xususiyati, ishlab chiqarilish usuli va joyi, iste'mol xossalari, narxi, sifati, ishlab chiqaruvchining (bajaruvchining) kafolat majburiyatlari xususida iste'molchilarni chalg'itish kabi insofsiz raqobat shakllari sanab o'tilgan.

Shuningdek, insofsiz raqobatni tartibga solish xususiyati shundan iboratki, bunda harakatlar intellektual mulk huquqining obektlari bilan ham bevosita bog'liq. Bu borada insofsiz raqobatning qaysi hollarda raqobat huquqi va qaysi hollarda intellektual mulk huquqi bilan tartibga solinishini ajratish huquqshunoslar uchun muhimdir.

Intellektual mulk huquqi obyektlarining huquqiy maqomi intellektual mulk huquqi bilan belgilansa, ulardan qonunga hilof ravishda foydalanish bilan bog'liq munosabatlar raqobat huquqi bilan tartibga solinadi. Masalan, tovar belgisini qalbakilashtirish, tijorat siri egasining roziligisiz foydalanish yoki uni oshkor etish shular jumlasidandir. Bunday harakatlarning tartibga solish doirasi kengayganligi uchun ham hozirgi kunga kelib, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda (masalan Germaniyada) insofsiz raqobatga oid munosabatlar maxsus

“Insofsiz raqobat to‘g‘risida”gi Qonun (“Unfair competition law”) bilan tartibga solinadi⁶¹.

Insofsiz raqobat deb bilish uchun quyidagi xususiyatlar mavjud bo‘lishi lozim:

- harakatlar raqobatdosh xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan sodir etilgan bo‘lishi;

- harakatlarni tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda foyda olishga yo‘naltirilishi;

- xo‘jalik yurituvchi subyekt harakatlarining O‘zbekiston qonunchiligiga, ishbilarmonlik odatlariga, halollik, oqilonalik va adolat talablariga zidligi;

- boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektga - raqobatchiga zarar yetkazish yoki uning ishbilarmonlik obro‘sigga zarar etkazish ehtimoli to‘g‘risida dalillarni taqdim etilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra insofsiz raqobat tushunchasi xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo‘lishga qaratilgan, qonun hujjatlariga, ish muomalasi odatlariga zid bo‘lgan hamda boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan yoxud ularning ishchanlik obro‘sigga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo‘lgan harakatlarini nazarda tutadi. Insofsiz raqobat masalalari 1883-yilda qabul qilingan “Sanoat mulkini himoya qilish bo‘yicha” Parij konvetsiyasida ham tartibga solingan. Ushbu konvensiya iqtisodiy sohalarni tartibga solishdagi xalqaro kelishuvlardan biri hisoblanib, ushbu kelishuv sanoat mulki masalalari, savdo markalari, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar va xizmat ko‘rsatish belgilari, firma nomlari bilan bir qatorda insofsiz raqobat masalalarini ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Konvensiyaga ko‘ra insofsiz raqobat tushunchasi ostida raqobatchining korxonasi, mahsulotlari yoki sanoat yoki tijorat faoliyati bilan bog‘liq ravishda biron bir tarzda chalkashlikka olib kelishi mumkin bo‘lgan barcha harakatlar, biznes jarayonida raqobatchini, mahsulotni yoki sanoat yoki tijorat faoliyatini obro‘sizlantirishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri ma’lumotlar, tovarni ishlab chiqarish usuli,

⁶¹ Azizov X.T., Mualliflar jamoasi. Raqobat huquqi. Darslik. – T.: TDYUU nashriyoti, 2016. 236-bet.

xususiyati, ishlatishga yaroqliligi to'g'risidagi ommani adashtirishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalar, ma'lumotlar tushuniladi. Demak, tovarning asl xususiyatlarini ochib berish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni noto'g'ri tarzda iste'molchiga yetkazish orqali insofsiz raqobatga yo'l qo'yilishi mumkinligi keltirib o'tilgan.

Bugungi kunda insofsiz raqobat doirasi yanada kengayib, AQSH va Yaponiya davlatlarida "Unfair Trade Practices" ("Insofsiz savdo amaliyoti") deb yuritilmoqda. Amaliyot deganda, turli usullar tushunilib, uning doirasiga O'zbekiston qonunchiligida sanab o'tilgan harakatlardan tashqari "iqtisodiy boykot" ("boycott"), "tovarni iste'molchiga majburlab sotish" ("unreasonable coercion of consumers"), "mutlaq dillerlik kelishuvi" ("exclusive dealing agreement") kabi harakatlar kiritilgan⁶².

Hozirgi amaliyotda insofsiz raqobatning bir belgisi sifatida raqobatchilar munosabatlarida diskreditatsiya xolati ko'p uchraydi. Ammo amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida insofsiz raqobat tushunchasiga juda umumiy ta'rif berilgan bo'lib, hozirgi zamon amaliyoti bu ta'rifda ko'rsatilgan usullarga aniq va tushunarli sharh berilishini talab etadi. Ya'ni, diskreditatsiya – ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlar mexanizmi va xarakteri ko'rsatilmagan.

Diskreditatsiya so'zi fransuzcha "ishonchga putur yetkazish" ma'nosini anglatib tadbirkorlik subyekting obro'si, nufuzi va unga bo'lgan ishonchni yo'qotishga qaratilgan qasddan qilingan harakatni anglatadi⁶³.

Raqobat huquqi nazariyasida "raqobatchi diskreditatsiyasi" iborasi keng qo'llaniladi. Raqobatchilar diskreditatsiyasi insofsiz raqobat usullaridan biri xisoblanib xo'jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik obro'siga ziyon yetkazish maqsadida bila turib yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni bosma yoki boshqa shaklda nashr etilgan matnda yoki ommaviy axborot vositalarida tarqatish hisoblanadi⁶⁴.

⁶² Azizov X.T., Mualliflar jamoasi. Raqobat huquqi. Darslik. – T.: TDYUU nashriyoti, 2016. 236-bet.

Azizov X.T., Mualliflar jamoasi. Raqobat huquqi. Darslik. – T.: TDYUU nashriyoti, 2016. 236-bet.

⁶³ Rayzberg B.A. Sovremennyy ekonomicheskyy slovar – M.: INFRA – M, 2017. 108- bet.

⁶⁴ Suxarev A. Ya., Krutskiy V.Ye. Bolshoy yuridicheskyy slovar. M.: INFRA – M, 2003. 108- bet

Diskreditatsiya odatda raqobatchiga nisbatan tijorat reputatsiyasiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday yolg'on tasdiq sifatida belgilanadi. Insofsiz raqobatning Adashtirish (misleading) usuli kabi, diskreditatsiyada ham mijozlarni noto'g'ri ma'lumotlar bilan aldashga harakat qilinadi. Ammo, Adashtirish (misleading)dan farqli o'laroq, bu ixtiyoriy shaxsning mahsuloti to'g'risida yolg'on yoki chalg'itadigan ma'lumot berilishi emas, balki raqobatlashuvchining raqobatchiga nisbatan, uning mahsulotlari yoki xizmatlariga nisbatan yolg'on ko'rsatmalar ("untruthful aspersions") berish orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun diskreditatsiya har doim ham ma'lum bir tadbirkorga yoki muayyan toifadagi tadbirkorlarga to'g'ridan-to'g'ri hujum qilishni maqsad qilishi lozim. Ammo uning oqibatlari ushbu maqsaddan tashqarida bo'ladi (ushbu maqsaddan ham oshib ketishi mumkin), chunki raqobatchi yoki uning mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlar noto'g'ri bo'lganligi sababli iste'molchi ham zarar ko'rish kerak⁶⁵.

Diskreditatsiya masalalari 1883-yilda qabul qilingan "Sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha" Parij konvetsiyasida ham tartibga solingan. Konvensiyada insofsiz raqobatning belgisi sifatida diskreditatsiya, ya'ni mahsulotni, sanoat yoki tijorat faoliyatini obro'sizlantirishi mumkin bo'lgan noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish ta'qiqlangan.

Rossiya federatsiyasining "Raqobatni himoya qilish to'g'risida"gi 2016-yil 5-yanvardagi Federal qonunida insofsiz raqobat tushunasi kengroq tushuntirilgan bo'lib, qonunning 14.1 modda "diskreditatsiya yo'li bilan insofsiz raqobatni amalga oshirishga qaratilgan ta'qiq" deb nomlanadi.

Ushbu normada diskreditatsiya yo'li bilan xo'jalik yurituvchi subyektga zarar yetkazish va (yoki) uning ishchanlik obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan noto'g'ri, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatish kabi diskreditatsiya yo'li orqali insofsiz raqobatga yo'l qo'yilmasligi ko'rsatib o'tilgan⁶⁶. Shuningdek, quyidagi

⁶⁵ WIPO Intellectual Property Handbook: Policy, Law and Use [WIPO publication](#) WIPO, 2004 148-bet

⁶⁶ Federalniy zakon ot 26.07.2006 N 135-Φ3 (red. ot 27.12.2019) «O zashite konkurensii»

<http://www.consultant.ru/cons/cgi/online.cgi?req=doc&base=LAW&n=342023&fld=134&dst=753,0&rnd=0.6920216187748132#014001142718921034>

munosabatlarda diskreditatsiya orqali insofsiz raqobatga yo‘l qo‘yilmasligi ko‘rsatib o‘tilgan:

1) raqobatdosh boshqa tadbirkorlik subyektini tomonidan sotuvga taklif etilayotgan tovarlarning sifati va iste‘mol xususiyatlari, bunday mahsulotning maqsadi, uni ishlab chiqarish yoki ishlatish usullari hamda shartlari, shu mahsulotdan foydalanish natijasida kutilayotgan natijalar, ma‘lum maqsadlarga yaroqliligi;

2) raqobatdosh boshqa tadbirkorlik subyektini tomonidan sotuvga qo‘yiladigan tovarlarning soni, bunday tovarlarning bozorda mavjudligi, ularni ma‘lum shartlarda sotib olish imkoniyati, ana shu tovarlarga bo‘lgan talabning haqiqiy miqdori;

3) boshqa raqobatdosh xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan tovarlarni sotish uchun taklif qilinadigan shartlar, xususan tovarlar narxi⁶⁷.

Germaniya Respublikasining 2010-yil 3-martda qabul qilingan “Insofsiz raqobatga qarshi kurash to‘g‘risida”gi (Gesetz gegen den unlauteren Wettbewerb, UWG) qonuni iste‘molchilar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, insofsiz raqobatni cheklashga oid qoidalar hamda yuridik ma‘lumotga ega bo‘lmagan shaxslar uchun qoidalarining shaffofligini keng ta‘minlash, biznes uchun erkinlik berish maqsadida qabul qilingan. Qonuning 3- bobi yettinchi qismida shaxsning o‘z raqobatchisining farqlanib turadigan jihatlari (distinguishing marks)ni, tovari, xizmati, faoliyati yoki shaxsiy yoxud ishga bog‘liq xolatiga (business circumstances) nisbatan diskreditatsiyalash va haqorat qilish insofsiz raqobat⁶⁸ sanalishi keltirib o‘tilgan.

Amerika qo‘shma shtatlarining 1946-yil 5-iyulda qabul qilingan Lanham qonuni Raqobat munosabatlarini tartibga soluvchi Federal qonun hisoblanib, ushbu qonun tovar va xizmat belgilari qoidalarining buzilishi (trademark infringement), savdo belgilari rejimining susayishi (trademark dilution), va noto‘g‘ri reklama kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Qonunning 43-bobiga ko‘ra mahsulotning kelib chiqishi xaqida yolg‘on ko‘rsatmalar, yolg‘on tafsif berish mumkin

⁶⁷ Federalniy zakon ot 26.07.2006 N 135-Φ3 (red. ot 27.12.2019) «O zashite konkurensii»

<http://www.consultant.ru/cons/cgi/online.cgi?req=doc&base=LAW&n=342023&fld=134&dst=753,0&rnd=0.6920216187748132#014001142718921034>

⁶⁸ The new German Act Against unfair competition <https://germanlawarchive.iuscomp.org/?p=822>

emas. (False designations of origin, false descriptions, and dilution forbidden)

Diskreditatsiya xolatini insofsiz raqobat sifatida belgilash uchun quyidagi shartlar mavjud bo'lishi shart:

- harakat ma'lumotni tarqatish ko'rinishiga ega bo'lishi kerak;
- ma'lumot yolg'on, noaniq bo'lishi lozim;
- ma'lumot buzilgan bo'lishi lozim;
- raqobatchining tijorat faoliyatiga noxush oqibat keltirish orqali zarar yetkazilgan bo'lishi kerak.

“Ma'lumotni tarqatilishi” deganda uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lishiga olib keladigan har qanday xatti harakatlar tushuniladi. Bu holda ma'lumotni tarqatish shakli muhim emas. Ma'lumot ommaviy axborot vositalarida ommaviy nutq tarzida, intervyu shaklida yoki ishga doir xatlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Noto'g'ri ma'lumotni tarqatishga qarshi bo'lgan normalar milliy qonunchiligimizda keng ifodalangan.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 100-moddasiga ko'ra Fuqaro o'zining sha'ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan, basharti bunday ma'lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo'li bilan raddiya talab qilishga haqli.

Bunda putur yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatish deb bunday ma'lumotlarni keng jamoatchilikka, bir necha yoki hech bo'lmaganda bitta odamga oshkor qilinishi tushuniladi. Xabar berish ommaviy yoki xususiy tarzda, yozma yoki og'zaki shaklda, ommaviy axborot vositalaridan foydalanilgan holda, shuningdek tasviriy usulda (rasm, fotomontaj) amalga oshirilishi mumkin⁶⁹.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi qonunining 6- moddasida Ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'sini tahqirlash, shaxsiy hayotiga aralashish taqiqlanadi.

Ushbu norma ham o'z navbatida diskreditatsiyani qoralaydi va shaxs qadr-qimmatini va sha'nini yoki ishchanlik obro'sini tahqirlaydigan ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali tarqatishni ta'qiqlaydi.

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: «Vektor-Press», 2010.–Professional (malakali) sharxlar). 283-bet.

1992-yil 19-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sud amaliyotida fuqaro va tashkilotlarning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘cini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo‘llash to‘g‘risida”gi 5-sonli qarorining 8-bandida esa yuridik yoki jismoniy shaxslarning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘cini pastga uruvchi ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida, xizmat ta’rifnomalarida, ko‘pchilik oldida so‘zlaganda, mansabdor shaxslar nomiga yozilgan arizalarda yoki boshqa, shu jumladan og‘zaki bo‘lsa ham bir necha shaxsga yoxud bir kishiga xabar qilish tushuniladi.

Ammo, O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunida yolg‘on ma’lumotni tarqatishning mexanizmlari, ya’ni, ma’lumot qanday ko‘rinishda tarqatilishi aniq ko‘rstilmagan. Ushbu xolatni tartibga soluvchi boshqa normalarda esa ushbu masalaga tor doirada yondashilinadi.

Ma’lumotning tarqatilish mexanizmi sifatida tarqatilayotgan ma’lumotning bosma usul orqali, audio yoki video yozuvlar orqali, radio yoki teledasturlar orqali, kinoxronika, nutq so‘zlash va ariza berish va axborot telekommunikatsiya tizim orqali tarqatilishini nazarda tutish mumkin⁷⁰.

Shuningdek, ma’lumotni diskreditatsiya deb topish uchun uning xarakteri yolg‘on, noaniq va buzilgan deb ataluvchi baholash xarakteriga ega bo‘lishi ham darkor. Yolg‘on ma’lumot sifatida to‘liq yoki qisman haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan qasddan buzilgan ma’lumot tushuniladi. Aniq bo‘lmagan ma’lumot sifatida esa qisman haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, ammo uni tarqatgan shaxsning fikrlariga mos keladigan ma’lumotlar tushuniladi. Buzilgan ma’lumot sifatida aslida mutlaqo noto‘g‘ri bo‘lgan, ammo ularni tarqatuvchi odamning tushunchalariga mos keladigan ma’lumotlar tushuniladi⁷¹.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, diskreditatsiya xolati yuzaga kelishi uchun asos sifatida buzilgan ma’lumot va zarar yetkazish qasdi tushunilishi lozim.

⁷⁰ Gorodov O.A. Pryamaya diskreditatsiya konkurenta kak vid nedobrosovetnoy konkurensiya. Pravila konkurensiya Jurnal. 2010/1 (19). Str 31.

⁷¹ Gorodov O.A. Pryamaya diskreditatsiya konkurenta kak vid nedobrosovetnoy konkurensiya. Pravila konkurensiya Jurnal. 2010/1 (19). Str 33.

Raqobatchi tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektga bo‘lgan ishonch darajasini pasaytiradigan, ammo ishonchli bo‘lgan ma‘lumotni tarqatish insofsiz raqobat xisoblanmaydi⁷².

Diskreditatsiya xolatida subyekt masalasi baxsli masala xisoblanib ayrimlar subyekt sifatida faqatgina raqobatchilarni nazarda tutsa, boshqalar har qanday shaxs diskreditatsiya xolatini yuzaga keltirishi mumkin deb fikr bildiradi.

Bu bo‘yicha milliy qonunchilikka nazar solsak, O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunining 13-moddasiga ko‘ra xo‘jalik yurituvchi subyektning tovarini xolisona tasdiqqa ega bo‘lgan tavsiflarni yoki taqqoslash parametrlarini ko‘rsatmagan holda tovarning ustunligi haqida taassurot hosil qiluvchi so‘zlardan yoki belgilardan foydalanish orqali boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektning (raqobatchining) o‘zga tovari bilan taqqoslash yoxud ko‘rsatilgan so‘zlarni yoki belgilarni o‘z ichiga olgan tasdiqlar yolg‘on, noaniq bo‘lgan yoki buzib ko‘rsatilgan hollar noto‘g‘ri taqqoslashdir, deb keltirilgan. Demak, insofsiz raqobatning belgisi sifatida yolg‘on, noaniq bo‘lgan yoki buzib ko‘rsatilgan ma‘lumotlar orqali diskreditatsiya xolati sodir etilishida ikki taraf ham xo‘jalik yurituvchi subyekt – raqobatchi bo‘lishi talab etilishi qonunchilikda keltirilgan.

Shuningdek, ba‘zi g‘arb mutaxassislarining fikriga ko‘ra ham, diskreditatsiya orqali “hujum” qilgan odam raqib bo‘lishi nazarda tutiladi. Aksariyat davlatlar insofsiz raqobat to‘g‘risidagi qonunni da‘vogar va javobgar o‘rtasida hech bo‘lmaganda biron bir raqobat munosabatlari mavjud bo‘lgan holatlarda nomutanosiblikdan himoya qiladi.

Ammo ba‘zi mamlakatlarda raqobat munosabatlari talabidan butunlay voz kechildi va bu diskreditatsiya tushunchasining ancha kengayishiga olib keldi. Bunda nafaqat raqobatchilar, balki iste‘molchilar uyushmalari yoki ommaviy axborot vositalari ham yakka tartibdagi tadbirkor to‘g‘risida obro‘sizlantiradigan bayonotlar bergan taqdirda insofsiz raqobat to‘g‘risidagi qonunga binoan javobgar bo‘ladilar⁷³.

Demak, nafaqat raqobatchi balki, o‘zga shaxslar ham diskreditatsiya xolatini sodir etishi va bu orqali insofsiz raqobatga yo‘l qo‘yishi

⁷² Tatyana Ponomareva. Diskreditatsiya kak instrument v konkurentnoy borbe. “Novaya buxgalteriya” №08 2017.

⁷³ WIPO Intellectual Property Handbook: Policy, Law and Use [WIPO publication](#) WIPO, 2004 148-bet.

mumkinligi ayon bo‘ladi. Bu jihatdan o‘zga shaxslar xo‘jalik yurituvchi shaxsning ishchanlik obro‘sigga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo‘lgan harakatlarni sodir etishda raqobatlashuvchi taraflardan biriga yon bosishi, ularni qo‘llab quvvatlab turadigan taraf sifatida tushuniladi.

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va raqobat huquqi nazariyasi va amaliyoti insofsiz raqobat sifatida diskreditatsiya xolati subyektlari doirasini kengaytirishlari milliy qonunchilikka ham shunday taklif berilishni taqozo etadi.

Diskreditatsiya obykti sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- bu tovarlarning o‘zi (ularning sifati, iste‘mol xususiyatlari, ishlab chiqarish yoki foydalanish usullari va tayorlash va qo‘llash shartlari, foydalanishdan kutilayotgan natijalar, ma‘lum maqsadlar uchun yaroqlilik);

- mahsulot sotiladigan tovar bozorining holati (sotuvga taklif etilayotgan tovarlar miqdori, bozorda tovarlar mavjudligi, ularni ma‘lum shartlarda sotib olish imkoniyati, bunday tovarlarga bo‘lgan talabning haqiqiy hajmi);

- tovarlarni sotish shartlari (narx va boshqalar)⁷⁴.

Darhaqiqat, diskreditatsiya raqobatchining tovariga nisbatan, aynan uning maxsuloti sotiladigan tovar bozorining holatiga va tovarlarni sotish shartlariga nisbatan amalga oshirilsa bu xolat insofsiz raqobat deb tushunilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga ko‘ra, Raqobatchini obro‘sizlantirish, ya‘ni bosma yoki boshqacha usulda ko‘paytirilgan matnlarda yoki ommaviy axborot vositalari orqali xo‘jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazish maqsadida bila turib yolg‘on, noaniq yoki buzib ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni tarqatish — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi keltirilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta‘kidlash mumkinki, insofsiz raqobatning belgisi sifatida diskreditatsiya xolatida tadbirkorning, uning maxsulot yoki xizmatining, firmasining obro‘sigga ziyon

⁷⁴ Tatyana Ponomareva. Diskreditatsiya kak instrument v konkurentnoy borbe. "Novaya buxgalteriya" №08 2017

yetkazish maqsadi mavjud bo'lishi kerak. Shuningdek, diskreditatsion ma'lumot raqobatchining faoliyatiga nisbatan chin haqiqatni ifodalamasligi, buzib ko'rsatilganlik hususiyatlariga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga diskreditatsiya xolati raqobatchi va unga hayrixox shaxslar tomonidan sodir obro'sizlantirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga jiddiy zarar yetkazishi lozim.

Nazariy savollar

1. Insofsiz raqobat tushunchasi va uning huquqiy tabiati.
2. Insofsiz raqobatga olib keluvchi holatlar qaysilar?
3. Insofsiz raqobatni huquqiy baholang.
4. Diskreditatsiyaning insofsiz raqobat sifatida xususiyatlarini sanang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibratov B.I. Tadbirkorlik huquqi . – Toshkent: Moliya, 2001. – 218 b.
2. Mualliflar jamoasi. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. Darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.n., dos. X. Azizov – T.: TDYU, 2018. – 316 bet.
3. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi (lotin alifbosida). Mualliflar jamoasi. Otaxonov F.X.ning umumiy tahriri ostida – Toshkent: Adolat, 2007. – 466 b.
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Raqobat to'g'risida" O'RQ-319, 06.01.2012 // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.–2012. 1-son 5-modda.

13- mavzu: Tovar va moliya bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash.

1. Tovar va moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini e’tirof etish. . Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ustun mavqeni suiiste’mol qilishi.

2. Raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va ularning umumiy tavsifi

3. Monopoliyaga qarshi kurash organlari.

4. Tabiiy monopoliyalarning huquqiy tartibga solinishi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ustun mavqega ega bo‘lishning o‘zi monopolistik faoliyat deb hisoblanmaydi. Monopolistik faoliyat bo‘lishi uchun, albatta, xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘zining ustunlik mavqeini suiiste’mol qilishi kerak. O‘z mavqeini suiiste’mol qilish xo‘jalik yurituvchi subyektning raqobatni cheklash yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarida namoyon bo‘ladi⁷⁵.

Ustun mavqe’ nima? Uning qanday xususiyatlari mavjud O‘zbekiston Respublikasining Raqobat to‘g‘risidagi qonuniga ko‘ra Ustun mavqe - tovar yoki moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoxud shaxslar guruhining raqobatlashuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga bog‘liq bo‘lmagan holda unga o‘z faoliyatini amalga oshirish va raqobatning holatiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatish, tegishli bozorga boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoxud ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini boshqacha tarzda cheklash imkoniyatini beradigan holatidir.

Tovar bozorida qaysi xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi tovarining ulushi quyidagicha bo‘lsa mana shu xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining mavqei ustun mavqe deb hisoblanadi.

} ellik va undan ortiq foizni tashkil etsa;

} o‘ttiz besh foizdan ellik foizgacha hajmda bo‘lib, bunda quyidagi shartlar:

⁷⁵ Azizov X.T., Mualliflar jamoasi. Raqobat huquqi. Darslik. – T.: TDYUU nashriyoti, 2016. 236-bet.

- xo‘jalik yurituvchi subyektning tovar bozoridagi ulushi kamida bir yil mobaynida, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining tovar bozorida 35-50 foiz doirasida bo‘lgan ulushi bir yil va undan ortiq muddat mobaynida barqaror bo‘lib turishi;

- tovar bozorida boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) tegishli ulushlarning nisbiy miqdorda bo‘lib turishi, ya’ni bozorda 20 foizdan ortiq tovarlar ulushi bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining yo‘qligi;

- ushbu bozorga yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning (raqobatchilarning) kirishiga imkoniyat bo‘lishi shartlari belgilangan bo‘lsa.

Tovar va moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini e’tirof etish tovar va moliya bozori chegaralari doirasida, uning joylashgan va davlat ro‘yxatidan o‘tgan joyidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi hamda uning hududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tovar va moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyi mavjudligini aniqlash quyidagi izchillikda amalga oshiriladi:

- tovarlar va moliyaviy xizmatlarning bir-birining o‘rnini bosishini hisobga olgan holda tovar yoki moliya bozori chegaralarini aniqlash;

- xo‘jalik yurituvchi subyektning va(yoki) shaxslar guruhining bozor ulushini aniqlash;

- tovar va moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini e’tirof etish.

Yuqorida qayd etilganidek, faoliyatni monopolistik deb e’tirof etish uchun unda ustun mavqeni suiste’mol qilinish holati uchrashi lozim.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning pirovard natijada raqobatni cheklashga va (yoki) iste’molchilarning, boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va manfaatlarini kamsitishga olib keladigan taqiqlangan harakatlari, shu jumladan quyidagi harakatlari tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni suiste’mol qilish deb e’tirof etiladi.

muomalada bo‘lgan tovarlarning hajmini tovar yoki moliya bozorida taqchillikni keltirib chiqarish yoki saqlab turish maqsadida narxlarning oshishiga olib keladigan tarzda qisqartirishi;

} tovarning monopol yuqori yoki monopol past narxlarini belgilashi;

} shartnoma predmetiga taalluqli bo'lmagan shartlarni, shu jumladan moliyaviy mablag'larni, boshqa mol-mulkni, mulkiy huquqlarni o'zga shaxsga o'tkazishga doir asossiz talablarni, shuningdek raqobatning cheklanishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan boshqa harakatlarni sodir etish talablarini majburan qabul qildirishi;

} shartnomaga kamsituvchi shartlarni kiritishi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar (raqobatchilar) tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarni olishini yoki realizatsiya qilishini taqiqlashi yoxud cheklashi;

} kontragent tomonidan boshqa tovarlarni olish yoki realizatsiya qilish yoxud kontragentning tovarlarni o'zga xo'jalik yurituvchi subyektlardan olishdan yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga realizatsiya qilishdan o'zini tiyishi sharti bilangina shartnoma tuzishga rozilik berishi;

} tegishli tovarni ishlab chiqarish yoki realizatsiya qilish imkoniyati bo'la turib, shartnoma tuzishdan asossiz ravishda bosh tortishi;

} tovar yoki moliya bozoriga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishiga to'siqlar qo'yishi.

Raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va ularning umumiy tavsifi

Ma'lumki, monopoliyaga qarshi samarali tartibotlarni o'rnatish hamda monopolistik faoliyatni cheklash va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilib borish, tovar va moliya bozorlarida raqobat muhitini rivojlantirish, raqobatning cheklanishiga yo'l qo'yimaslik, tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozorlarida birinchi navbatda ichki iste'mol bozorida va reklama sohasida insofsiz raqobatga chek qo'yish chora-tadbirlarini amalga oshirish bozor tamoyillariga asoslangan iqtisodiyot rivojining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Ushbu yo'nalishlarda kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirish bozorlarda raqobat muhitini shakllantirish, biznesni bozor iqtisodiyoti tamoyillarini buzmaydigan tarzda tashkil etish, bozorlarda vujudga

keladigan nomutanosibliklarni bartaraf etish, tezkor ta'sir o'tkazishning bilvosita tartibga solish usullari orqali iqtisodiyotda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirishga imkon beradi.

Buning uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlari va bitimlari, raqobatga qarshi xatti-harakatlarni, narxlar va tariflarni tartibga solish, ularning asossiz ravishda o'sishi yoki kamayishini aniqlash, mahsulotlarni birja savdolariga qo'yish to'g'risida qaror qabul qilish, tanlov (tender) va birja savdolarini o'tkazishda amaldagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatish kabi chora-tadbirlarning o'rnini nihoyatda muhimdir⁷⁶.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiliga ko'ra Tovar yoki moliya bozorida o'zaro raqobatlashayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan potensial raqobatchilar bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi kelishib olingan harakatlar va kelishuvlar, agar bunday kelishib olingan harakatlar va kelishuvlar:

 | sun'iy ravishda narxlar, tariflar, chegirmalar, ustamalar, qo'shimcha to'lovlarni yoki ustama narxlarni belgilashga yoki saqlab turishga;

 | narxlarni sun'iy ravishda oshirgan yoki pasaytirgan holda erkin bozor narxlarining qaror topishiga to'sqinlik qilishga;

 | ishlab chiqarish ustidan, mahsulot sotish bozorlari va kapital qo'yilmalar ustidan nazorat o'rnatishga;

 | taklif hajmini sun'iy ravishda o'zgartirish maqsadida ishlab chiqarish hajmlarini kelishib olishga;

 | shartnoma predmetiga taalluqli bo'lmagan shartlarni, shu jumladan moliyaviy mablag'larni, boshqa mol-mulkni, mulkiy huquqlarni o'zga shaxsga o'tkazishga doir asossiz talablarni, shuningdek raqobatni cheklovchi boshqa harakatlarni sodir etish talablarini majburan qabul qildirishga;

 | auksionlarda, birjalarda va boshqa savdolarida narxlarni oshirishga, pasaytirishga yoki saqlab turishga;

 | shartnomaga kamsituvchi shartlarni kiritishga;

 | tegishli bozorni hududiy prinsip bo'yicha, realizatsiya qilish yoki xaridlar hajmi bo'yicha, tovarlarning xillari bo'yicha yoxud

⁷⁶ Azizov X.T., Mualliflar jamoasi. Raqobat huquqi. Darslik. – T.: TDYUU nashriyoti, 2016. 236-bet.

tovarlarni sotuvchilar yoki sotib oluvchilar, tovar buyurtmachilari doirasi bo'yicha bo'lib olishga;

↳ boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning tegishli tovarlarni sotuvchilar yoki sotib oluvchilar, tovar buyurtmachilari sifatida bozorga kirishini cheklashga yoki ularni bozordan chetlashtirishga yoxud xo'jalik yurituvchi subyektlarni muayyan tovarlar bozoriga qo'ymaslikka;

↳ tovarlarni ishlab chiqarishni iqtisodiy yoki texnologik jihatdan asossiz ravishda kamaytirishga va (yoki) to'xtatishga;

↳ muayyan sotuvchilar yoki xaridorlar (buyurtmachilar) bilan shartnomalar tuzishdan asossiz ravishda bosh tortishga olib kelsa yoki olib kelishi mumkin bo'lsa, taqiqlanadi.

Biri tovar bozorida ustun mavqeni egallab turgan, boshqasi esa sotuvchi yoki sotib oluvchi bo'lgan, o'zaro raqobatlashmayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning kelishib olingan harakatlari va kelishuvlariga, agar bunday kelishib olingan harakatlar va kelishuvlar pirovard natijada raqobatni cheklab qo'ysa yoxud cheklab qo'yishi mumkin bo'lsa, shu jumladan:

- sotuvchining yoki sotib oluvchining hududni yoki sotib oluvchilar doirasini tovarni keyinchalik qayta sotish maqsadida mustaqil belgilashini cheklaydigan;

- tovarlarni qayta sotish uchun narxlarga cheklovlar belgilaydigan;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarga boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarni realizatsiya qilishni taqiqlaydigan kelishib olingan harakatlari va kelishuvlariga yo'l qo'yilmaydi.

Monopoliyaga qarshi kurash organlari.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida raqobatni rivojlantirish va uni himoya qilish masalasiga davlat siyosati darajasidagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaraldi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mahsuli sifatida bozor iqtisodiyotining samarali harakatlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan iqtisodiy raqobatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan institutsional asoslar, shart-sharoitlar yaratildi. Shu bilan birga

davlatning raqobat siyosatini amalga oshirish vakolati berilgan monopoliyaga qarshi davlat organi ham institutsional tarafdin mustahkamlanib bordi.

O‘zbekistonda raqobat siyosati izchillik bilan olib borilayotgan bo‘lib, mustaqillik yillaridanoq bu borada huquqiy islohotlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, 1992-yil 2-iyulda “Monopolistik faoliyatni cheklash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi va bu orqali O‘zbekistonda raqobat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish boshlandi. 1992-yil O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tarkibida Monopoliyaga qarshi va narx siyosati Bosh boshqarmasi tashkil etildi. Keyinchalik, 1996-yil O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo‘mitasi tashkil etildi. 2000-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq monopoliyaga qarshi organ Moliya vazirligi tarkibidan chiqarildi, unga davlat qo‘mitasi maqomi berilib, respublikada monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish vakolati berildi. 2005-yil raqobat, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq monopoliyaga qarshi organ qayta tashkil etildi va unga yangi vakolatlar berildi. 2010-yil monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solishni yanada kuchaytirish va sog‘lom raqobat muhini yaratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga muvofiq monopoliyaga qarshi organ qayta tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi №PF-5630-sonli “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-yanvardagi №PQ-4126-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tuzildi va unga monopoliyaga qarshi kurashni tartibga solish, raqobat muhitini rivojlantirish, tabiiy monopoliya subyektlari faoliyati ustidan nazorat olib borish, iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish, reklama bozorini tartibga solish va tovar-homashyo birjalarini litsenziyalash kabi vazifa, funktsiya va vakolatlar berildi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko‘ra Monopoliyaga qarshi organ quyidagi vakolatlarga ega:

- tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

- xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining tovar yoki moliya bozorida ustun mavqei mavjudligini aniqlaydi;

- Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestrini yuritadi;

- raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan, shu jumladan tanlov (tender) va birja savdolarini o‘tkazishda qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishlarini aniqlaydi, ular bo‘yicha ishlar qo‘zg‘atadi va ularni ko‘rib chiqadi;

- raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik haqidagi ish yuzasidan, shu jumladan xo‘jalik yurituvchi subyektlardan raqobatga qarshi harakatlar natijasida asossiz ravishda olingan daromadni (foydani) olib qo‘yish haqida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaror qabul qiladi;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xo‘jalik yurituvchi subyektlarga, davlat boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, shuningdek ularning mansabdor shaxslariga raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish hollarini bartaraf etish to‘g‘risida ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar beradi;

- raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarni, davlat boshqaruvi organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, ularning mansabdor shaxslarini va boshqa jismoniy shaxslarni tegishli javobgarlikka tortadi;

- litsenziyalashni joriy etish yoki bekor qilish to‘g‘risida, bojxona tariflarini o‘zgartirish to‘g‘risida, kvotalarni joriy etish yoki bekor qilish haqida, shuningdek soliq hamda boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha imtiyozlar berish, imtiyozli kreditlar berish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning boshqa turlarini tatbiq etish yoxud ularni bekor qilish to‘g‘risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

- raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi bilan bog'liq jinoyat alomatlari bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atish haqidagi masalani hal qilish uchun materiallarni tegishli organlarga yuboradi;

- raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarining qo'llanilishi va buzilishi bilan bog'liq ishlarning sudda ko'rib chiqilishida ishtirok etadi;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshirishlar o'tkazadi;

- raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining reyestrini yuritadi va e'lon qiladi;

- raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarining qo'llanilishi masalalari yuzasidan o'z vakolatlari doirasida tushuntirishlar beradi.

Monopoliyaga qarshi organ quyidagi shaklda raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi haqidagi arizalar bilan sudga murojaat qilish vakolati mavjud:

 } davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va yuridik shaxslar birlashmalarining raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga butunlay yoki qisman muvofiq bo'lmagan hujjatlarini va harakatlarini haqiqiy emas deb topish haqidagi;

 } raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan bitimlarni (shartnomalarni) o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi;

 } raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan bitimlarni (shartnomalarni) butunlay yoki qisman haqiqiy emas deb topish haqidagi;

 } raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi natijasida olingan daromadni (foydani) belgilangan tartibda undirish haqidagi;

 } xo'jalik yurituvchi subyektlarni majburiy tarzda bo'lish yoki ajratib chiqarish to'g'risidagi;

 } raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarga nisbatan huquqiy ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash haqidagi;

 } Monopoliyaga qarshi organ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Tabiiy monopoliyalarning huquqiy tartibga solinishi. Raqobat iqtisodiyotning rivojida muhim ahamiyatga ega, lekin iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida ham raqobat muhitini yaratish mushkul. Raqobat muhitida rentabellik jihatidan samarali ishlay olmaydigan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar mavjud. Shu bilan birga, o‘z mahsulotlarini boshqalarga almashtirishning imkoni yo‘q. Bozordagi bunday holatlar tabiiy monopoliya holatini nazarda tutadi va ular uchun maxsus huquqiy tartibga solish ta‘minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra Tabiiy monopoliya bu tovar bozorining holati bo‘lib, unda texnologik xususiyatlar tufayli muayyan tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlariga bo‘lgan talabni qondirishning raqobatli sharoitlarini yaratish mumkin emas yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.

Muxtasar qilib aytganda, tabiiy monopoliya subyekti sifatida tan olinishi uchun quyidagi ikkita talabga javob berishi kerak:

1) texnologik xususiyatlar tufayli sohada raqobat muhitini yaratishning ilojisi yo‘q;

2) sohada bitta xo‘jalik subyektidan ko‘p faoliyat olib borilishi iqtisodiy jihatdan samarasiz⁷⁷.

O‘zbekiston Respublikasining “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra Tabiiy monopoliya subyektlarining faoliyati quyidagi sohalarda davlat tomonidan tartibga solinadi:

- neft, neft mahsulotlari va gazni quvur orqali transportirovka qilish;

- elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish hamda transportirovka qilish;

- temir yo‘llar infratuzilmasidan foydalanish hisobga olingan holda temir yo‘llarda tashish;

- umumiy erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlari;

- suv quvurlari va kanalizatsiya xizmati;

- aeronavigatsiyalar, portlar va aeroportlar xizmatlari;

Quyidagilar tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga soluvchi organlardir:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

⁷⁷ Xusain Radjapov. Tabiiy monopoliyalar sohasida raqobatni shakllantirishning huquqiy asoslari. //Review of law sciences.– 2020. – T. 3. – №. Spesvypusk.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organlar Tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini tartibga solish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

- narxlarni (tariflarni) yoki ularning eng yuqori (eng past) darajasini belgilash (o‘rnatish) vositasida narxlarni tartibga solish;
- xizmat ko‘rsatilishi shart bo‘lgan iste‘molchilarni aniqlash va (yoki) ularni tabiiy monopoliya subyektlari realizatsiya qiladigan tovar bilan to‘liq hajmda qondirishning imkoni bo‘lmagan taqdirda, ta‘minlashning eng kam darajasini belgilash.

Bugungi kunda iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida iqtisodiyotning eng muhim sohalari egallagan tabiiy monopoliyalar faoliyatidagi jiddiy kamchiliklar iqtisodiyotni jadal o‘shishiga salbiy tasiri tufayli ham ularning faoliyatini qisqartirishni taqozo qilmoqda. Chunki, tabiiy monopoliya hisoblangan sohalardagi tovar va xizmatlar narxlari ustidan davlat nazorati amalga oshiriladi (“Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonun, 5-modda). Bunda davlat ijtimoiy sabablarga ko‘ra narxlarni oshirishni istamaganligi sababli tabiiy monopoliya korxonalarining tovar va xizmatlar narxlarini asosan xarajatlar asosida belgilaydi. Bunda odatda korxonalarining jihozlari eskirishi kabi faktorlar xarajatlar smetasiga kiritilmaydi. Shu sababli, tabiiy monopoliya korxonalarida o‘z xarajatlarini kamaytirish yoki daromadini oshirish haqida o‘ylash stimuli deyarli yo‘q desa ham bo‘ladi. Natijada, yurtimizda tabiiy monopoliya korxonalarining jihozlari eskirishi sababli xizmat sifati pasayib, modernizatsiya jarayoni oqsamoqda⁷⁸.

Tabiiy monopoliyalar sohasidagi xorijiy tajribalarida ham tabiiy monopol subyektlarni qisman saqlab qolish orqali xususiy korxonalarining bozorga kirishiga imkon yaratish iqtisodiyotning yaxshilanishiga katta hissa qo‘shishi tabiiy.

Nazorat savollari

1. Tovar va moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini e‘tirof etish shartlarini sanang.

⁷⁸ Xusain Radjapov. Tabiiy monopoliyalar sohasida raqobatni shakllantirishning huquqiy asoslari. //Review of law sciences.– 2020. – T. 3. – №. Spesvypusk.

2. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ustun mavqeni suiiste’mol qilishi oqibatlarini tushuntiring.
3. Raqobatni cheklaydigan kelishib olingan harakatlar va ularning umumiy tavsifi nimalardan iborat?
4. Monopoliyaga qarshi kurash organlari vakolatlarini sanang.
5. Tabiiy monopoliyalarning huquqiy tartibga solinishi qanday amalga oshiriladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibratov B.I. Tadbirkorlik huquqi . – Toshkent: Moliya, 2001. – 218 b.
2. Mualliflar jamoasi. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. Darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.n., dos. X. Azizov – T.: TDYU, 2018. – 316 bet.
3. Xo‘jalik (tadbirkorlik) huquqi (lotin alifbosida). Mualliflar jamoasi. Otaxonov F.X.ning umumiy tahriri ostida – Toshkent: Adolat, 2007. – 466 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Raqobat to‘g‘risida” O‘RQ-319, 06.01.2012 // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.–2012. 1-son 5-modda.

14-mavzu. Biznes faoliyatida yuridik xizmat

Reja:

1. Yuridik xizmat to'g'risidagi qonunchilikning rivojlanishi.
2. Yuridik xizmatning huquqiy holati.
3. Yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

1. Yuridik xizmat to'g'risidagi qonunchilikning rivojlanishi

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqiy himoya tizimini yana bir bo'g'ini – bu xo'jalik yurituvchi subyektlar yuridik xizmat bo'linmalari hisoblanadi. Ayniqsa xo'jalik shartnomalari tuzishda yuridik xizmat bo'linmalari faol ishtirok etadi. Agar biznes subyekti o'z yuridik xizmatiga ega bo'lmasa (masalan, yakka tadbirkor, fermer xo'jaligi va h.k.), u holda ular haq evaziga yuridik xizmat ko'rsatish shartnomalari orqali advokatlar xizmatidan foydalanishlari shart ("Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasi).

Har bir xo'jalik yurituvchi subyektning o'z yuridik xizmati bo'lishi uning huquqiy himoyasini tashkiliy ta'minlovchi kafolat hisoblanadi. Yuridik xizmat bo'linmalari xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining barcha yo'nalishlarida va sanalarida, barcha bosqichlar uzluksiz va doimiy ravishda, birinchidan, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini qonuniyligini, o'z manfaatlariga mosligini ta'minlasa, ikkinchidan, boshqa har qanday subyektlarni xatti-harakatlari uning qonuniy huquq va manfaatlariga xilof bo'lmasligini kuzatib boradi va zarur hollarda tegishli huquqiy himoyani tashkil etadi.

Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 24-avgustdagi "Xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati to'g'risida"gi 182-son qaroriga 2-ilova qabul qilingan nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etiladigan xo'jalik boshqaruvi organlari hamda davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari yuridik xizmati faoliyatiga qo'yiladigan talablarni, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

Hozirgi kunda davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati xodimlari lavozimiga majburiy tartibda Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda tayinlanadi va ozod qilinadi. Bundan tashqari, adliya organlariga yuridik xizmat faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik talablarini buzgan davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlariga nisbatan intizomiy ish yuritishni qoʻzgʻatish tashabbusi bilan chiqish huquqi berildi.

Huquqshunoslar yordamiga boʻlgan talabning ortib borayotgani mazkur sohani yanada takomillashtirishga zarurat yaratdi. Jumladan, mamlakatimizda bu borada tub islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimizning 2016-yil 21-oktyabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmonida davlat organlarida yuridik xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish vazifasi qoʻyildi. Davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan 2017-yil 19-yanvardagi “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaror bu borada muhim qadam boʻldi. Jamiyatda adolat barqarorligi hamda qonun ustuvorligini taʼminlash bosh tamoyil hisoblanadi. Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda esa yuridik xizmatning oʻrni beqiyos, albatta. Yuridik xizmat xodimlarining qonunbuzilish holatlarining oldini olish hamda ular boʻyicha oʻz vaqtida choralar koʻrish uchun yetarli va taʼsirchan vakolatlarga ega emasliklari sababli ularning faoliyati kutilgan samarani bermadi.

Qaror bilan endilikda shunday tartib oʻrnatildiki, unga koʻra davlat organlari va tashkilotlarida, shu jumladan, ularning hududiy tuzilmalarida Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan minimal meʼyor va mezonlarga asosan majburiy tartibda yuridik xizmatlar tashkil etiladi. Mazkur xizmatning shtat birliklari qisqartirilishiga esa aslo yoʻl qoʻyilmaydi. Qarorda yuridik xizmatlarning vazifalar doirasi kengaytirildi. Yaʼni, yuridik xizmatlarga mazkur organlar va tashkilotlar ishtirokida vujudga keladigan nizolarni sudgacha hal etish yuzasidan majburiy tartibda choralar koʻrish vazifasi yuklatildi. Xuddi shunday, buyruqlar, farmoyishlar, shartnomalar va yuridik xususiyatga ega boʻlgan boshqa hujjatlarning loyihalari huquqiy ekspertizani amalga oshirish uchun majburiy tartibda yuridik xizmatga taqdim etilishining belgilanishi ham aynan qonun buzilish holatlarining oldini

olishga qaratilgan tartibdir. Bundan tashqari, davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga ta'sir etadigan qarorlari yuzasidan majburiy tartibda yuridik xizmatning xulosasi olinishi ham mustahkamlab qo'yildi. Qaror bilan yuridik xizmatga yana bir muhim vazifa yuklatildi. Ya'ni, davlat organlari va tashkilotlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakati yoki harakatsizligi yuzasidan berilgan shikoyatlar majburiy tartibda davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari tomonidan ham ko'rib chiqilishi tartibi belgilandi.



Yuridik xizmatga qo'yilayotgan bunday mas'uliyatli vazifalarning to'laqonli bajarilishi qonun ustuvorligi ta'minlanishiga xizmat qiladi. Adliya vazirligi yuridik xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish va metodik ta'minlash, xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va malakasini oshirish bo'yicha maxsus vakolatli organ etib belgilandi. Adliya vazirligi tizimida yuridik xizmat xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga metodik yordam ko'rsatish bo'yicha alohida mustaqil bo'linma mavjud emas edi. Ushbu vazifa vazirlik markaziy apparati boshqarmalaridan biriga qo'shimcha vazifa sifatida belgilangan edi. Qarorga asosan Adliya vazirligi tizimida Yuridik xizmatlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va metodik ta'minlash boshqarmasi va uning joylardagi sho'balari tashkil etildi. Xulosa qilib aytganda, qarorda belgilangan barcha tadbirlarning yagona maqsadi — davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonuniylikni yanada mustahkamlash, demokratik va huquqiy islohotlarni amalga oshirishda yuridik xizmatlarning roli va javobgarligini kuchaytirish orqali biznes subyektlari va fuqarolarning qonuniy huquqlari hamda manfaatlarini ishonchli himoya qilishdan iboratdir.

Yuriskonsult lavozimida faoliyat yuritayotgan shaxs bilimli, dunyoqarashi keng, zamon bilan hamnafas, qonun ustuvorligini

ta'minlaydigan mutaxassis bo'lishi kerak. Mazkur qarorning muhim jihatlardan biri ham shundaki, unda bir tomondan yuridik xizmatning mavqei va manfaatdorligini oshirish hamda ijtimoiy himoyasini kuchaytirish belgilansa, ikkinchi tomondan ularning qonuniylikni ta'minlash bo'yicha vazifalar doirasi kengaytirildi, mas'uliyat va javobgarligi ham kuchaytirildi. Shu bois ham mazkur qaror yuridik sohani, yuristlarga bo'lgan ishonch va e'tiborni, qolaversa, yuridik xizmatni yangi bosqichga olib chiqadigan muhim hujjat. Endilikda yuridik xizmat xodimlariga ham adliya organlari xodimlariga belgilangan martaba darajalari beriladigan hamda ko'p yillik xizmatlari uchun ustamalarni to'lash tartibi tatbiq etiladigan bo'ldi. Qaror ijrosi doirasida 2017-yil 28-fevralda adliya vazirining davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlarini martaba darajalari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida buyrug'i qabul qilindi.

Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat xodimlariga 1-darajali adliya maslahatchisi, 2-darajali adliya maslahatchisi, 3-darajali adliya maslahatchisi, 1-darajali yurist, 2-darajali yurist, 3-darajali yurist kabi maxsus unvon-martaba darajalari beriladi. Yuridik xizmat xodimlariga martaba darajalari berish ijobiy attestatsiya, malakasi va ish stajiga muvofiq, egallab turgan lavozimini, oldingi ish yoki xizmat joyida berilgan maxsus unvonlarni, shuningdek, qonunchilikni mustahkamlash, aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish sohasidagi xizmatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Tartibga ko'ra, martaba darajalari respublika darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimlariga davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining yuridik xizmati xodimlariga tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining tavsiyalari bo'yicha, shuningdek, o'z tashabbusiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri tomonidan beriladi. Martaba darajalarini berish uchun davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari tomonidan tegishliligiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki uning hududiy boshqarmalariga taqdimnoma bilan murojaat etiladi. Yuridik xizmati xodimlarining maxsus unvon-martaba darajalariga tavsiya etilgan nomzodlar O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug'iga asosan

tuziladigan Yuridik xizmat xodimlarini martaba darajalari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish komissiyasi tomonidan attestatsiyadan o'tkaziladi. Maxsus unvon-martaba darajalari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish yuridik xizmat xodimining navbatdagi attestatsiyadan o'tishi deb hisoblanmaydi hamda attestatsiyadan o'tish muddatining uzaytirilishiga asos bo'lmaydi. Yuridik xizmat xodimlariga maxsus unvon-martaba darajalarini berish O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi hamda ushbu buyruq tegishli davlat organlari va tashkilotlariga yuboriladi. Eng asosiysi, xodim boshqa davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga ishga o'tganda ham yuridik xizmat xodimi sifatidagi mehnat staji martaba darajalari va ko'p yillik xizmat ustamalarini to'lash uchun mo'ljallangan mehnat staji hisobiga olinadi. Yuqoridagi kafolatlar endilikda malakali, yosh mutaxassislarda ham mazkur sohaga qiziqishni orttirib, o'z navbatida, sohaga kadrlarni tanlab olish imkoniyatini yaratadi. Bu esa, albatta, soha faoliyati sifat darajasining oshishiga imkoniyat yaratadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda zamon o'zgarishiga qarab qonunchilik ham takomillashib bormoqda. Bir yil davomida o'nlab qonun hujjatlari qabul qilindi. Ularni doimiy o'rganib borish, mazmun-mohiyatini o'zlashtirish yuridik xizmat xodimidan, avvalambor, lavozimga birinchi marotaba tayinlangan shaxslardan doimiy ravishda o'z ustida ishlashni va malakasini oshirib borishni talab etadi. Shundan kelib chiqib, bugungi kunga qadar amalda bo'lib kelgan besh yillik muddat yuridik xizmat xodimining malakasini oshirish va attestatsiyadan o'tishi uzoq davr deb topildi va endilikda ushbu muddatni ham besh yildan uch yilga qisqartirish belgilandi. Endilikda yuridik xizmat xodimi lavozimiga birinchi marta tayinlangan shaxslar o'z kasbiy bilimlari, o'quv va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash va shakllantirish, shuningdek, ishning o'ziga xosligi, tayinlanayotgan lavozimi bo'yicha funksional vazifalarini sifatli bajarishi uchun ilg'or tajribani egallab olishini ta'minlash maqsadida belgilangan tartibda adliya organlarida ikki haftalik muddatda stajirovkadan o'tadi. Bunda stajirovka respublika darajasidagi davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari yuridik xizmati xodimlari uchun — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida, hududiy davlat organlari

va tashkilotlari, shuningdek, tumanlar va shaharlar hokimliklari yuridik xizmati xodimlari uchun — tegishli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarida o‘taladi.

Davlat organlari va tashkilotlari rahbari yuridik xizmat xodimi lavozimiga birinchi marta tayinlangan shaxsni stajirovkadan o‘tkazishni so‘rab, xodim belgilangan tartibda lavozimga tayinlangan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida tegishli adliya organiga murojaat etadi. Stajyor stajirovkadan o‘tish vaqtida yuridik xizmat xodimining funksional vazifalari va ularni bajarishda bilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar, norma ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyoti, normativ-huquqiy hujjatlarning turkumlashtirilgan hisobini yuritish, shartnomaviy-huquqiy va da‘vo ishlarni yuritish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatini o‘rganishi lozim.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 13-aprelda “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Darhaqiqat, ushbu qarorda belgilab berilgan barcha tadbirlarning asosiy maqsadi ham davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonuniylikni yanada mustahkamlash, demokratik va huquqiy islohotlarni amalga oshirishda yuridik xizmatlarning roli va javobgarligini kuchaytirish orqali biznes subyektlari va fuqarolarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini ishonchli himoya qilishdan iborat. Chunki yuridik xizmatlarning tubdan takomillashayotganligi ularning samarali faoliyat yuritishiga, yurtimizda qonun ustuvorligi izchil ta‘minlanishiga xizmat qiladi.

2. Yuridik xizmatning huquqiy holati

Tadbirkorlar o‘rtasidagi o‘zaro huquqiy munosabatlardagi nizolarning kelib chiqishiga yana bir muhim omil xususiy sektorning shartnomaviy-huquqiy munosabatlariga oid qonun hujjatlarining davr talabiga javob bermayotganligi, yuridik xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida yaxlit tizimli huquqiy asosning mavjud emasligida namoyon bo‘ladi.

Yuridik xizmat — davlat organi va tashkiloti faoliyatini huquqiy ta'minlash maqsadida qonunchilikda belgilangan me'yor va mezonlarga muvofiq majburiy tartibda tashkil etiladigan yoki joriy qilinadigan mustaqil tarkibiy tuzilma yoxud lavozim. Yuridik xizmat bevosita davlat organi va tashkilotining rahbariga bo'ysunadi. Yuridik xizmat yuridik departament, yuridik boshqarma, yuridik bo'lim, yuridik byuro shaklida tashkil qilinishi yoxud bitta shtatdan iborat bosh yuriskonsult, yetakchi yuriskonsult, katta yuriskonsult yoki yuriskonsultdan iborat bo'lishi mumkin. Yuridik xizmatning mavjud shtat birliklarini qisqartirishga va ularni davlat organi va tashkilotining boshqa tarkibiy tuzilmalariga qayta taqsimlashga yo'l qo'yilmaydi.

Yuridik xizmat o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, "Davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to'g'risida"gi nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Yuridik xizmat xodimi yoxud yuriskonsult lavozimida oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan yoki Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazida yuridik mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan va belgilangan namunadagi diplomni olgan shaxs ishlashi mumkin. Yuridik xizmat boshligi lavozimiga oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan yoxud Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish markazida yuridik mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan va belgilangan namunadagi diplomni olgan, shuningdek, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lgan shaxs tayinlanadi.

Yuridik xizmat xodimi lavozimiga birinchi marta tayinlangan shaxslar belgilangan tartibda adliya organlarida stajirovkadan o'tadilar. Adliya organlarida stajirovkadan o'tish tartibi O'zbekiston Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi. Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek respublika darajasidagi davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati xodimlari lavozimga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda tayinlanadilar va

ozod qilinadilar. Tumanlar va shaharlar hokimliklari, shuningdek hududiy darajadagi davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati xodimlari lavozimga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari bilan kelishilgan holda tayinlanadilar va ozod qilinadilar. Yuridik xizmat xodimini lavozimga tayinlash va ozod qilish masalalarini adliya organlari bilan kelishish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat organi va tashkilotida yuriskonsult yordamchisi lavozimi joriy etilishi mumkin. Yuriskonsult yordamchisi lavozimida oliy yoki o‘rta maxsus yuridik ma‘lumotga ega bo‘lgan yoxud Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo‘yicha professional o‘qitish markazida yuridik mutaxassislik bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan va belgilangan namunadagi diplomni olgan shaxs, shuningdek, oliy ta‘lim muassasasining “Yurisprudensiya” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan bakalavriat bosqichining bitiruvchi kursi talabasi yoki magistranti ishlashi mumkin. namunadagi diplomni olgan shaxs ishlashi mumkin. Yuridik xizmat boshligi lavozimiga oliy yuridik ma‘lumotga ega bo‘lgan yoxud Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo‘yicha professional o‘qitish markazida yuridik mutaxassislik bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan va belgilangan namunadagi diplomni olgan, shuningdek, yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lgan shaxs tayinlanadi.

Yuridik xizmat xodimi lavozimiga birinchi marta tayinlangan shaxslar belgilangan tartibda adliya organlarida stajirovkadan o‘tadilar. Adliya organlarida stajirovkadan o‘tish tartibi O‘zbekiston Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi. Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek respublika darajasidagi davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati xodimlari lavozimga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda tayinlanadilar va ozod qilinadilar. Tumanlar va shaharlar hokimliklari, shuningdek hududiy darajadagi davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmati xodimlari lavozimga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari bilan kelishilgan holda tayinlanadilar va ozod qilinadilar. Yuridik xizmat xodimini

lavozimga tayinlash va ozod qilish masalalarini adliya organlari bilan kelishish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat organi va tashkilotida yuriskonsult yordamchisi lavozimi joriy etilishi mumkin. Yuriskonsult yordamchisi lavozimida oliy yoki o‘rta maxsus yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan yoxud Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo‘yicha professional o‘qitish markazida yuridik mutaxassislik bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan va belgilangan namuna-dagi diplomni olgan shaxs, shuningdek, oliy ta’lim muassasasining “Yurisprudensiya” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan bakalavriat bosqichining bitiruvchi kursi talabasi yoki magistranti ishlashi mumkin.

Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar yuridik xizmat xodimi va yuriskonsult yordamchisi lavozimida ishlashi mumkin emas. Davlat organi va tashkilotining yuridik xizmati xodimlariga martaba darajalari beriladi hamda ko‘p yillik xizmat uchun qo‘shimcha to‘lov va ustamalar qonunchilikda belgilangan tartibda to‘lanadi.

Davlat organi va tashkiloti yuridik xizmatining xodimi sifatidagi mehnat staji boshqa davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlariga o‘tganda martaba darajalari va ko‘p yillik xizmat uchun qo‘shimcha to‘lov va ustamalarni to‘lash uchun mo‘ljallangan mehnat staji hisobiga olinadi. Davlat organi va tashkiloti yuridik xizmatlari xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda har uch yilda kamida bir marta malakasini oshiradi hamda har uch yilda bir marta attestatsiyadan o‘tadilar. Davlat organlari va tashkilotlarida har yili mazkur davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikka rioya etilishi ahvoli to‘g‘risidagi yuridik xizmatning hisoboti eshitiladi.

3. Yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari Quyidagilar yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

tashkilotning huquqni qo‘llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta’minlashni tashkil etish;

-tashkilot tomonidan ishlab chiqilayotgan (qabul qilinayotgan) normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni olib borish;

-tashkilotning qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash masalalarida ularning tuzilmalari ishini muvofiqlashtirish;

-tashkilot xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va ahamiyatini, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazishda ishtirok etish;

-shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, tashkilotning mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash.

Yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) tashkilotning huquqni qo'llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlashni tashkil etish sohasida:

-tashkilotda, shuningdek tegishli tuzilmalarda qonun buzilishlarini, ularning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritadi, ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

-tashkilot rahbariyatiga taqdim qilinadigan buyruqlar, farmoyishlar, shartnomalar va yuridik tusdagi boshqa hujjatlar loyihalarini ularning qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazadi hamda ular bo'yicha e'tiroz va takliflar bo'lmasa, viza qo'yadi. Bunda loyihalarga yuridik xizmat tomonidan tashkilotning boshqa tarkibiy tuzilmalaridan (xodimlaridan) keyin viza qo'yiladi; jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga ta'sir etadigan tashkilotlarning qarorlari yuzasidan xulosalar beradi;

-mustaqil ravishda yoki boshqa tuzilmalar bilan birgalikda tashkilotning buyruqlari, farmoyishlari, shartnomalari va yuridik tusdagi boshqa hujjatlarini ishlab chiqish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ularni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida takliflar tayyorlaydi;

tashkilotda, shuningdek tegishli tuzilmalarda huquqni qo'llash amaliyotini o'rganadi, tahlil qiladi va umumlashtiradi, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va rahbariyatga kiritadi;

-tashkilotning boshqa tuzilmalari bilan birgalikda davlat organi, tegishli tuzilmalar va ularning mansabdor shaxslari faoliyatida

qonuniylikning buzilishi ko'rsatilgan arizalar, takliflar va shikoyatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi;

tashkilotda boshqaruv tizimini takomillashtirishda ishtirok etadi;

-tashkilotda mehnat haqidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlashda, shu jumladan mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni (mehnat shartnomasi, jamoa shartnomasi, jamoa bitimi va boshqalarni) ishlab chiqishda ishtirok etadi, ushbu hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligini tekshiradi va huquqiy xulosa beradi;

-tashkilot rahbariyatiga tashkilot faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta'minlash ahvoli yuzasidan hisobot taqdim etadi;

-tashkilot xodimlarining kasaba uyushmalari va boshqa vakillik organlariga vakolatlarini amalga oshirishda yuridik yordam ko'rsatadi;

2) tashkilot tomonidan ishlab chiqilayotgan (qabul qilinayotgan) normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni olib borish, shuningdek tashkilotning qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash masalalarida uning tuzilmalari ishini muvofiqlashtirish sohasida:

-tashkilotning norma ijodkorligi faoliyatining joriy va istiqbolli rejalarini ishlab chiqadi yoki ularning ishlab chiqilishida, amalga oshirilishi va bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etadi;

-tashkilot vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi yoxud ishlab chiqishda ishtirok etadi;

-tashkilotning huquqiy hujjatlarini ishlab chiqadi yoxud ularni ishlab chiqishda hamda huquqiy ekspertizadan o'tkazish va ro'yxatiga olishda ishtirok etadi;

ekspertizadan o'tkazish yoki kelishish uchun taqdim etilgan hujjatlar loyihalarini mustaqil yoki boshqa tuzilmalar bilan birgalikda huquqiy ekspertizadan o'tkazadi, ularning qonunchilikka, qonunchilik texnikasi qoidalariga, havola qiluvchi normalar qo'llanilishining asosliliigi va maqsadga muvofiqligi, shuningdek ularda korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillarning mavjud emasligi yuzasidan huquqiy xulosalar tayyorlaydi;

-hujjatlar loyihalari bo'yicha e'tiroz va takliflar bo'lmasa, ularga viza qo'yadi. Bunda loyihalarga yuridik xizmat tomonidan

tashkilotning boshqa tarkibiy tuzilmalaridan (xodimlaridan) keyin viza qo'yiladi;

-tizimli ravishda tashkilotning tegishli soha faoliyatidagi amaldagi hujjatlarning ularda korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillarni aniqlashga qaratilgan tahlilni o'tkazadi;

-tashkilot faoliyati sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

-tashkilotga kelib tushgan va o'zi tomonidan chiqarilgan hujjatlar, shu jumladan normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilgan hisobini belgilangan talablarga muvofiq yuritadi, ularning saqlanishini va nazorat holatida bo'lishini ta'minlaydi;

tashkilotning normativ-huquqiy hujjatlar fondini to'ldirish, shu jumladan fondni kodekslar, qonunlar, sharhlar, axborotnomalar va boshqa huquqiy nashrlar bilan butlash choralarini ko'radi, davlat organi va tashkiloti rahbariyatiga huquqiy nashrlarga obuna bo'lish haqida takliflar kiritadi;

-tashkilot vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qonun hujjatlari to'plamlarini nashr etishga tayyorlaydi;

-tashkilot tizimiga kiradigan tuzilmalarning yuridik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, kelishilgan hamkorlikni ta'minlaydi;

-tashkilot tizimiga kiradigan tuzilmalarning huquqiy ishlariga metodik yordam ko'rsatadi, yuridik xizmat faoliyati yo'nalishlari bo'yicha tavsiyanomalar va ko'rsatmalarni ishlab chiqadi;

3) tashkilot xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va ahamiyatini, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazish sohasida:

-tashkilot rahbariyati uchun qonunchilik masalalari bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlaydi;

-tashkilot, shuningdek uning tizimiga kiradigan tuzilmalar xodimlarining huquqiy bilimlarini oshirish tadbirlarini tashkil etish to'g'risida takliflar kiritadi, ushbu tadbirlarni o'tkazishda ishtirok etadi;

-tashkilot faoliyatiga tegishli qonunchilikni targ'ib qilish ishlarini amalga oshiradi;

zudlik bilan tashkilot axborot xizmatiga tashkilot veb-saytiga joylashtirish maqsadida qabul qilingan hujjatlar va ularning mazmun va ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar kiritadi;

-tashkilot xodimlarining murojaatlari bo'yicha ularga tashkilot faoliyatiga tegishli huquqiy hujjatlarni topishga ko'maklashadi, zarur hollarda ularning qoidalari bo'yicha tushuntirishlar beradi;

-qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar haqidagi ma'lumotlarni, sud amaliyotini, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining huquqiy ishlarga taalluqli ko'rsatmalarini tashkilot tizimiga kiradigan tuzilmalarga yetkazadi;

4) shartnomaviy-huquqiy va talabnoma-da'vo ishlarini yuritish, tashkilotning mulkiy va boshqa manfaatlarini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash sohasida:

tashkilotlar, shuningdek fuqarolar bilan nizolar vujudga kelganda, mustaqil yoki boshqa tarkibiy tuzilmalar bilan birgalikda ularni sudgacha hal etish choralari ko'radi;

-boshqa tuzilmalar bilan birgalikda tashkilot tomonidan shartnomalarni tayyorlash va tuzish ishlarida ishtirok etadi, ularning qonunchilikka muvofiqligini tekshiradi hamda shartnomalar loyihalariga, agar e'tiroz va takliflar bo'lmasa, viza qo'yadi;

shartnomalarni tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishning belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

-tashkilot tomonidan tuzilgan shartnomalarni zarur darajada bajarish bo'yicha takliflar kiritadi, shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

-tashkilotning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha talabnomalar tayyorlashda va tashkilotga nisbatan bildirilgan talabnomalarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi, tashkilotda talabnomalar bildirish va ularni ko'rib chiqish tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

-tegishli tuzilmalar bilan birgalikda tashkilotning debitorlik va kreditorlik qarzlari ahvolini o'rganadi, ularning miqdorini kamaytirish choralari ko'radi;

shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar yuzasidan da'vo ishlarini olib boradi;

-tashkilotning mulkiy va boshqa manfaatlarini huquqiy himoya qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlashda hamda belgilangan tartibda sud majlislarida ishtirok etadi;

-mulkni saqlash masalalari bo'yicha huquqiy tuzdagi hujjatlar loyihalarining qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi va ularni tayyorlashda ishtirok etadi;

boshqa tarkibiy tuzilmalar bilan birgalikda tashkilotda mulkning talon-toroj qilinishi, kamomad va noishlab chiqarish xarajatlarining kelib chiqishi sabablari va sharoitlarini tahlil qiladi hamda ularni bartaraf etish choralarini ko‘radi;

moddiy boyliklar va pul mablag‘larini hisobdan chiqarish to‘g‘ri-
sidagi hujjatlar loyihalari, shuningdek qonun buzilishlari va suiiste’-
mollar aniqlangan auditorlik tekshiruvlari va xatlovdan o‘tkazish
dalolatnomalari bo‘yicha huquqiy xulosalar beradi.

Takrorlash uchun savollar

1. Yuridik xizmat deb nimaga aytiladi?
2. Yuriskonsult lavozimida kimlar faoliyat yurita oladi?
3. Biznes subyektlari faoliyatida yuridik xizmatning roli nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Biznes subyekti yuristining lavozim vakolatlariga nimalar kiradi?
5. Tadbirkor uchun yurist kerakmi yoki kerak emasmi? Fikringizni aniq faktlar yordamida himoya qiling.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi: Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: “Adolat”, 2018-y. – 376 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 29-dekabr, № 271-272 (7229-7230).
3. Xo‘jalik sudlari hal qiluv qarorlariga sharhlar to‘plami. Sh.Z. Saidov va boshqa mualliflar jamoasi. – T.: Baktria press, 2014.
4. Ibratov B.I. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. – Toshkent: Moliya, 2001. – 218 b.
5. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. Darslik. 1-2 tom. Sh.N. Ro‘zinazarov va boshqalar. – Toshkent: Konsauditinform, 2002.
6. Egamberdiyev E. Himoyaning protsessual vositalari // Hayot va qonun, 2000, 9-son.
7. www.lex.uz

15- mavzu. Biznes yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati.

1. Biznes yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati o'rnashning zarurligi.
2. Biznes yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish shakllari.
3. Biznes yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish turlari.
4. Nazorat qiluvchi organlar va ularning vakolatlari.

1. Biznes yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati o'rnashning zarurligi.

Iqtisodiyot erkin va bozor tamoyillariga asoslanishi uchun undagi subyektlar erkin iqtisodiy qarorlar qabul qilishi, narx va ishlab chiqarish hajmi hukumat orqali emas, balki talab va taklif asosida belgilanishi, davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashuvidan xoli bo'lishi zarurdir. Garchi bozor o'zini o'zi tartibga soluvchi tizim bo'lsa ham, bozor qonunlarini davlat belgilab berishi va shundan so'ng ushbu qoidalarga qay darajada amal qilinayotganligini nazorat qilib turishi muhim ahamiyatga ega.

Xo'sh, iqtisodiyot hamda tadbirkorlik faoliyati ustidan o'tkaziladigan davlat nazorati bu nima?


Davlat nazorati ma'muriy tartibga solish usullaridan foydalangan holda iqtisodiyot va biznesni davlat tomonidan tartibga solish vositasi bo'lib davlat organlari tomonidan amalga oshirilayotganligi sababli ham bu munosabatga davlat hokimiyatini amalga oshirish shakllaridan biri sifatida qaraladi.

Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi davlat nazorati tijorat va notijorat tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda normativ hujjatlar talablariga rioya etilishini tekshirish va monitoring qilish tizimidir.

Davlat nazoratining quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

- a) nazorat organlari o'z qonuniy vakolatlari va vazifalarini tadbirkorlik subyektlarini tekshirish va kuzatishda amalga oshiradilar
- b) nazorat qilish jarayonida aniqlangan qonun buzilishlariga nisbatan intizomiy choralar ko'rilishi mumkin.

s) nazorat qilish organlari nazorat qilinadigan obyektlar faoliyatining turli tomonlarini tekshirishda qatnashadilar.



Tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashmaslik deganda nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tadbirkorlik subyektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashishga haqli emasligi tushuniladi.

Davlat organlari, boshqa tashkilotlar hamda ularning mansabdor shaxslari tadbirkorlik faoliyati subyektlarining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Agar davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tadbirkorlik faoliyati subyektlarining faoliyatida qonun hujjatlari buzilganligini aniqlasa, ular o'z vakolatlari doirasida va muayyan qoidabuzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bog'liq chora-tadbirlarni ko'rishi mumkin. Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari qoidabuzarlik mavjudligi faktidan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining o'zga qonuniy faoliyatiga aralashish yoki bunday faoliyatni cheklash uchun asos sifatida foydalanishi mumkin emas.

Davlat organlariga, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga va boshqa tashkilotlarga, shuningdek ularning mansabdor shaxslariga:

} bitimlar tuzish, foydani taqsimlash, ijroiya organi rahbarini va uning a'zolarini saylash (tayinlash) masalalari bo'yicha hamda tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organlari vakolatiga taalluqli bo'lgan boshqa masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish, tadbirkorlik faoliyati subyektlariga ko'rsatmalar va boshqa farmoyishlar berish, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

} tadbirkorlik subyektlaridan hujjatlarga muhr bosishni talab qilish yoki hujjatlarni muhr bilan tasdiqlash to'g'risida talab qo'yish;

} tadbirkorlik faoliyati subyektlarining o'z vakolatlari doirasida tadbirkorlik tavakkalchiligi sharoitlarida qabul qilingan, zarar ko'rilishiga olib kelgan qarorlar uchun ularning boshqaruv organlari a'zolariga nisbatan javobgarlik choralari ko'rish taqiqlanadi.

Davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning va ularning mansabdor shaxslarining banklar faoliyatiga, shu jumladan banklarning filiallari rahbar xodimlarini tayinlashga aralashishi, bank mablag'lari hisobidan turli xil to'lovlar va badallar talab qilishi taqiqlanadi. Huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarning banklar kredit portfeli va aktivlarini shakllantirish bilan bog'liq tadbirkorlik tavakkalchiliklarini boshqarish yuzasidan banklar faoliyatiga aralashishi taqiqlanadi.

Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari dehqon va fermer xo'jaliklarining tadbirkorlik faoliyatiga, shu jumladan ushbu xo'jaliklarning agrotexnika usullarini, yetishtiriladigan mahsulot turini tanlashiga, bu mahsulotning bahosini hamda realizatsiya qilish yo'nalishini belgilashiga aralashishga haqli emas, davlat ehtiyojlari uchun mo'ljallangan xaridlar bundan mustasno.

O'zbekistonda Davlat nazoratida 2000-yillardagi qonun islohotlari natijasida tadbirkorlarning qonun hujjatlarida bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar ularning foydasiga talqin qilinishi prinsipi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ huquqiy hujjatlarda aks ettirildi. Xususan, "Tadbirkorlik faoliyati erkinliklarining kafolati" to'g'risidagi qonunning 11-moddasiga ko'ra, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat

qiluvchi organlar, shuningdek banklar bilan o‘zaro munosabatlarida tadbirkorlik faoliyati subyekti huquqlarining ustuvorligi prinsipi amal qilib, unga muvofiq qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo‘lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik faoliyati subyektining foydasiga talqin etiladi.

Biznes yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish shakllari va tekshirish turlari

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiliga ko‘ra xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- tekshirish, shu jumladan taftish, nazorat tartibida tekshirish;
- statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish;
- idora qaramog‘idagi organlarni tekshirishdan o‘tkazish.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish orqali davlat tomonidan nazorat qilish, shuningdek idora qaramog‘idagi organlarni tekshirishdan o‘tkazish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Quyida har bir nazorat qilish shakllarini tahlil qilib chiqamiz. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish deganda xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qonunlar hamda o‘z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilinishi tushuniladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati taftishi esa ularning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish hisoblanib, soliq va valyuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hamda boshqa hujjatlarini o‘rganish va taqqoslashi hisoblanadi.

Qisqa muddatli tekshirish nazorat qiluvchi organlar jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to‘g‘risidagi murojaatlari asosida amalga oshiradigan tekshirish hisoblanib jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to‘g‘risidagi murojaatlari asosida maxsus vakolatli organning qaroriga ko‘ra rejadan tashqari tekshirish tarzida nazorat qiluvchi organlar tomonidan amalga oshiriladi. Maxsus vakolatli organning tekshirilayotgan obyektning nomi, soliq to‘lovchining identifikatsiya

raqami, tekshirish o'tkazishning maqsadi, muddatlari hamda uni o'tkazish sabablarining asosiligi ko'rsatilgan qisqa muddatli tekshirish o'tkazishga doir qarorlari, shuningdek tekshirishni amalga oshiruvchi tegishli nazorat qiluvchi organning maxsus vakolatli organning qarori asosida chiqarilgan, mansabdor shaxslarning tarkibi va tekshirishni o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan buyrug'i xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini qisqa muddatli tekshirishdan o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Nazorat tartibida tekshirish turi esa xo'jalik yurituvchi subyektlarning ilgarigi tekshirishda ko'rsatilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etishi ustidan nazorat qiluvchi organlar amalga oshiradigan tekshirishidir.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra nazorat qiluvchi organlar tomonidan yuridik shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishlar uchun quyidagilar asos bo'ladi:

} maxsus vakolatli organ yoki uning tegishli hududiy bo'linmasi tomonidan berilgan, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishni o'tkazishning muvofiqlashtiruvchi rejasidan ko'chirma;

} nazorat qiluvchi organning muvofiqlashtiruvchi reja asosida chiqarilgan, tekshirish maqsadi, tekshiruvchi mansabdor shaxslarning tarkibi va tekshirishni o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan buyrug'i.

Nazorat qiluvchi organlar va ularning vakolatlari. Nazorat qiluvchi organlar - tadbirkorlik subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishga qonun hujjatlari bilan vakolat berilgan vazirliklar, idoralar, ularning tuzilmaviy bo'linmalari va boshqa tashkilotlari hisoblanib ular sirasiga soliq, moliya, prokuratura, ichki ishlar, bojxona, statistika organlari va davlat nazorat inspeksiyalari nazorat qiluvchi inspeksiyalar sirasiga kiradi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra maxsus vakolatli organning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

} xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

} xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishning, shu jumladan kompleks tekshiruvlar hamda taftishlarning nazorat qiluvchi organlar bir-birining ishini takrorlashiga yo'l qo'ymaydigan muvofiqlashtiruvchi rejalarini ishlab chiqish;

} nazorat qiluvchi organlarning tekshiruvlar o‘tkazishning muvofiqlashtiruvchi rejalariga rioya qilishini nazorat qilish hamda rejadan tashqari tekshiruvlar maxsus vakolatli organning qarorisiz o‘tkazilishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Qonunchilida tekshiruvchi mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlari ko‘rsatilgan bo‘lib, nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish chog‘ida o‘z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

} tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlardan tekshirish o‘tkazish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan zarur hujjatlar va boshqa axborotlarni talab qilish

} tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to‘g‘risida bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish;

} tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar mulkdorlari oldiga aybdor shaxslarning javobgarligi to‘g‘risidagi masalani qo‘yish;

} tekshiruvga auditorlik tashkilotlarini va (yoki) ekspertlarni belgilangan tartibda shartnoma asosida jalb etish;

} qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda moliyaviy yoki ma‘muriy jazo choralarini qo‘llash;

} rejali tekshirishlarni o‘tkazish muddatini ko‘chirish to‘g‘risida, basharti bunga obyektiv asoslar bo‘lsa, maxsus vakolatli organga taqdimnoma kiritish.

Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish chog‘ida o‘z vakolatlari doirasida quyidagilarni bajarishga majburiyatiga egadirlar:

} tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga tekshirish o‘tkazish huquqini beruvchi zarur hujjatlarni ko‘rsatish;

} xo‘jalik yurituvchi subyektlar ishlashiga xalal bermaslik;

} tekshirishlarni qayd etish daftariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yozib qo‘yish;

} davlat siri, tijorat yoki boshqa sirlar saqlanishini ta‘minlash;

} tekshirishlar natijalarini dalolatnoma (ma‘lumotnoma) bilan rasmiylashtirib, uning bir nusxasini tekshirish tugagan kuni tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektda qoldirish;

huquqbuzarlik hollari aniqlangan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko'rish.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyati tekshiruvlari tashabbusi bilan chiqish tegishli tadbirkorlik subyekti tomonidan qonun hujjatlari buzilishi sodir etilishi xavfi darajasidan kelib chiqqan holda xavfni tahlil etish natijalari asosida nazorat qiluvchi organlar tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyati tekshiruvlarini muvofiqlashtirish hamda nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshiruvlar o'tkazilishining qonuniyligi ustidan nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil tomonidan amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan barcha tekshiruvlari Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatga olinishi shart, bundan kameral soliq tekshiruvlari mustasno.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining o'tkazilgan tekshiruvlari natijalari nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshiruvlar tugatilgandan keyin uch kun ichida Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimiga kiritiladi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatga olmasdan o'tkazilgan tekshiruvlari qonunga xilofdir.

Tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tekshiruvlarni o'tkazish muddatlari o'n kalendar kundan oshmasligi kerak.

Soliq tekshiruvlari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Sayyor soliq tekshiruvini o'tkazish uchun soliq organi rahbarining (rahbari o'rinbosarining) buyrug'i asos bo'ladi. Sayyor soliq tekshiruvi o'n kundan oshmagan muddatda o'tkaziladi.

Tadbirkorlik subyektlarining soliq auditini o'tkazish O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan muddatlardan oshmasligi lozim.

Soliq organi soliq auditini o'tkazishning boshlanishi to'g'risida soliq auditi boshlanishidan kamida o'ttiz kalendar kun oldin tadbir-

korlik subyektini soliq auditini o‘tkazish muddatlari va predmetini ko‘rsatgan holda yozma shaklda xabardor qilishi shart. Agar soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash belgilari mavjud bo‘lsa, soliq organi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan holda tadbirkorlik subyektini oldindan xabardor etmasdan soliq auditini boshlashga haqlidir.

Tadbirkorlik subyektlarining soliq auditini belgilangan tartibda faqat soliq organlari tomonidan, soliq auditini o‘tkazish davomida byudjet, soliq va valyutaga oid qonun hujjatlari buzilishi bilan bog‘liq jinoyatlar alomatlari aniqlagan taqdirda esa O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq auditini:

- aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etmagan (shu jumladan kameral tekshiruv natijalariga ko‘ra taqdim etilgan, aniqlashtirilgan talabnomadan keyin) yoxud aniqlangan tafovutlar bo‘yicha asosnomalarni taqdim etmagan yoki taqdim etgan asosnomalari yetarli emas deb topilgan soliq to‘lovchilar bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan;

- tadbirkorlik subyektlari faoliyatining xavfini tahlil etish natijalari asosida belgilanadigan yuqori darajadagi xavfga ega bo‘lgan soliq to‘lovchilar (soliq agentlari) toifasiga mansub soliq to‘lovchilar (soliq agentlari) bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan o‘tkaziladi.

Tekshiruv boshlanishidan oldin tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs tomonidan tadbirkorlik subyektining vakolatli vakiliga uning tekshiruvda ishtirok etish uchun yuridik xizmat vakillarini va (yoki) advokatni jalb etish yoki ularning ishtirokini rad etish huquqi yozma shaklda tushuntirilib, bu haqda bayonnoma tuziladi. Bunda advokat xizmatlarini rad etganlik tadbirkorlik subyektini tomonidan advokatni tekshiruvning keyingi bosqichlarida jalb etish uchun monelik qilmaydi.

Tekshiruvlar natijalari dalolatnoma (ma’lumotnoma) bilan rasmiylashtirilib, qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda uning bir nusxasi tekshirilayotgan tadbirkorlik faoliyati subyektiga topshiriladi.

Tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini rejali tekshirishlar davriyligi ham qonunchilikda ko‘rsatilgan bo‘lib ular har

bir tashkiliy huquqiy shakl yoki huquqiy maqom uchun turlicha amalga oshiladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar ko'pi bilan to'rt yilda bir marta, boshqa tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar ko'pi bilan uch yilda bir marta amalga oshiriladi.

Xususiy banklar va boshqa xususiy moliya institutlarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar ko'pi bilan besh yilda bir marta amalga oshiriladi.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran dastlabki uch yil mobaynida rejali tekshirishlardan o'tkazilmaydi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyati, shuningdek kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklarining byudjet hamda markazlashtirilgan mablag'lar va resurslardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran dastlabki ikki yil mobaynida rejali tekshirishlardan o'tkazilmaydi. Tadbirkorlik subyektlari davlat organlari tomonidan tekshiruvlarning muddatlari quyidagichadir:

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishni o'tkazish muddatlari o'ttiz kalendar kundan oshmasligi lozim. Alohida hollarda maxsus vakolatli organning qaroriga binoan bu muddat uzaytirilishi mumkin, bunda ushbu qoida kichik tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tatbiq etilishi mumkin emas.

Tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning mazkur hujjatlarni olishdan bosh tortganligi tekshirishni bekor qilish uchun asos bo'lmaydi. Tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt mazkur hujjatlarni olishdan bosh tortgan taqdirda, nazorat qiluvchi organning mansabdor shaxsi tomonidan uning o'zi va tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt imzolaydigan dalolatnoma tuziladi.

Tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt mazkur dalolatnomani imzolashdan bosh tortganda, dalolatnomaga tegishli yozuv kiritiladi. Bu holda dalolatnoma imzolangan payt tekshirishni o'tkazish boshlangan payt hisoblanadi.

Tekshirish natijalari to‘g‘risidagi dalolatnoma (ma‘lumotnoma) tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektga topshirilgan kun tekshirishni o‘tkazish tugagan kun hisoblanadi. Tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyekt tekshirish natijalari to‘g‘risidagi dalolatnomani (ma‘lumotnomani) olishdan bosh tortganda, nazorat qiluvchi organning mansabdor shaxsi bu haqda tekshirish natijalari to‘g‘risidagi dalolatnomaga (ma‘lumotnomaga) tegishli yozuv kiritadi va shu paytdan e‘tiboran tekshirish tugagan hisoblanadi. Bu holda tekshirish natijalari to‘g‘risidagi dalolatnomaning (ma‘lumotnomaning) bir nusxasi xo‘jalik yurituvchi subyektga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

Nazariy savollar

1. Biznes yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati o‘rnatishning zaruriyati nimada?
2. Biznes yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish shakllarini sanang.
3. Biznes yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish turlari nimalardan iborat?
4. Tadbirkorlik subektlarini nazorat qiluvchi organlar qaysilar?
5. Tadbirkorlik subektlarini Nazorat qiluvchi organlarning vakolatlari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibratov B.I. Tadbirkorlik huquqi . – Toshkent: Moliya, 2001. – 218
2. Mualliflar jamoasi. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. Darslik. Mas‘ul muharrir: yu.f.n., dos. X. Azizov – T.: TDYU, 2018. – 316 bet.
3. Xo‘jalik (tadbirkorlik) huquqi (lotin alifbosida). Mualliflar jamoasi. Otaxonov F.X.ning umumiy tahriri ostida – Toshkent: Adolat, 2007. – 466 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 29-30-son, 278-modda; 2009-y., 39-son, 423-modda, 50-51-son, 531-modda.

16- mavzu: Xo‘jalik nizolarini hal qilish.

1. Xo‘jalik nizolari tushunchasi va ularning kelib chiqish asoslari.
2. Xo‘jalik nizolarini sudgacha, talabnoma kiritish tartibida hal etish.
3. Xo‘jalik nizolarini hal qiluvchi organlar.
4. Xo‘jalik nizolari yuzasidan qabul qilinadigan sud hujjatlari va ularning ijrosi.
5. Hakamlik sudlarida xo‘jalik nizolarini hal qilishning huquqiy asoslari va istiqbollari.

Xo‘jalik nizolari deganda, har qanday yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tarzda olgan fuqarolar – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari yohud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarining buzilishi natijasida ular o‘rtasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar tushiniladi. Bu nizolar iqtisodiyot sohasidagi yuridik shaxslar, yuridik shaxs tuzmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tarzda olgan fuqarolar o‘rtasidagi fuqaroviy, mamuriy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadi⁷⁹.

Xo‘jalik nizolari Iqtisodiy sud tomonidan ko‘rilganligi tufayli ham ular quyidagi turlarda ko‘rilishi mumkin:

- tuzilishi majburiyligi qonunda nazarda tutilgan shartnomani tuzishda yuzaga kelgan kelishmovchiliklar to‘g‘risidagi;
- shartnoma taraflari tomonidan ko‘rib chiqilishi sudga o‘tkazilishi kelishilgan shartnomani tuzishda yuzaga kelgan kelishmovchiliklar haqidagi;
- shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi;
- bitimni haqiqiy emas deb topish haqidagi;
- majburiyatlar bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi to‘g‘risidagi;
- mulk huquqini tan olish haqidagi;

⁷⁹ Foziljon Haydarovich Otaxonov, Xurshida Vahdatovna Burxanxodjayeva, Komil Egamovich Mansurov, Nodira Xamrayevna Muhamedova. Xo‘jalik (tadbirkorlik) huquqi. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashri. Toshkent "ILM ZIYO" 2010.

- mulkdor yoki mulkning boshqa qonuniy egasi tomonidan mol-mulkni boshqa shaxsning g‘ayriqonuniy egaligidan talab qilib olish to‘g‘risidagi;

- intellektual faoliyat obyektlari va fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar, tovarlar, ishlar va xizmatlarga mulkiy huquqlari buzilganligi haqidagi;

- mulkdorning yoki mol-mulkning boshqa qonuniy egasining huquqlari egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda buzilganligi to‘g‘risidagi;

- zararining o‘rnini qoplash haqidagi;

- ishchanlik obro‘cini himoya qilish to‘g‘risidagi;

- undirish so‘zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjatini yoki boshqa hujjatni ijro etish mumkin emas deb topish haqidagi;

- agar qonunda jarimalarni so‘zsiz (akseptsiz) tartibda undirish nazarda tutilmagan bo‘lsa, nazorat qiluvchi organlar tomonidan yuridik shaxslar va fuqarolardan jarimalar undirish to‘g‘risidagi;

- nazorat qiluvchi organlar tomonidan qonun hujjatlari talablarini buzgan holda so‘zsiz (akseptsiz) tartibda hisobdan chiqarilgan pul mablag‘larini byudjetdan qaytarish haqidagi nizolarni hal etadi.

Xo‘jalik nizolarini sudgacha, talabnoma kiritish tartibida hal etish.

O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunning 17-moddasida talabnoma bildirish tartibi nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra Huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan xo‘jalik yurituvchi subyekt mazkur huquq va manfaatlarni buzgan xo‘jalik yurituvchi subyektga nisbatan talabnoma bildirishga haqlidir.

Talabnoma yozma shaklda bildirib unda quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

- talabnoma bildirgan xo‘jalik yurituvchi subyektning va talabnoma bildirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektning nomi;

- talabnoma bildirilgan sana va uning raqami;

- talabnoma bildirish uchun asos bo‘lgan holatlar;

- talabnomada bayon etilgan holatlarni tasdiqlovchi dalillar;

- arz qiluvchining talablari;

- talabnoma summasi va uning hisob-kitobi, arz qiluvchining to'lov va pochta rekvizitlari;

- talabnomaga ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Talabnoma xo'jalik yurituvchi subyektning rahbari yoki rahbarning o'rinbosari tomonidan imzolanadi va buyurtma yoki qimmatli xat tarzida, telegraf, teletayp orqali, shuningdek talabnoma jo'natilganligini qayd etadigan, qabul qilib oluvchini ogohlantiradigan boshqa aloqa vositalaridan foydalanilgan holda jo'natiladi yoxud tilxat olib topshiriladi. Yuklarni tashish va aloqa xizmatlari ko'rsatishga doir operatsiyalardan kelib chiqadigan talabnomalarni transport va aloqa xo'jalik yurituvchi subyektlariga bildirish tartibi va muddatlari qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

O'ziga talabnoma bildirilgan xo'jalik yurituvchi subyekt talabnomani olgan kundan boshlab o'n besh kunlik muddat ichida unga javob qaytarishi shart. Talabnomaga javob xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari yoki rahbarning o'rinbosari tomonidan imzolanadi va muhr bilan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlanadi. Talabnomaga javob buyurtma yoki qimmatli xat tarzida, telegraf, teletayp orqali, shuningdek talabnoma jo'natilganligini qayd etadigan, qabul qilib oluvchini ogohlantiradigan boshqa aloqa vositalaridan foydalanilgan holda jo'natiladi yoxud tilxat olib topshiriladi. Talabnoma to'liq yoki qisman tan olingan taqdirda xo'jalik yurituvchi subyekt arz qiluvchiga o'zi tan olgan summani ixtiyoriy ravishda o'tkazadi.

Agar talabnomani tan olish to'g'risidagi javobda tan olingan summa o'tkazilishi haqida ma'lumot bo'lmasa, talabnoma bildirgan taraf javob olingandan so'ng yigirma kun muddat o'tgach, bank muassasasiga qarzdor tan olgan summani so'zsiz tartibda o'tkazish to'g'risidagi farmoyishni taqdim etishga haqli. Farmoyishga qarzdorning javobi ilova qilinadi.

Xo'jalik nizolarini hal qiluvchi organlar.

Xo'jalik nizolarini hal qiliuvchi organ sifatida iqtisodiy sudlar hamda hakamlilik sudlarni ko'rsatilishi mumkin.

Iqtisodiy sud xo'jalik nizolarini hal qilish maqsadida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- iqtisodiyot sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

- iqtisodiyot sohasida qonuniylikni mustahkamlash va huquq-buzarliklarning oldini olishga ko'maklashish.

Xo'jalik nizolarini hakamlik sudlari orqali hal qilinishi mumkin. Hakamlik sudi fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etuvchi nodavlat organ bo'lib, Hakamlik sudi shartnoma shartlariga muvofiq va ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda hal qiluv qarorini qabul qiladi. Agar hakamlik bitimi taraflarining munosabatlari qonun hujjatlari yoki hakamlik bitimi taraflarining kelishuvi bilan to'g'ridan to'g'ri tartibga solinmagan bo'lsa va bu munosabatlarga nisbatan qo'llaniladigan ish muomalasi odati mavjud bo'lmasa, hakamlik sudi shunga o'xshash munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari normalarini qo'llaydi (qonun o'xshashligi), mazkur hollarda qonun o'xshashligidan foydalanish imkoniyati bo'lmagan taqdirda esa hakamlik bitimi taraflarining huquq va majburiyatlari qonun hujjatlarining mazmunidan (huquq o'xshashligi) hamda halollik, oqillik va adolat talablaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Hakamlik sudlari orqali xo'jalik nizolarini hal etish fuqarolik huquqlarini qo'riqlashning nodavlat mexanizmi bo'lib, bu tarzda nizolarni hal etishning qator afzalliklari mavjud. Bu afzalliklar, avvalo, shunda namoyon bo'ladi, birinchidan, nizo tez ko'rilsa, ikkinchidan, kam xarajatli bo'ladi, ya'ni davlat boji yoki boshqa sud xarajatlari davlat tomonidan o'rnatilgan tartibda va miqdorda to'lanishi talab etilmaydi, uchinchidan, nizo ma'lum ixtisosga va malakaga ega bo'lgan shaxslar tomonidan ko'rib chiqiladi, to'rtinchidan, nizo o'tkaziladigan joy va vaqt taraflar bilan kelishib belgilanadi, beshinchidan, har bir tarafning o'zi nizoni hal etish uchun hakam tanlaydi va hokazo. Bu kabi afzalliklar tadbirkorlik munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarning hakamlar sudi tomonidan hal etilishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Xo'jalik nizolari yuzasidan qabul qilinadigan sud hujjatlari va ularning ijrosi Hal qiluv qarori, agar uning ustidan apellatsiya tartibida shikoyat qilinmagan (protest keltirilmagan) bo'lsa, u qabul qilingan kundan e'tiboran bir oylik muddat o'tgach, qonuniy kuchga kiradi. Apellatsiya shikoyati (protesti) berilgan taqdirda hal qiluv qarori, agar

u bekor qilinmagan bo'lsa, apellatsiya instansiyasi sudning qarori qabul qilingan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi.

Hal qiluv qarorini ijro etish mumkin bo'lmay qoladi yoki qiyinlashadi deb hisoblash uchun asosi bo'lgan shaxslar ushbu hal qiluv qarorini qabul qilgan sudga uning ijrosini ta'minlash to'g'risida ariza berishi mumkin.

Arizada ijrosi ta'minlanishi zarur bo'lgan hal qiluv qarori va uni ta'minlash to'g'risida iltimos bilan murojaat qilishga arizachini undagan sabablar ko'rsatilishi kerak.

Sud Iqtisodiy kodeksda nazarda tutilgan hollarda ajrim chiqaradi. Unda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan hollarda, sudning ajrimi alohida sud hujjati tarzida chiqariladi.

Uncha murakkab bo'lmagan masalalarni hal qilishda sud joyida ajrim chiqarishi mumkin. Bunday ajrim sud majlisining bayon-nomasiga yozib qo'yiladi va unda u qaysi masala yuzasidan chiqarilgani, sud o'z xulosalarini chiqarishiga olib kelgan sabablar hamda ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha xulosa ko'rsatiladi.

Alohida sud hujjati tarzida chiqariladigan ajrimda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- sudning nomi, ishning raqami, ajrim chiqarilgan sana, sud tarkibi, sud majlisi kotibi, nizo predmeti;

- ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi);

- ajrim chiqarilayotgan masala;

- sud o'z xulosalarini chiqarishiga olib kelgan sabablar, bunda tayanilgan qonun hujjatlari;

- ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha xulosa;

- agar qonunda nazarda tutilgan bo'lsa, ajrim ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) tartibi va muddati.

Sud majlisida chiqarilgan ajrim chiqarilganidan keyin raislik qiluvchi tomonidan shu sud majlisining o'zida darhol o'qib eshittiriladi.

Sud alohida sud hujjati tarzida ajrim chiqargan taqdirda, ajrim chiqarilganidan keyin besh kunlik muddatda uning ko'chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga va ajrim daxldor bo'lgan boshqa shaxslarga topshirilganligi ma'lum qilinadigan buyurtma xat orqali yuboriladi yoki tilxat olib topshiriladi, ularning elektron manzillari

mavjud bo'lgan taqdirda esa ajrim elektron tarzida yuborilishi mumkin.

Agar qonunda yoki sud tomonidan boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, sudning ajrimi darhol ijro etiladi.

Sudning ajrimi ustidan ushbu Iqtisodiy kodeksda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek ajrim ishning kelgusidagi harakatiga to'sqinlik qilgan taqdirda, sudning hal qiluv qaroridan alohida tarzda shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin.

Boshqa ajrimlar ustidan apellatsiya shikoyati (protesti) berilmaydi, lekin bu ajrimlarga qarshi e'tirozlar sudning hal qiluv qarori ustidan qilingan apellatsiya shikoyatiga (protestiga) qo'shib qo'yilishi mumkin.

Agar Iqtisodiy kodeksda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, ajrim chiqarilgan kundan e'tiboran bir oydan oshmagan muddatda uning ustidan shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Ishni ko'rish vaqtida davlat organining yoki boshqa organning, yuridik shaxsning, mansabdor shaxsning yoki fuqaroning faoliyatida qonun hujjatlari buzilganligi aniqlangan taqdirda, ularning ishda ishtirokidan qat'i nazar, sud xususiy ajrim chiqarishga haqlidir.

Ishni ko'rishda mansabdor shaxsning yoki fuqaroning xatti-harakatlarida, ularning ishda ishtirokidan qat'i nazar, ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari aniqlansa, agar ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish qonunda sudning vakolatiga berilgan bo'lsa, sud ularni ma'muriy javobgarlikka tortish masalasini ko'rib chiqadi.

Hakamlik sudlarida xo'jalik nizolarini hal qilishning huquqiy asoslari va istiqbollari.

Hakamlik bitimi mavjud bo'lgan taqdirda, nizo hakamlik sudining hal qiluviga topshirilishi mumkin. Vakolatli sudning hal qiluvda bo'lgan nizoga oid hakamlik bitimi vakolatli sud nizo yuzasidan hal qiluv qarori qabul qilguniga qadar tuzilishi mumkin. Hakamlik bitimi yozma shaklda tuziladi. Hakamlik bitimi shartnomaning tarkibiy qismi bo'lgan shartnoma sharti yoki alohida bitim tarzida rasmiylashtirilishi mumkin.

Hakamlik bitimi, agar u hakamlik bitimi taraflari tomonidan imzolangan hujjatda ifodalangan bo'lsa yoki bunday bitimni qayd etishni ta'minlovchi elektron yoxud boshqa aloqa vositalaridan

foydalanilgan holda xatlar yoki xabarlar almashish yoʻli bilan tuzilgan boʻlsa, yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi.

Hakamlik bitimida hakamlik bitimi taraflari oʻrtasida kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin boʻlgan barcha yoxud ayrim nizolar hakamlik sudida koʻrib chiqilishi kerakligi haqidagi qoida, shuningdek agar nizo doimiy faoliyat koʻrsatuvchi hakamlik sudi hal qiluviga topshiriladigan boʻlsa, mazkur hakamlik sudining nomi koʻrsatilishi lozim.

Hakamlik bitimida hakamlik sudyalarining soni, hakamlik muhokamasi oʻtkaziladigan joy va til, hakamlik muhokamasining qoʻllaniladigan qoidalari, nizoni koʻrib chiqish muddati haqidagi maʼlumotlar koʻrsatilishi mumkin.

Hakamlik sudi oʻz hal qiluviga topshirilgan nizoni, shu jumladan hakamlik bitimi yoʻqligi yoki haqiqiy emasligi sababli hakamlik muhokamasi taraflaridan biri hakamlik muhokamasiga qarshi eʼtiroz bildirgan hollarda nizoni koʻrib chiqishga vakolati borligi yoxud yoʻqligi haqidagi masalani mustaqil ravishda hal etadi. Shu maqsadda shartnoma sharti tarzida rasmiylashtirilgan hakamlik bitimi shartnomaning boshqa shartlariga bogʻliq boʻlmagan bitim sifatida koʻrib chiqilishi kerak. Hakamlik sudining shartni qamrab olgan shartnomaning haqiqiy emasligi toʻgʻrisidagi xulosasi ushbu shartning qonunga binoan haqiqiy emas deb topilishiga olib kelmaydi.

Nizo hakamlik sudi tomonidan mazmunan koʻrib chiqilguniga qadar hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudida oʻz hal qiluviga topshirilgan nizoni koʻrib chiqishga vakolat yoʻqligi haqida arz qilishga haqli.

Agar koʻrib chiqilishi hakamlik bitimida nazarda tutilmagan yoxud qonunga yoki doimiy faoliyat koʻrsatuvchi hakamlik sudining qoidalariga muvofiq hakamlik muhokamasi predmeti boʻla olmaydigan masala hakamlik muhokamasi davomida hakamlik muhokamasi predmetiga aylansa, hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudi oʻz vakolatidan chetga chiqqanligi haqida arz qilishga haqli.

Agar hakamlik sudi oʻz vakolati haqidagi masalani koʻrib chiqayotganda nizoni koʻrib chiqishga hakamlik sudida vakolat yoʻqligi toʻgʻrisida ajrim chiqarsa, hakamlik sudi nizoni mazmunan koʻrib chiqishi mumkin emas.

Hakamlik sudi nizo holatlari tekshirilganidan soʻng hakamlik sudi tarkibiga kiruvchi hakamlik sudyalarining koʻpchilik ovozi bilan hal qiluv qarori qabul qiladi.

Hal qiluv qarori hakamlik sudining majlisida eʼlon qilinadi. Hakamlik sudi hal qiluv qarorining faqat xulosa qismini eʼlon qilishga haqli. Bunday holda asoslantirilgan hal qiluv qarori hal qiluv qarorining xulosa qismi eʼlon qilingan kundan eʼtiboran oʻn kundan kechiktirmay hakamlik muhokamasi taraflariga yuborilishi kerak. Hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan paytdan eʼtiboran kuchga kiradi.

Agar kelishuv bitimi qonun hujjatlariga zid boʻlmasa hamda boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmasa, hakamlik sudi hakamlik muhokamasi taraflarining iltimosnomasiga binoan kelishuv bitimini tasdiqlash toʻgʻrisida hal qiluv qarori qabul qiladi. Kelishuv bitimining mazmuni hakamlik sudining hal qiluv qarorida bayon qilinadi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarori yozma shaklda bayon etiladi va hakamlik sudi tarkibiga kiruvchi hakamlik sudyalari tomonidan, shu jumladan alohida fikrga ega boʻlgan hakamlik sudyasi tomonidan imzolanadi. Hakamlik sudyasining alohida fikri hakamlik sudi hal qiluv qaroriga ilova qilinadi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarorida quyidagilar koʻrsatilishi kerak:

- hal qiluv qarori qabul qilingan sana;
- hakamlik muhokamasi oʻtkazilgan joy;
- hakamlik sudining tarkibi;
- hakamlik muhokamasining taraflari boʻlgan yuridik shaxslarning nomi va joylashgan yeri (pochta manzili), jismoniy shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, hakamlik muhokamasi taraflari vakillarining vakolatlari koʻrsatilgan holda familiyasi, ismi, otasining ismi;
- hakamlik sudi vakolatlarining asoslari;
- daʼvogarining talablari va javobgarining eʼtirozlari, shuningdek ularning iltimosnomalari;
- hakamlik sudi tomonidan aniqlangan nizo holatlari, hakamlik sudining ushbu holatlar toʻgʻrisidagi xulosalariga asos boʻlgan dalillar, hal qiluv qarorini qabul qilishda hakamlik sudi amal qilgan normalar.

Hal qiluv qarorining xulosa qismida arz qilingan har bir da'vo talabini qanoatlantirish yoki qanoatlantirishni rad etish to'g'risida hakamlik sudining xulosalari bo'lishi kerak. Hal qiluv qarorining xulosa qismida nizoni hakamlik sudida hal qilish bilan bog'liq xarajatlar summasi, mazkur xarajatlarning hakamlik muhokamasi taraflari o'rtasida taqsimlanishi, zarur hollarda esa, qabul qilingan hal qiluv qarorini ijro etish muddati va tartibi ko'rsatiladi.

Hal qiluv qarori qabul qilinganidan so'ng o'n kun ichida hakamlik muhokamasining har bir tarafiga hal qiluv qarori topshirilishi yoki yuborilishi kerak.

Taraflardan biri hakamlik sudining hal qiluv qarorini olganidan so'ng, agar hakamlik muhokamasi taraflari boshqacha shartlashmagan bo'lsalar, hakamlik muhokamasi davomida arz qilingan va ko'rib chiqilgan, ammo qabul qilingan hal qiluv qarorida o'z aksini topmagan da'vo talablari bo'yicha qo'shimcha hal qiluv qarori qabul qilish to'g'risidagi ariza bilan o'n kun ichida aynan o'sha hakamlik sudiga bu haqda boshqa tarafni xabardor qilgan holda murojaat etishi mumkin. Nizoni hal qilgan hakamlik sudi tarkibi mazkur ariza olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida uni ko'rib chiqishi kerak.

Qo'shimcha hal qiluv qarorini qabul qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha hakamlik sudi hal qiluv qarorining tarkibiy qismi bo'lgan qo'shimcha hal qiluv qarori qabul qilinadi yoki qo'shimcha hal qiluv qarori qabul qilish to'g'risidagi arizani qanoatlantirishni rad etish haqida ajrim chiqariladi.

Hakamlik muhokamasi tarafi hakamlik sudining hal qiluv qarorini olganidan so'ng hal qiluv qarorini tushuntirib berish to'g'risidagi ariza bilan o'n kun ichida aynan o'sha hakamlik sudiga bu haqda hakamlik muhokamasining boshqa tarafini xabardor qilgan holda murojaat etishga haqli. Nizoni hal qilgan hakamlik sudi tarkibi hal qiluv qarorini tushuntirib berish to'g'risidagi ariza olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida uni ko'rib chiqishi kerak.

Hakamlik sudi o'zi qabul qilgan hal qiluv qarorini uning mazmunini o'zgartirmagan holda tushuntirib berishga haqli. Tegishli arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha hakamlik sudi hal qiluv qarorining tarkibiy qismi bo'lgan hal qiluv qarorini tushuntirish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Nizo bo'yicha hal qiluv qarori qabul qilgan hakamlik sudi yozuvda yo'l qo'yilgan xatolarni va arifmetik xatolarni hakamlik muhokamasi tarafiging arizasiga ko'ra tuzatishga haqli. Yozuvda yo'l qo'yilgan xatolarni va arifmetik xatolarni tuzatish to'g'risidagi arizani nizoni hal qilgan hakamlik sudi tarkibi ariza olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida ko'rib chiqishi kerak.

Tegishli arizani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha hakamlik sudi hal qiluv qarorining tarkibiy qismi bo'lgan yozuvdagi xatolarni va arifmetik xatolarni tuzatish to'g'risida ajrim chiqariladi.

Hakamlik sudi nizoning mazmuniga daxl qilmaydigan masalalar yuzasidan ajrim chiqaradi. Hakamlik sudining ajrimi ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas. Hakamlik sudi quyidagi hollarda hakamlik muhokamasini tugatadi:

} hakamlik sudi o'z hal qiluviga topshirilgan nizoni ko'rib chiqish uchun hakamlik sudi vakolatga ega emasligi to'g'risida ajrim chiqarsa;

} da'vogar o'zining da'vo talabidan voz kechsa va javobgar hakamlik muhokamasini tugatishga qarshi e'tiroz bildirmasa;

} hakamlik muhokamasi taraflari hakamlik muhokamasini tugatish to'g'risida kelishuvga erishsa;

} hakamlik muhokamasi taraflari kelishuv bitimi tuzsa va u hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan tasdiqlansa;

} hakamlik muhokamasining taraflari mediativ kelishuv tuzgan bo'lsa;

} hakamlik muhokamasi tarafi bo'lgan yuridik shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatilgan bo'lsa;

} hakamlik muhokamasi tarafi bo'lgan jismoniy shaxs vafot etgan bo'lsa yoki vafot etgan deb e'lon qilingan bo'lsa yoxud bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa va huquqiy vorisdan hakamlik muhokamasini davom ettirish to'g'risida ariza tushmasa;

} ayni bir hakamlik muhokamasi taraflari o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha kelib chiqqan nizo yuzasidan vakolatli sudning yoki hakamlik sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lsa.

Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudida ko'rilgan ishlar, agar doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudining qoidalarida

uzoqroq muddat belgilanmagan bo'lsa, mazkur hakamlik sudida uch yil mobaynida saqlanadi.

Muvaqqat hakamlik sudi tomonidan ko'rilgan ish hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin bir oy muddat ichida vakolatli sudga saqlash uchun yuboriladi.

Nazorat savollari

1. Xo'jalik nizolari tushunchasi va ularning kelib chiqish asoslarini sanang

2. Xo'jalik nizolarini sudgacha, talabnoma kiritish tartibida hal etish usullarini yoritng.

3. Xo'jalik nizolarini hal qiluvchi organlar qaysilar?

4. Hakamlik sudlarida xo'jalik nizolarini hal qilishning huquqiy asoslari va istiqbollarini yoritng.

Foydalanilagan adabiyotlar

1. Ibratov B.I. Tadbirkorlik huquqi . – Toshkent: Moliya, 2001. – 218

2. Mualliflar jamoasi. Tadbirkorlik (biznes) huquqi. Darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.n., dos. X. Azizov – T.: TDYU, 2018. – 316 bet.

3. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi (lotin alifbosida). Mualliflar jamoasi. Otaxonov F.X.ning umumiy tahriri ostida – Toshkent: Adolat, 2007. – 466 b.

4. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, –1997-yil, –9-son, –234-modda; –1998-yil, –5-6-son, –102-modda; –2001-yil, –1-2-son, –11-modda; –2002-yil, –N 9, –165-modda; –2003-yil, –9-10-son, –149-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, –2006-yil, –7-son, –373-modda; –2007-yil, –8-son, –367-modda; –2008-yil, –9-son, –490-modda, –12-son, –640-modda; –2009-yil, –1-son, –1-modda; –2010-yil, –6-son, –231-modda; –2011-yil, –4-son, –104-modda.

17-mavzu: Biznes munosabatlarida javobgarlik

Reja:

1. Javobgarlik tushunchasi va turlari
2. Shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada ajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik
3. Biznes faoliyatida ma'muriy va jinoiy javobgarlik asoslari.

Javobgarlik bu - qonun yoki shartnomaga asosan bajarilishi lozim bo'lgan majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganda vujudga keladigan huquqiy oqibat.

FKning 166-moddasiga ko'ra, mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida va boshqa qator qonunlarda mulk huquqini bekor bo'lish asoslari va tartibi batafsil belgilab qo'yilgan. Mulkdor har qanday holatda emas, balki o'zining g'ayri-huquqiy harakatlari yoki jamiyat manfaatlari taqozosiga ko'ra, muayyan cheklangan holatlardagina o'z mol-mulkidan mahrum etilishi mumkin. Asosiy qonunimizda mulk huquqini mazmuni va mulkdor vakolatlarini amalga oshirish chegarasi belgilab qo'yilgan. Mulkdor vakolatlari, eng avvalo, o'z mol-mulkiga o'z xohishiga ko'ra egalik qilish, foydalanish, tasarruf qilishda namoyon bo'ladi. Biroq, mulkdor vakolatlari mutlaqo chegarasiz emas. Mulkdor o'z mol - mulkidan foydalanish jarayonida ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, boshqa subyektlarni huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Konstitutsiyada jamiyat iqtisodiy negizlari bilan bog'liq yana bir konstitutsiyaviy prinsip bu - iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi prinsipi hisoblanadi. Iqtisodiy faoliyat erkinligining mohiyati shundan iboratki, fuqarolar va yuridik shaxslar qonunlarda ta'qiqlanmagan har qanday iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin. Ushbu iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchisi tomonidan foyda olish maqsadi ko'zda tutilsa tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Agarda bunday maqsadni ko'zlamasa hayriya, birgalikdagi faoliyat va shu kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyati erkinligi fuqaro yoki tijoratchi yuridik shaxsga qonunda ta'qiqlanmagan har qanday faoliyat sohasi bo'yicha

tadbirkorlikni amalga oshirish imkonini beradi. Biroq har qanday iqtisodiy faoliyatni, tadbirkorlikni va mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi har bir subyekt o'z faoliyati natijalaridan bahramand bo'luvchi iste'molchilar huquqi ustunligini unutmasliklari lozim

Javobgarlikning qonuniy asoslari :

O'zR Fuqarolik kodeksi (48, 24-bob)

Soliq kodeksi (4-bo'limi, 16-18 boblar)

O'zR MJTK (13-bob, 164-179-3, 184-186-1 moddalar)

O'zR Jinoyat Kodeksi (12-606, 172-192- moddalar)

Qonunlar (Raqobat to'g'risidagi qonunning 27-moddasi)

Javobgarlik turlari

1. Munosabat xususiyatiga ko'ra:

A) Vertikal munosabatlarda

B) Gorizontal munosabatlarda

2. Javobgarlikning asosiga ko'ra

A) Qonun kelib chiqadigan

B) Shartnomadan kelib chiqadigan

Javobgarlik turlari

3. Javobgarlikning chegarasiga ko'ra:

A) Solidar javobgarlik

B) Subsidiar javobgarlik

B) Mutlaq javobgarlik

Г) Cheklangan javobgarkik

Shaxslar soniga bog'liq ravishda

- Shartnomaviy javobgarlik majburiyatli shaxslar soniga bog'liq ravishda ulushli, solidar va subsidiar bo'lishi mumkin.

-Ulushli javobgarlik – har bir javobgar qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan ulushda javobgarlik qiladi. Masalan, meros qabul qilgan merosxo'rlar ularga meros bo'yicha o'tgan mol-mulkning haqiqiy narxi (ulushi) miqdorida meros beruvchining qarzlari bo'yicha javob beradilar.

-Ulushli javobgarlik -ulushli mulk haqidagi qoidalar agar bir necha subyektlar uchun javobgarlikning boshqa turi qonunda (boshqa huquqiy hujjat) yoki shartnomada nazarda tutilmaganda qo'llaniladi. Agar bunda qonunchilik yoki shartnomada taraflar ulushi belgilanmagan bo'lsa, ular teng hisoblanadi, ya'ni har bir javobgar boshqa javobgarlar bilan birga bir xil miqdorda javobgarlik qiladi. Solidar javobgarlik

-Solidar javobgarlik – ulushli javobgarlikka nisbatan ancha qat'iy javobgarlik.

-Bu o'rinda da'vogar barcha javobgarlarga biryo'la hamda har biriga unga yetkazilgan zararning ham to'liq hajmida, ham uning har

qanday qismi bo'yicha talab qo'yishga haqli; solidar javobgarlarning biridan to'liq qoniqtirish olmagandan keyin, u xuddi shu qoidalarga ko'ra olinmagan qismini boshqalardan talab qilishi mumkin, chunki ular uning oldida talablarini to'liq qondirmagunga qadar javobgar bo'lib qoladi.

-Solidar javobgarlik faqat qonun hujjatlari yoki shartnomada bevosita belgilangan hollarda, jumladan, bajarilmagan majburiyat ashyosini bo'lish imkoni bo'lmaganda qo'llanilishi mumkin.

-329-modda. Subsidiar javobgarlik

-Qonun hujjatlari yoki majburiyat shartlariga muvofiq asosiy qarzdor bo'lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo'shimcha ravishda javobgar bo'lgan (subsidiar javobgarlik) shaxsga talablar qo'yishdan oldin kreditor asosiy qarzdorga talab qo'yishi kerak.

-Agar asosiy qarzdor kreditorning talabini qondirishdan bosh tortsa yoki kreditor undan qo'yilgan talabga oqilona muddatda javob olmagan bo'lsa, bu talab subsidiar javobgar bo'lgan shaxsga qo'yilishi mumkin.

Kreditor asosiy qarzdorga bo'lgan o'z talabini qondirishni subsidiar javobgar shaxsdan talab qilishga haqli emas, basharti bu talab asosiy qarzdorga muqobil talabni hisobga o'tkazish yoki mablag'larni asosiy qarzdordan nizosiz undirib olish yo'li bilan qondirilishi mumkin bo'lsa.

-Subsidiar javobgar shaxs o'ziga kreditor tomonidan qo'yilgan talabni qondirishdan oldin bu haqda asosiy qarzdorni ogohlantirishi, bordi-yu bunday shaxsga nisbatan da'vo qo'zg'atilgan bo'lsa - asosiy qarzdorni ishda qatnashishga jalb qilishi kerak. Aks holda asosiy qarzdor o'zining kreditorga qarshi e'tirozlarini subsidiar javobgar shaxsning regress talabiga qarshi qo'yish huquqiga ega. Subsidiar javobgarlik – bu asosiy huquqbuzarning jabrlanuvchi oldidagi javobgarlikka nisbatan qo'shimcha hisoblanadi. U javobgarlikni to'ldirishga xizmat qiladi va jabrlangan manfaatlari himoyalanihini kuchaytiradi. Bunda ushbu qo'shimcha javobgarligi bo'lgan shaxs jabrlanganga mulkiy zararni yetkazganlar orasida bo'lishi shart emas, balki aksariyat hollarda biron bir huquqbuzarlikni umuman sodir etmaydi.

-Subsidiar javobgarlik uni amalga oshirayotgan shaxs uchun asosiy javobgar jabrlanuvchining talablarini qondirishdan bosh tortgan

yoki oxirgi o'z talabiga oqilona muddatda undan javob olmagan holatda yuzaga keladi. Zararlarni qoplash

Zararlarni qoplash – bu bir shaxsning buzilgan manfaatini huquqbuzarlikda aybdor bo'lgan boshqa shaxs mablag'lari hisobiga tiklashdir.

Zarar shartnomaviy majburiyatlar buzilishining salbiy oqibati sifatida real zarar va olinmagan daromaddan iborat.

-Zarar quyidagilardan tashkil topadi:

-birinchidan, bu zarar ko'rgan shaxsning huquqbuzarlik oqibatini bartaraf etish uchun amalga oshirgan yoki amalga oshirishi lozim bo'lgan sarf-xarajatlar;

- ikkinchidan, zarar tarkibiga jabrlangan shaxsning yo'qotilgan yoki shikastlangan mol-mulki bahosi kiritiladi;

- uchinchidan, jabrlangan taraf huquqbuzarlik holati yuz bermaganda olishi mumkin bo'lgan olinmagan daromadlar ham kiradi.

-Zararlarni qoplash

-Olinmagan daromad (foйда) – bu taraf olishi kerak bo'lgan, ammo ikkinchi tarafning noqonuniy harakatlari tufayli olinmagan zararining bir turi. Olinmagan daromadni undirishda uni olish imkoniyati real bo'lganligidan kelib chiqish zarur.

-Faqat bevosita zararlar qoplanishi, bilvosita zararlar esa qoplanmasligini e'tiborga olish zarur.

-Zararlarni qoplash haqidagi talab tegishli dalillar bilan isbotlanishi kerak.

Qarzdordan zararlarni qo'ldan boy berilgan foyda shaklida undirishni talab etayotgan kreditor sudga u tomonidan daromad olinishi uchun zarur chora-tadbirlar amalga oshirilganligi va tegishli tayyorgarlik ishlari bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim.

-Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik nafaqat zararni qoplash, balki neustoyka shaklida ham yuzaga keladi.

-Neustoyka – bu qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi neustoyka hisoblanadi. Penya – qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to'laydigan va o'tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga

nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka penya hisoblanadi. Jarima – qat’iy summada belgilangan neustoyka (bir marta undiriladigan penya).

Mutlaq javobgarlik (xususiy korxonaning javobgarligi misolida)

Xususiy korxonalar o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi.

Xususiy korxonalar mulkdori korxonaning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda xususiy korxonaning majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo‘ladi. (Xususiy korxonalar to‘g‘risidagi Qonunning 3-moddasi)

Cheklangan javobgarlik (MCHJ ishtirokchisining javobgarligi misolida) Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. (Qonunning 3-moddasi).

Shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik.

“Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunning 24-32-moddalarida nazarda tutilgan.

SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOGBARLIK

24-modda. Xo‘jalik shartnomalarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflarning javobgarligi

Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bu taraf:

boshqa tarafga yetkazilgan zararni to‘laydi;

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, ushbu Qonunda, o‘zga qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha tarzda javobgar bo‘ladi.

Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqa tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, xo‘jalik shartnomalarini bajarmaganlik va lozim darajada bajarmaganlik uchun ushbu Qonunning 25—32-moddalarida nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo‘llaniladi.

25-modda. Tovarlarini yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik, to‘liq yetkazib bermaganlik, ishlarni bajarmaganlik yoki xizmat ko‘rsatmaganlik uchun javobgarlik

Tovarlarini yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to‘liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko‘rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to‘lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarini yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to‘liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko‘rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 454-moddasiga muvofiq tovarlarini to‘liq yetkazib bermaganlik yoki yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik uchun qonunda yoki shartnomada belgilangan neustoyka, agar neustoykani undirishning boshqacha tartibi qonunda yoki shartnomada belgilanmagan bo‘lsa,

*mahsulot yetkazib beruvchidan shartnomaning amal qilish muddatida majburiyat amalda bajarilgunga qadar undiriladi*⁸⁰.

Agar yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, yetkazib beruvchidan (pudratchidan) sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar va xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar (ishlar va xizmatlar) haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berganlik uchun jarima yetkazib beruvchidan (pudratchidan) akseptsiz tartibda undirib olinadi.

Jarimani undirish to'g'risidagi to'lov talabnomasi bank muassasasiga tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) sifati, assortimenti va navi lozim darajada emasligi to'g'risidagi dalolatnoma tuzilgandan keyin o'n kun ichida taqdim etiladi. Jarimani undirish to'g'risidagi to'lov talabnomasi belgilangan o'n kunlik muddatni buzgan holda taqdim etilgan hollarda, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

27-modda. But bo'lmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun javobgarlik

But bo'lmagan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda sotib oluvchi (buyurtmachi):

tovarlarni butlab berishni talab qilishga haqli. Yetkazib beruvchi sotib oluvchining (buyurtmachining) talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o'zga muddat belgilangan bo'lmasa, o'n besh kunlik muddat ichida tovarlarni butlab berishi shart;

bundan buyon tovarlar butlab berilgunga qadar ularning haqini to'lashdan bosh tortishga, agar tovarlarning haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan summalar qaytarilishini talab qilishga haqli;

⁸⁰  LexUZ sharxi

yetishmayotgan qismlar qiymatini qo‘shgan holda, yetkazib beruvchidan but bo‘lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli. Tovarlarini yetkazib beruvchi belgilangan muddatda tovarlarni butlab bermasa, sotib oluvchi (buyurtmachi) but bo‘lmagan tovarlarni qaytarib berishga hamda but bo‘lmagan tovarlarni but tovarlarga almashtirishni talab qilishga haqlidir.

28-modda. Tovarlarini marka belgisiz, shuningdek tovarni idishsiz yoki o‘ralmagan holda yetkazib berganlik uchun javobgarlik.

Marka belgisi qo‘yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o‘ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o‘ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to‘laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo‘natilishi yoki saqlanishi kerak bo‘lgan hollarda sotib oluvchi (buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o‘z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o‘rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o‘rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

29-modda. Akkreditivdan foydalanmaganlik uchun javobgarlik

Tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) talabiga binoan qo‘yilgan akkreditiv u amal qiladigan muddat ichida foydalanilmasa, yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) akkreditivning foydalanilmagan summasining 5 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

30-modda. To‘lov, tovar-transport hujjatlarini yuborishni kechiktirganlik uchun javobgarlik

Jo‘natilgan tovarlarga oid to‘lov yoki tovar-transport hujjatlarining nusxasini belgilangan muddatda yubormaganlik yoki tovarlar jo‘natilganligi to‘g‘risidagi boshqa axborotni taqdim etmaganlik uchun yetkazib beruvchi sotib oluvchiga axborot taqdim etilmagan har bir holat uchun yetkazib berilayotgan tovar qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

31-modda. Tovarlarini tanlab olmaslik yoki uni rad etganlik uchun javobgarlik

Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi. Tovarlarni tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

32-modda. Tovarlarni (ishlar, xizmatlar) haqini to'lamaganlik yoki o'z vaqtida to'lamaganlik uchun javobgarlik

To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) mahsulot yetkazib beruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi. Yetkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

33-modda. Mablag'larni akseptsiz o'chirib tashlaganlik uchun javobgarlik

Hisobvaraqdan mablag'larni asossiz ravishda akseptsiz hisobdan chiqarganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga asossiz ravishda akseptsiz hisobidan chiqarilgan summaning 10 foizi miqdorida jarima to'laydi.

34-modda. Zararni to'lash

Neustoyka (jarima, penya) to'laganligidan qat'i nazar, shartnoma majburiyatlarini buzgan taraf ikkinchi tarafga ana shu zarar oqibatida o'zi yetkazgan zarar qismini ham qoplaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Yetkazilgan zararlarga shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi, mol-mulk yo'qolishi yoki

shikastlanishi munosabati bilan taraf qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlar, shuningdek agar ikkinchi taraf shartnoma majburiyatlarini bajarganida taraf olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlar kiradi.

(34-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 21-dekabrda O'RQ-311-sonli Qonuni tahririda — O'RQHT, 2011-y., 51-son, 542-modda)

Muddatini o'tkazib yuborish yoki shartnoma majburiyatlarini o'zgacha tarzda lozim darajada bajarmaslik hollari uchun belgilangan neustoykani (jarimani, penyani) to'lash hamda shartnoma majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararining o'rmini qoplash, taraflarni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod etmaydi, qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

35-modda. Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun mansabdor shaxsning javobgarligi

Shartnoma majburiyatlari xo'jalik yurituvchi subyekt mansabdor shaxsning aybi bilan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan, uning tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektning pul mablag'lari va boshqa mol-mulki maqsadga nomuvofiq foydalanilganligi aniqlangan, to'lov intizomi buzilgan, xo'jalik yurituvchi subyekt bankrotlikka duchor qilingan yoki shartnoma munosabatlari sohasida boshqa qoidabuzarliklar sodir etilgan taqdirda, xo'jalik yurituvchi subyektning mansabdor shaxsi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 45 va 48-moddalariga muvofiq fuqarolik-huquqiy javobgarlikka, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 175, 176.1, 176.2, 212 va 214-moddalariga muvofiq ma'muriy javobgarlikka, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 175, 181, 186, 205, 207 va 209-moddalariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

GLOSSARIY

Aksiyadorlik jamiyati - ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti

Bank marjasi (ing. margin, fr. marge – farq; afzallik) – turli kategoriyadagi qarz oluvchilar uchun kredit stavkalari o‘rtasidagi farq. Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) – xo‘jalik sudi tomonidan e’tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini to‘la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini to‘la hajmda bajarishga qodir emasligi.

Barter shartnomasi – kelishib olingan miqdordagi bir tovarni boshqa bir tovarga o‘zaro hisob-kitoblarni valyutada amalga oshirmasdan almashtirishni nazarda tutuvchi shartnoma.

Biznes (inglizcha – business) – tavakkalchilik va o‘zining javobgarligi ostida xususiy yoki qarzga olingan vositalari hisobidan amalga oshiriladigan, asosiy maqsadi foyda olish va o‘z faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuskor iqtisodiy faoliyatdir.

Boj olinmaydigan savdo do‘koni – tovarlar bojxona hududining bojxona organlari Bojxona kodeksiga muvofiq belgilaydigan joylarda boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo‘llanilmasdan bojxona nazorati ostida turishi hamda realizatsiya qilinishi.

Bojxona ombori – olib kirilgan tovarlar saqlash davrida import boji, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo‘llanilmasdan bojxona nazorati ostida saqlanishi.

Bojxona hududida qayta ishlash - tovarlar O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga import bojlari, soliqlar to‘lanmagan va iqtisodiy siyosat choralari qo‘llanmagan holda bojxona nazorati ostida qayta ishlash uchun olib kirilishi, keyinchalik qayta ishlash mahsulotlari olib chiqilishi yoki ular o‘zga rejim ostida joylashtirilishi.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash – tovarlar eksport bojlari, soliqlar to‘lanmagan va iqtisodiy siyosat choralari qo‘llanmagan holda qayta ishlash uchun olib chiqilib, keyinchalik qayta ishlash mahsulotlari erkin muomalaga chiqarish rejimida olib kirilishi.

Bozor – bu muayyan tovar yoki xizmatlarning sotuvchilari va xaridorlarini bir joyda birlashtiradigan har qanday institut yoki mexanizm.

Vaqtincha olib kirish (olib chiqish) – bojxona hududida yoki undan tashqarida tovarlardan bojdari, soliqlardan to‘la yoki qisman ozod etilgan holda va tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo‘llanilmasdan foydalanishga yo‘l qo‘yilishi.

Vaqtincha saqlash – olib kirilgan tovarlar va transport vositalari bojxona organiga taqdim etilgan paytdan boshlab chiqarishga ruxsat berilgunga qadar tanlangan rejimga muvofiq bojxona omborida boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo‘llanilmasdan vaqtincha saqlanishi.

Garov reyestri – qarzdorlarning majburiyatlari bajarilishini ta‘minlash vositasi sifatida berib qo‘ygan mol-mulkiga nisbatan kreditorlarning huquqlari to‘g‘risidagi, shuningdek qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga qonunga muvofiq qo‘yilgan cheklov hamda qarzdor o‘z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta‘minlashi bilan bog‘liq boshqa talablar haqidagi yozuvlarni o‘z ichiga olgan ma‘lumotlarning yagona axborot bazasi.

Jamoat birlashmasi - ma‘naviy yoki o‘zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o‘z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasi.

Jamoat fondi - fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo‘shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zlaydigan, a‘zoliq bo‘lmagan nodavlat notijorat tashkiloti.

Import – bojxona hududiga olib kirilgan tovarlar ularni ushbu hududdan olib chiqib ketish majburiyatisiz bu yerda doimiy qolishi.

Ishlab chiqarish kooperativi - fuqarolarning shaxsiy ishtirok etish hamda a‘zolarining (ishtirokchilarning) mulk bilan qo‘shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo‘jalik faoliyatini olib borish uchun a‘zolik negizidagi ixtiyoriy birlashmasi.

Kelishuv bitimi – taraflarning sud nizosini o‘zaro yon berish asosida tugatish to‘g‘risidagi bitimi.

Kredit (lot. creditum – ishonmoq) – boshqa shaxsga muddatlilik, qaytarishlilik va foydalanganlik uchun foiz shaklida to‘lovlilik shartlari asosida vaqtincha beriladigan pul mablag‘lari, tovar va boshqa qimmatliklardir.

Kredit axboroti – kredit bitimining holati, berilgan ta‘minot bo‘yicha (garov, kafolat, kafillik, kreditni to‘lamlaslik xavfini sug‘urtalash va ta‘minotning boshqa turlari bo‘yicha) majburiyatlarning bajarilishi haqidagi ma‘lumotlar, shuningdek kredit axboroti subyektining kredit qobiliyatini, moliyaviy holatini, to‘lov qobiliyatini, to‘lov intizomini va o‘zga sifatlarini aniqlashga ko‘maklashuvchi boshqa axborot.

Kredit liniyasi (revolver) – kredit shartnomasida belgilangan muddat va limit doirasida, so‘ndirilgan kredit qismi qayta o‘zlash-tirilishi mumkin bo‘lgan kredit.

Kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko‘rsatmalar bilan ta‘minlovchi hujjatdir. Tijorat banklari kredit siyosati alohida hujjat sifatida ishlab chiqariladi va bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Kuzatuv – xo‘jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta‘minlash, qarzdorning moliyaviy ahvoli tahlilini o‘tkazish maqsadida qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza qabul qilingan paytdan e‘tiboran keyingi taomilga qadar qo‘llaniladigan bankrotlik taomili.

Qayta moliyalash stavkasi – kredit tashkilotlariga ajratiladigan kreditlar uchun Markaziy bank tomonidan belgilanadigan yillik foiz miqdori.

Qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyat - bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta‘sis etilgan, ustav fondi ta‘sis hujjatlarida belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat.

Likvidli mol-mulk – qarz oluvchining oson sotiladigan mol-mulki, shu jumladan ijtimoiy infratuzilma obyektlari, transport vositalari, kompyuter va boshqa asbob-uskunalar, shuningdek qarzdorning boshqa mol-mulki.

Majburiyatlarni lozim darajada bajarish - majburiyatlarni shartnoma shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo‘lmaganida esa – ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq tarzda bajarish.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat - bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilab qo‘yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat.

Mikrokredit – qarz oluvchiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng kam ish haqining ming baravari miqdoridan oshmaydigan summada to‘lovlilik, muddatlilik va qaytarish shartlari asosida beriladigan pul mablag‘laridir.

Mikrokredit tashkilot – mikrokredit, mikroqarz, mikrolizing berish sohasida xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxs.

Oilaviy korxona - uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyekti.

Reimport – eksport rejimida bojxona hududidan olib chiqilgan O‘zbekiston tovarlari import bojarini, soliqlarni to‘lamasdan, shuningdek ularga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo‘llanilmagan holda belgilangan muddatlarda qayta olib kirilishi.

Reeksport – chet el tovarlari bojxona hududidan olib chiqilishi. Sinditsiyalashtirilgan kreditlash – yirik investitsion loyihalarni bir necha banklar tomonidan birgalikda kreditlash.

Sud boshqaruvchisi – bankrotlik taomillarini o‘tkazish maqsadida xo‘jalik sudi tomonidan tayinlanadigan shaxs.

Sud sanatsiyasi – xo‘jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to‘lov qobiliyatini tiklash hamda kreditorlar oldidagi qarzini uzish maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o‘tkazmagan holda qo‘llaniladigan bankrotlik taomili.

Sudgacha sanatsiya qilish – qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki uning mol-mulki egalari, kreditorlar

va boshqa shaxslar tomonidan qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash hamda bankrotligining oldini olish maqsadida ko'riladigan chora-tadbirlar.

Tadbirkorlik (biznes) huquqi – tadbirkorlik (biznes) subyektlari o'rtasidagi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi va bozor sharoitida davlatning iqtisodiyotga rahbarlik qilish chora-tadbirlarini belgilovchi huquqiy qoidalar yig'indisi.

Tadbirkorlik (biznes) huquqi subyektlari - belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar.

Tadbirkorlik faoliyati - tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik shartnomasi – ikki yoki undan ortiq tadbirkorlik subyektlarining huquq va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilish haqidagi foyda olishni maqsad qilib qo'ygan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq o'zaro kelishuvidir.

Tadbirkorlik shartnomasining predmeti - Bir tarafning ikkinchi taraf foydasiga majburiyatlarni bajarish bo'yicha amalga oshirishi kerak bo'lgan harakatlari natijasi bo'lgan yetkaziladigan mahsulot, bajariladigan ishlar yoki ko'rsatiladigan xizmatlar.

Tadbirkorlik shartnomasining taraflari – shartnomaga imzo qo'yish yoki boshqa tarzda shartnomada yuzasidan huquqlarga ega bo'ladigan va majburiyat(lar)ni zimmasiga oladigan shuningdek, shartnomada nomi taraf sifatida e'tirof etilgan shaxs.

Tashqi boshqaruv – xo'jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to'lov qobiliyatini tiklash maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini tashqi boshqaruvchiga o'tkazgan holda qo'llaniladigan bankrotlik taomili.

Tijoratchi bo'lmagan tashkilot - foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot yuridik shaxs.

Tijoratchi tashkilot - foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan yuridik shaxs.

TIF TN – O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining Tovar nomenklaturasi (2012-y.).

Tranzit – tovarlar O‘zbekiston Respublikasining ikki bojxona organi o‘rtasida, shu jumladan chet davlat hududi orqali, boj, soliqlar undirilmasdan, shuningdek tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo‘llanmasdan bojxona nazorati ostida olib o‘tilishi.

TSOYAEAT – real vaqtda ishlaydigan Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi.

Tugatishga doir ish yuritish – xo‘jalik sudi tomonidan kreditorlarning talablarini mutanosib ravishda qondirish hamda qarzdorni qarzlardan qutulgan deb e‘lon qilish maqsadida bankrot deb topilgan qarzdorga nisbatan qo‘llaniladigan bankrotlik taomili.

Faktoring – yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovchi tomonidan akseptlangan, lekin to‘lov talabnomalari bo‘yicha haqi to‘lanmagan to‘lovni regress huquqisiz yetkazib beruvchi (mijoz) tomonidan bank (moliyaviy agent)ga o‘tkazish.

Fors-major – tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog‘liq bo‘lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chki, bo‘ron, qurg‘oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko‘zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari - ulushlarga (qo‘shilgan hissalariga) yoki muassislarning (ishtirokchilarning) aksiyalariga bo‘lingan ustav fondi (ustav kapitali)ga ega bo‘lgan tijoratchi tashkilotlar.

Xususiy korxonalar - mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot.

Shartnoma shartlari – o‘zaro huquq va majburiyatlarni belgilab olish usuli, qoidalar.

Eksport – tovarlar bojxona hududidan tashqariga ularni ushbu hududga qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqilishi. Glossariy

Erkin bojxona zonasi va erkin ombor – chet el tovarlari muayyan hududlar va joylarda boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo‘llanilmasdan joylashtirilishi va ishlatilishi.

Yuridik shaxs - o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z

nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik - jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirish.

INCOTERMS – Xalqaro savdo palatasi (International Chamber of Commerce) tomonidan tovarlarni xalqaro oldi-sotdi shartnomalari bilan bog‘liq tadbirkorlik amaliyotlarni o‘z ichiga olgan savdo atamalarining birinchi uchta xarflarining qisqartmasini ifodalovchi qoidalar. Inkoterms qoidalari asosan tovarni sotuvchidan sotib oluvchiga yetkazib berishdagi majburiyat, baho va tavakkalchilik shartlarini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi.
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi.
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi.
5. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son
6. O‘zbekiston Respublikasining Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 09.01.2019-y., 03/19/512/2435-son
7. O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son
8. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son
9. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2017-y., 37-son, 978-modda
10. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son
11. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Prezident farmoni 2018-yil 27-iyul, PF-5490-son

12. Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Prezident Farmoni Toshkent sh., 2019-yil 15-mart, PF-5690-son

II Rahbariy adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Oliy Majlis palatalarining ko‘shma majlisidagi nutki. - T.: O‘zbekiston, 2021.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis Palatalarining ko‘shma majlisidagi nutk. - T.: O‘zbekiston, 2016.

3. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor xalk-farovon xayotning do‘stona hamkorlik esa tarakkiyotning kafolatidir” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kabul kilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2018-yil 7-dekabr. - T.: O‘zbekiston, 2018.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi №PF-4947 sonli Farmoni. //Xalk so‘zi. 2017 yi 7-fevral.

5. Sh. M.Mirziyoyev. Tankidiy taxlil, kat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak . Tashkent : O‘zbekiston, 2017-y.,104 b.

III Maxsus adabiyotlar

1.Mualliflar jamoasi. Tadbirkorlik (Biznes) huquqi. Darslik.- Toshkent: TDYUU.-2018.-295-s.

2.Xudaybergenov B.B. Sud sanatsiyasining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari. Monografiya. Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. K.O.Sindarov. – T., TDYUU, 2018.– B.270.

3. Xudaybergenov B.B. To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish. Axborot-tahliliy material. Mas’ul muharrir: yu.f.d., prof. K.O.Sindarov. – T.: TDYUU, 2018. – B.768.

Internet manbalar

[http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz)

[http: // www.gov.uz](http://www.gov.uz)

[http:// www.law.uk.edu](http://www.law.uk.edu)

[http:// www.legislature.ru](http://www.legislature.ru)

[http: // www.norma.uz](http://www.norma.uz)

[http: // www.openinfo.uz](http://www.openinfo.uz)

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu. Biznes huquqi tushunchasi va turlari.....	5
2-mavzu. Biznes huquqiy munosabatlar.....	18
3-mavzu. Biznes faoliyati subyektlari.....	26
4-mavzu. Biznes subyektlarining qayta tashkil etish va tugatish.....	56
5-mavzu. Biznes subyektlarining bankrotligi.....	74
6-mavzu. Korxonalarni davlat tassarrufidan chiqarish va xususiylashtirish.....	91
7-mavzu. Biznes faoliyatining mulkiy asoslari.....	107
8-mavzu. Biznes shartnomalari.....	113
9-mavzu. Tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy tartibga solinishi.....	139
10-mavzu. Biznes subyektlari faoliyatiga soliqlar orqali ta'sir etish.....	149
11-mavzu. Qimmatli qog'ozlar va birjalar faoliyatini huquqiy tartibga solinishi.....	160
12-mavzu. Raqobat va uning huquqiy asoslari.....	182
13-mavzu. Tovar va moliya bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash.....	195
14-mavzu. Biznes faoliyatida yuridik xizmat.....	206
15-mavzu. Tadbirkorlik subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati.....	220
16-mavzu. Xo'jalik nizolari va ularni hal etish tartibi.....	230
17-mavzu. Biznes subyektlarining javobgarligi.....	241
Glossariy.....	252
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	259

BIZNES HUQUQI

O'QUV QO'LLANMA

**Toshkent – «INNOVATSION RIVOJLANISH
NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021**

Muharrir:	S.Alimboyeva
Tex. muharrir:	M.Tursunov
Musavvir:	A.Shushunov
Musahhih:	L.Ibragimov
Kompyuterda sahifalovchi:	M.Zoyirova

**E-mail: nashr2019@inbox.ru Tel: +99899920-90-35
№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2021.**

Bosishga ruxsat etildi 09.09.2021.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasini.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 17,0. Nashriyot bosma tabog'i 16,5.

Tiraji: 50 . Buyurtma № 289

**«INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI»
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent sh, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy.**

